



ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(1) 2022

Jurnal haqida

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-methodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-methodical journal *"Pedagogical akmeology"* are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.ssbuxoriy.uz

Bosh muharrir:

Daminov Mirzohid Islomovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Qo'ldoshev Rustam Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

MUNDARIJA

Mirzohid DAMINOV. Muharrir minbari.....	6
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	7
A'lamjon IBRAGIMOV. Ta'limda kognitiv tadqiqotlar: nazariya, shakllanish va rivojlanish yo'nalishlari	7
Mirsalim MAMARAJABOV. Pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimida raqamli va axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish	10
Surayyo OLLABERGANOVA. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida oliy ta'lim tizimi	13
Gulnoza KURBANOVA. Pedagogik muloqot talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy omili sifatida.....	16
Aziza BABAKELDIYEVA. O'yinlar vositasida bola shaxsini shakllantirish	20
Chori XAYRULLAYEV. Pedagog-shifokorning innovatsion faoliyati va uning tibbiy ta'limni yuksaltirishdagi ahamiyati.....	24
Alijon Khamroev. Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching.	27
Nazokat ANNAYEVA. Ta'lim muassasalarida gender kompetensiyani samarali shakllantirish shartlari	33
Rustam XURRAMOV. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda evristik ta'lim metodidan foydalanish metodikasi.....	36
Nurislom XUDOYBERDIYEV. Maktab o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajriba.....	40
Gulnoza ABDULXAMIDOVA. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati	44
Gulchehra MAVLONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy kompetensiyasi va uni rivojlantirish omillari.....	49
Munavvar SHERALIYEVA. Oilaviy tarbiya uslublari va ota-onalarning munosabatlar ma'naviyati....	53
Marhabo ASHUROVA. Husayn Voiz Koshifiy asarlarida "Suhbatlashish va muomala odoblari" xususida	57
Дилбар ГАФУРОВА. Педагогические идеи Джалалидина Руми	62
Darmonjon MAXMUDOVA. Zamonaviy talaba shaxsining motivatsion sohasini shakllantirish.....	65
Урал АЙТУВГАНОВ. Творческого мышления как категории науки и познавательного процесса личности.....	69
МАКТАBGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	74
Rustambek QO'LDOSHEV. Darslik: mazmun va shakl birligi.....	74
Nargiza QUCHQOROVA. Bo'lajak tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyati tarkibiy qismlari.....	79
Mohinur SAIDOVA. Masofaviy ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil faoliyatini tashkil etish	82
Dilfuza BOBOQULOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga oilada tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	87
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	90
Safo MATCHONOV. Badiiy matn. tahlil va talqin uyg'unligi.....	90
Mehriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA, Nosir MIRJONOV. Tibbiyot tili va tibbiy matnlarning xususiyatlari	94
Ф.Х.ХУДАЙКУЛОВА. Новые образовательные технологии на уроках русского языка и литературы как средство повышения эффективности обучения.....	100
М.А. АХМЕДОВА. Язык и культура как взаимосоставляющие языкового обучения	105
Mahbuba KIYAMOVA, Orasita TOJIYEVA. Ilk maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	108
Saule ISHANOVA. Tinglab tushunish ko'nikmasining o'ziga xos xususiyatlari.....	112
Taxmina MURODOVA. Mutaxassisligi chet tili bo'lmagan otm talabalariga chet tilini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar	116
Taxmina BERDIYOROVA. Frazologik birlikni qisqartirish	119
Nozima ALIMOVA. Ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish - ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.....	123

ANIQ VA TABIIY FANLAR	128
Rasqul IBRAGIMOV, Fayzullo KASIMOV, Mavlyuda QOSIMOVA. Matematik tushunchalar haqida tasavvur hosil qilishda nazariy ma'lumotlarning o'rni	128
Abulqosim PARMANOV. O'quvchilar matematik fikrlashini Pisa topshiriqlari yordamida rivojlantirish va olingan natijani tahlil qilishga o'rgatish haqida	132
Oybek KAYUMOV. Interaktiv intellektual elektron ta'lim resursini yaratish jarayonini modellashtirishning metodik asoslari	137
Olim JO'RAYEV. Ta'lim jarayonida multimediali o'qitish vositalaridan foydalanish tamoyillari	142
Shoxibonu KADIROVA. Ta'lim tizimidagi elektron darsliklarning xususiyatlari va afzalliklari.....	147
Murod XUSENOV, Otabek UMUROV, Sherzod BOLTAYEV. Oliy ta'lim muassasasida axborot xavfsizligini ta'minlash	152
G.A. IXTIYAROVA, Ch.Q.XAYDAROVA, M. Sh.AHADOV. Biopolimerlar mavzusini o'qitishda 3d texnologiyalardan foydalanish afzaliklari.....	155
Эркин БОЗОРОВ, Лола ЗОИРОВА. Проведение урока-лекции на тему: "Радиационное поражение и загрязнение" используя метод "Обратная связь"	160
Лобар ШАРИПОВА. Проблемы химической технологии и экологии	165
Habiba TO'RAYEVA. Talabalarga spirtlar mavzusini klaster usulda olib borish jarayonini o'rganish	168
TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI.....	173
Avazjon SHUKUROV. Chizmachilik darslarida modellashtirish tushunchasi	173
IQTISODIYOT VA TURIZM.....	176
Murod XUSENOV, Otabek UMUROV, Sherzod BOLTAYEV. Biznes jarayonlarini tavsiflash usullari	176
JISMONIY MADANIYAT VA HARBIY TA'LIM.....	179
Zulfizar YUSUPOVA. Umumta'lim maktab o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida psixologik holatlarning namoyon bo'lishi (Boshlangich sinf o'quvchilari misolida)	179
Abdurafik VALIYEV. O'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida ijtimoiy tashkilotlar va oilaning o'rni.....	185
Kamol HAMROYEV. Talabalarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkilashtirishda o'z qobiliyatini tarbiyalash	189

MUHARRIR MINBARI

Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning joriy etilishi ta’lim islohotlarini jadallashtirdi.

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro jurnali o‘z faoliyatini boshlamoqda. Mazkur jurnal o‘z faoliyatini yuritishi ko‘plab mushtariylarimiz va pedagogik jamoamizni quvontirishi shubhasiz. Albatta, shu davr mobaynida jurnal pedagog xodimlarning sevimli nashriga aylanishiga umid qilamiz. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan jurnallar ichida “Pedagogik akmeologiya” jurnalining maqsadi, vazifasi va o‘rni alohida ekanligini ta’kidlash joizdir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng miqyosda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Ayni paytda interfaol ta’lim muhitini yaratish, o‘quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekistonda demokratik ta’lim konsepsiyasini yaratish vazifasiga alohida e’tibor qaratildi.

«Ta’lim O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O‘sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari, unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi. Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi» degan qat’iy xulosaga kelindi. Mana shu g‘oyalar tadrijiy ravishda rivojlantirilib mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajagini ta’minlaydigan muhim omil sifatida ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash sohasini mutlaqo yangi asosda tashkil etishga kirishildi. Ta’limni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish, uning o‘zligini anglashi, boy tarixiy merosni o‘zlashtirishi, o‘zining barcha kuch va imkoniyatlarini mustaqil yurt ravnaqi uchun safarbar etish vazifasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimi har bir pedagogning kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish, uning umumiy, siyosiy va kasbiy tayyorgarligi, malaka oshirishi, aniqrog‘i, pedagogda bilim va ko‘nikmalarni tiklash, ularni to‘ldirish va yangilash kabi pedagogik vazifalarni yechishga ko‘maklashadi. Shu boisdan ham jurnalning amaliy ahamiyati shunga qaratilgan.

Jurnal o‘z ijodiy faoliyatini samarali olib borishga, to‘xtovsiz izlanishga, jurnalning ilmiy saviyasini oshirishga, jurnal ruknlarini kengaytirib tarix, falsafa, matematika, pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyalashuviga xizmat qilishga bel bog‘lagan. Umid qilamizki, albatta, jurnal o‘z maqsadlariga erishadi va bu yo‘lda tahririyat ijodiy jamoasiga tayanadi.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

A'lamjon IBRAGIMOV

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
aibragimov74@mail.ru

TA'LIMDA KOGNITIV TADQIQOTLAR: NAZARIYA, SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Maqolada kognitivlikning fan sifatida vujudga kelishi, ta'lim sohasida kognitiv tadqiqotlarning rivojlanish jarayonlari va unda shakllangan tushunchalarning tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv fan, kognitiv pedagogika, kognitiv ta'lim, kognitiv o'qitish, kognitiv ta'lim texnologiyalari.

В статье рассматривается процесс возникновения когнитивной науки и развитие когнитивных исследований в сфере образования, а также представлен анализ сформированных понятий.

Ключевые слова: когнитивная наука, когнитивная педагогика, когнитивное образование, когнитивное обучение, когнитивные образовательные технологии.

The article analyzes the emergence of cognitive science, the process of development of cognitive research in education and the concepts formed in it.

Key words: cognitive science, cognitive pedagogy, cognitive education, cognitive teaching, cognitive learning technologies.

Kirish. Ta'lim sohasida "kognitiv" tushunchasining qo'llanila boshlaganiga uzoq muddat bo'lmagan bo'lsa ham, uni aks ettiruvchi g'oyalarni ta'limning paydo bo'lish davri bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. Chunki, ta'lim o'zida bilish jarayonlarini ifodalab, bilimlarning uzatilishi va o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Borliqni o'rganish, anglash o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lgani kabi keyingi tadqiqotlar tahlili zamonaviy fan tarmoqlarining o'zaro aloqadorligi mumkin qadar oshib borayotganligini hamda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar borgan sari turli fanlarning birikish nuqtalarida kuzatilayotganligini ko'rsatmoqda. Fan taraqqiyotining ma'lum davrlarida uning tabaqalanishiga ustuvorlik berilgan bo'lsa, XIX asrning o'rtalaridan ularning uyg'unlashuviga e'tibor kuchaydi. Lekin fanlararo aloqadorlikning alohida ilmiy-ijtimoiy hodisa sifatida kognitiv nuqtayi nazardan maqsadli o'rganilishi o'tgan asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu jarayonga yevropalik olimlar L.Apostel, G.Berger, A.Briggs, G.Michaudlarning [8] izlanishlari jiddiy turtki bo'ldi.

Asosiy qism. Kognitiv fan – tirik va sun'iy tizimlar tomonidan bilimlarni egallash, saqlash, qayta hosil qilish va foydalanishni ifodalovchi bilish jarayonlariga doir fanlar yig'indisidir. Hozirgi paytda u insonning bilish va miya faoliyatini tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan fanlarning butun bir tarmog'ini tashkil qiladi [5, 134]. Kognitiv fanga doir tadqiqotlarda bilish bilan bog'liq butun jarayonlar qamrab olingan bo'lib, unda

o'qitishning asosiy omil ekanligi e'tirozga o'rin qoldirmaydi.

Mariya Falikman "Kognitiv fan: asos solinishi va istiqbollari" nomli maqolasida kognitiv fanning vujudga kelish sanasini 1956-yilning 11-sentyabrida Massachusetts texnologiya institutida bo'lib o'tgan axborotlarni qayta ishlashga bag'ishlangan simpozium bilan bog'laydi. Ko'rsatilishicha, taqdim qilingan uchta ma'ruza kognitiv fanni bilishning fanlararo tadqiqot sohasi sifatida uning mazmunini belgilab berdi: amaliyotchi psixolog Jorj Millerning "7±2 sehrli raqami", lingvist Noama Xomskiyning "Til tavsifining uchta modeli", kompyuter modellashtirish bo'yicha mutaxassislar – matematik Allen Nyuell va siyosatshunos Gerbert Saymonlarning "Mashina nazariyasi mantig'i" [7, 3]. Jorj Miller simpozium yakunlari bo'yicha quyidagi fikrni bildiradi: "Simpoziumdan aql-idrokdan ko'ra ko'proq ichki hisga tayangan mustahkam ishonch bilan xulosa qildimki, tajribaviy psixologiya, nazariy lingvistika va bilish jarayonlarini kompyuterli modellashtirish – yanada kattaroq butunning qismlaridir va biz kelajakda ularning umumiy faoliyatida izchil ishlanishi hamda muvofiqlashtirilishini ko'ramiz. ... Men yigirma yil davomida shu sohada harakat qilibman, lekin uning nomlanishi kognitiv fan ekanligini bilmabman" [4, 105].

Kognitiv fan tarmoqlari dastlab olti yo'nalishda (bilishning tajribaviy psixologiyasi, ong falsafasi, neyrofan, kognitiv antropologiya, lingvistika, kompyuter fanlari va sun'iy intellekt) ajratib

8 ko'rsatilgan bo'lsa-da, ilmiy taraqqiyot sohaga oid yangi yo'nalishlarning (jumladan: kognitiv genetika, kognitiv iqtisod, neyroiqtisod, kognitiv estetika, kognitiv poetika va b.) rivojiga zamin yaratdi.

Muhokamalar va natijalar. Mazkur yo'nalishlarning jadallik bilan rivojlanishi hamda pedagogika va ta'lim sohasiga ko'rsatgan ta'siri oqibatida tarmoqda "kognitiv pedagogika", "kognitiv ta'lim", "kognitiv o'qitish", "kognitiv ta'lim texnologiyalari" kabi tushunchalar qo'llanila boshladi. Bular, o'z navbatida, tafakkur, xotira, idrok, tasavvur, diqqat kabi jarayonlarni inobatga olgan holda tadqiqotlarni olib borish, mavjud muammolarning yechimida samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Izlanishlarimiz asosini kognitiv pedagogika va unga tegishli tushunchalar sohasidagi tadqiqotlar tashkil qiladi. Tadqiqotchi S.F.Sergeyevning fikricha, "kognitiv pedagogikada mumtoz pedagogikadagi an'anaviy maktablarga xos bo'lgan inson faoliyatining produktiv tomoni va shaxsiy tavsifini baholashga qaratilgan xulqiy yo'nalganlikdan farqli ravishda insonning bilish tuzilmalari va qurilmalariga alohida e'tibor qaratiladi" [6, 70]. Faylasuf Y.Purgina esa kognitiv pedagogikada inson bilish tizimi sifatida qaralishini e'tirof etadi. Ta'lim oluvchi biror bir vazifani bajarishida nafaqat bevosita jismoniy ko'rinishdagi "tashqi" vositalar (mehnat qurollari, mashinalar, kompyuter axborot tizimlari, internet tarmog'i va b.)dan, shuningdek, axborotlarni ishlash va qayta yaratish (intellekt, kognitiv uslublar, xotira, diqqat va b.) tuzilmasi shaklida taqdim qilingan turli qurilmalardan foydalanadi. Bu har bir insonda individual jamlanma bo'lib, keng miqyosdagi vazifalarni bajarishda har xil samaradorlik bilan ishlatiladi. Kognitiv pedagogika nuqtayi nazaridan o'qitishning faqatgina mazmun jihatini emas, balki uning axborotlarga oid asosini, ta'lim oluvchining o'z maqsadlariga erishishida bilish vositalarini qay tartibda egallashi va qo'llashini baholash ham juda muhimdir. Shunday qilib, kognitivlik ta'lim sohasi konsepsiyasini ifodalaydi hamda insonlarning e'tirof etilish, eslab qolish, tahlil qilish, aks ettirish, atrofdagi hodisalarni tushunish va baholashga doir psixik jarayonlar hamda ular haqidagi ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash kabi kognitiv qobiliyatlarini o'z bilimlarini yuzaga chiqarish orqali izchil rivojlantirishdan kelib chiqadi [5, 136].

Kognitiv ta'limda tizimli tafakkur alohida o'rin egallaydi, chunki zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilayotgan vazifalar, aynan tizimli tafakkurni ta'limning bosh maqsadlaridan biriga aylantirishni taqozo qiladi. Kognitiv ta'lim nimani o'qish (mazmun) muhimligini inkor qilmagan holda qanday o'qish (tafakkur, bilish jarayonlari)ga butun vositalarni jamlashga e'tibor qaratadi. Ta'lim oluvchini bilish tizimi sifatida qarash jarayonda kognitiv fanlar (psixologiya, falsafa, neyrobiologiya, lingvistika, sun'iy intellekt va b.) metodologiyasi, nazariyasi va amaliyotidan o'qitish samaradorligiga erishishda unumli foydalanish mumkinligini

anglatadi. Bunday yondashishda o'qituvchining o'rni ta'lim oluvchining kognitiv qobiliyatlari va bilish vositalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhit yaratuvchisi hamda uni amalga oshiruvchisiga aylanadi.

Ta'limda kognitiv yondashuv – kognitiv psixologiya yo'riqlariga asoslangan va o'qitish jarayonida onglik tamoyiliga tayanish, muayyan o'quv guruhi uchun xos bo'lgan turli xil kognitiv usullarni hisobga olish va shu jarayonda qo'llaniladigan o'quv strategiyalarini to'g'ri tanlashni nazarda tutadi [2, 51]. Kognitiv strategiyalar kognitiv jarayonlarni boshqarish uchun zaruriy ko'nikma bo'lganligi sababli ularni to'g'ri tanlash ta'lim oluvchilarning axborotlarni o'z kognitiv tuzilmalariga mos ravishda qabul qilishlarini inobatga olish asosida ta'lim maqsadlariga erishishda ahamiyat kasb etadi. Kognitiv strategiyalarning [3, 1136] bir necha turlari mavjud: bilimlarni o'zlashtirish strategiyasi, eslab qolish strategiyasi, o'z-o'zini nazorat qilish strategiyasi va b. Demak, kognitiv yondashuv ta'lim oluvchini o'qitish obyektidan jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirishni ifodalaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda "kognitiv o'qitish" tushunchasi ham toboro keng ishlatilayotganligini ta'kidlash o'rinli. Kognitiv o'qitishning maqsadi ta'lim oluvchilarni axborotlarning shiddatli oqimida o'rnini topish, intellektual qobiliyatlarini muttasil rivojlantirib borish, mustaqil ravishda qarorlar chiqarish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, o'quv jarayonida kerakli bilimlarni egallash va ularni qo'llay olishga tayyorlashni ifodalaydi. Kognitiv o'qitish tizimi axborotlarni qabul qilish va o'tkazib yuborishga emas, balki ularni anglash, qayta ishlash, qo'llash, tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantirish hamda aqliy faollikni rivojlantirishga yo'nalgan bo'ladi. Kognitiv o'qitishni amalga oshirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining samarali o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Jarayonda ta'lim oluvchilar qanchalik ko'p kognitiv faoliyatga undalsa (muammoli vaziyatlar, munozaralar, rolli o'yinlar va b.) samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Bu holat esa o'qituvchining o'ziga ham innovatsion faoliyatga va kasbiy rivojlanishga doimiy tayyorlik shartini ajralmas qilib qo'yadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan holatlar o'quv jarayoniga o'qitishning kognitiv texnologiyalarini tatbiq qilish ehtiyojini vujudga keltirdi. M.E.Bershanskiy kognitiv ta'lim texnologiyalarini individual yo'naltirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasi sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, kognitiv ta'lim texnologiyalari ta'lim oluvchining zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yashashga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan kognitiv tasvirlar tizimini shakllantirish orqali tashqi dunyoni tushunishini ta'minlaydi [1]. O'quv jarayonida samarali qo'llanilib kelinayotgan kognitiv ta'lim texnologiyalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, kognitiv vizualizatsiya asosida didaktik obyektlarni

modellashtirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi, axborotlarni mantiqiy-tuzilmaviy tasvirlar asosida taqdim qilish, intellekt-xarita texnologiyasi, TRIZ-pedagogikasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, axborotlarni gipermatn shaklida taqdim etish va b.

Xulosa o'rnida, ta'lim tizimida axborotlarning haddan tashqari ko'pligi sharoitida jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini chuqurroq

o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar, unumdor texnologiyalar, o'qitishning yangi shakl va metodlariga ehtiyojning kuchliligini ta'kidlash mumkin. Kognitiv tadqiqotlar natijalarining amaliyotda qo'llanilishi ta'lim beruvchi va oluvchining kognitiv tuzilmasida shakllangan ayrim unsurlarni ijobiy tomonga o'zgartirish, ichki imkoniyatlarini safarbar qilish va individual rivojlanishida yuqori samara beradi.

Adaboyotlar

1. Бершадский М.Е. Когнитивная образовательная технология. – http://bershadskiy.ru/index/kognitivnaja_obrazovatel'naja_tekhnologija/0-27
2. Блинова Т.Л., Подчиненов И.Е. Когнитивно-информационная парадигма обучения // Педагогическое образование в России. – Москва, 2018. – № 8. – С. 49-54.
3. Горкальцева Е.Н. Когнитивность в современном образовании // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – Самара, 2012. – Т. 14, № 2 (5). – С. 1134-1137.
4. Миллер Дж. Когнитивная революция с исторической точки зрения / Пер. с англ. Я.Киселевой, под. ред. М.Фаликман // Вопросы психологии. – Москва, 2005. – № 6. – С. 104-109.
5. Пургина Е.И. Когнитивная педагогика: теоретические основания, история становления, проблемное поле // Когнитивные исследования в образовании [Электронный ресурс]: сб. науч. ст. / Урал. гос. пед. ун-т.; под науч. ред. С.Л.Фоменко; общ. ред. Н.Е.Поповой. – Екатеринбург, 2019. – С. 134-138.
6. Сергеев С.Ф. Когнитивная педагогика: пользовательские свойства инструментов познания // Образовательные технологии. – Москва, 2012. – № 4. – С. 69-78.
7. Фаликман М. Когнитивная наука: основоположение и перспективы // Логос. – 2014. – №1. – С. 1-18. [Электрон ресурс] – URL: https://logosjournal.ru/upload/iblock/563/Logos_2014_1_1_1_Falikman.pdf
8. Apostel L., Berger G., Briggs A., Michaud G. (Eds). Interdisciplinarity. Problems of teaching and research in universities, Paris, OCDE. – 1972.

Mirsalim MAMARAJABOV
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: mirsalim1972@rambler.ru

PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA RAQAMLI VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Maqolada pedagog kadrlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, axborotni saqlash, uzatish usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi raqamli texnologiyalar va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishning afzalligi, ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonini yangi axborot-metodik ta'minlashning yangi bosqichiga olib chiqishdagi muhim vazifalar, o'rganilayotgan ilmiy fanlarga mos keladigan interfaol o'quv muhitini qo'llash va foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga qo'yiladigan talablar, sifatli o'quv video va audio materiallarini uzatishning yangi imkoniyatlari, kadrlarni tayyorlash uchun yangi muhitga aylanishi haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagog kadr, texnologiyalar, raqamlashtirilgan ta'lim, texnologik jarayonlar.

В статье рассматриваются преимущества развития цифровых технологий и телекоммуникационных систем, которые существенно влияют на формирование знаний и умений педагогов, хранение информации, методы передачи, важные задачи при выводе процесса цифровизации системы образования на новый уровень информатизации и методическое обеспечение, требования к особенностям использования, новые возможности передачи качественных учебных видео- и аудиоматериалов, информация о трансформации в новую среду обучения.

Ключевые слова: образование, педагогический коллектив, технологии, цифровое образование, технологические процессы.

The article discusses the advantages of the development of digital technologies and telecommunication systems, which significantly affect the formation of knowledge and skills of teachers, information storage, transmission methods, important tasks in bringing the process of digitalization of the education system to a new level of informatization and methodological support, requirements for specific use, new opportunities transmission of high-quality educational video and audio materials, information about the transformation into a new learning environment

Key words: education, teaching staff, technologies, digital education, technological processes.

Kirish. Ta'lim insoniyat taraqqiyotining asosidir. XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot har bir shaxsning jadal o'zgarishlar sharoitida rivojlanishi uchun jamiyatning barcha a'zolariga ta'lim berish va tarbiyalash qobiliyatiga bog'liq bo'lgan holda taraqqiyot etib bormoqda. Yangi texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, ular inson faoliyatining barcha sohalariga: zamonaviy sanoat ishlab chiqarishiga, ijtimoiy sohaga, iqtisodiyotga, ta'limga ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi foydalanuvchilar va iste'molchilarga zamonaviy xizmatlar va texnologik yechimlarni taqdim etuvchi mutlaqo yangi innovatsion sharoitlarni shakllantirmoqda. Ushbu texnologiyalarning rivojlanishi ta'limga, xususan, ta'lim dasturlari mazmuni va foydalaniladigan o'quv vositalariga ham ta'sir qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, elektron ta'limning turli formatlarini joriy etish, jumladan, iqtidorli talabalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga taalluqli bo'lib, raqamlashtirilgan ta'lim vositalari raqamli va ta'lim texnologiyalarining, jumladan, elektron va masofaviy texnologiyalarning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda tayyorgarliklarini oshirish lozim. Bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi

faol xarakterga ega bo'lishi kerak. Pedagog kadrlarni raqamlashtirilgan ta'lim sharoitlarida bunday tayyorlashda ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Asosiy qism. Ta'limni raqamlashtirish va masofaviy ta'limning turli shakllarini qo'llash munosabati bilan darsliklar va o'quv materiallarning yangi modellarini nazariy umumlashtirish va amaliyotga tatbiq yetish muammolari keskin ortib bormoqda. Shu bilan birga, asosiy e'tibor talabalarga bilim berishgina bo'lib qolmay, balki talabalarining aqliy tajribasini, dunyoqarashini boyitishga qaratilgan mustaqil bilish va tadqiqot faoliyatiga qaratiladi. Biroq, ko'plab pedagog kadrlar raqamli o'qitish usullariga o'tish talabalarining shaxslararo muloqotini kamayishi, og'zaki va yozma nutq rolining pasayishi, mustaqil ijodiy va insonparvarlik qobiliyatining zaiflashishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi to'g'risida fikrlar bildiradi. Ushbu salbiy oqibatlarini oldini olish uchun ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish yo'li bilan bartaraf yetish mumkin. Zamonaviy pedagog kadrlarni, ularning ma'naviy olamini shakllantirish, talabalarining ijodiy, tanqidiy, insonparvarlik tafakkurini rivojlantirish va ularni barqaror ijod qilishiga zamin yaratish, yuqoridagi salbiy oqibatlar o'qituvchilarni insonparvarlik komponentini o'z ichiga olgan va

zamonaviy uslubiy va elektron ta'minotga ega bo'lgan yangi avlod darsliklari asosida – interfaol darslik muhiti doirasida kasbiy tayyorlash zarurligini belgilaydi.

Ta'limni raqamlashtirish jarayoni zamonaviy jamiyatning o'zgargan ijtimoiy voqeiklariga mos keladigan yangi o'quv qo'llanmalarini yaratishni belgilab berishi ko'rsatilgan. Jadal rivojlanayotgan texnik va texnologik jarayonlar munosabati bilan ta'lim jarayoni infratuzilmasini tubdan o'zgartirish va uning tarkibiy qismlari - ta'lim mazmuni, usullari va vositalarini modernizatsiya qilish zarurati tug'iladi. Ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni, ayniqsa, nazariy jabhada va texnologik ta'minot sohasida jadal rivojlanmoqda. Ammo uslubiy, metodik jihatlarining rivojlanishi hali ham bu jarayondan orqada qolmoqda. Shu munosabat bilan ta'lim jarayonini yangi axborot-metodik ta'minlashning yangi bosqichiga olib chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda quyidagilar aks ettirilgan:

- ta'limni raqamlashtirish muammolari;
- raqamli ta'limni rivojlantirishning dolzarb vazifalari;
- raqamli interaktiv o'quv muhitining tuzilishi;
- o'quv jarayonini metodik ta'minlashni ishlab chiqishda tizimli yondashuvning ahamiyati;
- yangi texnologik sharoitlar bilan bog'liq holda yangi o'quv vositalariga o'tish zarurati;
- fanlarni o'qitish texnologiyalarini instrumental dasturlarga integratsiyalash;
- talabalarning aqliy charchashining oldini olish maqsadida kompyuterda dam olish texnologiyalarini ishlab chiqish;
- raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida innovatsiyalarni rag'batlantirish, shuningdek, aniq interfeysga ega yangi raqamli texnologiyalarni yaratish mexanizmlarini yaratish zarurati;
- o'qituvchilarning innovatsion faoliyati natijalarini jamlash rolini o'ynaydigan fan ta'limining virtual o'quv klasterlarini tashkil etish zarurati.

Raqamlashtirilgan ta'limning asosiy innovatsiyasi o'quv jarayoniga o'rganilayotgan ilmiy fanlarga mos keladigan interfaol o'quv muhitini qo'llashdir. O'quv jarayoniga bu turdagi muhitdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga qo'yiladigan talablar berilgan:

- hozirgi ilmiy va pedagogik yondashuvlar asosida pedagogika fanlarining zamonaviy asoslari asosida loyihalash;
- fanning metodologiyasiga muvofiqligi;
- ochiq kodli platformalarda dasturiy ta'minot komponentini yaratish;
- tarmoqdan transformatsiya qilish imkoniyati mahalliy shakllar;
- o'qituvchilarning o'quv jarayonining dasturiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlarga moslashishi.

Muhokamalar va natijalar. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilar uchun, boshqa soha vakillari singari, ko'nikmalarni rivojlantirish uchun raqamlashtirishdan maksimal

darajada foydalanish birinchi shartdir. Bundan tashqari, o'qituvchilarning mahorati ular o'rganish uchun yangi raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun bir xil darajada muhimdir. Zamonaviy jamiyat, iqtisodiyot va mehnat bozorining barcha talablariga javob beradigan pedagog kadrlar tayyorlashning yangi modellarini yaratishga muntazam ehtiyoj sezilmoqda. Ayrim mamlakatlar ilg'or tajribalarni o'zlashtirayotgan bo'lsa, xalqaro ta'lim makonining ilg'or ishtirokchilari bo'lgan pedagog kadrlarning o'qitish jarayonini yangi maqsad va vazifalarga muvofiq qayta qurish zarurligi masalasini ko'tarmoqda.

Pedagog kadrlarning bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, axborotni saqlash, uzatish usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi raqamli texnologiyalar va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishning yuqori sur'atlari ana shunday muammolardan biridir. Agar ilgari an'anaviy va hamma uchun tushunarli bo'lgan shaxsiy o'sish trayektoriyalari mavjud bo'lsa, shu jumladan ta'lim olishi, bugungi kunda o'qituvchi uchun turli xil universal va kasbiy malakalarga ega bo'lish zarur bo'lib qoldi. Uning hayoti va bunday kompetensiyalarni shartli birikmalarda shakllantirish, ularni egallash vaqti va usullarini aniqlash zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan individual ta'lim berishning an'anaviy ta'limdan ustunligi haqida gapirishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalarni, jumladan, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish ularning umumbashariy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, ulardan foydalanishdagi har qanday siyosiy, etnik, diniy va boshqa cheklolarni olib tashlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish tezligi raqamli texnologiyalarning rivojlanish sur'atlaridan ancha past. Shu bilan birga, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning yaqqol ustunliklari, ularni qo'llash muqarrarligi bilan bir qatorda, kamchiliklari ham borligi muhimdir. Xususan, ular o'zlarining shakllari bilan odamlar o'rtasidagi "jonli muloqot"ni buzadilar. O'quv video va audio materiallar ulushining ortishi o'qish amaliyotining yo'qolishiga olib keladi. Ko'pincha oddiy o'qituvchining murakkab fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish qobiliyati yo'qoladi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishning jahon tendensiyalari akademik jamoatchilik e'tiborini zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligiga tobora ko'proq qaratmoqda va buning uchun bir qancha muhim shartlar mavjud.

Kelajakdagi ta'limning shakllanishi ko'p jihatdan raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari bilan belgilanadi. Yuqori sifatli o'quv video va audio materiallarini uzatishning yangi imkoniyatlari, ta'lim virtual olamlari tez orada pedagog kadrlarni tayyorlash uchun tanish muhitga aylanadi degan taxminni yaratishga imkon beradi.

12

Internet texnologiyalari yanada ommaviy bo'lib bormoqda. Simsiz ulanishning rivojlanishi, smartfonlar va kompyuterlarning unumdorligini oshirish bir vaqtning o'zida ularning geometrik o'lchamlarini pasaytirish, energiya sarfini kamaytirish va ularni energiya bilan ta'minlashni avtomatlashtirish uchun yechimlarni yaratish bilan birga keladi. Smartfonlar va kompyuterlarning funksiyalari asta-sekin shaxsiy narsalarimizga birlashtirilgan turli xil portativ qurilmalar bilan ta'minlanmoqda. Telefonlardan foydalanuvchi o'quv materiallariga ma'lum kirish nuqtalaridan foydalanish zarurati bilan tobora kamroq bog'liq bo'lib bormoqda va har qanday vaqtda va istalgan joyda ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, bugungi kunda ko'plab o'qituvchilar ma'ruzalarida mobil internetdan o'rganilayotgan kurs bo'yicha qo'shimcha ma'lumot oladilar, konferensiyalarda so'zlagan hamkasblarining so'zlarini tekshiradilar va o'quv va ilmiy jarayonlarda ishtirok etish bilan bir qatorda o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar. Mobillik va moslashuvchan ish soatlari allaqachon ko'pchilik uchun standartga aylangan. Bundan tashqari, mobillik Internet-muloqot uchun yangi talablarni oldindan belgilab beradi, unga ko'ra turli xil ta'lim resurslariga tashrif buyurish uchun ish stoli brauzerlari emas, balki mobil ilovalar tobora ko'proq foydalanilmoqda. Boshqacha aytganda, yagona internetdan mobil ilovalar majmui bo'lgan Internetga bosqichma-bosqich o'tish sodir bo'lmoqda.

Internet yanada qulay va zarur bo'lib bormoqda. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo aholisining 65-70 foizi allaqachon Internetga ega. Uning faol kirib borishi bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda sodir bo'lmoqda. Jamiyatning madaniy-ma'rifiy ma'lumotlarga bo'lgan yangi ehtiyojlarining paydo bo'lishi munosabati bilan so'nggi paytlarda internet-kontent mazmunining keskin o'zgarishi tendensiyasi kuzatilmog'da. Bizni o'rab turgan jamiyat faol ravishda raqamlashtirilmoqda. Arxiv va kutubxonalar loyihalarni faol amalga oshirmoqda. to'plangan ilmiy-texnikaviy ishlar va darsliklarni raqamlashtirilib borilmoqda. Atrofimizdagi dunyo haqidagi tobora

ko'proq to'plangan ma'lumotlar doimiy ravishda raqamlashtirilmoqda va internet bu ma'lumotlarni turli xil saqlash joylarida, shu jumladan, bulutli texnologiyalarga asoslangan holda to'plab bormoqda. Ko'pgina kutubxonalar, arxivlar, texnik hujjatlar va muzeylar omborlari yaqin kelajakda raqamlashtirilib boriladi. Qiziqarli jarayon dunyoning raqamli nusxasi yaratiladigan vaqtga o'tayotganga o'xshaydi, foydalanuvchilar dunyoning istalgan nuqtasida o'tmishdagi va hozirgi kundagi har qanday sodir bo'lgan bilimlardan xabardor bo'ladilar. Bunday jarayonlarning boshlanishi, asosan, katta ma'lumotlarni yig'ish texnologiyalarining tarqalishiga va ushbu ma'lumotlarni qayta ishlashini takomillashtirish sun'iy intellektning rivojlanishiga bog'liq.

Biroq zamonaviy raqamli texnologiyalar o'qituvchisini ishlab chiqish va o'qituvchilar tayyorlash tizimiga joriy yetishning aniq afzalliklaridan tashqari, ulardan samarali foydalanish yo'lida bir qator cheklovlar mavjud, ulardan ba'zilari:

Axborotdan potensial foydalanish undan foydalanish imkoniyatini anglatmaydi. Ma'lumotni muvaffaqiyatli qidirish uchun mas'ul bo'lgan neyrofiziologik mexanizmlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, Internetdan bilim olish uchun siz potensial natija qanday bo'lishi kerakligi haqida taxminiy tasavvurga ega bo'lishingiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, siz Internetda topilgan ma'lumotlar bilan to'ldirilishi mumkin bo'lgan kichik bo'shliq bilan asosiy dunyoqarashga ega bo'lishingiz kerak. Agar o'qituvchi bunday dunyoqarashga ega bo'lmasa, unda bu bilim amalda foydasizdir. Internetdagi ortiqcha ma'lumotlar va tayyor yechimlar, shu jumladan, oliy ta'lim o'qituvchilarini ham qaram bo'lishga, boshqa odamlarning materiallarini olish asosida o'qitish metodikasini qo'llab-quvvatlashga majbur qiladi. Katta hajmdagi ma'lumotlar asl ishning natijasi emas, balki boshqa odamlarning materiallariga havolalardir. Bundan tashqari, ko'pincha to'plangan materiallar hatto to'liq o'qilmaydi va ulardan faqat kichik bir parcha ajralib turadi.

Adabiyotlar

1. Родина Т.Е., Богдановский М. С., Политыкин В.О. Тенденции в образовании в условиях цифровизации. -Чувашский государственный педагогический университет, 2020. – С. 293-298.
2. Рожкова А. Ю. Имиджевые риски при переходе на цифровое образование: взгляд получателей образовательных услуг Научный вестник Южного института менеджмента. – 2020. – №1. – С. 70-75.
3. Биленко П.Н., Блинов В. ., Дулинов М. ., Есенина Е., Кондаков А. ., Сергеев И.С. под науч. ред. Блинова В. И.. Дидактическая концепция цифрового профессионального образования и обучения. 2020. –28 с.
4. Герова Н.В. Метхологисал Аппроачес то тхе Форматион оф Дигитал Компетенсе Амонг Студентс оф Педагогисал Университес Интернационал Ссиентифис Сонференсе “Дигитализатион оф едусятион: Хисторй, Трендс анд Проспесте” (ДЕТП 2020) 46-476
5. Данилова Л.Н., Ледовская Т.В., Солийнин Н.Е., Кходйрев А.М. Тхе маин аппроачес то ундерстандинг дигитализатион анд дигитал валуес. Вестник оф Кострома Стате Университй. Серис: Педагогй. Псайчологй. Сосиокинетисс, 2020,вол. 26, № 2, пп. 5–12.

Surayyo OLLABERGANOVA 13

Urganch davlat universiteti
pedagogika nazariyasi va
tarixi (faoliyat turi bo'yicha)
1-bosqich magistri

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI MAMLAKATLARIDA OLIY TA'LIM TIZIMI

Ushbu maqolada MDH davlatlarida ta'lim jarayoni, ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, hozirda qay darajada rivojlanib borayotgani haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: MDH, Ozarbayjon, O'zbekiston, ta'lim, hamkorlik, soha, konferensiya, qonun, bakalavriat, ta'lim muassasa, ilmiy tadqiqot, imkoniyat, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, stipendiya.

В данной статье рассмотрен образовательный процесс в странах СНГ каковы современные этапы развивается.

Ключевые слова: СНГ, Азербайджан, Узбекистан, сотрудничество в сфере образования, конференция, бакалавр, права, учебное заведение, исследование, возможность, образование, стипендия.

In is article, the educational process in the CIS countries what are the current stages of development of the education system is said to be evolving.

Key words: CIS, Azerbaijan, Uzbekistan, education cooperation, conference, law bachelor, educational institution, research, opportunity.

Olmos ishlov berilmay sof bo'lmagani kabi inson ham dard-iztirob chekmay komil bo'la olmaydi (Konfutsiy).

Kirish. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga Gruzija, Turkmaniston, O'zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova kabi mamlakatlar a'zodir. Bitim tuzilgan paytda sobiq ittifoq respublikalarining yakkalanish tendensiyasi ancha bo'lgan. Samarali hamkorlik uchun siyosiy irodadan tashqari ikkita shart zarur edi: Huquqiy baza va Institutlar. Ushbu ikkala shartni bajarish majburiyatlari shartnomada mavjud bo'lgan. Bitimni amalga oshirish maqsadida Ta'lim sohasida hamkorlik kengashi tashkil etildi. Kengash nizomi yuqoridagi bitimning yetishmayotgan qismi hisoblanadi. Kengashning asosiy vazifasi ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. O'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun Kengashga uchta guruhga bo'linadigan bir qator funksiyalar berilgan.

1) ta'lim sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyat;

2) a'zo davlatlarning ta'lim organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

3) ta'lim sohasidagi tadqiqotlar, tajribani umumlashtirish.

Ta'lim sohasida hamkorlik bo'yicha konferensiya faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning ishchi o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi [1].

Asosiy qism. MDH mamlakatlaridagi oliy ta'lim tizimi bugungi kunda Yevropa va AQSH oliy ta'lim tizimiga mos keladi. 2011-yildan boshlab MDHning ko'plab mamlakatlari oliy ta'limning ikki bosqichli tizimiga o'tdi. Bular Bakalavriat va Magistratura. Bakalavriat bosqichi o'qish muddati 3 yildan kam emas. Rossiyada esa o'qish muddati 4 yilga mo'ljallangan bitiruvchilar bakalavriatni tamomlagandan so'ng tugallangan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom oladilar.

Bakalavriat ta'limi umumiy va ixtisoslashtirilgan fanlarni o'rganish, oraliq va yakuniy imtihonlarni topshirish, yozma testishilarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda oddiy stipendiyadan tashqari turli fondler tomonidan joriy qilingn stipendiyalar mavjud [2]. O'zbekiston Respublikasida bir qator ta'lim muassasalarida fanlarni o'rganishda "kredit" tizimi, ball tizimi joriy etilgan. Bu kredit tizimida talaba yil davomida ma'lum belgilangan kredit to'plashi zarur deb belgilangan. Agar talaba yetarlicha kredit to'play olmasa, shu kursni yana o'zlashtiradi. Bunday tizim yevropa mamlakatlari tajribalari asosida joriy etilgan. Bu tizim orqali talabaning o'qish sifati, davomatida ijobiy o'zgarishga erishiladi.

Magistraturadagi ta'lim bakalavr darajasidagi ta'limdan tubdan farq qiladi. Magistraturada o'quv dasturi ko'proq vaqtni ijodiy, tadqiqot va ilmiy

14 ishlar hamda amaliy faoliyat uchun ko'proq vaqt ajratiladi. Magistraturani tamomlaganligi natijasida aspirant davlat yakuniy imtixonlarini topshiradi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Yakuniy testlarni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng diplom beriladi.

MDH davlatlarida yagona ta'lim tizimini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilardir:

1. Ishtirokchi davlatning har bir fuqarosiga qonunda belgilangan yoshga to'lganidan boshlab bepul ta'lim olish imkoniyatini berish.

2. Umumiy ta'lim muassasalariga bo'rish imkoniyati bo'lmagan turli xil kasalliklarga chalingan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarini tashkil etish (umumiy ta'lim muassasalari barcha fuqarolar uchun ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash);

3. Ota-onalarning bolalar uchun asosiy ta'lim olish majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun qonuniy javobgarligi.

Muhokamalar va natijalar. Rossiya davlatida poytaxt universitetlar boshqa universitetlar uchun uslubiy rahbarlik va kadrlar bilan ta'minlash funksiyalarini bajargan. Universitetlar ishlab chiqarish jarayoniga qurilgan. Ushbu guruhda uchta kichik tipdagi universitetlar ajralib turardi [3]. Bular:

1. Ixtisoslashtirilgan universitetlar - Sovet sanoat klasterlarining bir iqsmi (masalan, Qozon aviatsiya instituti).

2. Markaziy ixtisoslashtirilgan universitetlar (Moskva po'lat va qotishmalar instituti).

3. Tarmoq sanoat universitetlari (temir yo'l universitetlari).

4. Fan uchun kadrlar tayyorlaydigan klassik universitetlar va boshqa universitetlar.

Oliy ta'lim rejalashtirilgan boshqarish talabalar o'rinlari taqsimlash va ularni ma'lum bir sanoat tarmoqlari yoki hatto aniq zavodlar ehtiyojiga muvofiq moliyalashtirishga asoslangan bo'lib, bitiruvchilarni ish haqi nazorati bilan ish joylariga joylashtirish bilan ta'minlangan. Universitetlari esa 28 ta vazirlikning yuridistikasi ostida edi. Ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlanmalar, asosan, Fanlar akademiyasi institutlari tarkibida amalga oshirildi va kamdan-kam universitetlar tadqiqot funksiyalarini amalga oshirdi.

Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 10-iyuldagi 3266-1-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni oliy ta'lim bilan ta'minlashni ko'paytirish uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaratdi, ta'lim muassasalariga moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqini berdi. Oliy o'quv yurtlariga byudjetdan tahqari mablag'larni, pullik talabalar orqali jalb qilish huquqi berildi.

Moldova Respublikasi uchun ta'lim milliy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy hayotning asosiy jihatlaridan aholining qoniqish darajasini belgilovchi reytinglarda yuqori o'rinlardan birini egallaydi. Moldova Ta'lim vazirligining siyosati alohida ta'limga muhtoj bolalarni an'anaviy maktablarga integratsiyalashga qaratilgan bo'lsa-da, inklyuziv ta'lim mummosi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari ham, alohida ta'limga muhtoj shaxslar uchun ham yetarli darajada moslashtirilmagan. Ularda o'quv binolari, maxsus ta'lim texnologiyalari va talabalarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari ham mavjud emas.

Ozarbayjon ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi ta'lim va uning sifati to'g'risida xabardorlik darajasini oshirishdir [4]. Ta'limning jamiyatga ta'siri juda katta, murakkab belgilovchidir. Ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim tizimini o'zgartirish, ta'lim muassasalarini mustahkamlash, ta'lim sohasiga rahbarlik qiluvchilarning bilimi, tajribasi va irodasini uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ozarbayjon aholisining bilim bazasi va malakasini oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirish, makro iqtisodiy boshqaruvni to'g'ri yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hisobga olinishi zarur. Barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda ta'lim sohasining muhim rolini hisobga olib, Ozarbayjon 1999-yilda Ta'limni isloh qilish dasturini tasdiqladi [4].

Ozarbayjon ta'lim tizimini ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan investitsiyalar, shuningdek texnologik innovatsiyalardan foydalanish asosida shakllantirish natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda biz ancha ortda qolayotganiga guvoh bo'lamiz. Mamlakatda ta'limni isloh qilish dasturining asosi bo'lgan yangi milliy o'quv dasturini joriy etish boshlandi. Ta'limning jamiyatga ta'siri katta, murakkab va belgilovchidir. Ozarbayjon Prezidentining 2011-yil 29-noyabrdagi "Ozarbayjon-2020 taraqqiyot konsepsiyasini tayyorlash to'g'risid: kelajakka nazar" Qarorida respublikani innovatsion iqtisodiyot orqali rivojlantirish ko'zda tutilgan. Ozarbayjon oliy ta'lim tizimi tub islohotlarga muhtoj. Islohotlar rejasi Ozarbayjon Respublikasining 2008-2012-yillarga mo'ljallangan oliy ta'lim tizimini isloh qilish Davlat dasturida o'z aksini topgan. Ta'kidlash joizki, Ozarbayjonda oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish darajasi pastligicha qolmoqda.

Shunday qilib, badavlat qatlamdan bo'lgan aholining qabul darajasi, umuman olganda, quyi qatlamdan bo'lgan Ozarbayjonning oliy o'quv

yurtlariga qabul qilish darajasidan ikki baravar yuqori. Globallashib borayotgan dunyoda yoshlardan tortib keksalargacha butun Ozarbayjon aholisining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim tizimida shoshilinch islohotlarni amalga oshirish zarur. Globallashuv bilim va axborot olamida ta'limni fansiz, ayniqsa, uning fundamental qismisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ozarbayjon ham kelajakda talabalarni xorijiy universitetlar va xususiy ta'lim kompaniyalariga talabalarni jalb etish masalasini ko'rib chiqishi kerak.

Qirg'iziston Respublikasida mustaqillikdan keyin ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. 2003-yilning yanvar oyida Qirg'iziston Respublikasining ilmiy va ta'lim muassasalariga kirishni ta'minlashga qaratilgan "Virtual ipak yo'li" xalqaro loyihasini amalga oshirish boshlandi. "Qirg'iziston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" 2002-yil 10-martda tasdiqlangan kadrlar salohiyatini rivojlantirish va kadrlar tayyorlashga bag'ishlangan bo'limda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadbirlar ko'zda tutilgan:

1. Axborotlashtirish ta'lim va bilimlarni boshqarish, kompyuter savodxonligining universal minimal darajasini ta'minlash, barcha darajadagi ta'lim muassasalarida informatika fanini o'qitishning ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitishning kompyuterlashtirilgan texnologiyalarini joriy etish.

2. AKT sohasining kadrlar salohiyatini, kadrlar salohiyatini rivojlantirish ko'p bosqichli kasbiy ta'limni rivojlantirish, axborot mahsulotlari va elektron sanoatini rivojlantirish.

3. Kattalar ta'limida AKTdan foydalanish, AKTga asoslangan masofaviy ta'lim tizimlarini, elektron darsliklar va kompyuter ta'lim tizimlarini yaratish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash.

Ta'lim va fan vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Qirg'izistonda 50 dan ortiq oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 243 ming talaba tahsil oladi. Oliy ta'lim tizimi 51 ta, ulardan 33tasi davlat va 18 tasi xususiy. Deyarli barcha universitetlar internetga

jumladan, "ANKET" ilmiy va ta'lim kompyuter tarmog'iga ulangan. Qirg'izistonda "Masofaviy ta'lim tarmog'i" loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, uning maqsadi Qirg'izistonning chekka hududlarida masofaviy ta'limni joriy etishdan iborat. Institut va uning filiallarida kunduzgi va sirtqi bo'limlarida talabalarni masofaviy texnologiyalar bilan tayyorlash boshlandi.

Armaniston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi 2010-yil fevral oyida "Oliy va oliy o'quv yurtidan keying ta'limda masofaviy ta'limni qo'llash to'g'isida"gi Nizomni tasdiqladi. Arman universiteti sifatli ta'limni kafolatlaydi va eng yangi usul va materiallardan foydalanadi. Mamlakatning yetakchi universitetlarida ta'limning asosiy vositasi internet resurslaridan foydalanishni sinfda o'qitish elementlari, ularning tashkiliy-texnik yechimlari, o'quv materiallari, o'quv uslubiy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirishga asoslangan aralash modelga aylanib bormoqda. O'quv-uslubiy majmualar talabalarning mustaqil ta'limini ta'minlaydigan tarkibiy qismlardan - ma'ruzalar matnlari, topshiriqlar, lug'atlar o'quv materiallarni sharhlaydigan kompyuter taqdimotlaridan tuziladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, MDH davlatlarida, ya'ni O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi yuqori darajalarga erishmoqda, ya'ni dunyoda yetakchi universitetlar qatoridan joy olmoqda. Bir qator davlatlarda, shuningdek, Moldova davlatida oliy ta'limni xalqarolashtirishga katta e'tibor qaratish zarurdir. Moldova davlatida ta'lim tizimi juda past ko'rsatkichda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Rossiyada esa oliy o'quv yurtlariga byudjetdan tashqari pullik qabul qilish imkoniyati va shunga o'xshash bir qancha afzalliklar berildi. Qirg'iziston Respublikasida esa mustaqillikdan keyin ta'lim tizimida bir qancha jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Buning yaqqol dalili sifatida "Virtual ipak yo'li" xalqaro loyihasidir. Rossiya davlatida poytaxt universitetlar boshqa universitetlar uchun uslubiy rahbarlik va kadrlar bilan ta'minlash funksiyalarini bajargan.

Adabiyotlar

1. Sidirovich A.V. Yagona ta'lim makonini shakllantirishda klassik universitetlarning roli to'g'risida qo'llanma. -2012-yil.
2. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. -T., 2015.
3. Frumin I.D., Kurminov Y.I. Milliy tadqiqot universiteti oliy iqtisodiyot maktabi. -Moskva, 2019.
4. Isaxanali H. Ozarbayjon Respublikasining Oliy ta'lim tizimin isloh qilish davlat dasturi. -Xazar universiteti nashriyoti, 2008.
5. YUNESKO-2011.
6. Jariqboev K.B., Kaliyev S.K. Qozog'iston pedagogik fikrlar antologiyasi. -Rauan, 2007.

Gulnoz KURBANOVABuxoro davlat tibbiyot instituti
pedagogika, psixologiya va
tillar kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari doktori (DSc)**PEDAGOGIK MULOQOT TALABALAR KASBIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA**

Maqola ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar kasbiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik muloqotning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, muloqotning kasbiy yetuklikka erishish jarayonidagi tarbiyalovchi imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, kasb, muloqot, bo'lajak o'qituvchi, rivojlanish, tarbiya, xususiyat, mezon, natija.

Статья посвящена изучению значения педагогического общения в развитии профессионального мышления будущих специалистов в образовательном процессе. В статье также представлены воспитательные возможности педагогического общения в процессе достижения профессиональной зрелости специалиста.

Ключевые слова: мышление, профессия, общение, будущий учитель, развитие, воспитание, характер, критерии, результат.

The article is devoted to the study of the importance of pedagogical communication in the development of professional thinking of future specialists in the educational process. The article also provides educational opportunities for pedagogical communication in the process of achieving the professional maturity of a specialist.

Key words: thinking, profession, communication, future teacher, development, education, character, criteria, result.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda qabul qilinishi mo'ljallangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va ushbu qonun asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarda kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagogik kadrlarda kasbiy tafakkurni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi.

Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlarini, xislatlarini, qobiliyatlari ish uslublari mahoratga erishishning yo'llari, shaxslararo muloqot maromlari yuzasidan har xil davrlarda bir muncha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muloqot – muloqot subyektlarining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi, rivojlantiriladi. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqotning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining

shaxsiy sifatlarini bilan belgilanishini aytib o'tish kerak. Pedagogik muloqotning to'g'ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta'sir ko'rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo'lib qoladi, auditoriya bilan muloqotda bo'lish jarayonining o'zi soddalashadi, u pedagogning o'zi uchun yoqimli, uzviy bo'lib qoladi;

ikkinchidan, talabalar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish jarayoni ancha yengillashadi;

uchinchidan, pedagogik muloqotning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga, bularning hammasi muloqotning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiy negizida ro'y beradi.

Asosiy qism. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish, ularni istiqboldagi pedagogik faoliyatga tayyorlash, o'qituvchilarda innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish, ulardagi kasbiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari ko'pgina ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan.

Jumladan, N.N.Azizxodjayeva, H.Abdukarimov, R.Djurayev, B.Djurayeva, X.Ibragimov,

R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, U.Nishonaliyev, B.Raximov, N.Sayidahmedov, O.Tolipov, Sh.Sharipov, S.Turg'unov, N.Shodiyev, N.Erkaboyeva, D.Yunusova, J.G'.Yo'ldoshev, O.Haydarova tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, shart-sharoitlari, pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari, B.R.Adizov, R.Sh.Aholidinov, Sh.Barotov, M.G.Davletshin, Sh.Q.Mardonov, U.Q.Musayev, R.G.Safarova, N.Safoyev, E.Seytxalilov, G'.Shoumarov, J.G'.Yo'ldoshev, Sh.Qurbonov, E.G'oziyev ishlarida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining pedagogik-psixologik muammolari, A.Abdugodirov, U.Begimqulov, N.Taylakov, F.Zokirovalarning tadqiqot ishlarida pedagogik jarayonga innovatsion texnologik yondashuv hamda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik hamda axborot texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

MDH olimlaridan A.V. Brushlinskiy, V.A.Polikarpov [3], G.A.Bordovskiy, V.I.Gorovaya, A.V.Gutorova, I.F.Isayev, M.M.Kashapov [4], A.A.Kirsanov, M.V.Klarin, A.V.Korjuyev, D.G.Levites, V.M.Monaxov, N.D.Nikandrov, A.M.Novikov, L.S.Podimova, A.M.Stolyarenko bo'lajak pedagog-mutaxassislarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalashtirishning mazmuniy-protsessual hamda texnologik jihatlari o'rganilganlar. Ta'lim jarayonini loyihalash va bo'lajak mutaxassislarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash masalalari Y.S.Zair-Bek, I.A.Kolesnikova V.M.Monaxovlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Ko'pgina olimlar (V.S.Ilina, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya, L.A.Regush, V.A.Slastyonin, O.Roziqov, B.R.Adizov va boshq.) fikricha zamonaviy oliy ta'limning salbiy tomonlaridan biri unda ijodiy hamda kasbiy tafakkur o'rniga verbal-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etiladi.

O'qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantirish muammosi amaliy tafakkurni tadqiq etish doirasida amalga oshiriladi.

Muammo bo'yicha dastlabki tadqiqotlar Y.N.Torndayk, V.Keller, K.Byuler, K.Kofka, N.A.Ruger, M.Y.Basov, S.L.Rubinshteyn tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Namlari keltirilgan olimlar kasbiy tafakkurni namoyon bo'lishini amaliy faoliyat nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lsalar, S.L.Rubinshteyn birinchilardan bo'lib kasbiy tafakkurning: sinchkovlik asosida kuzatuvchanlik, ma'lum muammoli vaziyatlarda o'ziga xos va yagona qaror qabul qila olish, qisqa vaqtda tafakkur

qilishdan amaliy faoliyatga o'tish kabi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi.

O'z navbatida amaliy tafakkur muammosi tadqiqotchilar tomonidan yaqin vaqtlardan boshlabgina o'rgana boshlandi. G'arb psixologiyasida amaliy faoliyatga yo'naltirilgan tafakkur: elementar, noijodiy hisoblanib, nazariy tafakkurga nisbatan ikkilamchi shakl sifatida qarab kelingan. Shu nuqtayi nazardan turli kasblarda tafakkurning murakkab shakllari hamda ko'rgazmali-faoliyatli komponentlari namoyon bo'lishi mumkin emas deb hisoblangan.

Amaliy tafakkur muammosi rus olimlari F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina hamda B.M.Teplov tadqiqotlarida bir muncha o'z yechimini topdi. Chunonchi B.M.Teplov amaliy tafakkur, yaxlit tafakkur mexanizmlari (analiz, sintez, taqqoslash, tizimlashtirish, abstraksiya va aniqlashtirish)ning birligi asosida namoyon bo'ladi hamda u tafakkur faoliyatining alohida shakli hisoblanib, uning o'ziga xosligi amaliy faoliyatda inson tomonidan u yoki bu vazifalarni yechimini topishga qaratiladi deb hisoblaydi. "Inson intellekti va tafakkur mexanizmlari yagona, ammo tafakkur shakllari har xil, chunki u yoki bu holatda inson aqli tomonidan yechimini topishi kerak bo'lgan vazifalar har xildir" [5].

Xorijlik olimlar B. Myunsterberg, D. Xolland [6], D. Syuper [7]lar shaxsning kasbiy jihatdan yuqori darajada yetuklikka erishish muammolarini o'rganilgan bo'lsalar, shaxsning kasbiy martabaga ega bo'lish jarayoni va uning pedagogik-psixologik jihatlari A.Maslou [8], L.Zondi [9], A.Bandura [10], Dj.Rotter [11] (AQSh) tadqiq etganlar.

Talabalarda muloqotlarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalar muloqoti individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va ularni talabalarining anglab yetishi. Talabalarining mustaqil tahlil qilishi, o'zaro har tomonlama tavsifnomalari, o'qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. Talabalar shu maqsadda "Men boshqa kishilar bilan muloqotda qandayman?" mavzuida esse yozadilar, bir-birlariga shunga o'xshash mazmunda tavsifnoma tayyorlaydilar va hokazo.

2. Shaxsiy muloqotdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muloqot uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

3. Pedagog uchun muloqotning hissiy jihatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Muloqotda o'z individual uslubini asosida pedagogik muloqot tarkibiy qismlarini egallash (maxsus mashg'ulotlarda) sohasidagi ishlar.

18

5. O'z muloqot uslubiga muvofiq ravishda pedagogik muloqotdan iborat yaxlit hodisani bilib olish borasidagi ishlar va muloqot uslubiga aniqliklar kiritish (maxsus mashg'ulotlarda).

6. Haqiqiy pedagogik faoliyat individual uslub asosida talabalar bilan muloqot qilish, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonida).

Tibbiyot kollejarida ishni endi boshlayotgan o'qituvchilar individual muloqot uslubini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Muhokamalar va natijalar. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqotning jihatlari muhim rol o'ynaydi, ular pedagog bilan talabalarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liqdir. Bu o'rinda bir necha bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardorligidir, bu jarayon o'ziga pedagogning xotirasida guruh bilan muloqotning oldingi xususiyatlarini tiklashni, muloqot vaziyatini qayd etishni, uni o'zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chiqishni, o'z muloqot uslubiga aniqlik kiritishni qamrab oladi. Shuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so'z, ohang, hulq-atvor vujudga kelishi lozim.

Ikkinchi bosqich: pedagogik muloqotning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Talabalar bilan o'zaro harakatning boshlanishi o'zaro fikr almashishga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muloqot obyektining diqqatini o'ziga jalb qilish bilan bog'liqdir. Muloqot obyektining, ya'ni talabaning diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi bo'lajak o'zaro harakatga, ta'limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olish, darsni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan talabalar diqqatini jalb qilishdir. Ko'pincha yosh pedagoglar, talabalar har doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muloqot bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muloqotning ahamiyati bilan bog'liq ravishda pedagogik muloqot madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dilkashlik unda kasbiy tafakkur sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muloqot qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalar bilan turli sohalarida muntazam muloqot qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muloqotning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Bo'lajak tibbiyot muassasalari o'qituvchilari quyidagi xususiyatlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim va bu xususiyatlar ular kasbiy tafakkurining asosiy mezonlarini belgilaydi:

- Yangi O'zbekistonimizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiyluk tuyg'ulari shakllanganligi, jamoaviylik hissini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

- bolalarga, o'quvchilarga, hattoki jamiyatimizning barcha a'zolariga ham otash, ham samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;

- jamiyat hodisalari, holatlari, tabiat va voqeliklari, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlariga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya'ni perseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatga egaligi;

- hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlari xususiyatlarini oqilona tushunish ularni identifikatsiyaga, refleksiya yo'llashga qobilligi;

- favqulotdagi vaziyatlarda, o'zgaruvchan shart-sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish, maqsad qo'yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyatligi;

- pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

- umumiy qiziqishi ko'lamining kengligi, bilishga oid qiziqishlarning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatligi, muayyan salohiyat, mahorat darajalariga erishganligi;

- muloqot maromi, nutq madaniyati, mantiqan ixcham, ma'nosi kuchli, ta'sirchan fikr uzatish, ta'sir o'tkazish uquvi bilan qurollanganligi;

Fikrimizcha, zamonaviy o'qituvchi muloqot davomida to'g'ri, omilkor axborot uzatishi va unga suhbatdoshini ishonтира bilishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o'zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi dasturini tavsiya etishimiz mumkin.

1. Kasbkor jihatidan o'z-o'zini anglashni (muloqotda o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashning dasturini ishlab chiqish. Bu o'rinda o'z shaxsiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish, tajribani tahlil qilish, talabalar bilan maqsadga muvofiqdir, kishilar bilan bo'lgan muloqotda olingan sezgilar tajribasini tahlil qilish, kishilar bilan bo'lgan muloqotda oldingi muloqotning hozirgi darajasini tahlil qilish, muloqot haqida o'zining ideal tasavvurlarini tahlil qilish, sizning muloqotdagi imkoniyatlaringizni

boshqalar (talabalar, o'qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni tahlil qilish.

2. O'zida dilkashlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlash.

3. Talabalar va kishilar bilan xilma-xil jamoat ishlari olib borish, bunda o'zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma'ruzalar, suhbatlar) hosil bo'ladi.

4. Muloqotda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va dilkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

Taklif etilgan bu tizimga tayanib ish ko'rish pedagogning kasbkorga oid shaxsiy fazilati bo'lgan dilkashlikni shakllantirishni tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda kasbiy tafakkur o'z navbatida muloqot madaniyatiga tayangan holda bo'lajak o'qituvchining dunyoqarashini, uning kasbini sevishi orqali yetuklik darajasiga intilishini, o'z borlig'ini his etishi, Vatan, jamiyat manfaatlari, rivoji uchun keraklilik hissini anglashini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: Учебное пособие для вузов. – М.: “Академия”, 2002.
2. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: “O'qituvchi”, 1997. 6-bet.
3. Мышление и общение (2-е доработанное издание). - Самара: Самар. Дом печати, 1999. - 128 с.
4. Кашапов М.М. Психология профессионального педагогического мышления. Дисс.на соис.док.псих.наук. –Ярославль, 2000.
5. Теплов, Б.М. Практическое мышление// Психология мышления: хрестоматия /– Издание 2-е, переработанное и дополненное. – Москва: “Астрель”, 2008. – С.224.
6. John H. Holland Redwood City. -California: “Addison-Wesley”, 1998.
7. Work leisure and career development needs and programs of the future // D. T. Hall (ed.), Career Development in Organization. Jossey-Bass, 1985.
8. Самоактуализация // Психология личности: Тексты. – М., 1982. – С.108-118.
9. Пароксизмальный круг профессий // ПЕРСОНАЛ-PROFY: журнал. -Екатеринбург, 2000. - №2. -Часть 1. -С. 18.
10. Bandura, A. (Ed.). *Self-efficacy in changing societies*. New York: Cambridge University Press, 1995.
11. Теория межличностных отношений и когнитивные теории личности. Издательство: Прайм-Еврознак, 2007г.
12. Kurbanova G.N. Pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirish// Monografiya. –B.: “Durdona”, 2021.
13. Kurbanova G.N. Pedagogical and psychological bases on developing students' professional thinking in medical pedagogical education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. 3059-3067.
14. Kurbanova G.N. The role of ancestral heritage in the development of professional thinking of future professionals International Scientific Journal.
15. Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 01 Volume: 81 Published: 30.01.2020 <http://T-Science.org> . SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863.
16. Курбанова Г.Н. Развитие профессионального и оперативного мышления будущих специалистов в образовательном процессе. Neurodynamics журнал клинической психологии и психиатрии// Т.2 №1.2020, 50-56. ISSN 2658-7955 Адрес: <https://smu.psychiatr.ru/neurodynamics>

O'YINLAR VOSITASIDA BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi-pedagoglarning ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rini ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: *o'yin, texnologiya, rivojlanish, faoliyat, harakat, shaxs, ruhiyat, ehtiyoj, faollik, jism, ko'nikma, malaka, bilim, padagog, tarbiyachi, tasavvur, tajriba, sifat, o'sish, sub'ekt, obyekt, xulq, munosabat, mavjudot.*

Игра - основное занятие дошкольников, благодаря которому ребенок формируется как личность. Игра не только улучшает познавательные способности, но и положительно влияет на поведение ребенка. В статье подчеркивается важная роль педагогов в воспитательной работе, в интеллектуальном, нравственном, трудовом и эстетическом воспитании детей.

Ключевые слова: *игра, технология, развитие, активность, движение, личность, психика, потребность, активность, тело, способность, умение, знания, педагог, педагог, воображение, опыт, качество, рост, субъект, объект, поведение, отношение, бытие.*

Play is the main activity of preschool children, which forms the child as an individual. Play not only improves cognition, but also has a positive effect on a child's behavior. This article highlights the important role of educators in the educational work, in the intellectual, moral, labor and aesthetic upbringing of children.

Key words: *game, technology, development, activity, movement, personality, psyche, need, activity, body, ability, skill, knowledge, pedagogue, educator, imagination, experience, quality, growth, subject, object, behavior, attitude, being.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 1-ilovaga muvofiq asosan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu dasturning asosiy maqsadlaridan biri ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish hamda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirishdan iboratdir.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Shuning uchun o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, ma'naviy, axloqiy rivojlantirish usuli hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar turmush tajribasiga ega bo'lmaganligi tufayli kattalarning turmush tarziga taqlid qilish va kuzatish orqali o'zlashtirib oladilar hamda o'zlarining taassurotlarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar. Jumladan, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin faoliyati rlli o'yinlarni tashkil etadi. Rolli o'yinlar negizida ya'ni

o'yin jarayonida ularning xarakteri, bilish jarayonlari, tasavvur olami bilan birgalikda ijodkorlik qobiliyatlari ham rivojlanadi. Ko'plab olimlar va psixologlar o'yin orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi borasida ko'plab nazariyalarni ishlab chiqqanlar. Jumladan, bog'cha yoshidagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bog'liq psixologik muammoni o'ngangan Z.V.Manuylekning fikricha, "biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil bog'cha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktab yoshidagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida oldindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin [2].

Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi", deya ta'kidlab o'tgan. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ko'rinishidagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi. Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy

e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tarakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi" deya o'z fikrlarida yaqqol aks ettirilgan [2].

Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topgan. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.

O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o'rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o'yinlari o'zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o'yin mazmunida aks etgan jihatga o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola – o'sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir. Harakat – uning to'la-to'kis o'sib-ulg'ayishining shartlaridan biri. Faol harakatlarga ehtiyoj o'yinning barcha turlari, ayniqsa, harakatli va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar orqali to'liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o'yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega [2].

O'yin - kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan ko'chirish, taqlid qilish asosida o'zlashtirish shakli. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin subyekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari - mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, o'rta ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining

muhim asoslaridan biri bo'lib, o'yinning bolalar faoliyatidagi o'rni katta bo'lib kelmoqda [4].

MTTning ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogni to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo'ylik, o'zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatni shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi - pedagog bolalarning o'yiniga raxbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohish-istaklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadi [4].

Muhokamalar va natijalar. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiya qilish vositasidir. Tarbiyachi-pedagoglar tomonidan tashkil etilayotgan o'yin mashg'ulotlari orqali tarbiya jarayonlari olib boriladi. Qoidali o'yin jarayonlarida bolalarda irodaviy sifatlar, jamoa bilan ishlash hamda kommunikativ muloqot ko'nikmalari shakllantiriladi. Bolalar yoshi ulg'ayib borishi bilan o'yin turlarini, undagi rollarni ham o'zlari tanlay boshlaydilar. Rus psixologi A.Usova tadqiqotlarida ham bolalarning o'yin faoliyatlarida bolalarning yosh xususiyatlarini ham inobatga olgan.

Uch yoshda bolaning o'yinlari yangicha tus oladi. Bola o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydi. Uch yoshning oxiriga kelib, bola rol tanlay boshlaydi. ("Men oyisiman", "Men shifokorman" tarzida). Bolalar to'rt yoshga yetganda, syujetli rollar ancha rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, bog'cha, avtobusdagi voqealarni aks ettiradi. Bola besh yoshga qadam qo'yganda, undagi kuzatuvchanlik yanada ortadi, tafakkuri rivojlanib, bilish doirasi kengayadi. Shu sababli o'yin mazmuni murakkablashib boradi. Hayolning rivojlanishi orqali ertak va hikoya mazmuni bo'yicha o'yinlar o'ynaydi. Katta bog'cha yoshida ijodiy o'yinlar juda yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitob va boshqa manbalardan olgan bilim, malaka, his-hayajonlarini to'liq qo'llay boshlaydilar. Uzoq muddat davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichidir. Katta guruh yoshidagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilinsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga keladi. Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar. O'yin

22 jarayonida ular ba'zi bir narsalarni xohlaganicha nomlab, faraz qilib o'ynaydilar. Masalan, qumni shakar, stulni mashina, danaklarni konfet o'rnida qabul qiladilar. Aks ettiruvchi vosita qancha ko'p bo'lsa, o'yin mazmuni shunchalik boyib boradi [1].

O'yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, bolalar o'yinlariga har tomonlama to'g'ri rahbarlik qilish orqali ularga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi bolalar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar, o'yinlarning rivojlanib, takomillashib borishiga ta'sirini ko'rish mumkin. Bolalar o'yinlarining yana bir turkumi qoidali o'yinlardir. Bunga quyidagilar kiradi: didaktik, harakatli, musiqaviy, ermak o'yinlar.

Qoidali o'yinlar barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar kichikintoylarda mas'uliyatli bo'lishni tarbiyalaydi. Bola jamoada hamjihat ishlash, atrof-dagilar bilan murosada bo'lishga o'rganib boradi. Har bir qoidali o'yinlar o'z g'oyasi va mazmuniga egadir. O'yin davomida qoidalarning to'g'ri bajarilishi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "o'yin qoidasi buzildi", degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o'yin vaqtida o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganib boradi. Albatta, har bir o'yin so'ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo'yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e'tibor qaratilishi kerak. O'yin so'ngida qatnashchilarni rag'batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash – kelgusi o'yinlarning samarali o'tishini ta'minlaydi [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin faoliyatidir. Didaktik o'yin - bu batafsil, murakkab, pedagogik hodisa: bu maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning o'yin usuli va bolalarni o'qitish shakli va mustaqil o'yin faoliyati bolani har tomonlama tarbiyalash vositasi. Didaktik o'yinlar - kognitiv va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi: yangi bilimlarni olish, ularni umumlashtirish va mustahkamlash, obyektlar va tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish; xotira, e'tibor, kuzatishni rivojlantirish; o'z mulohazalarini ifoda etish, xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. O'yin jarayonida bolalar tabiat obyektlari va uning mavsumiy o'zgarishlari haqidagi tasavvurlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Didaktik o'yinlar - sayohat bolalarning kognitiv faolligini oshirishning samarali usullaridan biridir. Eksperimental faoliyatda didaktik o'yin - bolalarning atrof-muhitga kognitiv qiziqishini shakllantirishga yordam beradi, asosiy aqliy jarayonlarni, kuzatishni, fikrlashni rivojlantiradi. Ota-onalar va o'qituvchilarning birgalikdagi

faoliyati - ota-onalarning individual maslahatlari, ma'lumot stendlari, papkalar, taklif qilingan material bilan tematik ko'rgazmalar - bolalar bilan ishlashda yanada samarali natija beradi. Bolalarning atrof-dagi dunyo haqidagi bilimlarini rivojlantirish, ularni tizimlashtirish, tabiatga insoniy munosabatni tarbiyalashda uchun didaktik o'yinlardan foydalaniladi [5].

Didaktik o'yinlar, odatda, norasmiy, qiziqarli tarzda tashkil etilgan o'quv jarayonini anglatadi. Bunday sinflar klassik ma'nodagi o'yinlardan o'rganishga qaratilganligi bilan va darslardan o'yin muhitini yaratish, o'quv jarayonlarini norasmiy shaklda kiyintirish bilan farqlanadi. Shunday qilib, aqliy rivojlanish uchun bolalarga dunyo haqidagi bilimlarni o'rgatadigan, ushbu bilimlarni tizimlashtiradigan va kengaytiradigan o'yinlardan foydalaniladi. Kichik yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan, hissiy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim va ko'ngilochar tadbirlardan foydalanish tavsiya etiladi, chunki atrofimizdagi dunyoni idrok etishning taktil tajribasi majburiy asos bo'lib, buning asosida katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarga yanada murakkabroq narsalarni taklif qilish mumkin.

Didaktik o'yin shaklida turli yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ushbu ko'ngilochar va ma'rifiy tadbirlarni tanlashda tizimli yondashuvga rioya qilish, bola rivojlanishining barcha jihatlariga e'tibor berish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu foydali o'yin-kulgining samaradorligini oshirish uchun yosh chegarasiga rioya qilish muhimdir. Mark Tven "Mehnat - bu inson bajarishi shart, o'yin esa u bajarishi shart emas" deya ta'kidlab o'tgan va birin-ketin mohirlik bilan chiqarish muhim. Shuni esda tutish kerakki, bolalarning ishtiroki va qiziqishi o'yinning afzalliklarini va ushbu norasmiy jarayon orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan yangi bilim va ko'nikmalarni faol ravishda o'zlashtirishini belgilaydigan asosiy omillardir.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha turdagi qoidali o'yinlar mazmuniga ko'ra o'z qoidalariga ega bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega: o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o'yin vazifasining mavjudligi, o'ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo'lga solib turilishi, o'yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy mazmuni o'yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo'lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo'lmaydi.

O'yinlar faoliyatining eng muhim ma'nosi - bu bolalarning rivojlanishida rivojlanadi. Ushbu o'yinlar o'quv va ta'lim uchun maxsus ixtiro qilingan, ularda muayyan qoidalarga ega va ma'lum bir natija kutilmoqda. Aslida, didaktik o'yin - bu

o'rganish va o'yin shaklida sintez. Didaktik vazifalar unda o'rnatiladi, qoidalar va o'yin choralari aniqlanadi va natija oldindan taxmin qilinadi. Didaktik vazifa ostida ta'limning ta'siri va o'rganish maqsadi. Didaktik o'yinning vazifasi o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladi. O'yin bolalarning o'zlari bajargan o'yinlariga asoslangan. Ushbu harakatlar qanchalik qiziqarli bo'lsa, o'yin yanada samarali va yanada qiziqarli o'yin. Kattalar didaktik o'yinlardan mashg'ulotlarni o'qishga nisbatan muammosiz siljishga imkon beradigan o'rganish usullari sifatida foydalanishadi. O'yin bolaning nutqining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Kichikintoy o'yin holatiga ishonch bilan bog'lanishini ta'minlash uchun aloqa ko'nikmalarining minimal darajasi kerak. Boshqa bolalar bilan tushuntirish zarurati tufayli ulangan nutqning rivojlanishi bilan rag'batlantiriladi. O'yin tufayli bola individual va mazali belgilarni sezishni boshlaydi. Shuningdek, o'yinlar refleksoriy fikrlashni rivojlantirish uchun muhimdir [7].

Didaktik o'yin yordamida bola yangi bilimlarga ham ega bo'lishi mumkin. O'yinni boshlashdan oldin bolalarda unga qiziqish, o'ynash istagini uyg'otish kerak. Bunga turli usullar bilan erishiladi: topishmoqlardan foydalanish, qofiyalarni sanash, kutilmagan hodisalar, qiziqarli savol, o'ynash uchun fitna, bolalar oldindan o'ynagan o'yinni eslatish.

Pedagog o'yinni shunday yo'naltirishi kerakki, u o'zi uchun sezilmas tarzda ta'limning boshqa shakliga - darslarga adashib qolmasligi kerak. O'yinni muvaffaqiyatli tashkil etishning siri shundaki, tarbiyachi bolalarga o'rgatish bilan birga, o'yinni bolalarni xursand qiladigan, ularni yaqinlashtiradigan, do'stlikni mustahkamlaydigan faoliyat sifatida saqlab qoladi. Bolalar asta-sekin

o'yindagi xatti-harakatlari odatdagidan farqli bo'lishi mumkinligini tushuna boshlaydi [5].

Maktabgacha yoshda bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli o'qish, adabiyot, televidenie va radio dasturlarini tushunishga imkon beradigan so'z boyligini egallashi kerak. Maktabgacha yoshda o'yin yetakchi faoliyatga aylanadi, ammo zamonaviy bola, qoida tariqasida, ko'p vaqtini ko'ngilochar o'yinlarda o'tkazganligi uchun emas – o'yin bolaning ruhiyatida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Haqiqiy o'yin harakati faqat bitta harakat ostida bola boshqasini, bitta obyekt ostida boshqasini anglatgandagina sodir bo'ladi. O'yin harakati belgi xususiyatga ega. O'yinda bola ongining shakllangan belgi funksiyasi eng aniq namoyon bo'ladi. O'yinda uning namoyon bo'lishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'yin o'rnini bosuvchilar ular bilan almashtirilgan narsa kabi harakat qilishlari kerak. Shuning uchun tanlangan o'rinbosar obyektga o'z nomini berish va unga ma'lum xususiyatlarni berishda bola o'rinbosar obyektning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga oladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechilmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat aks etadi.

Adabiyotlar

1. Babayeva D. Bolalar o'yinlari turlari. –T.: TDPU, 2019.
1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. -T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. 36-38-betlar.
2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. -T.: "Fan va texnologiya", 2012. 188-190-b.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. -T.: "Fan va texnologiya", 2017. 271-275-b.
4. Salibeva A.R. Didaktik o'yinlar: ta'rifi, tuzilishi, turlari. Didaktik o'yinlarga misollar (tanlama).
5. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi". -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2011.
6. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., A'zamova M. –Maktabgacha pedagogika. -T.: "Tafakkur nashriyoti"darslik, 2019. - 684 b.
7. tdpu.uz sayti

PEDAGOG-SHIFOKORNING INNOVATSION FAOLIYATI VA UNING TIBBIY TA'LIMNI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Maqolada pedagog-shifokorning innovatsion faoliyati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Pedagog-shifokor-klinisist hamkorligini oshirish omillariga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tibbiy ta'limni tartibga soladigan me'yoriy hujjatlar mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, pedagog-shifokor-klinisist, yetuk kadr, innovatsion faoliyat.

В статье анализируется инновационная деятельность врача-педагога, ее роль в воспитании молодежи, а также основные направления ее реализации. Уделяется особое внимание расширению сотрудничества учитель-врач-клиницист. А также раскрыто содержание нормативных документов, регламентирующих медицинское образование.

Ключевые слова: медицинское образование, педагог-врач-клиницист, зрелый коллектив, инновационная деятельность.

The article analyzes the innovative activity of a doctor-teacher, its role in the education of young people, as well as the main directions of its implementation. Special attention is paid to expanding teacher-doctor-clinician cooperation. And also disclosed the content of regulatory documents governing medical education.

Key words: medical education, teacher-clinician, mature team, innovative activity.

Kirish. Tibbiyot sohasini zamonaviy fikrlaydigan, chuqur bilimli, mas'uliyatni his etadigan, har jihatdan yetuk kadrlar bilan ta'minlash masalasiga bugun davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Har qanday sohaning rivoji birinchi navbatda, shu yo'nalishda tayyorlanayotgan kadrlar salohiyatiga bog'liq. Garchi, eng zamonaviy texnikalar, so'nggi texnologiyalar sohaga kiritilsada, binolar rekonstruksiya qilinib, mukammal boshqaruv tizimi shakllantirilsada, kadrlar tayyorlash masalasida sustkashlik bo'ladigan bo'lsa, soha rivojida kutilgan natija bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari boshchiligida 2017-yilning 5-yanvar va 7-fevral kunlari sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvlarda, shuningdek, 2017-2020-yillar mobaynida o'tkazilgan videoselektor majlislarida tibbiyot xodimlarini tayyorlash masalasi, xususan, xalqaro tajribani o'rgangan holda, tibbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash lozimligiga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas, albatta. Chunki hozirgi kun talabida uchyakdillik yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Ta'kidlash joizki, keyingi ikki-uch yil ichida tibbiyot yo'nalishida 150 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi natijasida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashmoqda. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar tufayli aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi

uzaymoqda. Onalar, bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-son Farmoni [1], 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son Farmoni, 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-son Qarori, 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4310-sonli Qarori, shuningdek 2018-yil 25-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5545-sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar[2-6]da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ahamiyati beqiyos.

Asosiy qism. Bugungi intellektual mehnat birlamchi ahamiyat kasb etayotgan, jahon bozorida raqobat tobora ortib borayotgan davr mamlakatimizda ta'lim sohasini zamon talablari

asosida yanada takomillashtirish, pedagog-shifokor-klinisistlar faoliyatini yanada kuchaytirishni taqozo qilmoqda.

Sharq ma'naviy merosining nodir manbalaridan biri "Avesto"dagi "ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal" tarbiyasi ham rahbar pedagog-shifokor faoliyatida o'z o'rniga ega. Har bir pedagog-shifokor-klinisist ta'lim sifatini oshirib borish, unga innovatsion jarayon sifatida qarashni va uni yangi zamon talablari asosida boshqarishni talab etadi. Bu borada Buxoro davlat tibbiyot institutida innovatsion faoliyatni tashkil qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Demak, uchyakdillik asosida oliy ta'limning zamonaviy tizimini shakllantirish, ta'limdagi innovatsiya quyidagilarni nazarda tutadi:

birinchidan, zamonga yangicha yondashuv asosida yangi texnologiyalar va loyihalar yaratishi va ular yordamida o'quv-reja dasturlarni yangi mos turlarini yaratish;

ikkinchidan, nazariyani amaliyot bilan, amaliyotni esa, ishlab chiqarish bilan bog'lash;

uchinchidan, o'quv uslubiy materiallar bazasini mustahkamlash;

to'rtinchidan, tibbiy ta'lim sharoitlarning sotsial va iqtisodiy asoslarini kuchaytirish;

beshinchidan, pedagog-shifokor-klinisistlarga ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni doimo oshirib borish;

oltinchidan, tibbiy ta'lim obyektlarining texnik bazasini, o'quv bazasini zamonga mos ravishda kuchaytirish va hokazo.

Hozirgi vaqtda eng muhim va murakkab vazifa yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga hozirgi zamon talablariga javob beruvchi yangicha yo'nalishlarni izlashdir.

Shunga asosan, institutda uchyakdillik asosida faoliyat olib boradigan har bir pedagogning:

- innovatsion texnologiyalarning ilmiy-nazariy, amaliy-metodik asoslarini;

- uning mohiyat mazmunini, yo'nalishlarini;

- jahon pedagogika ta'limotida sinalgan, respublikada qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoniga yondashuvlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- tibbiy o'quv fani bo'yicha o'tkaziladigan dars loyihasini tuzishning nazariy-amaliy asoslarini, o'quv va tarbiya maqsadlarini oydinlashtirish qonuniyatlarini;

- o'zlashtirishning mahsuldor va izlanuvchan darajalariga mo'ljallangan pedagogik texnologiyasini;

- ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishish yo'llari (usullari)ni bilishni;

- ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishilganlikni baholash texnologiyasini;

- uy topshiriqlarini maqsadli diagnostik tahlil asosida o'quvchi-yoshlarni, o'quv bilim koidalari mos belgilash texnologiyasini;

- o'quv maqsadlari, topshiriqlari va vazifalari katalogini ishlab chiqishni;

- o'quv vazifalari, maqsadlari asosida test topshiriqlarini tuzish texnologiyalarini chuqur va atroflicha egallangan bo'lishi shart.

Demak, uchyakdillik asosida ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holatini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Tibbiy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish texnologik, pedagogik, tashkiliy ishlar bilan bog'liq murakkab va ko'p qirrali masalalarni hal etishni talab etadi. Zamonaviy pedagoglar, mutaxassisligiga oid bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalana olishi, talabalarda bu texnologiyalarni amalda qo'llash malakasini shakllantirib bilishi zarur [7].

Yakdillik asosida faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchi nazariy bilim, amaliy tajriba, ilg'or ta'lim metodlari va usullarini qo'llay olish mahoratini egallagan bo'lsa, ta'lim sifati bilan samaradorligi albatta, kafolatlanadi.

Ta'kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiya yangilanishga, yuksalishga yo'naltirilgan pedagogik g'oyalarni namoyon etadi. Ta'lim tizimiga xos innovatsiya jarayonlari ana shu zarurat natijasidir.

Zero, uchyakdillikdagi innovatsiya talaba yoshlarda:

- a) ularning o'qishga ongli munosabatda bo'lishini;

- b) olingan axborotlarni faol va mustaqil ravishda qayta ishlashini;

- d) axborotlar bilan bevosita hissiy muloqotda bo'lishni;

- e) qabul qilingan, qayta ishlangan va hissiy muloqotda bo'lgan axborotlarni esda saqlab qolishini va xotirada saqlashni ta'minlaydigan vositadir.

As we all know, it is of particular importance to study the aspects related to the pedagogical process of using oral exercises in the development of students' logical thinking. Because of goal-oriented oral questions and exercises play an important role in developing students' logical thinking. One of the important features of educational activity is the creative nature of the learning process. In this article, the scientific works of the scientists of the field regarding the creative nature of the educational process are systematically studied, and the opinions about the factors of mental development of primary school students and their growing up as an educated generation are presented. In particular, the quality of goal-directed questions and oral exercises presented in this process is widely revealed on the example of world experience.

The article can be widely used by university students, doctoral students, independent researchers, as well as primary school teachers.

Keywords: *logical thinking, development, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.*

Kirish. O'rganish jarayonida og'zaki mashqlardan foydalanishning ikki jihatli borligini hisobga oldik: mazmun va jarayon. Ushbu vaziyatdan kelib chiqib, biz o'quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirish muammosini hal qilish uchun aniq ta'limni tanlashimiz kerak. Bu, albatta, og'zaki mashqlar mazmuniga ta'sir qiladi. Bunday texnologiya sifatida biz rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasidan foydalanamiz. Chunki kelajak maktabi taraqqiy etuvchi ta'lim maktabi ekani kun sayin ayon bo'lib bormoqda.

Ta'lim rivojlanishining xarakterini aniqlash, keyin uni amalga oshirish vositalarini aniqlash ko'p jihatdan rivojlanish toifasi bilan bog'liq. Pedagogika ensiklopediyasida rivojlanishga quyidagicha ta'rif berilgan:

Rivojlanish [arabcha – tarqalish, yoyilish, kengayish; ommalashish] Bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o'tish, o'sish, yuksalish; taraqqiyot, ravnaq.

Individning tug'ilganidan boshlab hayotining so'ngigacha davom etadigan shakllanish jarayoni.

Taraqqiyot, takomillashuv, olamdagi muntazam harakat, ob'ektlardagi sifat o'zgarishlari, borliqdagi yangi shakllarning vujudga kelishini ifodalovchi tushuncha.

Rivojlanish insonning ruhiyati va jisimidagi sifat o'zgarishlari bo'lib, u ijtimoiy muhit, shaxslar aro munosabatlar, ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi. Ta'lim inson rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanish - bu ob'ektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki nazorat omillari ta'sirida shaxsning miqdorlari, ya'ni fazilatlarini, fazilatlarini va huquqlarini shakllantirish, osondan murakkabga, oddiydan murakkabga, mavhumdan xususiyga, sodda shakllardan o'tish [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'z tadqiqotida L.V.Zankov [2] o'quvchining o'quv jarayonida o'rni va ahamiyatini aniq ko'rsatmay, o'quv faoliyatining rivojlanishini "umumiy rivojlanish" deb atagan.

Aksincha, V.V.Davidov rivojlantiruvchi ta'limning mohiyati har bir o'quvchining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishda, deb hisoblaydi. Har

bir o'quvchida u doimo rivojlanib boradigan ta'lim predmetini ko'radi. Buning uchun o'quvchilarda o'z-o'zini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lishi va uni ta'lim orqali qondira olishi, ya'ni o'qishni xohlashi, sevishi va muvaffaqiyat qozonishi kerak [3].

Inson tarbiyasi va uning aqliy rivojlanishi o'rtasida doimo faollik mavjud. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limni rivojlantirish mazmunini takomillashtirish yoki boyitishda, eng avvalo, ta'lim faoliyati mazmuni va tuzilishini puxta tahlil qilish zarur. Kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi bu holat bilan bevosita bog'liq. Shunga ko'ra, biz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda og'zaki mashqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Og'zaki mashqlar mashq qilish turi bo'lib, yozma mashqqa qarshidir, nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan faoliyat turini ko'rsatadi. Og'zaki mashq bajarilayotganda eshitish analizatorlari yetakchi vosita bo'ladi va materiallarni yod olish, tezda javob qilish imkoniyatlarini xosil qiladi. U rasmiylashtirishni talab qilmaydi, shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchisining fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy omil bo'ladi.

Ushbu masalani "faoliyat" konsepsiyasi doirasida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Chunki rivojlantirish tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini faollashtirishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Psixolog A.N.Leontiyev faoliyatni munosabatlar orqali tasvirlaydi. U "faollik bu

jarayon emas. Biz bu atama orqali insonning dunyoda muayyan munosabatlarni amalga oshirish jarayonida muayyan talablarni qondirish jarayonlarini tushunamiz" [1]. Shunday qilib, insonning faoliyati doimo uning ehtiyojlaridan biriga va uni qondiradigan ob'ektga qaratilgan. U sub'ektning faoliyatini shakllantiradi va boshqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Faoliyat maqsadi - bu shaxsning ehtiyojining mohiyati bilan belgilanadigan qayta ishlangan ob'ektiv maqsad. Faoliyatning maqsadi - bu faoliyatga ishtiroqni shakllantirish sanaladi.

Harakat usuli - bu faoliyatni amalga oshirish usuli. Ishlash - bu ishlashning o'lchovidir.

Faoliyatning tarkibiy qismlari muntazam harakatlar bilan tavsiflanadi. Masalan, harakat o'z motivatsiyasini yo'qotib, oddiy operatsiyaga aylanishi mumkin. Faoliyatning ayrim motivlari harakat maqsadiga qarab harakatlanishi va shuning uchun bu harakat faoliyatga aylanishi mumkin.

Yuqorida aytilganlarning barchasi bevosita o'quvchining o'quv faoliyati bilan bog'liq:

-birinchidan, ular umumiy faoliyat konsepsiyasining sanab o'tilgan barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi;

-boshqa tomondan, bu komponentlar boshqa har qanday faoliyatdan farq qiluvchi sub'ektiv mazmunga ega.

Misol uchun, agar biz to'g'ri burchakli uchburchakning maydonini hisoblash formulasini ko'rib chiqsak. Maqsad - to'g'ri burchakli uchburchakning maydoni to'g'ri burchakli uchburchakning yarmiga teng ekanligini isbotlash. Motiv - bilish zarurati. Usul to'rtburchaklar to'rtburchakni o'rganishdan iborat. Uni egib, diagonal ravishda kesib oling, olingan uchburchaklarni bir-birining ustiga qo'ying va to'rtburchaklar maydoni uchun formuladan foydalanib, ularning tengligini o'rnatib. Natijada to'g'ri burchakli uchburchakning maydoni uchun formulaning asoslanishi.

Tahlil va natijalar. O'quv jarayonida faoliyat deganda, yangi natijaga erishishga qaratilgan ob'ekt va sub'ektning o'zaro ta'siri tushuniladi. Bu ta'rifdan kelib chiqadiki, faoliyatning asosini u yoki bu faoliyat mahsulini olish imkonini beruvchi texnologiya tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya faoliyatning sub'ekti ham, ob'ekti ham emas. O'quvchilar o'qish, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etish zarur.

Sinfda o'quvchilar o'quv materialini o'quv faoliyati sifatida o'rganadi, agar:

-birinchidan, mavjud materialni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va motivatsiya shakllansa;

-ikkinchidan, agar o'quvchining faoliyati o'zlashtirilayotgan materiyani o'zgartirib, uni yangi

38 mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lsa, u inson faoliyatini to'g'ri tashkil etishning asosi bo'ladi.

O'qituvchi odatda o'quvchilardan darsda shu mavzu bo'yicha tajriba o'tkazish orqali biror mavzuni o'rganishni so'rasa, o'quvchilardan o'quv faoliyatini amalga oshirishni talab qiladigan muammolar mavjud. O'quvchilardan o'rganilayotgan materialning ichki va tashqi aloqalarini o'rnatishni talab qiladigan pedagogik tajriba doimo ijodiy xarakterga ega. V.V.Davidovning fikricha, "shaxsning shaxsiyati uning ijodida namoyon bo'ladi" [3]. O'quvchilarning ta'lim faoliyatini rivojlantirish zarurati va ularni amalga oshirish qobiliyati o'quvchi shaxsining rivojlanishiga katta yordam beradi. O'quv faoliyatining asosiy elementi ehtiyojsiz mavjud bo'lmaydi.

Keling, matematikadan og'zaki topshiriqni misol qilib olaylik.

- $4 + 5 \cdot 6 + 3 \cdot 5 + 4 \cdot 7 + 2 \cdot 10 - 1 \cdot 11 - 2 \cdot 12 - 3$

- Sonli ifodaning qiymatini toping.

- Qaysi belgilar asosida sonli ifodalarni berishimiz mumkin?

- Son iboralar ma'nosida qanday qiziqarli holatni sezdingiz?

- 9 qiymatiga ega sonli ifoda yarating.

- Quyidagi son ifodalardan qaysi biri yig'indini topish uchun ortiqcha? Nega?

- Raqamli ifodalardagi farqlarga oid misollarda qanday qiziqarli holatni payqadingiz?

Ko'ngillilik ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

-motivatsiya yaratish;

-harakatga yo'naltirilgan modelni tushuntirish va farqlash, ya'ni harakatni o'quvchilar uchun tushunarli va erishish mumkin bo'lgan harakatlarga bo'lish;

-harakatni moddiy yoki moddiylashgan shaklda shakllantirish;

-og'zaki nutq yordamida harakatni shakllantirish. Bunda algoritmning barcha amallari va ko'rsatmalari ularning bajarilishi tartibida ovoz chiqarib aytiladi;

-ichki nutq orqali harakatni shakllantirish. Harakatlar ichki nutq yordamida takrorlanadi, bunda harakatlar qisqartiriladi va avtomatlashtiriladi. Psixik harakatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasiga ko'ra, vazifalarni shakllantirishda uchta asosiy tur mavjud.

Harakat yo'nalishini tanlashning birinchi turi: o'quvchiga harakat namunasi beriladi va natijasi aytiladi, lekin harakatni qanday bajarish kerakligi ko'rsatilmaydi. To'g'ri javobni tanlash o'quvchining o'ziga bog'liq. Natijada u aqliy harakatlarni to'g'ri bajarishni o'rganadi. Biroq, bu jarayonda shakllangan ko'nikmalar mustahkamlanmaydi va malakaga ega bo'lmaydi.

Shuning uchun ular yangi vazifalarni bajarish jarayoniga o'tkazilmaydi. bu turdagi yo'nalish tanlash ustida ishlayotgan o'qituvchi ko'p xatolarni oldindan rejalashtirgan bo'ladi. To'g'rirog'i, o'qituvchi bu holatda ortiqcha takrorlash va yetkazib berish bilan ovora bo'ladi.

Harakat yo'nalishini tanlashning ikkinchi turi: o'quvchiga biror harakat yoki topshiriqni to'g'ri bajarish bo'yicha ko'rsatma beriladi, ya'ni tayyor harakat algoritmi taqdim etiladi.

Algoritmni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy amal qilingan o'quv jarayonida o'quvchilarning harakatlari bexato, tez bajariladi. Mashqlar davomida algoritm o'zlashtiriladi. Algoritm dan foydalanishga misollar:

$38 + 7$, to'g'ri to'rtburchak perimetrini hisoblash, noma'lum qo'shimchani topish uchun tenglamani yechish va hokazo. Bunda o'quvchi yangi topshiriqni oldingi topshiriq bilan solishtiradi, agar ular bir xil bo'lsa, o'qituvchi tomonidan berilgan algoritm yangi vazifani bajarishda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, qo'llash doirasi harakatlar va vazifalarni bajarishning muayyan shartlari bilan chegaralanadi.

Ikkinchi turda bajariladigan ishlarning kamchiligi shundaki, harakatlar ketma-ketligi tashqaridan ta'minlanadi. Natijada uning ijodiy tafakkurining rivojlanishi sekinlashadi, lekin algoritmik faoliyat usuli yaxshi shakllanadi. O'quvchiga doimo tayyor algoritmlar, ma'lumotnomalar, konspektlar berilsa, u aqliy rivojlanishda oldinga siljiy olmaydi, balki fanga oid ko'nikma va malakalarni etarlicha yaxshi egallaydi.

Harakat yo'nalishini tanlashning uchinchi turi dastlab o'quv jarayonida emas, balki vaziyatni tahlil qilishda, muayyan vaziyatda harakat qilish usulini o'rgatishda yotadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muayyan usulda masalalar yechishni chuqur tahlil qiladi. Natijada o'quvchilar mustaqil ravishda masalani yechishning umumlashtirilgan sxemasini yoki algoritmini ishlab chiqadilar.

Misol tariqasida tashkil etilgan amaliy ishlar orqali o'quvchilarni "tadqiqot"ga yo'naltirishni ko'rib chiqamiz. Yonlari 4 sm va 16 sm bo'lgan qog'ozdan to'rtburchaklar kesib oling va uni yarmiga katlayin. Keyin uni 8 ta teng bo'lakka katlayarak 4 ta teng bo'lakka bo'ling. Parchalar soni ortishi bilan ular qanday o'zgarishini tasvirlab bering.

Uchinchi bosqichda olib borilgan ishlar umumlashmalarning ma'no doirasida shakllanish qonuniyatlariga mos keladi va o'quvchilarda nazariy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Algoritmik faoliyat usulidan ijodiy-nazariy fikrlashga o'tish mavjud. Bunday shakllangan harakatlar o'zgaruvchan sharoitlarga chidamli

bo'lib, bir xil turdagi muammolarni hal qilishda cheksiz harakat doirasiga ega.

Psixologlarning fikricha, o'quv materiallari asosida shakllanadigan uchinchi turdagi harakat o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Quyidagi fikrlar uchinchi bosqichdagi harakatlarni tavsiflash imkonini beradi:

Uchinchi tur asosida tuzilgan harakat yuqori samaradorlikka ega.

O'quvchilarga har qanday muayyan vaziyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy yondashuvlar bilan ta'minlash bir qancha omillar bilan tavsiflanadi:

a) maqsadga yo'naltirilgan harakatlar tuzilishi;

b) yo'nalishlarni umumlashtirish;

v) harakatlar muhim belgilar, shartlarni bajarishga qaratilgan;

g) o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning mustaqilligi.

Bilim doirasi, barqarorligi, egallash tezligi va xatolarga nisbatan past tolerantlik.

Bilimlarning inson faoliyati talablariga muvofiqligi.

V.V.Davidov harakat yo'nalishini tanlashning ikkinchi va uchinchi turlarini solishtirishga asoslanib, ikkinchi turda o'quvchi uning mohiyatini his etmasligini ta'kidlaydi. Ehtimol, u buni mo'ljallangan voqea deb tushunadi. Bu turda empirik tafakkur shakllanadi. harakat yo'nalishini tanlashning uchinchi turi - ijodiy makonni shakllantirishga qaratilgan harakat.

Xulosa va takliflar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasida bilim hech qachon

o'quvchilarga tayyor shaklda berilmasligi kerak. Bilim har doim muayyan faoliyat kontekstida o'zlashtiriladi.

Shunday qilib, harakat yo'nalishini tanlashning uchinchi turida o'quvchilarning bilish faoliyati bilish faoliyati bilan birlashtiriladi. Ta'lim faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri bu o'quv jarayonining ijodiy xususiyatidir.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga faqat ularning ijodiy faoliyat jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash orqali erishish mumkin. Natijada, o'quv faoliyati ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, matematik bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Aqliy harakatlar va bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirishga asoslangan ta'limga faol yondashish tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqdir. Chunki rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi matematika o'qitish jarayonida uchta asosiy masalani hal qilishni talab qiladi: maqsadlarni to'g'ri belgilash, mazmunini aniq tanlash va didaktik vositalarni tizimlashtirish. O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish g'oyasi ushbu muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi.

Bizda "fikrlash" tushunchasi bilan teng imkoniyatlar mavjud. Shunga ko'ra, evristik faoliyat inson tafakkurining rang-barang ifodasidir. Bunday faoliyat natijasida yangi harakatlar tizimi yaratiladi yoki odamni o'rab turgan ob'ektlar haqida ilgari noma'lum bo'lgan qonunlar ochiladi.

Adabiyotlar

1. Leontev A.N. Obsheye ponyatiye deyatelnosti. – M.: Nauka, 1977. 368s.
2. Davidov V.V. Teoriya razvivayushego obucheniya. – M.: Intor, 1996. 544 s.
3. Zankov L.V. i dr. Obucheniye i razvitiye. – M.: Pedagogika, 1995.– 440 s.
4. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Qori Niyoziy nomli O'zPFITI, 2002. – 265 b.
5. Boltayeva Sh.T., Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish, Monografiya, Toshkent 2013 y.32-33 b.
6. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.- T.: Sharq, 2000.- 112 b.
7. Karimova V, Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish // J. Xalq ta'limi, 2001. № 3-6.-B.-64-69.
8. Xutorskiy A.V. Razvitiye odaryonosti shkolnikov: metodika produktivnogo obucheniya. – M.: Vladis, 2000. – 320 s.
9. Hamroyev, R. (2014). Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish istiqbollari. Vestnik karakalpaksogo gosudarstvennogo universiteta imeni Berdaxa, 22(1), 53-58.
10. Hamroyev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

Nurislom XUDOYBERDIYEVSurxondaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi katta o'qituvchisi**MAKTAB O'QITUVCHILARINING AXBOROT-KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA**

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda xorij tajribasi haqida so'z yuritiladi. Ta'lim oluvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish, kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash, o'quvchilarni algoritmik axborot almashish faoliyatiga yo'naltirish bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilayotgan tajribalar haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: axborot oqimi, kasbiy kompetensiya, axborot kompetentlik, xorijiy tajriba, axborot faoliyati, algoritmik axborot almashish.

В статье рассказывается о зарубежном опыте развития информационно-коммуникативной компетентности учителей средней школы. Высказаны мнения об опыте, проведенном в международных исследовательских центрах по развитию компетентности получателей образования по работе с информацией, диагностике сформированности компетентности, ориентации учащихся на алгоритмическую деятельность по обмену информацией.

Ключевые слова: информационный поток, профессиональная компетентность, информационная компетентность, зарубежный опыт, информационная деятельность, алгоритмический обмен информацией.

The article describes the foreign experience of the development of information and communication competence of secondary school teachers. Opinions are expressed about the experience conducted in international research centers on the development of the competence of educational recipients to work with information, the diagnosis of competence formation, the orientation of students to algorithmic information exchange activities.

Key words: information flow, professional competence, information competence, foreign experience, information activity, algorithmic information exchange.

Kirish. Xalqaro miqyosda ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'qitishni ommaviy ravishda ishlatish, ya'ni yoshi bilan ham chegaralanmagan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi masofa bilan ham cheklanmagan ta'lim haqiqatga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari foydalanuvchilarga juda ko'p sonli ma'lumot manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi, individual xususiyatlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratdi. Xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirish, kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash, o'quvchilarni algoritmik axborot almashish faoliyatiga yo'naltirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar qator tadqiqotlarda

amalgam oshirilgan. Ta'limni axborotlashtirish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari I.V.Robert, ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va metodik masalalari esa, L.I.Ansiferov, V.M.Vimyatin, V.A.Izvozchikov, M.P.Lapchik va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Axborot-dinamik o'rgatuvchi muhitni bo'lajak o'qituvchilarning axborot madaniyatini rivojlantiruvchi omil sifatida tadqiq etish masalalari N.A.Sizinseva ishlarida yoritilgan [1].

Respublikamiz ta'lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov, A.X.Abdullayev, M.Aripov, Sh.S.Axrarov, B.Begalov, M.H.Lutfilayev, A.R.Marahimov, S.Rahmon-qulova, N.I.Taylaqov, O'.Q.Tolipov, S.S.G'ulomov, R.H.Hamdov, U.Yuldashyevlar [2] tomonidan amalga oshirilgansa-da, maktab o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish borasidagi xorijiy tajribalarga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Maktab o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish borasida xorijiy tajribani o'rganish.

So'nggi yillarda jahon miqyosida mutaxassislar, jumladan, o'qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetentligi qaratilgan namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Shvetsiya federal statistik departament, AQSH va Kanada Milliy ta'lim statistikasi markazida "Kompetensiyalarni aniqlash va taglash: nazariy hamda konseptual asoslari" (Defenition of Competencies) joriy etilgan bo'lib, maqsadi turli sohalar bo'yicha faoliyat yuritayotgan mutaxassislar kasbiy kompetentligining tarkibiy asoslarini aniqlash, ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarini belgilash, kasbiy kompetentlikni o'zlashtirishning samarali yo'l, shakl, metod, vosita va texnologiyalarini tanlagshdan iborat. Dasturda "kompetentlik" tushunchasining mohiyatini yoritishga quyidagicha yondashiladi: kompetentlik-individual va ijtimoiy ehtiyojlarni muvaffaqiyatli qondirish hamda qo'yilgan vazifalarni bajarishga layoqatlilik. Dasturda kompetentlikning tarkibiy tuzilmasini yoritishga ham e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra, kompetentlikning asosini bilim, bilishga oid, shuningdek, amaliy ko'nikma, malakalar, munosabat, hissiyot, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, motivatsiya tashkil etadi [3].

Yevropa kengashi tomonidan 2006-yilning 18-dekabrida qabul qilingan tavsianomada har bir yetuk shaxs, jumladan, mutaxassis tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan 8 ta kompetensiya keltirilgan. Ular orasida "raqamli kompetensiya" ham mavjud bo'lib, u o'z talqiniga ko'ra axborot kompetensiyasining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi [4].

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunda xalqaro miqyosda mutaxassislarda axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish yo'lidagi faoliyatni olib boruvchi Axborot savodxonligini rivojlantirish Xalqaro Ittifoqi (International Alliance for Information Literacy; 2006) tashkil etilgan. Maqsadi – ijtimoiy subyektlarning butun hayoti davomida ta'lim olish huquqiga egalik negizida yuzaga keladigan axborotlashgan jamiyatda samarali faoliyat olib borishga, ular o'rtasida o'zaro axborot almashishni tashkil etilishi va jahonning turli mintaqa hamda mamlakatlarida axborot savodxonligiga erishishga doir tajribalarni ommalashtirish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatishdan iborat [5].

2003-yildan boshlab har yili YUNESKO diorasida aholining axborot savodxonligini oshirish masalasiga bag'ishlangan "Axborot savodxonligi bo'yicha Yevropa konferensiyasi" (ECIL) tashkil

etib kelinadi. 2016-yilning 12-oktabrida Praga shahrida tashkil etilgan "Inklyuziv jamiyatda axborot savodxonligi" mavzusidagi konferensiya biz uchun ahamiyatli bo'ldi. Unda Kemerova davlat san'at institutining professori N.I.Gendinning ma'ruzasi [6]da O'zbekiston fuqarolarining axborot savodxonligiga egaligi masalasi muhokama qilindi. Ma'ruzada axborot va media kompetensiyalarni integratsiyasiga oid nazariy tadqiqotlarning natijalari, YUNESKOning tegishli o'quv dasturlarini amaliyotga samarali tatbiq etish mexanizmi, shuningdek, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi boshchiligidagi respublikada fuqarolarning axborot savodxonligini oshirish yo'lida amalga oshirayotgan harakatlar, uning amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

2015-2017-yillarda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining tashabbusi bilan "Axborot-kutubxona sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish davrida O'zbekiston axborot-resurs muassasalarining axborot madaniyati va media savodxonligini shakllantirish" loyihasi amalga oshirildi. Loyihaning maqsadi – YUNESKO g'oyalarni targ'ib etadigan O'zbekiston axborot-resurs muassasalari mutaxassislarini "maktab o'quvchilarining axborot madaniyati asoslari" o'quv kursini o'qitish vositasida ularda media-axborot savodxonligini shakllantirish, maktab o'quvchilari tomonidan axborot savodxonligi asoslarini yorituvchi o'quv materiallarining oson o'zlashtirishiga imkon beradigan ta'lim muhitini yaratishga tayyorlashdan iborat etib belgilandi. Ma'ruza ko'rsatilishicha, YUNESKOning fuqarolarda axborot savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati ikki yo'nalishda tashkil etiladi:

treninglar tashkil etish;

O'zbekistonda YUNESKO g'oyalarni targ'ib etadigan axborot-resurs muassasalari mutaxassislarini "Maktab o'quvchilarining axborot madaniyati asoslari" o'quv kursini o'qitish vositasida media-axborot savodxonligini shakllantirish, madaniy-ta'limiy muhitni yaratishga doir o'quv materiallarini o'zlashtirishga moslashish imkoniyatini beruvchi ta'limni joriy qilish;

O'zbekistonlik kichik maktab o'quvchilarida media-axborot savodxonligini shakllantirishga oid 85 ta dars va taqdimotlarning moslashtiruvchi matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish [6].

Trening o'zining ta'limiy imkoniyatlariga ko'ra, mutaxassislarni o'quvchilar bilan bevosita muloqot asosida ular tomonidan axborot savodxonligi ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitni hosil qilish imkoniyatiga ega. Bu jarayonda

42 mutaxassislar erkin, kichik guruhlarda ishlash, muammolarni birgalikda hal etish asosida o'quvchilarda axborotlar bilan samarali ishlash, mavjud axborotlar orasidan o'zi uchun zarur, foydali, ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantirishning samarali yo'llari, metodlari va vositalarini o'zlashtirishga erishdi. Shuningdek, fuqarolarda axborot savodxonligini rivojlantirish maqsadida tayyorlangan didaktik ta'minot – axborot–resurslar (rus tilidagi bolalar nashrlari–darslik, ensiklopediya, lug'at, ilmiy manba, qissa, hikoya, ertak va b.) hamda media resurslar (teleko'rsatuv, multfilm, reklama roligi, reklama plakati va h.k.ni; darslarni tashkil etishda qo'llaniladigan Markaziy Osiyo tarixi, O'zbekiston tarixi, madaniyati, ta'limi, siyosatiga oid misollarni; o'zbek folklori materiallari (ertak, maqol, tez aytilish, topishmoqlar)ni; mashhur o'zbek media qahramonlariga oid materiallarni; O'zbekiston tarixi, madaniyati, geografiyasi va iqlimiga oid tasvirlarni o'zbekcha muqobiliga almashtirish kabi amaliy harakatlar tashkil etildi.

BMTning "Ming yil maqsadlari", "Savodxonlikning o'n yillik tashabbusi Sammitlari, "Ta'lim barcha uchun" loyihasi (2015-y.), Yevropa Kengashining "Suqort" ("Socrates"), "Komenius" ("Comenius"), "Grundvig" ("Gundtvig"), "Minerva" ("Minerva"), "Leonardo da Vinchi" ("Leonardo") dasturlari ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlariga AKTni faol jalb etish jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan [7].

YUNESKONing Ta'limda axborot texnologiyalari instituti tomonidan amalga oshirilgan "AKT o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida" loyihasi o'qituvchilarning axborot–kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Loyihaning maqsadi ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarning AKTdan foydalanish asosida o'qitish amaliyotini takomillashtirishdan iborat [6].

Umumta'lim maktablarni axborot–kommunikatsion rivojlantirishga "Kelajak uchun ta'lim" (Intel "Teach to the Future"),

"Muvaffaqiyatga yo'l" dasturlari ham o'ziga xos hissa qo'shmoqda. Mazkur dastur doirasida ham trening vositasida "tegma teng" tamoyili asosida o'qituvchilar o'zlarining bilim, ko'nikma, malakalarni kurs treneri maqomini olgan va ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish malakasini puxta o'zlashtirgan pedagogga uzatadi [7].

So'z yuritilayotgan yo'nalishda "Xalqaro ta'lim va tarmoq resurslari" (International Education and Resource Network; IEARN) xalqaro tashkiloti ham o'ziga xos o'rin tutadi [8]. Tashkilotning maqsadi o'qituvchilarda maktab o'quv jarayonida zamonaviy AKTdan foydalanish asosida loyiha metodini qo'llash malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. O'z faoliyati davomida tashkilot barcha o'quv predmetlari bo'yicha AKTdan foydalanishga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqishda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Aksariyat davlatlarda pedagoglar internet tarmog'i orqali o'zaro muloqotning quyidagi shakllaridan foydalanmoqda:

- tarmoq pedagogik uyushmasi;
- o'qituvchilarning virtual metodik birlashmasi;
- ta'lim xodimlarining ijtimoiy tarmog'i;
- videokonferensiya;
- masofaviy ta'lim.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, maktablarda darslarni sifatli tarzda tashkil qilish orqali ta'lim tizimini takomillashtirishga erishish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir vaqtda maktab o'qituvchilarining axborot–kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o'rganish va uni amaliy tatbiq etish o'quv jarayonini zamonaviy asoslarga ko'ra tashkil etishda potensial ta'sir etadi.

Respublikamizning o'quv muassasalari, xorijiy ta'lim muassasalari bilan maktab o'qituvchilarining axborot–kommunikativ kompetentligini rivojlantirish borasida o'zaro tajriba almashish, hamkorlikdagi o'quv kurslarini yaratish maqsadida ilmiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Урсова О.В. Развивающий потенциал информационно-коммуникационных технологий в системе повышения квалификации учителей-предметников: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. - Великий Новгород: 2006. - 24 с
2. Eshmatov I.A. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagoglarning axborot kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy–pedagogik asoslarini shakllantirish. Ped.fan.nomz. ...diss. –T., 2018. –172 b
3. Amerika kutubxonalar assotsiatsiyasi (The American Library Association), ("Information Literacy Standards for Student Learning"). 225 N Michigan Ave, Suite 1300 Chicago, IL 60601 | 1.800.545.2433. <https://www.ala.org>.

4. Зимний И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования //Ж. Высшее образование сегодня. –М., 2003. №5. –С.45
5. Buabeng-Andoh C. Factors influencing teachers' adoption and integration of information and communication technology into teaching: a review of the literature. International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology, 8(1), P.136-155.
6. Гендина Н.И. Учебная программа ЮНЕСКО по медиа-информационной грамотности для учителей как объект анализа и адаптации в России и Узбекистане. // Медиаобразование. Media Education. 2017. №3 – С. 27–44
7. Лавренов А.Ю. др. Интернет для учителя / Пособие для системы доп.проф.образ. - М.: “Федерация Интернет Образования”, 2005. - 88 с.
8. Дендева Бадарча. Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании. - М.: “ИИТО ЮНЕСКО”, 2013. – 320 с.

Gulnoza ABDULXAMIDOVAToshkent davlat pedagogika universiteti
maxsus pedagogika (surdopedagogika)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
abdulhamidovagulnoza090@gmail.com**ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY FAOL
FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati hamda yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosiy islohotlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, umumiy kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiyasi, muloqot, nutq, ijodiy rivojlanish, faol nutq, ijtimoiy rivojlanish.

В данной статье представлена информация о важности развития общественно активных гражданских компетенций у школьников с нарушениями слуха и проводимых в нашей стране общественно-политических реформах.

Ключевые слова: компетентность, общие компетенции, коммуникативная компетентность, социальная компетентность, познавательная компетентность, общение, речь, творческое развитие, активная речь, социальное развитие.

This article provides information about the importance of developing socially active civic competencies in students with hearing impairments, as well as the ongoing socio-political reforms in our country.

Key words: competence, general competencies, communicative competence, social competence, cognitive competence, communication, speech, creative development, active speech, social development

Kirish. Bola shaxsini shakllantirish jarayoni insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam shaxsining rivojlanishi bir qator bosqichlardan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich oldingisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Har bir yosh davrida yashagan yosh organizm biologik tizimlarning yetilish darajasi, ularning vazifalari, shu qatorda odamning qat'iy tajribasi, bilimlarning hajmi faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi. Yoshi kattalashgan sari bolaning psixik faoliyati boyib boradi, uning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy xususiyatlari orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olimlar yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining eng sara fikrlarini tarixda qoldirib ketganlar, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga ega

hisoblanadi. Sharq mutaffakirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan jamlagan asosi shundan iboratki, ular shaxs axloqiy tarbiyasi va kamolotida mehnat tarbiyasining rolini yuqori darajaga qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy rivojlanishida mehnat tarbiyasining yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor qaratganlar [1, 34]. Ular faqatgina mehnat tarbiyasida rivojlanishi mumkin bo'lgan alohida sifatlar - halollik, poklik, jasurlik, mehribonlik, rostgo'ylik kabi qator fazilatlarini hamma sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birgalikda insoniy munosabatlarda yuzaga chiqadigan yuksak fazilatlar ota-onadan farzandga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar hamda bu yuzasidan amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy va sotsiologik, psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. Yurtimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblangan ta'limni yangilash, yosh avlodni zamon talablariga javob beradigan barkamol inson etib tarbiyalash, yosh avlodning ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo'ymoqda. Mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining hamma sohalarida

tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining yangilanishiga olib keldi. Mustaqillik yillarida yurtimizda demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etish, jamiyatda sog'lom muhitni qaror toptirish, fuqarolarni ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Asosiy qism. Sog'lom bolaning psixik qonuniyatlarini o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etish, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Karlik eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, unda mustaqil holatda nutqni egallash, hatto quloqqa yaqin bo'lgan masofadagi nutqni aniq idrok etishning o'zi bo'lmaydi. Odatda, karlikda baland nutqiy bo'lmagan tovushlarning quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Zaif eshituvchanlik eshitishning turg'un pasayishi hisoblanib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zahirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi. Audiometr tekshiruvni zaif eshituvchilikda eshitishning 80db. dan kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi. Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darajasi quyidagi to'rt omilga bog'liq hisoblanadi:

- 1) eshitishning darajasi;
- 2) eshitish muammosining sodir bo'lish vaqti;
- 3) bolaning individual xususiyatlari;
- 4) eshitish muammosi sodir bo'lgandan so'ng

bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni eshitish darajasiga ko'ra guruhlariga tasniflash va mazkur tasnif asosida maxsus ta'lim-tarbiya sharoitini tashkil etish ijobiy samara beradi. Eshitish qobiliyatining buzilishi kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvini sezilarli darajada qiyinlashtiradi, bu birinchi navbatda nutqning yo'qligi yoki jiddiy rivojlanmaganligi va natijada bolaning tashqi dunyo bilan ijtimoiy aloqalarining buzilishi bilan bog'liq. Muvaffaqiyatli rivojlanish hamda moslashish uchun bolalik davri, ayniqsa, muhim va poydevor bo'lib xizmat qiladi. Inson bolalik davridan xulq-atvor qoidalari, urf-odatlar, odob-axloq qoidalari bilan tanishadi, atrofidagi odamlarning tilini o'rganadi, ya'ni so'zning keng ma'nosida inson madaniyatini o'zlashtiradi.

Kompetensiya bu – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik hisoblanadi.

Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini to'ldiradi, shu bilan bir vaqtda, kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu

tushuncha vakolatlar yig'indisi, huquq va majburiyatlar, qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar, nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish, kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami tushuniladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun muhim ahamiyat kasb etgan axloqiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar o'z navbatida bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Milliy istiqloq mafkurasi asosida ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda hayotga tayyorlashda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, hozirgi kunda maxsus eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bolaning kompetensiyalari bola rivojlanishining quyidagi sohalarida belgilanadi:

sog'lom turmush tarzini va jismoniy rivojlanishining shakllanishi;
ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
nutq va muloqot, o'qish hamda yozish malakalari;
bilish jarayonining rivojlanishi;
ijodiy rivojlanish.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalar:

- o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;

- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;

- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;

- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;

- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

Ijtimoiy rivojlanish - bu bola o'zi yashaydigan, o'ynaydigan va kattalar, tengdoshlari bilan muloqot qiladigan jamiyatning qadriyatlarini, an'analari, madaniyatini o'rganadigan jarayon. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola ijtimoiy rivojlanish orqali boshqalarning manfaatlarini, jamiyatdagi xulq-

46 atvor qoidalari va me'yorlarini hisobga olgan holda ular bilan yonma-yon yashashni o'rganadi, ya'ni ijtimoiy jihatdan barkamol bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi inson hayotining turli sohalarida, jumladan, ijtimoiy sohalarida jadal rivojlanayotgan innovatsion o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Jamiyat va davlat hozirgi kunda tez o'zgaruvchan jamiyatda ijtimoiylasha oladigan, ijodkor, faol, universal harakat usullariga ega bo'lgan insonlarga muhtoj. Ta'lim tizimining davr talabiga javoblaridan biri bu davlat ta'lim standartlarida amalga oshirilgan o'rganishga kompetensiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi. Yangi standartlarning o'ziga xos xususiyati ta'limning amaliy hayotga yo'naltirilganligini kuchaytirish hisoblanadi. Asosiy vakolatlar tarkibida ijtimoiy kompetensiya hayotning turli sohalarida ijtimoiy o'zaro ta'sirga tayyorlik, qobiliyat, ijtimoiy moslashish hamda harakatchanlik birligi sifatida muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- hamkorlik, jamoada ishlash, muloqot qilish qobiliyati;

- o'z qarorlarini qabul qilish qobiliyati, o'z ehtiyojlari va maqsadlarini amalga oshirishga intilish;

- mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish, o'z kasbiy imkoniyatlarini baholash qobiliyati;

- ijtimoiy yaxlitlik, jamiyatdagi shaxsiy rolni aniqlash qobiliyati;

- mehnat va fuqarolik munosabatlari etikasiga egalik qilish.

Bir qator olimlar T.S.Zykova, N.M.Nazarova, G.N.Penin eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarning sezgi a'zolarining funktsionalligi to'g'risidagi bilim va tasavvurlari cheklanganligini ta'kidlaydilar; E.G.Rechitskaya, T.V.Rozanova o'z-o'zini hurmat qilishning yetarli emasligi va identifikatsiya qilishda qiyinchiliklarni; P.M.Boskis, A.G.Zikev faollik va mustaqillikning pasayishini ta'kidlaydilar. T.G.Bogdanovning shaxsning aqliy, jismoniy va nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor bermaslik, ularning mavjudligi asarlarida isbotlangan [5].

So'nggi yillar maxsus ta'lim tizimi, jumladan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan jamlangan tajribalarni o'rganish va tahlil etish shuni ko'rsatdiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ayrim muhim bo'lgan kamchiliklar kuzatiladi. Maxsus adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili bo'yicha, bu kamchiliklar quyidagi yo'nalishlarda yuzaga chiqadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga ortib borayotgan talablarga mos ilmiy tadqiqot ishlarining yo'qligi, o'quv jarayonining metodik ta'minlanmaganligi, ta'lim-tarbiya jarayonidagi muayyan sharoitlar xilmaxilligi va uni amalga oshirish mazmuni, shakl, usullari ishlab chiqilmaganligi;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga jamoatchilikning e'tibori ahamiyatli darajada ta'minlanmaganligi;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi, o'quv reja, darslik va o'quv qo'llanmalar bir tizimda emasligi hamda takomillashtirilmaganligi;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashga yuqori darajada e'tibor qaratilmayotganligi;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni yildan-yilga o'zgarib hamda takomillashib bormoqda. Lekin bu faoliyatni kutilyotgan natijalarga olib keluvchi jarayonni ilmiy asoslangan holda tashkil etish zarur.

Bugungi kunda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish sifatini ko'tarish usullari, uslublari tadqiq etilgan qamrab olgan ilmiy ishlar mavjud emas. Bu esa hozirgi kunning dolzarb muammolaridan bo'lib qoladi. Hamdo'stlik mamlakatlari tadqiqotchilari olimlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi A.B.Habibullayeva, Y.K.Babanskiy, E.A.Baydalina, L.L.Burlyakova, V.P.Butkovskiy, B.S.Gershunskiy, V.A.Grachi-kovlar qarashlarida tadqiq etilgan [2, 135].

O'rganilgan ilmiy izlanishlardan aniqlanishicha, maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha mamlakatimizda L.Mo'minova, V.Raxmonova, N.Sosedova, R.Shomaxmudova, P.Po'latova, M.Fayziyeva va G.Sodiqova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, M.Xamidova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova, M.Xakimova ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan [3, 26].

Bunday izlanishlar qatoriga maxsus maktablarda o'quvchilarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash,

nutqini rivojlantirish va mustahkamlash, alohida yordamga muhtoj bolalarni kasb-hunarga tayyorlashga oid tadqiqotlarni kiritish mumkin. Xususan, maxsus maktablarda mehnat ta'limini tashkil etish va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga rahbarlik qilish masalalariga oid tadqiqotlar M.Xakimova tomonidan olib borilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi muammolari, shuningdek, ularni savodga o'rgatish, eshituv idrokini rivojlantirish, tilning grammatik tizimini shakllantirish, so'zlashuv nutqini rivojlantirish U.Fayziyeva [4, 18], N.Bekmuradov, F.Alimjo'jayeva, F.Qodirova, D.Nazarova, X.M.Gaynutdinovning ilmiy ishlarida tadqiqot obyekti bo'lgan.

Umuman ta'lim muassasasi, shuningdek, har bir o'qituvchi faoliyatining maqsadi eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning hayot sifatini yaxshilashga yordam berish, uning manfaatlarini turli doiralarda himoya qilish va ifodalash, bolalarning imkoniyatlarini tenglashtirish uchun sharoitlarni yaratishdir.

Muhokamalr va natijalar. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ijtimoiy rivojlantirish jarayonida bir qator shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish kerak:

- shaxsning ijodiy va kognitiv faolligi, o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajasini shakllantirish, bu shaxslararo aloqalarni tashkil etish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi;

- birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarini adekvat idrok etish va baholash qobiliyatini belgilovchi bilimdonlik, shaxsiyat madaniyat, tanqidiy fikrlash hamda intellektual va shaxsiy xususiyatlar majmuini shakllantirish;

- muloqot qobiliyatlari va unga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

- o'zini-o'zi hurmat qilishni shakllantirish.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda o'qituvchilar oldida turgan vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish;

- ijtimoiy faollikning uyg'otish;

- o'z-o'zini hurmat qilishni tarbiyalash;

- o'z taqdirini o'zi belgilash istagini shakllantirish;

- jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan o'zgarishlarda faol ishtirok etishga intilish.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiylashtirish jarayoni barchani qamrab oladigan tizimli, kompleks yondashuvni, uzluksiz ta'limning yagona dasturini talab qiladi. Bola ta'lim muassasasiga kirganidan boshlab muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va keyingi ijtimoiy rivojlanishga yordam beradigan choralar ko'riladi. Bunga quyidagilarni kiritamiz:

- bolalarni psixologik-pedagogik tekshiruvdan o'tkazish;

- bolalarning sinfdagi xatti-harakatlari va moslashuvini kuzatish;

- moslashuv davrida kattalar va bolalar bilan o'zaro munosabatlarni kuzatish;

- oilada uning ijtimoiy munosabatlarida o'zaro munosabatlar xususiyatlarini aniqlash uchun ota-onalari bilan suhbat o'tkazish;

- bolaning yangi muhitda o'zini qanday his qilishi haqida o'qituvchilar va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish.

Psixologik-pedagogik tekshiruv jarayonida ijtimoiy, jismoniy, aqliy va kognitiv rivojlanish darajasi, o'yin faolligi aniqlanadi hamda eshitish va nutqni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi, bolaning ijtimoiy jihatdan yaxshi rivojlanishiga bularning barchasi bog'liq bo'ladi. Pedagoglar, o'qituvchilar, psixologlarning sa'y-harakatlari ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bolaning ijtimoiy tajribasini boyitishga, hissiy sohani rivojlantirishga, kattalar va bolalar bilan samarali aloqa qilishning asosiy usullarini o'rgatishga, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni g'oyalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun o'qituvchilar va oila o'rtasidagi yaqin munosabatlar zarur. Ota-onalar tarbiya va ta'lim jarayonida faol ishtirok etadilar, ular oilada bolani tarbiyalash uchun o'qituvchilar bilan bir xil talablarga rioya qilishni o'rganadilar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning xususiyatlaridan biri ularni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni qo'llab-quvvatlash va "kattalar hayoti"ga kirishiga yordam berishdir. Buning uchun birinchi navbatda oilada ham pedagogik va ta'lim sharoitlarini yaratish kerak. Shuni ham aytib o'tish kerakki, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning shaxsiyati va kognitiv faolligining rivojlanishi eshitishi normal bolalarining rivojlanishidan farq qiladi va o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega, bu ham jamiyatga ijtimoiy integratsiyalashganda hisobga olinishi kerak. Muayyan sharoitlarda kar va zaif eshitadigan bolalar jamiyatning to'liq a'zolariga aylanadi. Asosiysi, ularga qiyinchiliklarni yengishga yordam berishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish natijasida eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini o'rganish muammosi tizimli yondashishni talab qiladigan juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammo. Yurtimizdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy moslashuvi

48 va muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi masalasi tobora keskinlashmoqda. Muammoga doir ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil etish asosida shu narsa aniq bo'ldiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini o'rgatishning samarali yo'llarini tadqiq etilmagan. Bugungi kunda jamiyatda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiylashtirishda ta'lim muassasasining ro'li katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim va tarbiya berish texnologiyalari va mazmunini takomillashtirish, bolalarga ta'lim va tarbiya berishning maqsad va vazifalarini, mazmuni va

texnologiyalarini belgilab olish zarur. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ijtimoiylashtirish uchun bolalarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlar tajribasini, boshqa odamlar bilan muloqot qilish madaniyati normalarini hamda axloqiy va mehnat madaniyatini asta-sekin o'zlashtirishi uchun sharoit yaratish zarur. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ijtimoiy moslashtirish va reabilitatsiya qilish muammolari maqsadli ijtimoiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish sharoitida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uy xo'jaligi, individual va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatning qulay sohalariga kiritish orqali hal qilinadi.

Adabiyotlar

1. Haydarov M. E. Mehnat tarbiyasi vositasida xalq milliy an'analaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari (Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari misolida). Ped. fan. dokt. diss. avtoref. – T., 2001. -34 b.
2. Musayeva S.I. Mehnat ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tejamkorlik hislatlarini singdirish: Ped. fan. nomz. ... diss. – T., 1995. -135 b.
3. Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped. fan. nomz. dis. avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. -26 b.
4. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish. Ped. fan. nomz. dis. avtoref. -Toshkent: TDPI, 1994. -18 b.
5. Korvayakov L.P. Eshitish qobiliyati buzilgan o'smirlarning kasbiy ta'limining dolzarb muammolari. 2012. -7-11 b.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING AXLOQIY KOMPETENSIYASI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Mazkur maqolada kompetentlikning muhim ko'rinishi bo'lgan axloqiy kompetentlik va uni bo'lajak o'qituvchilarning kelgusidagi pedagogik faoliyatidagi o'rni haqida bayon etilgan. Shuningdek, axloqiy kompetentlikning sinonimi bo'lgan pedagogik etika va uning pedagog faoliyatidagi ko'rinishlari keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, axloqiy kompetentlik, axloq, pedagogik kompetentlik, axloqiy kompetensiya egallashga qo'yiladigan talablar, etika, pedagogik etika, pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar.

В данной статье описывается этическая компетентность, которая является важной формой компетентности, и ее роль в будущей педагогической деятельности будущих учителей. Также широко описывается педагогическая этика, являющаяся синонимом нравственной компетентности, и ее проявления в педагогической деятельности.

Ключевые слова: компетентность, нравственная компетентность, этика, педагогическая компетентность, требования к приобретению нравственной компетентности, этика, педагогическая этика, требования к педагогической личности.

This article describes ethical competence, which is an important form of competence, and its role in the future pedagogical activities of future teachers. Pedagogical ethics, which is synonymous with moral competence, and its manifestations in pedagogical activity are also widely described.

Key words: competence, moral competence, ethics, pedagogical competence, requirements for acquisition of moral competence, ethics, pedagogical ethics, requirements for pedagogical personality.

Kirish. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy va o'rta maxsus, professional ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash kabi vazifalar belgilangan bo'lib, yoshlarning axloqiy tarbiyasi, jumladan, bo'lajak o'qituvchilar, ya'ni talabalarning axloqiy kompetentligini rivojlantirish[1] ushbu farmonning ijrosini ta'minlovchi muhim masalalardan biridir.

Asosiy qism. Kompetensiya va kompetentlik nima va uning bo'lajak o'qituvchilar uchun zarurati nimada?

"Kompetensiya" so'zi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "lot. "competo" – erishayapman, munosibman, loyiqman" deb izohlanadi.

"Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi.

Kompetentlik tushunchasi o'z bilimlari va huquqlariga suyangan holda muayyan bir

masalalarni hal etish va yecha olishga loyiqligi, fikr yurita olish malakasiga ega ekanligini bildiradi [6].

Inglizcha "**competence**" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "**kompetentlik**" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelganligini bilamiz. Shu sababli, kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi [7].

Psixologik nuqtayi nazardan yondashganda esa kompetentlikni mutaxassisning bilimlilik, kasbiga mos bo'lish, malakasi, boy tajribaga ega bo'lish, javobgarlikni, pedagogik faoliyatga singdirib borish, o'z sohasining ustasi bo'lish va uning sirlarini chuqur bilish bilan bog'liq ekanligi haqida fikrlar mavjud.

V.S.Merlin nuqtayi nazarida kompetentlik bu – yo'naltirilgan, uddalay oladigan motivatsiyadir [5], deb ifodalansa, A.A.Leontev fikricha, kompetentlik munosabati ilg'or pedagogik jarayon hisoblanadi [4].

Kompetentlikning psixologik aspektlari V.I.Baydenko tomonidan quyidagicha tavsiflanadi:

1. Shaxsning pedagogik faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi, ya'ni, statik komponentlar kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko'nikma, malakalar, zaruriy sifatlar hamda shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi.

2. Shaxsning pedagogik faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi, ya'ni, mutaxassisning tezkorligi, o'zgaruvchanligi, ruhiy va jismoniy holati, har qanday holat va sharoitda aniq masalalarni yechishga yo'nalganligi bilan ifodalanadi [3].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim talabalarida mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kelgusidagi kasbiga mas'uliyat bilan yondashmoq, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Pedagogik kasbining muhim kompetensiyalaridan biri – bu axloqiy kompetensiyasidir.

Axloqiy kompetentlik – bu o'qituvchining axloq qoidalari asosida kasbiy faoliyatini amalga oshirishga tayyorligini belgilovchi axloq sohasidagi nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va ma'lum shaxsiy fazilatlarini majmuini birlashtirishga asoslangan murakkab shaxsiy-psixologik ta'lim hisoblanadi. Kasbiy kompetensiyaning darajasini belgilovchi axloqiy kompetensiya maktab o'qituvchisiga ta'lim va tarbiya muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Axloq "xulq" so'zining ko'pligi bo'lib, insonda shakllanadigan xulq-atvorni bildiradi. Ba'zi olimlar axloqni "irodaning odati" deb ta'rif qilgan. Ya'ni, iroda o'ziga bir narsani odat qilish olsa, o'sha axloqqa aylangan bo'ladi [9].

Axloq ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xatti-harakatlar, his-tuyg'u va kishilar o'rtasidagi o'zaro real munosabatlari tizimini ifoda etadi. Axloq muayyan xalqning atrof muhitga, kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari sifatida, bir jihatdan mahalliy – milliy xususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi jihatdan millatning umumjamiyat talablariga uyg'un muvofiqligini ta'minlovchi umuminsoniy xususiyatga ham egadir [10].

Hozirda talaba – yoshlarni axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishga doir qabul qilinayotgan hujjatlar talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, axloqiy – ma'naviy kompetensiyalar tizimini jadal shakllantirish lozimligini ko'zda tutadi. Jumladan, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ma'naviy-axloqiy

tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar sifatida quyidagilar alohida ajratib ko'rsatilgan:

➤ ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

➤ o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganishni rag'batlantirish;

➤ kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zini-o'zi tarbiyalashga o'rgatish;

➤ faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

➤ ilmiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirish;

➤ baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

➤ kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish [2].

Bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy kompetentligini rivojlantirishning zarurati quyidagilarda aks etadi:

➤ talabalar tomonidan har bir kasb sohibi bo'lmish fuqaro uchun zarur bo'lgan axloqiy kompetensiyalarning shaxs uchun ahamiyatli yangi fazilatlarga aylanishi;

➤ ta'lim-tarbiya jarayonining turli shakllarida (ijodiy, tadqiqiy, amaliy kasbiy yo'nalishdagi yoki o'xshash sohalarda) nazariy bilim ko'nikmalar, bo'lg'usi kasbga ijobiy motivatsiyaning qaror topishi, mustahkamlanishi;

➤ kasbiy ahamiyatga yo'naltirilgan faoliyatda axloqiy kompetensiyalarning ixtiyoriy-individual o'zlashtirilishi;

➤ axloqiy kompetensiya shakllanishi natijalarining ko'rgazmaliligi, o'zgarib borishi; shaxs uchun ahamiyatli muhim sifat (ustuvorlik) va miqdoriy (ijtimoiy, madaniy) ko'rsatkichlarning uyg'unligi;

➤ talabalar va o'qituvchilarning hayotiy faoliyati, ularning hamkorlik doirasi – muhiti;

➤ amaliyotning yangi ehtiyojlariga operativ munosabatni qaror toptirish.

Muhokamalar va natijalar. Bilamizki, axloq so'zining sinonimlari sifatida **etika** so'zi ham qo'llaniladi.

Etika (yun. yegpoz - xulq, odat) - axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganuvchi falsafiy fan sanaladi. Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari – kategoriyalari

bor bo'lib, fazilat va illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma'nosi va boshqalar kiradi [11].

Pedagogik etika – axloq fanining tarkibiy qismi bo'lib, pedagogik faoliyatda axloqning umumiy tamoyillarini amalga oshirilishini nazorat qiladi hamda uning asosiy vazifalari va axloqiy kategoriyalarini ko'rib chiqadi. Pedagogik etikada o'qituvchining axloqiy fazilatlarini ijtimoiy qadriyatga aylanadi.

Pedagogik etika – bu pedagogik jarayonni tashkil etishning axloqiy tamoyillarini hamda ta'lim ishtirokchilari bilan munosabatlarni o'rnatish usullarini o'z ichiga olgan o'qituvchining xatti-harakati shakllari va qoidalari to'plamidir.

Pedagogik etika o'qituvchining axloqiy fazilatlarini va xulq-atvori bo'yicha axloqiy ko'rsatmalarga ega bo'lishini, madaniy xulq-atvor asoslarini o'zlashtirishini, konstruktiv xatti-harakat ko'nikmalarini va turli yoshdagi va rivojlanish xususiyatlaridagi bolalar bilan munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini nazarda tutadi.

Pedagogik etikaga quyidagi komponentlar kiradi: pedagogik madaniyat, pedagogik takt, axloqiy belgilar, pedagogning kasbiy faxri, pedagogik adolat, professional malaka.

Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablarga quyidagilar kiradi:

- pedagogning kasbiy etikasi kasbga chanqoqlikni, o'z ishiga fidoyilikni va o'z vazifalarini bajarishda mas'uliyat hissini talab qiladi;

- pedagog o'ziga nisbatan talabchan bo'lib, o'zini o'zi takomillashtirishga intiladi. O'z-o'zini nazorat qilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashi va o'z-o'zini tarbiyalashi bilan tavsiflanadi;

- pedagog doimiy yangilanishga muhtoj bo'lib, doimiy yangilikka intilishi, o'z ta'limi, tarbiyasi va ishining eng yaxshi tomonlarini izlash bilan shug'ullanadi.

Pedagogning mas'uliyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- pedagog o'ziga ishonib topshirilgan pedagogik ish, ya'ni ta'lim sifati va natijasi uchun javobgardir;

- pedagog o'z qaramog'idagi bolalarning jismoniy, intellektual, hissiy va ma'naviy himoyasi uchun mas'uldir;

- pedagog ma'muriyat tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifalar uchun javobgardir;

- avtoritet, nomus, obro'-e'tibor.

Pedagogning obro'-e'tibor orttirishi uning malakasiga, adolatli hamda xushmuomalali bo'lishiga hamda o'z o'quvchilariga g'amxo'rlik qila olishiga asoslanadi.

Pedagog o'zini ijobiy tarzda tarbiyalashi, axloqsizliklardan qochishi, birovlarini qoralashga

shoshilmasligi va o'zi bajara olmagan narsani boshqalardan talab qilmasligi lozim.

Pedagog shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqiga ega bo'lishi, shu bilan birga, u tanlagan hayot yo'li kasb nufuzini pasaytirmasligi, o'quvchilari va hamkasblari bilan munosabatlarini buzmasligi, kasbiy burchlarini bajarishga xalaqit bermasligi kerak.

Mastlik va boshqa mast qiluvchi moddalarni suiiste'mol qilish pedagoglik kasbiga to'g'ri kelmaydi.

Pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi aloqaga quyidagilar kiradi.

O'quvchilar yoki talabalar bilan o'zaro hurmat asosida muloqot qilishning mos uslubini pedagogning o'zi tanlaydi.

Pedagog birinchi navbatda o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. Pedagogning o'quvchiga nisbatan talabchanligi ijobiy va asosli bo'lmog'i lozim. Pedagog hech qachon, har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasligi kerak.

Pedagog o'z o'quvchilarida ijobiy fazilatlar va munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan ish usullarini tanlashi lozimdir. Bular: mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini tarbiyalash, hamkorlik qilish va boshqalarga yordam berish istagi.

Pedagog o'z o'quvchilarining xulq-atvori va erishgan yutuqlarini baholashda ularning o'ziga bo'lgan hurmati va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, ularni takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rsatishga, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga intilishi lozim.

Pedagog xolis, barcha shogirdlari bilan birdek do'stona va qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchini asossiz ravishda kamsitadigan baholash qarorlarini qabul qilgan pedagog o'z xatosini darhol tuzatishga harakat qilishi kerak.

O'quvchilar erishgan yutuqlarni ball bilan baholashda o'qituvchi xolislik va adolatga intilishi, yozma imtihonlar va nazorat sinovlari vaqtida o'quvchilarning o'quv natijalari ko'rinishini sun'iy ravishda saqlab qolishi va xatolarini tuzatish uchun baholarni past yoki ortiqcha baholashga yo'l qo'yishi mumkin emas.

Pedagog o'z nutqi, muloqot madaniyati haqida doimo g'amxo'rlik qilishi, uning nutqida la'natlar, vulgarizmlar, qo'pol va haqoratli iboralar bo'lmasligi lozim.

Pedagogga talaba yoki o'quvchi tomonidan shaxsan ishonib topshirilgan ma'lumotlarni boshqa shaxslarga yetkazishi ta'qiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Pedagog o'z mansab mavqeini suiste'mol qilmasligi va o'z shogirdlaridan foydalanmasligi, ulardan biron bir xizmat yoki imtiyoz talab qila olmasligi kerak.

52

Pedagog o'z o'quvchisidan mehnatiga haq to'lashni, shu jumladan qo'shimcha haq to'lashni talab qilishga haqli emas. Agar pedagog xususiy amaliyot bilan shug'ullansa, mehnatga haq to'lash shartlari ish boshida kelishib olinishi va shartnomada belgilanishi lozim.

Pedagog o'z o'quvchilarining diniy e'tiqodi va siyosiy qarashlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishi hamda o'quvchilarga o'z nuqtai nazarini singdirib, ta'limotni qo'llashga haqli emas.

Pedagoglar o'rtasidagi aloqa quyidagicha bo'lishi lozimdir:

Pedagoglar o'rtasidagi munosabatlarda jamoaviylikka, sheriklikka va hurmat tamoyillariga asoslanishi, pedagog nafaqat o'zining, balki hamkasblarining ham obro'sini himoya qiladi. U o'quvchilar yoki boshqa odamlar oldida hamkasblarini kamsitmaydi.

Pedagoglar munosabatlardagi asossiz va janjalli nizolardan qochishi va agar kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, ular konstruktiv yechim topishga intilishi lozim.

Pedagogning huquq va burchi hamkasblar va ma'muriyat faoliyatini baholashdan iborat. Pedagogni tanqid qilish uchun ta'qib qilish qat'iyan man etiladi. Tanqid, birinchi navbatda, ichki bo'lishi, ya'ni u ta'lim muassasasidan tashqarida emas, balki muassasalarda va boshqa ta'lim muassasalarida pedagoglar o'rtasida ifodalanishi kerak. Ta'lim muassasalarida g'iybatga joy bo'lmasligi lozim.

Umuman, yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalarining bo'lajak o'qituvchi sifatida axloqiy

kompetensiyalarni egallashlari uchun quyidagilarni bilishi talab etiladi:

- 1) muloqotda xushmuomala bo'lish.
- O'quvchilarni haqorat qilish, ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- 2) madaniy muloqot qoidalariga rioya qilish;
- 3) muloqotda axloqiy me'yorlarga asoslanish;
- 4) bolaga yuqori talablar qo'ymaslik;
- 5) o'quvchiga ovozni balandlatmaslik;
- 6) lug'atda qo'pol so'zlardan voz kechish;
- 7) o'quvchi shaxsiga hurmat ko'rsatish kabilar.

Ushbu talablarning barchasi pedagogik etika tushunchasini tashkil etadi. Ushbu qoida va talablarga rioya qilish o'qituvchidan pedagogik mahoratni talab etadi.

O'qituvchi o'zi uchun muloqotning o'ziga xos uslubini ishlab chiqishi va o'quvchilar bilan munosabatlarni o'rnatishi zarur. Bu o'quvchilar oldida o'qituvchining obro'-e'tiborini oshishiga va o'quvchilarning ta'lim olishi uchun qulay muhit yaratishiga, shuningdek, pedagogning kasbiy vazifalarini bajarilishiga asos bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning maslahatchisi va do'sti bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, axloq – insonning bezagi, ko'rki, yuqori bahosi sanaladi. Pedagoglarda axloqiy kompetentlik barcha kompetensiyalarning asosi desak mubolag'a bo'lmaydi. Pedagoglarda axloqiy kompetentlik talabalik davridan boshlanishi va bu uchun oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari muntazam ravishda talabalar xulqi-odobiga singdirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-son Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori
3. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы): методическое пособие. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 114 с.
4. Леонтьев А.А. Психология общения. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Смысл, 1997. – 365 с.
5. Мерлин В.С. Психология индивидуальности /Под ред. Е.А.Климова. – Воронеж. НПО "Модек". 1996. – 448 с.
6. Санаева С.Б. Необходимость развития общепрофессиональных компетенций у студентов // Colloquium-journal, 2022, 3 (126), 13-15
7. Санаева С.Б. Дидактические возможности развития методической компетенции будущих педагогов // Colloquium-journal, 2020, 3-4, 59-61
8. S.S.Bobonazarovna. Development of methodical competence of the teacher of preschool educational institution // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 2019, № 9
9. <https://tazkiya.uz/husni-hulq/item/368-axloq-va-uni-sayqallash.html>
10. <https://uz.denemetr.com/docs/134/index-86835.html>
11. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etika-uz/>

OILAVIY TARBIYA USHLUBLARI VA OTA-ONALARNING MUNOSABATLAR MA'NAVIYATI

Ushbu maqolada Oilaviy tarbiya ushlublari va ota-onalarning munosabatlar ma'naviyati haqida yoritib berilgan. Qolaversa, maktabgacha yoshidagi bolani tarbiyasida ota-onalar ham o'z imkoniyatidan kelib chiqib farzandini har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda mas'ul ekanliklari alohida ta'kidlanib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, pedagogik madaniyati, jamiyat, bola, ota-ona, opa-singil, aka-uka ta'lim, tarbiya urf-odat, muhit, aqliy tayyorgarlik, malaka, ko'nikma, tajriba.

В данной статье рассматриваются методы семейного воспитания и духовность родительских отношений. Кроме того, в воспитании дошкольника родители также несут ответственность за воспитание своих детей в полной мере своих возможностей выделено.

Ключевые слова: семья, педагогическая культура, общество, ребенок, родитель, сестра, сиблинговое воспитание, традиция воспитания, среда, психологическая подготовка, квалификация, мастерство, опыт.

This article discusses the methods of family upbringing and the spirituality of parental relationships. In addition, in the upbringing of a preschool child, parents are also responsible for the upbringing of their children to the fullest extent of their ability highlighted.

Keywords: Family, pedagogical culture, society, child, parent, sister, sibling education, upbringing tradition, environment, mental preparation, qualification, skill, experience.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash uni hayotga tayyorlash oila va jamiyat tomonidan hal etiladigan asosiy ijtimoiy vazifalardan biri bolib, shuning uchun ota-onalar farzandlarining birinchi tarbiyachisi va o'qituvchisi hisoblanadi. Ota-onaning farzandlariga va farzandlarning ota-onasiga mehroqibatli bo'lishlari, ularning ota-onalik va farzandlik burchi, mas'uliyatini his qilish masalalari xalqimiz milliy qadriyatlarining shakllanishida muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qilganligi shubhasiz [8]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs bo'lib shakllantirishda ota-onalarning roli juda katta va ota-onalar bilan bo'ladigan kundalik muloqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoni o'rganadi, kattalarga taqlid qiladi, hayotiy tajribasiga ega bo'ladi, xatti-harakatlarning normalarini o'rganadi.

Asosiy qism. Oilada ota-ona va faqat oila a'zolarigina o'sayotgan bolaning nimalarga qodirligini, qanday qobiliyatga ega ekanligi va bolasidagi o'ziga xos xususiyatlarini birinchi bo'lib ko'rishadi va his qilishadi, oilada ota-ona o'z farzandining asosiy qobiliyatini aniqlaydi va dastlab bu fazilatlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Oilaviy tarbiyaning asosiy muammolaridan biri bu oiladagi ota-onalarning pedagogik madaniyati etishmasligidir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qaroriga muvofiq yoshlarni mustaqil hayotga kafolatli tayyorlash, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib, 18 yoshigacha davom etadigan, tadrjijilik va uzluksizligiga asoslangan metodikani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, yoshlarni shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasi" tasdiqlandi [6]. Oilaviy tarbiyaning vazifasi - ma'naviy va jismonan sog'lom shaxsning normal rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi" bosh g'oyasi "Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksizlik asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berish"ni ko'zda tutadi [6].

Darhaqiqat, barkamol shaxsni shakllanishida oilaning, aniqrog'i, ota-onaning roli nihoyat katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muomma bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bolaga yaxshi

54 tarbiya berish, farzandini hayotda qoqilmasdan muvaffaqiyatlarga erishib kamolga yetishini ota-onaning asosiy maqsadi, vazifasi va orzusi hamdir. Qolaversa, bu ota-ona uchun ham qarz ham farzdur. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishi bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir.

Abdurauf Fitrat shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqni ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli, tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi" [8].

Darhaqiqat, har bir ota-ona o'z bolasini baxtli bo'lishi uchun astoydil, har kuni tarbiyalash zarurligini yaxshi biladi. Biroq, farzandlarini o'z vaqtida tug'ilgandanoq ta'bir joiz bo'lsa homiladorlik vaqtidan tarbiya qilishlikni unutib qo'yishadi. Ba'zan ilk yoshlardan, bosqichma-bosqich, uzluksiz tarbiyalashga e'tibor berishmaydi. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar birdaniga ko'rinmaydi. Noto'g'ri tarbiyaning asoratlari oradan ko'p yillar o'tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko'rinadi. Bugungi kunda O'zbekistonning peshqadam yoshlari davlat, ota-onalarining maqsadli, uzluksiz tarbiyalari tufayli turli sohalarda, jahon miqyosida mislsiz yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda [6].

Ma'lumki, shaxsning qadriyati uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanib, ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ota-ona o'z bolalarining tarbiyachisi hisoblanadi. Tarbiya, irsiyat (nasl) va muhit bola shaxsining rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Bu haqda muborak islom dini manbalarida, barcha mutaffakirlarning asarlarida u yoki bu jihatdan ilmiy asoslangan. Ayniqsa, har uch omilning ichida tarbiyaning roli ahamiyati alohida e'tirof etilgan. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va natijasi irsiyat hamda muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanishi ham sir emas. Chunki nasl va muhitda kamchilik bo'lsa tarbiyaning ijobiy ta'siri sezilmasligi mumkin. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ta'kidlaydilar: Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: "Nabiy(sollallohu alayhi vasallam) Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy..." bu hadisi sharifdan irsiyat, ya'ni biologik omil insonning shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi G'arb faylasuf va olimlarning fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini

ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalansa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

Oila deganda avvalo ota-ona siymosi ko'z oldimizda gavdalanadi. Albatta, ota-ona millat va jamiyat tarbiyachisi hisoblanadi. Oiladagi asosiy tarbiyachi - bu ona hisoblanib, u birinchi qiyinchilikni engillashtiradi bolasining hayot yo'lida sodir bo'lganda qiyinchiliklarda unga yordam beradi otaning bolani ijobiy tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoji, ammo uning ta'sirini ham eotibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Shu sababli ushbu mavzu jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarbdur. Axir, faqat ota-onaning sevgisi bo'lganda dastlab kichkina odamni o'rab oladi, uni bemalol o'zlashtiradi, chunki dastlab nozik, mehribon, dono do'stlar va murabbiylar bilan o'ralgan; Shaxsning shax sifatida shakllanishida birinchi hayot o'qituvchilari - bu ota va ona xisoblanadi. Ota-onalik kasbi barcha oilalar uchun asosiy kasb va bu kasbni mukammal o'rganmoq lozim. Bola ota-onasiga taqlid qilish orqali o'rganadi, ular aytgan so'zlarni takrorlaydi. Demak, bola shaxsining shakllanishi uchun ota-ona ideal tarbiyachi bo'lishi kerak.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon bu-bola bilan ota-onaning doimiy muloqotidir. Yosh avlodning maonaviy qiyofasi, ularning, xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqeilikdir. O'zbek xalqining og'zaki ijod naomunalarida, buyuk sharq mutaffakirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, ezgu insoniy fazilatlilar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Fitrat intizomlilikning ijtimoiy mohiyatini tariflab, o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida shunday deb yozadi: "har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazzam bo'ladi."

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunda 3 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar va ko'pchilik maktabgacha yoshdagi bolalar ham faqat oilada va oila muhitida tarbiyalanadi. Bu yosh, keyinchalik uni to'liq qoplash imkoniyatini qo'ldan boy bergan

narsa. Shu sababli hozirgi va kelajakdagi pedagogik universal ta'lim muammosi juda dolzarbdir. Oilada maktabgacha yoshdagi bolalikning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari, uning ijtimoiy yunalganligi bolalarda asta-sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvori, odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Oilada maktabgacha yoshdagi bolalar xulqini shakllantirishning mazmuni va metodlari bu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va u eng yaqin vaqtdagi rivojlanish zonasini ko'zda tutishi kerak. Masalan, agar 4 yoshli bolalar o'z tengdoshlariga asosan ota-onasining maslahati, ko'rsatmasi ta'sirida baholi-qudrat yordam ko'rsatsalar, 5 yoshga to'layotganda bunday yordamni o'z xohishlariga ko'ra ko'rsatishlari lozim. Oilaga xos bo'lgan muhabbat, o'zaro e'tibor, g'amxo'rlik muhiti bola his-tuyg'usini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Oilada qaror toptiriladigan ijtimoiy his-tuyg'ular bolaning kichik yoshdan boshlab to'g'ri xulq-atvori rivojlanishining muhim asosi hisoblanadi. Zero, oila boshliqlari bilan bolalar munosabati, o'zaro totuvlik, mehr-oqibat, g'amxo'rlik asosida bo'lsa tarbiya vositalari(shaxsiy namuna, mehnat, dam olish, rag'bat, jazo)dan samarali foydalanilsa albatta muvaffaqiyatli kechadi [2]. Oilada sog'lom muhit va munosabat bo'lsa millat va jamiyatda ham sog'lom muhit qaror topadi.

Ota-onalarning ijtimoiy muhitda ibratli xislatlari, shaxsiy fazilatlarini, irodaviy sifatleri, o'z-o'zini qo'lga olish kabi jihatlari bolajonlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatleri shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma'nodagi nazokat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak [4].

Bolaning ma'naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta'kidlanadi. Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiy, erining xotiniga, xotinning eriga nisbatan o'zaro hurmati, iffati asosida qurilsagina, bunda u oilada musaffo ma'naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi.

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan ma'rifatparvar Ahmad Donish (1827-1897) "Navodirul-vaqoe", "Risola yo muxtasare va tarixi saltanati xonadoni manitiya", "Muntaqabul-ahkom" kabi asarlarida oila va oilaviy munosabatlar to'g'risida falsafiy – axloqiy va ma'rifiy qarashlarini ifoda etadi. Ahmad Donish ota-onalar huquqini belgilash haqida gapirar ekan, ular bilan bolalari o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida to'xtalib, o'z huquqlarini

suiste'omol qiladiganlarning chegarasiz huquqqa ega ekanligini aytib, ularning huquqlarini chegaralashni taklif etadi. Uning fikricha, shunday qilgan taqdirdagina ular hurmatga sazovor bo'ladilar va agarda bolalarini to'g'ri yo'lga yo'naltira olmasalar, bolalar ularning topshiriqlarini bajarmaslikka haqlidirlar. Shuningdek, Ahmad Donish barcha oilaviy kelishmovchiliklarni ota-ona huquqi bilan bolalar huquqining chegarasi aniq bo'lmaganligidan, bolalarning o'z ota-onasiga qachon va qanday vaqtda, qanday masalada itoat qilishi kerakligi, oilada ichki hayot qoidalari to'g'ri belgilanmasligidan kelib chiqadi, - degan fikrni bildiradi [7].

Ota-ona munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo'lishi, har ikki tomonning qarindosh-urug'lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi, bir so'zligi, haqiqatni gapirish kabi ijobiy fazilatlariga ega bo'lishi, shuningdek, sog'lom hayot kechirishi, chekish, yolg'onchilik, maishiy buzuvchi, dimog'dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi bo'lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofliqini ta'minlovchi xususiyatlardir.

Oilada a'zolarining o'zaro hurmati, do'stona munosabatlarining shakllanishi uchun ular orasidagi muhabbat dastlabki manba bo'lsa, axloqiy qadriyatlarining gulto'ji bo'lgan ibo, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, g'amxo'rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilada bola shaxsini to'g'ri shakllantirishda ikkinchi manba bo'ladi [4].

Xulosa. Demak, insonning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya, muhit va oila muhim hisoblanadi. Ayni damda o'tmishda yashab ijod qilgan Alisher Navoiy, Beruniy, Forobiy, Imom Buxoriy va Xorazmiy kabi buyuk faylasfilariga o'xshagan insonlarni qidiramiz ammo topolmayapmiz? Nega ekanligini hech o'ylab ko'rganmizmi? Sababi ular buyuk va irsiyati toza, ularni tarbiya qilgan ota-onalari kuchli ma'naviyat sohibi bo'lishgan, ular yashab ijod qilgan davrda ilm, ma'rifat va taraqqiyot o'zining cho'qqisiga chiqdi, ya'ni muhit yaxshi bo'lgan va eng asosiysi, ajdodlarimizning tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ota-onalari va ustozlari o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishgan, tarbiyalarida nuqson bo'lmagan. Agar farzandlarimizning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillardagi nuqsonlarni bartaraf etsak, albatta, kelajak avloddan Imom Buxoriylar kabi zabardast olimlar yetishib chiqadi. Har bir oilada dunyoga kelgan bola yosh avlod sifatida davlat o'rtaga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda fidokorlik, mehnatsevarlik bilan xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol toptirilishi lozim.

1. Qodirova F., Toshpo'latova Sh, Kayumova N., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika//darslik. –Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.
2. Abdusamidov A. va boshqalar. Mustahkam oila ma'naviyatlari. –Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2012.
3. Shoumarov G.B. -Oila pedagogikasi. -Toshkent: “Sharq”, 2009-yil.
4. Hasanboyeva O., Xoliqov D. Oila pedagogikasi. –Toshkent: “Aloqachi”, 2007-yil. 32-35b.
5. Abdusamatovna B. A. Formation of Creative Skills in Children through Creative Games //International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. – 2021. – T. 1. – №. 7. – C. 1-5.
6. “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi”. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son Qarori. www.lex.uz.
7. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavzusida yozilgan dissertatsiya ishi. –Toshkent, 2005-yil (14 b).
8. Norbosheva Maqsuda Achilovna. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida muloqotning o'rni// “Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar” jurnali. –Toshkent, 2020-yil (36 b).

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA “SUHBATLASHISH VA MUOMALA ODOBLARI” XUSUSIDA

Ushbu maqolada Husayn Voiz Koshifiy asarlarida suhbat odobi va soʻzlashuv madaniyati haqida fikr yuritiladi. Har bir insonning oʻzaro muloqotga kirishishda dastlab til va soʻz vositasi muhim sanalib, aloqalashuv jarayonida muomala madaniyati yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, soʻzlashuvdagi bu kabi omillarga eʼtibor qaratilishi bugungi kunda oʻzining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Kalit soʻzlar: soʻz, til, suhbat, suhbatlashish odobi, odob, tarbiya, yaxshi soʻz, yomon soʻz, hamsuhbatni eshitish.

В данной статье рассматриваются этикет и культура разговора в произведениях Хусейна Ваза Кашифи. Язык и лексика важны во взаимодействии каждого человека, а культура общения играет ведущую роль в процессе общения. Поэтому акцент на таких факторах в разговоре актуален и сегодня.

Ключевые слова: слово, язык, разговор, разговорный этикет, этикет, воспитание, доброе слово, дурное слово, слушание собеседника.

This article examines conversational manners and the culture of speech in the works of Hussein Waiz Hoshifi. When each person enters into mutual communication, language and means of speech become of paramount importance, and in the process of communication, the culture of behavior becomes of leading importance. Therefore, the emphasis on such factors in colloquial speech is still relevant today.

Keywords: word, language, conversation, conversational manners, manners, upbringing, good word, bad word, hear conversation.

Kirish. Mamlakatimiz oʻz taraqqiyotining yuksalish bosqichiga kirgandan soʻng amalga oshirilayotgan ilmiy, maʼnaviy, madaniy sohalaridagi islohotlar natijasida dunyoga oʻzining ulkan hissasini qoʻshgan mutafakkir allomalarimizning ilmiy, maʼnaviy merosini, ularning falsafiy taʼlimotlarini har tomonlama oʻrganishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek, “Biz ajdodlarimizning donishmandlik anʼanalariga amal qilib, ularning gʻoyalari teran anglagan holda, qatʼiy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yoʻlidan bormoqdamiz [1].

Pedagogik tadqiqot metodlari sirasiga suhbat metodi kirar ekan, uning maqsadi pedagogik kuzatish chogʻida qoʻlga kiritilgan maʼlumotlarni boyitish, vaziyatga toʻgʻri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlarining imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga xizmat qiladi. Demak, axloqiy tarbiya shakllanadigan maskan bu avvalo oiladir. Keyin esa maktabda ustozlar bolaga taʼlim bilan tarbiyani birga uygʻun holda olib borishadi. Uning natijasida yoshlarda tarbiya yuksak maʼnaviy qadriyat darajasiga yetishib: “tevarak atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini koʻrsatuvchi axloqiy

tamoyillar, gʻoyalar yoʻl-yoʻriqlar va maqsadlarda ifodalangan baho mezonlari va usullaridir” [2].

Inson uchun birinchi muloqot shakli bu til va soʻzdir. Muomala insonlarni bir-biriga bogʻlovchi, yaqinlashtiruvchi katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning goʻzal hayot kechirishida, jamiyat orasida oʻz oʻrnini topa olishida, boshqalarning hurmat-ehtimomiga erishishda muomalaning oʻrni kattadir. Chunki muomala jarayonida soʻz aqldan quvvat oladi. Soʻz, yuz va koʻz, tilning koʻrki hisoblanadi. Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) bu borada oʻz fikrini bildirib, “odamzodning sharafi nutqi bilan va nutqiga rioya qilmagan odam bu sharafdan beharadir”, deb aytadi. Notiqlik sanʼati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulugʻlagan [3]. Mashhur notiq Sitseron: “Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq boʻlish kerak”, degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. Harbiy sarkardaning itoatida koʻp sonli lashkar boʻlishini tasavvur qilsak, bu soʻz tasodifiy oʻxshatish emasligiga amin boʻlamiz.

Grek va Rim notiqchilari Aristotel, Demosten, Sitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik sanʼatining oʻziga xos maktabini yaratdilar. Shu oʻrinda “Suqrotcha suhbat” metodining mohiyati haqida ikki ogʻiz: yoʻnaltiruvchi savollar berish orqali

58 haqiqatni topishga intilishdan iborat bu metodda faylasuf o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi. Suqrotcha suhbatni tashkil etishda alloma o'quvchilarni "Men faqat hech narsani bilmasligimni bilaman" g'oyasi (tezisi) asosida faoliyat yuritishga undagan. Suqrot tomonidan asoslangan insonning ijobiy tabiati haqidagi qarashlar negizini o'z-o'zini anglashga doir g'oya tashkil etadi. Suqrotning eng mashhur tezislaridan biri quyidagichadir: "Kim o'zini yaxshi bilsa, uning uchun nima foydali ekanligini biladi va o'zining nimaga qodirligini-yu, nimani uddalay olmasligini tushunadi". Yuqoridagi fikrdan ko'rinadiki, aynan suhbatlashuv pedagogikaning eskirmaydigan metodlaridan biri sanaladi.

Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati yuqori mavqega ega bo'lib, notiqlik, voizlik, va'zxonlik "Qur'onni" targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati ma'nosi va undan o'rinli foydalanish borasida "Nutq odobi", "Muomala madaniyati", "Nutq madaniyati" tushunchalari bilan izohlangan. Bu borada Koshifiyning fikrlari tahsinga loyiq. Masalan, u so'z haqida fikr yuritib, so'z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to'g'ri va haqqoniy bo'lishi kerakligi va bunday bo'lmasa jim turgan ma'qulroq ekanini ta'kidlaydi. Tildan ixtiyor olgan so'z esa muomala ishtirokchisiga aylanib, kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarini bajarishni taqozo etadi. Koshifiy shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun ham, hali martabaga erishmagan kishilar, muridlar uchun ham rioya qilinishi zarur bo'lgan bir qancha suhbat odoblari haqida to'xtalib o'tadi. Uning fikricha martabaga erishgan kishilar suhbatda sakkiz qoidani saqlashlari kerak: "birinchidan, har kimning ahvoliga qarab munosib so'z aytsin. Ikkinchidan, dag'allik qilmasdan lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To'rtinchidan ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so'zning qimmat-qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qayerga ekmang unib chiqmaydi", deb ta'kidlaydi. Mutafakkir fikrini davom ettirib, martabaga yetmaganlarning suhbat odobi ham sakkizta deb, bular: "birinchidan, so'ramagunlaricha

gapirmaslik, ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko'tarmaslik, uchinchidan, gapirayotganda o'ngu so'lga qaramaslik...(tarjimada yo'q), beshinchidan, qattiq gapirmasin va betga choparlik qilmaslik, oltinchidan, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirish, yettinchidan, odamlar gapini bo'lib so'z kiritmaslik, sakkizinchidan, ko'p gapirmaslik, oz bo'lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin", -deb aytib o'tadi.

Asosiy qism. Koshifiy insondagi chiroyli xulq va muloyimlik to'g'risida "xulqdan murod xushxulqlik va xushfe'llikdir va muloyimlikdan maqsad yumshoqlik va toza qalblilikdir", deydi. Yana biridan murod lutfli va ko'ngil ovlovchi bo'lishdir, boshqa biridan maqsad murosali bo'lmoqdir, deb aytadi. Ammo xushxulqlik va xushfe'llik hamma ne'matlarning yaxshirog'idir va sifatning go'zalrog'idir, deb tushuntiradi. Koshifiy aytishicha, xushxulqning belgisi o'ntadir. Birinchisi, yaxshi ishlar borasida elga qarshi bo'lmaslik, ikkinchisi, o'z nafsini tiyish, uchinchisi, bironing aybini qidirmaslik, to'rtinchisi, har kimdan noloyiq ish yuz bersa, uni tuzatishga harakat qilish, beshinchisi, gunohkor uzr aytsa uzurini qabul qilish, oltinchisi, muhtojlarning hojatini chiqarish, yettinchisi, odamlar uchun mashaqqat tortish, sakkizinchisi, xudbinlik qilmaslik, to'qqizinchisi xaloyiqqa ochiq yuzli bo'lish, o'ninchisi, odamlarga yaxshi so'z aytishdir. Koshifiy muloyimlikning ma'nosi yumshoqlik bilan xalq ichida muomala qilishdir va har bir ishda muloyimlik yor bo'lsa, shu ishning yaxshilik bilan tugashidan o'zga ehtimoli yo'qdir, deb javob beradi. Ammo har bir ishda qo'pollik va dag'allik hamroh bo'lsa, vayron bo'lishdan o'zga chora yo'q. Qo'pol so'z do'stlik rishtasini uzadi, yumshoq so'z adovat pog'onasidan do'stlik martabasiga yetkazadi, deb yozadi. Agar kishining zaboni muloyim va shirin bo'lsa u hatto qancha katta bo'lishidan qat'iy nazar filni ham o'ziga rom qila oladi, deb aytadi:

Rom qilg'ay o'ziga shirin zabonlig' filni,

Sudragay har on ani aylab burunduq qilni [7].

Suhbatlashish jarayonida muomalaning asosiy jihatlari so'zlash va tinglay bilishni tashkil etadi. Shuning uchun ham muomala madaniyatida inson o'zining xushfe'llik, bosliqlik, rostgo'ylik, kamsuqumlik va shirinsuxanlik kabi axloqiy me'yorlarida namoyon bo'ladi. Koshifiy har bir kishi so'zlayotganda albatta "sidqu sadoqat tili" bilan gapirishi kerakligini, eshituvchi esa uni "qabul qulog'i" bilan tinglashi kerakligini ta'kidlaydi. Suhbat jarayonida esa yaxshi va yomon so'zlar ham bir tildan chiqadi va uning aytadigan so'zlari bironvga foyda keltirishi kerakligini daraxt misolida tushuntirishga harakat qiladi. "Agar so'z senikimi yoki sen so'z nikimi, deb so'rasalar: men

soʻzniki va soʻz menikidir, chunki soʻz insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni meবাদan, mevani esa daraxtdan ajratib boʻlmaydi. Agar nuqsonli soʻz qaysidir, deb soʻrasalar, Xudo va Rasulning soʻziga muvofiq kelmaydigan soʻz, deb javob bergil. Agar yaxshi soʻz qaysi, deb soʻrasalar, kishilarga nafi tegadigan soʻz, deb aytgil. Yomon soʻz qaysi, deb soʻrasalar, birovga zarari tegadigan soʻz, deb javob bergil”, deb taʼkidlaydi. Insonning feʼl-atvoridagi odobi uning odamlar bilan munosabatida yaqqol koʻzga tashlanadi. Shundan bilish mumkinki, maʼnaviyatli insonning “ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi, tushunchasi boʻlib, maʼlum bir axloq meʼyorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotidir”.

Koshifiy fikrini davom ettirib, umuman yaxshi insonlar suhbatiga qiziqish kerak va yomon kishilar bilan munosabatda boʻlishdan parhez qilish ham lozim, chunki har bir toifa suhbatida odamga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Yaxshilar bilan hamsuhbat boʻlish davlat va saodat natijasini beradi va yomonlar birga oʻtirish xorlik va pushaymonlik hosilini koʻrsatadi. Yomon kishilar ikki guruhdir, birini daf qilish shart, yaʼni viloyatdan yoʻq qilish kerak va yana birini man qilish lozim, yaʼni ular bilan suhbatlashishni taqiqlash kerak. Sultonlar mulozimlariga noloyiq toifalar guruhi koʻp soʻzlaydigan va laqmalardir. Chunki koʻp soʻz kishining soʻzida hech qadr va eʼtibor boʻlmas, beqadr soʻz oliymiqdor janobiga qanday munosib boʻlsin. Yozilishicha, koʻp soʻzlashga kim qiziqsa, uni jinniga chiqarish kerak, yaʼni hamma uni devona deb ataydilar. Bir masalda “koʻp gapiruvchi, behuda gapiruvchi” deb yozilgan.

Hikoyada yozishlaricha, uch podshoh Noʻshirvon majlisida hozir boʻldilar. Bular Rum qaysari, Chin xoqoni, va Hindiston royidir. Noʻshirvon ularga “Shunday jamoa yigʻilishiga yillar, bilki ming yillar kerak. Shunday ekan, kelinglar, toki har birimiz bittaadan fikr aytaulik, chunki podshohlar soʻzlari soʻzlar podshohidir. Bizdan tarix sahifasida ibratli yodgor asari sobit boʻlmasdan, jamoamiz tarqab ketsa, afsus va nadomat hosil boʻladi.

Bayt: Mumkin ersa yaxshi soʻz qil oshkor,

Yaxshi soʻzdin, xoʻp yoʻqtur yodgor [7].

Mumkin boʻlsa yaxshi soʻz va gapni bayon et, shuni bilki yaxshi soʻzga teng keladigan boylik yoʻqdir.

Birinchi boʻlib Kisroga ishorat qilib: “Hargiz aytmagan soʻzga pushaymon boʻlmadim, baʼzi soʻzlar aytib edim, unga koʻp nadomat chekdin”. Keyin esa Rum qaysari “Nima demagan boʻlsam, uni deya oldim, ammo deganimdan keyin hech birini qaytarib, tasarrufim qoʻliga ololmadim, yaʼni har bir soʻz oʻqiki, bayon joyidan hanuz judo boʻlmabdir, unga qudratim borki, har vaqt xohish

Обобщение - мысленное объединение предметов и явлений по их общим и существенным признакам. При этом обобщение не предполагает отбрасывания специфических особенных свойств предметов, а заключается в раскрытии их существенных связей. Самый сложный вид обобщения основан на том, что в ходе выделения родовых и видовых признаков объект включается в систему понятий.

Каждая из указанных мыслительных операций может быть рассмотрена как соответствующее умственное действие. Вместе с тем необходимо отметить, что все указанные операции не могут проявляться

изолированно, вне связи друг с другом. На их основе возникают более сложные операции: классификация, систематизация и др.

Динамические характеристики творческого мышления выделяются в силу того, что в ходе познавательной деятельности человека различные виды творческого мышления постоянно изменяют свое содержание и формы, т.е. развиваются. В этой связи Е.И. Рогов отмечает: "Только развитие всех видов творческого мышления в их единстве может обеспечить правильное и достаточно полное отражение действительности человеком" [2, 288]. В процессе развития творческого мышления предшествующий вид не отбрасывается последующим, а продолжает дальше развиваться и совершенствоваться. В этот ряд следует поставить и понятия "интеллектуальный потенциал" и "интеллект". Один из родоначальников управленческой науки Ф. Тейлор в теории черт из приоритетных качеств управленцев, определил 4 качества, непосредственно связанные с интеллектом: здравый смысл, образование, опыт, сообразительность, ум. Ж.Т.Тощенко описывает 5 кластеров личностных черт среди которых 12 характеризуют интеллект: общий уровень способностей, компетенция, инициативность, интеллектуальный уровень, интеллектуальная энергия, живой, подвижный ум, способность к рассуждению, широта мышления, умение анализировать, проницательность, предвидение. Но еще большее значение он придает проблематике управления творческим потенциалом, который целиком относится к интеллектуальной системе человека. К творческим потенциям человека он отнес "интеллектуальную трудовую деятельность, создание новых материальных и духовных ценностей, генерацию идей, умственные процессы, в т.ч. рассудочное и творческое (разумное) мышление, аналитический склад, таланты усмотрения проблем и умения их формулировать, мнемонические способности (обращение к прошлому опыту когнитивный и метакогнитивный опыт), способности созерцания (ориентация в идеях), наблюдательность (усмотрение аналогов новых проблем в прежнем опыте)... познавательный потенциал"²⁹, критическое осмысление, способности переходить к "познанию их сущности, скрытой закономерности, самостоятельно осваивать технические новшества, производственные

72 ситуации, выявлять проблемы и пути их решения, преобразовательно - предметный потенциал - навыки, умения, способности творчески решать задачи, ставить новые, аксиологический потенциал - ценностные ориентации, позволяющие переходить от локальных и эмпирических оценок к всесторонней системной оценке внешних и внутренних факторов, эстетические способности”.

К комплексу интеллектуально - творческих качеств, необходимых персоналу Ж.Т.Тощенко также относит: “1) способность к свертыванию, умение вложить больше смысла в меньшее число слов, задать несколько функций каждому элементу ... упростить его структуру; 2) умение применить опыт ... умение отделить специфическую часть проблемы от неспецифической; 3) способность к “сцеплению”, т.е. к соединению новых сведений с прежним багажом знаний; 4) боковое мышление, т.е. способность рассматривать проблему под другим углом зрения; 5) способность к ассоциированию понятий и проблем; 6) гибкость мышления; 7) быстрая переключаться с одного класса явлений на другой; 8) легкость генерирования идей и выбор подходящей; 9) наблюдательность; 10) воображение”. Вся совокупность вышеописанных феноменов творческого мышления получила название “латерального мышления” (Э. де Боно³²). Латеральное мышление (*lateral thinking* - боковое мышление) – феномен топики мышления и основа мышления системного. Оно строится на идеационных процессах, интегрирует комплекс разных аспектов анализа, является атрибутом творческого мышления, в отличие от логического мышления, совершает скачки, повороты в рассуждении, инсайты в решении задач, металоогические переходы, переструктурирование мыслительных схем. Э.де Боно называет логическое мышление вертикальным (дедукция и индукция), а латеральное – горизонтальным, окрестным, панорамным, комбинаторным, креативным, творческим мышлением.

Таким образом, можно говорить о существовании различных видов творческого мышления, выделяемых на основе ряда параметров.

По степени развернутости мыслительных действий творческое мышление может быть представлено следующими видами: дискурсивное, основанное на поэтапно развернутых мыслительных процессах; интуитивное, характеризующееся быстротой

протекания мыслительных процессов, отсутствием четко выраженных этапов, минимальной осознанностью.

С точки зрения новизны и оригинальности решаемых задач можно выделить следующие виды творческого мышления: творческое (продуктивное), направленное на создание новых идей, открытие нового или совершенствование решения той или иной задачи; воспроизводящее (репродуктивное), основанное на применении готовых знаний и умений.

По характеру решаемых задач в мышлении выделяют следующие виды: теоретическое, в котором интеллектуальные операции предшествуют практической деятельности, направленной на их реализацию; практическое, основанное на преобразовательной деятельности, осуществляемой субъектом с реальными предметами [4, 80].

В зависимости от содержания решаемых задач выделяют следующие виды творческого мышления: предметно-действенное, основанное на решении задач с помощью реального, физического преобразования ситуации, апробирования свойств объектов; наглядно-образное, связанное с тем, что в ходе решения задачи субъект анализирует, сравнивает, обобщает различные образы, представления о явлениях и предметах; словесно-логическое, для которого характерно использование понятий и логических конструкций, которые иногда не имеют прямого образного выражения. Основываясь на данных классификациях, можно утверждать, что логическое творческое мышление - это творческое мышление понятиями, которые выступают в качестве *средств творческого мышления*, позволяют отражать сложные отношения: дискурсивное, основанное на поэтапно развернутых мыслительных процессах; интуитивное, характеризующееся быстротой протекания мыслительных процессов, отсутствием четко выраженных этапов, минимальной осознанностью.

Таким образом, логическое творческое мышление является специальной формой продуктивной деятельности, поскольку оно позволяет не только упорядочить, анализировать и синтезировать информацию, относить воспринимаемые факты к известным категориям, но и выходить за пределы непосредственно получаемой информации, делать выводы из

воспринимаемых фактов и приходиться к известным заключениям, даже не располагая непосредственными фактами и исходя из получаемой словесной информации. На основе творческого мышления человек оказывается способным рассуждать и решать мыслительные задачи, не включая процесс

решения в практическую деятельность. Все это говорит о том, что процесс творческого мышления может выступать как специальная теоретическая деятельность, которая приводит к новым заключениям и таким образом носит продуктивный характер [5, 373].

Литература

1. Кривошанова Р.Ф. Требования к сформированности экспериментальных умений // Требования к знаниям и умениям школьников: дидактико- методический анализ / Под ред. А.А. Кузнецова. - М.: "Педагогика", 1987. 176 с.
2. Кулибова И.И. Проблема оптимальных требований к знаниям, умениям и навыкам учащихся. -М.: "АПН СССР", 1976.
3. Левитина С.С. Можно ли управлять вниманием школьника? - М.: "Знание", 1980. - 62 с.
4. Жумаев Э.Э. Некоторые вопросы математического развития учащихся в обучении геометрии // Современный научный вестник. Научно – теоретический и практический журнал. г. Белгород, №57(196), 2013 йил, Б.: 77-83.
5. Жумаев Э.Э. Подготовка учителя математики: некоторые вопросы. Образование через всю жизнь непрерывное образования в интересах устойчивого развития. Материалы 12-й международной конференции. Выпуск 12. Часть I. Санкт-Петербург. 2014. Б.: 372-373.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

Rustambek QO'LDOSHEV

Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası
mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

DARSLIK: MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI

Maqolada darsliklar yuksak saviyada yozilgan ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy, muayyan fan doirasida, u fanning qonun va nazariyalarini o'zida umumlashtirgan o'quv kitobi ekanligi xususida fikr yuritiladi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalaniladigan darsliklar o'quvchining umumiy kamolotida alohida o'rin egallaydi. Darsliklar ko'p yillik pedagogik, psixologik izlanishlar, ilg'or tajribalar hamda jahon standarti namunalari asosida tuzilgan bo'lishi lozim. Xususan, boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan darsliklarning tili sodda, ravon va tushunarli, o'quvchi yoshi hamda psixologik xususiyatiga mos bo'lishi, ularning nutqi va dunyoqarashining o'sishiga yordam berishi kerak. Darsliklardagi har bir mavzu o'zidan oldingi mavzuni to'ldirib, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishi zarur. U o'quvchilarga o'dob-axloqni o'rgatishga xizmat qilishi, ularda ona-Vatanga mehr-muhabbat, kishilarga g'amxo'rlik, mehribonlik, iltifotlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, vijdonlilik kabi ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

Kalit so'zlar: darslik, didaktik talab, fan, o'quv material, topshiriq, bilim, ko'nikma.

В статье рассматривается о том, что учебники - это духовно-идеологическая, научно-методическая книга, написанная на высоком уровне, в рамках определенной дисциплины, в которой обобщены законы и теории науки. С этой точки зрения учебники, используемые в общеобразовательных школах, занимают особое место в общей зрелости ученика. Учебники должны составляться на основе многолетних педагогических, психологических исследований, передового опыта и образцов мирового стандарта. В частности, язык учебников, созданных для начальных классов, должен быть простым, беглым и понятным, соответствовать возрасту и психологической природе ученика, способствовать развитию его речи и мировоззрения. Необходимо, чтобы каждая тема в учебниках развивалась от простого к сложному, дополняя тему, которая ей предшествовала. Это должно служить обучению студентов хорошим манерам, воспитанию в них таких положительных качеств, как любовь к Матери - Родине, забота о людях, доброта, обходительность, трудолюбие, смирение, добросовестность.

Ключевые слова: учебник, дидактическое требование, наука, учебный материал, задание, знания, умения.

The article reflects on the fact that textbooks are a spiritual-ideological, scientific-methodical book written at a high level, within a certain discipline, in which the laws and theories of science are generalized. From this point of view, textbooks used in general education schools occupy a special place in the overall maturity of the student. Textbooks should be compiled on the basis of many years of pedagogical, psychological research, best practices and samples of the world standard. In particular, the language of textbooks created for primary classes should be simple, fluent and understandable, correspond to the age and psychological nature of the student, contribute to the development of his speech and worldview. It is necessary that each topic in textbooks develops from simple to complex, complementing the topic that preceded it. This should serve to teach students good manners, to bring up in them such positive qualities as love for the Motherland, caring for people, kindness, courtesy, diligence, humility, conscientiousness.

Keywords: textbook, didactic requirement, science, educational material, task, knowledge, skills.

Kirish. Xalqimiz madaniyatining rivojlanish tarixida pedagogik fikrlar taraqqiyoti, jumladan, o'quv vositalarining mazmunan va shaklan takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etib, usiz ta'lim-tarbiya sohasidagi madaniy-ma'rifiy rivojlanishni aniq tasavvur qilib bo'lmaydi.

“Darslik - DTS, o'quv dasturlari, metodik va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyalari sindirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan davlat nashridir.

Har bir ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o'z darsliklari bo'ladi. Odatda, darslik o'quv fanining nomi bilan yuritiladi.

Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi. Darslikning yana bir muhim tomoni shundaki, u o'quvchilarga muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi har bir she'r, masal, ertak, hikoyalar qiziqarli bo'lib, bir maqsadga, ya'ni, jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu bilan bir qatorda, ular o'quvchi-yoshlarda ruhan tetiklik, aqlan komillik, axloqan poklikni ta'minlashi lozim.

Ta'limning muhim o'quv vositasi sifatida darsliklarning ahamiyati beqiyosdir. Uning rivojlanish tarixini o'rganish, eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda darsliklarning dastlabki nusxalari yaratila boshlanganligini ko'rsatadi. Arxeologik qazilmalar natijasida, Sharqda, xususan Furot va Dajla daryolari oralig'ida yashagan qadimgi xalqlar sopol taxtachalarga bitgan matn qoldiqlari topilgan. Shu topilmalar qadimda «qo'llanma» va «darslik» vazifasini o'tagan. Keyinchalik boshqa Sharq xalqlarida papirus yoki pergamentlarga bitilgan qo'lyozma o'quv kitoblari vujudga kela boshlagan. Ular ma'lum bir soha, kasbga o'rgatish uchun asosiy manba vazifasini o'tagan.

Asosiy qism. Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonida kutilgan asosiy natija ekan, yoshlarimizga kompleks tarbiya berishimiz lozim. Ayniqsa, ularda fuqarolik hissini shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini o'stirish, vatanparvar va baynalminal insonlar qilib yetishtirishga, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga alohida ahamiyat qaratishimiz kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi zamonaviy talablarga javob berishi kerak.

1. Boshlang'ich ta'limning eng yangi yutuqlaridan, ilg'or pedagogik amaliyotdan foydalanish, darsni o'quv tarbiya jarayoni qonuniyatlari asosida qurish.

2. Darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatini amalga oshirish.

3. O'quvchilarning mahsuldor bilish faoliyatini ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda tegishli shart-sharoitlarni taminlash.

4. O'quvchilar anglaydigan predmetlararo aloqalarni o'rnatish.

5. Ilgari olingan bilim va ko'nikmalar bilan aloqa. O'quvchilar erishgan rivojlanish darajasiga tayanish,

6. Shaxs rivojlanishini motivatsiyalash va faollashtirish.

7. O'quv tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarining mantiqiyliigi va hissiyligi.

8. O'qitishning pedagogik vositalarda samarali foydalanish.

9. Hayot bilan aloqa, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan aloqa.

10. Amaliy-zaruriy bilimlar, ko'nikma, o'quv tafakkur va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish.

11. O'qish uquvini shakllantirish.

12. Har bir darsni puxta loyihalashtirish prognozlash, diagnostika qilish va rejalashtirish.

Darslarni mavzular bo'yicha rejalashtirish mumkin. Darslar tafakkur va mantiqiy aloqalar, shakl va mashg'ulotlar turini hisobga olgan holda ularni tizimli birlashtirishi mumkin. O'qituvchi mavzularni belgilaydi. Har bir sinfning aniq bilish imkoniyatlarini aniqlagandan so'ng o'qituvchi mavzularni rejalashtirish asosida dars bo'yicha rejani tuzadi.

O'qitishni faqat materialni bayon qilish bilan cheklab bo'lmaydi. O'qitish o'qituvchi faoliyatini barcha bosqichlarini yaxlitligini talab qiladi. Bu darsga tayyorlanishdan boshlab, uni o'tkazish va natijalari bilan tugaydi. Darsga tayyorlanishning har bir bosqichi qator funksiyalarni amalga oshiradi.

Gnostik funksiya:

- o'quv materiallarining mazmunini tushunish;

- bo'lim, mavzular, kursni yaxlitlikda o'rganish maqsadlariga ko'ra didaktik maqsadni shakllantirish;

- dars turini aniqlash;

- dars tuzilmasini aniqlash.

Qurilmali funksiya:

- sinf o'quvchilari tarkibini o'ziga xos xususiyatini tahlil qilish;

- o'qitish va o'qishning vosita hamda usullarini tanlash;

- o'quvchilar bilishning uch darajasini: qayta tiklaydigan, o'zgartiruvchi, ijodkor-izlanuvchanlikni qamrab oladigan bilimni o'z ichiga olgan o'quvchining faoliyatini yetakchiligini aniqlash.

Insoniyatning tarixiy tarqqiyoti voqea-hodisalari juda boy va xilma-xil. Maktab boshlang'ich sinf ta'limida ana shu tarixiy voqealarni turkumlash, asosida umumlashtirib olinadi. Qaysiki, ular tarixiy taraqqiyotning asosini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilim saviyasi, dunyoqarashi va o'qituvchilik malaka, ko'nikmasi boshlang'ich sinf darsining

76 samaradorligini ta'minlashdagi eng asosiy omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nazariy bilimining yuqori darajada bo'lishi o'zining nazariy bilimni boshlang'ich sinfni o'qitishda foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi voqea hodisalarning mohiyat-mazmunini ochib berishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'limning dolzarb muamolari, yutuqlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi lozim.

2. O'quv predmetlari, darslik va uning tuzilishi, davlat ta'lim standartlari. Har bir o'quv predmetida o'ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o'quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko'ra farq qiladi.

1. Fan hajm va mazmun jihatdan keng bo'lib, unda shu fanga oid g'oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarning barchasi o'z aksini topadi. O'quv predmeti esa hajm va nisbatan tor bo'lib unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlariga mos keladigan bilimlarni o'rgatish ko'zda tutiladi.

2. Fan hamma uchun yosh-u qari, o'zbek-u qozoqqa bir xil xizmat qiladi. O'quv predmetlari esa faqat yoshlarga mo'ljallab tuziladi.

3. Fan va o'quv predmetining faqat o'zigagina xos vositalari mavjud.

4. Fan o'zini o'zi rivojlantiradi. O'quv predmetlari esa yoshlarni ma'lumotli qiladi. Rivojlantiradi, tarbiyalaydi.

Lekin farqlarga qaramasdan ular o'zaro uzviy bog'langan. Fan taraqqiyoti o'quv predmetlarining mazmuni, mundarijasiga ta'sir etadi. Fan rivojlangan sari o'quv predmetlari sayqallashib takomillashib boradi.

O'quv predmetlarida ko'zda tutilgan muamolar o'quv predmetlariga oid ma'lumot mazmuni tanlash, ko'nikma- malakalarni shakllantirish meyorlarni belgilash, bolalarning yoshi, tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlar tizimini ishlab chiqish kabi funksiyalarni bajaradi.

O'quv darsliklari va ularning tuzilishi. Darslik o'quv jarayoning zarur qismidir. Ko'p vaqtlardan biri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Darslik- o'quvchilarning ikkinchi muallimi. Chunki u avvalo o'quvchi uchu zarur qo'llanmadir.

Darslik- davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, metodik va didaktik talablar asosida tayyorlanadigan mmajmua. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga didaktik talablarga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklarni yangi avlodini yaratishda Davlat ta'lim standarti talablari va o'quv dasturi hajmida meyorlangan o'quv yuklamasining modeli va taqdim etilayotgan o'quv materiallarning ta'limiy –

tarbiyaviy qiymatligini ta'minlash parametrlariga o'quvchilarni yangi bilim va axborotlar bilan qurollantirishning didaktik va texnologik asoslariga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Darslik yaratish muamosining muhim masalalari sifatida quyidagilarni ta'minlash alohida ahamiyatga ega.

- o'quv fani asoslarining mazmuni, ya'ni o'quv modeli bilan o'quvchilar bilish faoliyati ko'rinishlarini uyg'un holda ifodalash;

- ko'p tarmoqli o'quv materiallarini taqdim etish;

- gippermatnlarni berish, multemedium yondashuvga asoslanish;

- informatsion banklarni taqdim etish;

- o'quv materiallarni texnik va texnologik talablar asosida ifodalash;

- ta'lim jarayonini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik vositalar, o'quv lug'atlari va diafilmlar bilan ta'minlashga erishish;

- darslik va o'quv qo'llanmalar ta'lim jarayoning axborotli moduli sifatida namoyon bo'lishini ta'minlash uchun keng ko'lamli tadqiqotlarni yo'lga qo'yish;

- integrativ darsliklar yaratishni taminlash.

O'quvchilarning o'quv qo'llanmalaridan foydalanishlari ularning o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari bilim, ko'nikma va malakalar bilan yanada mukammalroq qurollanishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'quv adabiyotlarining shakllari. "Milliy dastur"da o'quv tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlar va yangi o'quv uslubiy majmualar bilan to'liq taminlash vazifalari belgilandi. Bunda o'quv adabiyotlari an'anaviy va elektron adabiyot shaklida bo'lishi ko'rsatildi.

An'anaviy o'quv adabiyotlar- ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifatida muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda bosiladigan o'quv adabiyotlar.

Elektron o'quv adabiyotlar- zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarning ma'lumotlarini jamlash, tasvirlash, saqlash, va taqdim etish imkoniyatlari asosida yaratiladigan o'quv adabiyotlar.

O'quv adabiyotlarining quyidagi turlari mavjud. Darslik- davlat ta'lim standarti o'quv dasturi, metodik va didaktik talablar asosida belgilangan milliy istiqloq g'oyalari singdirilgan, muayan o'quv fanining mavzulari to'liq, yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirishiga qaratilgan davlat nashri.

O'quv qo'llanmalar- darslikni qisman to'ldiruvchi muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini

ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan davlat nashridir.

Lug'at – aniq bir tartibda joylashtirilgan so'zlar to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai haqida ma'lumot beruvchi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi davlat nashri.

Ma'lumotlar to'plami- foydalanishga qulay shaklda yaratilgan, muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatgich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy-ijtimoiy siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy, va boshqa sohalaridagi qisqacha ma'lumotlardan tashkil topgan davlat nashri.

Ma'ruzalar kursi- fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch- atama, va iboralar keltirilgan kichik adadli davlat nashri.

Metodik ko'rsatma- muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan holda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasalarning ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Davlat ta'lim standartlari. Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartida ta'lim- tarbiya tuzilishi, o'quvchilarni rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari, va vositalarida o'z aksini topgan tub o'zgarish maqsadlari nazarda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartini joriy etish quyidagilarga yordam beradi.

1. Ta'lim muassasalarning turlari, umumiy o'rta ta'lim olish shakllari xilma- xil bo'lgan sharoitda O'zbekiston Respublikasida ta'limiy makon birligi.

2. Ma'lum rag'batlantiruvchi omillar asosida o'quvchilarda o'qishga bo'lgan quyidagi ijodiy motivlarni shakllantirish.

a) o'quv materiallarni tushunarligini oshirish;

b) o'quv yuklamasini meyorlashtirish;

d) o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni va uni baholash mezonlarini anglab yetishlari.

3. Bir xillashtirilgan o'lchovlar va o'lchov tartiblari asosida o'quvchilarning tayyorgarlik sifatiga obyektiv baho berish.

4. Pedagog mehnati natijalarini o'quvchilar erishgan o'quv yutuqlarining davlat ta'lim standartlariga mosligini hisobga olgan holda baholashga o'tish.

5. Asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

6. O'quv rejasida o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari va moyilliklariga ko'ra tanlab shug'ullanishlari uchun kafolatlangan vaqt ajratish.

Umumiy o'rta ta'limning vazifalari. O'quvchilarning tizimli bilim olishlarini ta'minlash, ularda bu bilimlarni o'zlashtirish ehtiyojini o'stirish, tayanch o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va tevarak atrofdagi olamga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim tarbiyaning birligi, ta'lim metodlari. Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi kerakki, o'quv jarayonini samarali qurish bu ishda o'zini oqlagan pedagogik qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishga ijodiy foydalangan holda ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning har bir davridagi maktabning tarixiy tajribasi ta'lim vazifasini ma'lum bir tizimsiz bajarib bo'lmashligini ko'rsatadi. Ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish lozim toki, bugun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganini mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganlariga zamin hozirlasin.

Muhokama va natijalar. Tizimlilik va izchillik o'quvchilarda har qaysi o'quv fanlarining bir- biri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ko'rsatishda ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiya asosiy qoidalardan hisoblanadi. O'quv fanlarining har biri hatto ayrim mavzu va mavzuchalar ham tarbiyalovchilik xususiyatiga ega. O'qitish jarayonida onglilik va faollik o'quvchilarning ilmiy bilimlarini hamda ularni amalda qo'llash, usullarini ongli va faol egallab olishini ularda ijodiy tashabuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik tafakkur, ilmiy dunyoqarash, e'tiqod tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Inson ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olishigina emas, balki bu bilimlarni amalda qo'llay olishi ham kerak. Ta'lim jarayonida nazariya bilan, amaliyotning birligi, qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida o'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma, va malakalar hosil qiladilar.

78 **O'qituvchining darsga tayyorgarligi.** Dars mashg'ulotlariga tayyorlanish o'quv yili boshlang'ich sinf kursi dasturlarini o'rganishdan boshlanadi. O'qituvchi mavzular bo'yicha boshlang'ich sinflarda tizimli dars beradi. Bu hujjatlar asosida o'qituvchi dalillar va tushunchalar tizimini aniqlashtiradi. Ular o'quvchilarning haxs sifatida rivojlana borishlari bilan o'rganish chuqurlashib boradi. Keyin o'qituvchi bu tizimni maktab darsliklarida qanday aks etganini ularning strukturasi va mazmuni qandayligi, o'quv materialni bayon qilish mazmuni metodik aparat o'rganiladi. Har bir sinfnig aniq bilish imkoniyatlarini aniqlagandan so'ng o'qituvchi mavzularni rejalashtirish asosida dars bo'yicha loyiha tuzadi.

O'qitishni faqat materialni bayon qilish bilan cheklab bo'lmaydi. O'qitish o'qituvchi faoliyatining barcha bosqichlari yaxlitligini talab qiladi. Bu darsga tayyorlanishdan boshlab uni o'tkazish va natijalari bilan tugaydi. Darsga

tayyorlanishning har bir bosqichi qator funksiyalarni bajaradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limga oid didaktik materialning ta'lim jarayoniga qadar bo'lgan holati darslik muallifining pedagogik layoqatiga, uning ta'lim jarayoni mohiyatini bilishiga, ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalash sohasidagi mahoratiga bog'liq.

Boshlang'ich ta'limga taalluqli didaktik materialning ikkilamchi loyihalari dars loyihasi, ko'rgazmali qurollar (tabiiy materiallar, illyustratsiya, chizma, audio va video materiallar), o'quv topshiriqlari tizimi (test topshiriqlar, o'yin topshiriqlari, tarqatma materiallar to'plamlari)dan iborat bo'lib, ularga pedagogik jihatdan ishlov berilib, darslikdagi mavjud holatdan yangi holatga o'tkaziladi. Boshlang'ich ta'lim o'quv-didaktik materialini umumlashtirish, umumiy qoida va qonuniyatlarga ko'ra alohida misol, topshiriqlar asosida oydinlashtirish mualliflarning tajriba va mahoratlariga bog'liq.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. O'RQ-637. 23.09.2021. <https://lex.uz/ru/docs>
2. <https://lex.uz/docs/-6008663>
3. В. П. Беспалько. Теория учебника: Дидактический аспект / В. П. Беспалько. – М.: Педагогика, 1988. – 160 с.
4. И. К. Журавлев. Особенности учебников по учебным предметам с ведущими компонентами «способы деятельности» и «формирование эмоционально-ценностных отношений» / И. К. Журавлев // Каким быть учебнику: Дидактические принципы построения. – М.: Изд-во РАО, 1992. – Ч. 2. – С.45-95.
5. Д. Д. Зуев. Школьный учебник / Д. Д. Зуев. – Ереван: ЛУИС, 1987. – 352 с.
6. Ю. К. Бабанский. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований / Ю. К. Бабанский. – М.: Педагогика, 1982. – 192 с.
7. Э. Г. Гельфман. Психодидактика школьного учебника. Интеллектуальное воспитание учащихся / Э. Г. Гельфман, М. А. Холодная. – М.: Питер, 2006. – 384 с.

Nargiza QUCHQOROVA 79

Urganch davlat universiteti
maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK TARBİYACHILARINING IQTISODIY MADANIYATI TARKIBIY QISMLARI

Maqola bo'lajak kadrlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyatining tarkibiy qismlarini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, iqtisodiy bilim, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy faoliyat, komponent, kognitiv, motivatsion, kreativ faoliyatli, iqtisodiy madaniyat, malakali kadrlar, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy savodxonlik.

Статья посвящена вопросам повышения финансовой грамотности будущих кадров, формирования компонентов экономической культуры педагогов.

Ключевые слова: Воспитатель, экономические знания, экономическое воспитание, экономическая деятельность, компонент, познавательная, мотивационная, креативная деятельность, экономическая культура, квалифицированные кадры, экономическое развитие, финансовая грамотность.

The article is devoted to the issues of improving the financial literacy of future personnel, the formation of components of the economic culture of teachers.

Key words: teacher, economic knowledge, economic education, economic activity, component, cognitive, motivational, creative activity, economic culture, qualified personnel, economic development, financial literacy.

Kirish. Ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassislarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotiga oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni yetkazib berish muhim vazifaga aylangan. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarning sifat samaradorligini oshirish, ularning kasbiy komponentlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan bir qator keng ko'lamdagi islohotlar olib borilmoqda. Bo'lajak tarbiyachilar oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish jarayonlarida kerakli kasbiy bilimlarni egallashi, o'z qobiliyati va imkoniyatlarini yuzaga chiqara olishi, o'z-o'zini anglashi, atrofdagilarni va tengdoshlarini ijobiy fazilatlarini ko'ra olishi, o'zini ma'naviyatning iste'molchisi sifatida emas, balki yaratuvchisi sifatida ko'ra olishi zarur.

Asosiy qism. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan kadrlar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri, savodli, tashabbuskor va bilimdon mutaxassislarini hayotdagi iqtisodiy yutuqlarini ishlab chiqish va amalga oshira oladigan mutaxassislarini tayyorlashdir.

Iqtisod grekcha so'zdan olingan bo'lib, "oykos" - uy, uy xo'jaligi, "nomos" - qonun degani. Ya'ni uy yoki ijtimoiy xo'jalik qonunlari ma'nosini beradi.

1575-1621-yillarda yashab, ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten birinchi marta 1615-yilda "Siyosiy iqtisod traktati" nomli kichik ilmiy asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi.


Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, siyosiy iqtisod keng ma'noda moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar to'g'risidagi fandir, deb yozgan edilar [1].

Respublikamizda bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish, umumta'lim fanlarini xalqaro baholash dasturi talablari asosida o'qitish bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosati izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, innovatsion iqtisodiyot rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlashning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk adiblarning iqtisod, iqtisodiy tarbiyaga doir fikrlarini o'rganib, tahlil qilgan holda bo'lajak tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish komponentlarini belgilash imkonini berdi.

Bo'lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish mazkur jarayon komponentlarini ham aniqlashtirishni talab etadi.

Komponent (lot.componens, componentis - tashkil etuvchi; tarkibiy qism) biror narsaning tarkibiy qismi ma'nosini bildiradi [2].

Mavjud tadqiqotlar tahlili asosida bo'lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning quyidagi tarkibiy qismlarini belgilab olamiz



1-rasm. Bo'lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatni tarkibiy qismlari

Muhokamalar va natijalar. Iqtisodiy bilim deganda pul, narx-navo, savdo sotiq, talab, taklif, bank, kredit, bozor, biznes, tadbirkorlik, xarajat va foyda, menejment va marketing, moliya va shu kabi hayotimizning bir qismiga aylangan bir qancha moliyaviy bilimlarni shakllantirish tushuniladi. Iqtisodiy bilimlarni shakllantirish hayotda uchraydigan iqtisodiy muammolarni yechimini topishga yordam beradi. Iqtisodiyot - odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan har xil ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan faoliyat tizimidir. Iqtisodiyot- insonning yashashi va kamol topishining birdan bir vositasi. Iqtisodiy ta'lim - kelajakda farovon hayotimiz kalitidir.

Iqtisodiy tarbiya. Iqtisodiy tarbiya shaxsning barkamol va yetuk bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi. Yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalash, ularning ongiga tejamkorlikni singdirish pedagogikaning muamolaridan biri bo'lib kelgan. Hozirgi sharoitni hisobga oladigan bo'lsak, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrda yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda va pedagoglarimiz tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bolalarga iqtisodiy tarbiya berish eng avvalo oiladan boshlanadi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va maktabda davom ettirilishi, iqtisodiy tarbiyaning mazmuniga sharq mutafakkirlari katta e'tibor qaratib kelganliklari, oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish, bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash haqida batafsil yoritib berilgan.

Iqtisodiy faoliyat. Ehtiyojlar turli-tuman bo'lganidan ularni qondirish ham turli yo'llar bilan

amalga oshiriladi, lekin bu ish baribir iqtisodiy faoliyatni talab qiladi. Iqtisodiy faoliyat deganda inson tiriklikni ta'minlash usullari va vositalari tushuniladi. Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi, yaratilgan mahsulotlarni ayriboshlash orqali iste'mol etish bilan tugallanadi. Kishilar o'z ehtiyojini qondirmasa, ish faoliyatini tiklay olmaydilar. Iqtisodiy faoliyat yoki iqtisodiyot kishilarning ma'lum maqsad yo'lidagi xatti-harakatini bildiradi. Uning ishtirokchilari ayrim kishilar, oila, korxonalar, xo'jaliklar va davlatdir.

Jamiyatning iqtisodiy madaniyati bu iqtisodiy faoliyatning qadriyatlar va motivlari tizimi, iqtisodiy bilimlarning sifati va darajasi, shaxsning harakatlari va baholari, shuningdek iqtisodiy munosabatlar va xatti-harakatlarni tartibga soluvchi an'analar va me'yorlardir. Iqtisodiy madaniyat mulkchilik shakllariga alohida munosabatni belgilaydi, ishbilarmonlik muhitini yaxshilaydi. Iqtisodiy madaniyat - bu insonning iqtisodiy faoliyati rivojlanishida hal qiluvchi va ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida namoyon bo'ladigan ong va amaliy faoliyatning ajralmas birligi. Iqtisodiy madaniyat tarkibidagi eng muhim elementlarni bilim va amaliy ko'nikmalar, odamlarning iqtisodiy sohadagi xulq-atvorining xususiyatlarini, uni tashkil etish usullarini tartibga soluvchi normalar deb atash mumkin.

1-rasmda ko'rsatilgan komponentlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishning uch guruh mezonlari aniqlashtirildi: motivatsion, kognitiv va kreativ-faoliyatli.

Zamonaviy iqtisodiy bilim, malaka va tajribaga ega bo'lgan shaxs mavjud ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda o'zini to'g'ri yo'naltirishga va xatolardan qochishga harakat qiladi.

Talabalarning iqtisodiy madaniyati darajasini diagnostika qilish tanlangan mezonlarga muvofiq

amalgaga oshiriladi: 1) kognitiv; 2) motivatsion; 3) kreativ-faoliyatli.

Kognitiv (cognito – lotincha soʻz boʻlib, bilim, bilish maʼnosini anglatadi) – eng avvalo, talabalarning tafakkurini shakllantirishga yoʻnaltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bogʻliq boʻlgan uslubdir [3].

Meʼyorlar, koʻrsatkichlar va ularni ifoda qilish darajalari asosida iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning uchta darajasi farqlanishi mumkin: yuqori; oʻrta; past.

Talabalarning iqtisodiy madaniyatini mezonlarga muvofiq shakllantirish darajalari.

Yuqori daraja – iqtisodiy madaniyat, talabalarning kuchli tizimli bilimga ega ekanligini, ularning iqtisodiy amaliyotlar va jarayonlarni iqtisodiy rivojlanish qonunlarini toʻliq anglash bilan tavsiflash uchun amalda qoʻllashni koʻrsata oladi.

Oʻrta daraja – talaba iqtisodiy bilimlarni tushunadi, grafiklar, jadvallarni tuza oladi va ular yordamida iqtisodiy hodisalarning oʻzaro bogʻliqligini izlab topadi, stereotipik muammolarni hal qila oladi.

Past darajada – talaba nazariy bilimlar bilan cheklanadi, iqtisodiy hodisalarni aniqlashga, iqtisodiy bilimlarni mexanik takrorlashga va grafiklarni, tablitsalarni, sxemalarni tahlil qilishga qiziqmaydi.

Bu toifadagi boʻlajak mutaxassislar oʻzlarini qiziqishlaridagi zaif tomonlarini koʻrsatib qoʻyishadi va oʻz fikrlarini rivojlantirishga eʼtibor bermaydilar, ularning passiv harakatlari olingan soʻrovlarda ham oʻz aksini topadi.

Oʻquv rejaga binoan asosiy eʼtibor mutaxassislik fanlarini oʻqitishga qaratilmoqda. Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli ish bilan birga masʼuliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachi, avvalo, bilimli boʻlishi, oʻzi yashab turgan ulkan hayotni bilishi, jamiyatda sodir boʻlayotgan yangiliklarni tushina olishi, unga yaratilayotgan imkoniyatlarni tushungan holda

harakat qilib, oldidagi vazifalarini ado etishi lozim. Darhaqiqat, Prezidentimiz tomonidan maktabgacha taʼlim sohasiga katta eʼtibor qaratilib, uning faoliyatida bir qator yangiliklar joriy etilmoqda. Avvalo, aytish joizki, maktabgacha taʼlim tashkilotlarining bir qancha turlari faoliyat yuritib, ulardagi taʼlim-tarbiya jarayoni ham sezilarli darajada oʻsmoqda. Shunday ekan, bugungi kun tarbiyachisi har tomonlama chuqur bilimli, kreativlikka intiluvchi inson va siyosiy ong jihatdan ham yetuk boʻlishi zarur. Boʻlajak tarbiyachilarni jamiyatimizdagi oʻzgarishlardan xabardor qilish, yaʼni ularga maktabgacha taʼlim tashkilotlarining turlari, nodavlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarini ochish, ularni faoliyat yuritish tartibi, oilaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlarining qulayliklari haqida tushuncha berishimiz lozim. Buning uchun, avvalo, boʻlajak tarbiyachilarimizning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq. Yaʼni har bir oliy maʼlumotli maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisi yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalangan holda bugungi kunda qilayotgan ishining moddiy samaradorligini ham oʻylashi kerak.

Xulosa sifatida quyidagilarni belgilashimiz mumkin:

1. Iqtisod va iqtisodiy madaniyatga doir sharq va gʻarb pedagog-psixologlarini taʼlimotlarini oʻrganish iqtisodiy madaniyatni shakllantirishda muhim omildir.

2. Iqtisodiy madaniyat integral tavsifga ega boʻlib, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bogʻliqlikda mazkur jarayonga kompleks yondashuvni taqozo etadi.

3. Iqtisodiy madaniyat komponentlari –iqtisodiy taʼlim, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy faoliyat deb belgilandi.

4. Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning mezonlari: kognitiv; motivatsion, kreativ-faoliyatli va mazkur mezonlar asosida uch (yuqori, oʻrta va past) darajada mos koʻrsatkichlari mavjud.

5. Boʻlajak tarbiyachilarni moliyaviy savodxonligini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat.

Adabiyotlar

1. Антуан Монкретьен де Ваттевилль. Трактат по политической экономии. -М.: Дело, 2000 (серия Политическая экономия: ступени познания). –С.48.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. (A.Madvaliyev taxriri ostida). -T.: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. B.397-398.
3. Aliqulova M.M. Innovatsion pedagogika. –T.: "TDIU nashriyoti", 2012.– B.14.
4. Islomov A., Egamov E. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi. Maʼruzalar matni. -T.: "Iqtisod-moliya", 2009.
5. Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va maʼnaviy omillar uygʻunligi:Falsafa fan.nom....diss. -T., 2009. –B.152.

Mohinur SAIDOVA

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim nazariyasi
va metodikasi kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Maqolada masofaviy ta'lim, masofaviy faoliyat mazmuni va ahamiyati, bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisining masofaviy ta'lim vositasi orqali mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari yoritilgan. Qolaversa, masofaviy ta'lim orqali bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishdagi asosiy omillar izohlangan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim, integratsion yondashuv, o'qitish mazmuni, ta'lim samaradorligi.

В статье рассматривается дистанционное обучение, содержание и значение дистанционного обучения, а также возможности будущих учителей начальных классов учиться самостоятельно посредством дистанционного обучения. Кроме того, разъясняются ключевые факторы совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов посредством дистанционного обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, самостоятельное обучение, комплексный подход, содержание обучения, эффективность обучения.

The article discusses distance learning, the content and importance of distance learning, and the opportunities for future elementary school teachers to learn independently through distance learning. In addition, the main factors in improving the methodological training of future primary school teachers through distance learning are explained.

Keywords: distance learning, independent learning, integrated approach, teaching content, educational effectiveness.

Kirish. Hozirgi kunga kelib, ta'lim jarayonidagi tub islohotlar va yangiliklar har bir fan o'qituvchisi oldiga ham kasbiy, ham metodik talablarni qo'yadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida o'qitishining masofaviy ko'rinishini keng miqyosida ommalashib borayotgani quvonarli holat. Masofaviy o'qitish tizimi o'zining qullayligi, modulliligi, xalqaroliligi bilan an'anaviy o'qitish tizimidan farqlanadi. Aynan, respublikamiz ta'lim tizimida ham masofaviy o'qitish shaklini kiritilishiga ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni olib kirish mazmunida qabul qilinayotgan qator qaror va farmonlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatda bugungi kunga kelib, ta'lim sohasida arzon, sifatli, qulay va samarali tomonlariga katta e'tibor qaratilmoqda, bu quyidagi muhim fundamental tamoyillarga rioya qilingan taqdirda amalga oshishi mumkin:

- o'z-o'zini tarbiyalash – ta'limning yetakchi funksiyasi sifatida;
- ta'limning individuallashtirilganligi;
- o'ziga jalb qilishi va qiziqarli o'rganish;
- o'qitishning amaliy yo'nalishi;
- kafolatlangan bilim darajasi.

Oliy ta'lim tizimidagi ko'plab ta'lim muassasalari amaliyotiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi o'qitish metodikasi ishonch bilan kirib kelmoqda. Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Ushbu qoidalarni amalga oshirish mustaqil o'rganish qobiliyati tufayli amalga oshadi. Talabalar o'rtasida bunday bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy muammolardan biri bo'lib, ko'p jihatdan butun pedagogik faoliyatni takomillashtirishga bog'liq.

Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisining masofaviy ta'lim jarayonida mustaqil ishlarini tashkil etish uchun quyidagi vazifalarga e'tibor berish lozimligi ta'limni rivojlantirishni quyi bosichdan boshlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchining kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish va ularning o'quv va bilim faoliyatiga qiziqishini shakllantirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarni bilish jarayonining texnikasini egallashga o'rgatish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqilligini, faolligini, mas'uliyatini rivojlantirish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish.

Hamma zamonda jamiyatni axborotlashtirish, oliy ta'limning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish jarayoni mustaqil ishlarga asoslanishi kerak.

Masofadan o'qitish tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning yangi pedagogik nazariyasi va amaliyoti masalalari, uning didaktik va metodik asoslari, shuningdek, umumiy va oliy kasbiy ta'limni optimallashtirish va modernizatsiyalash konsepsiyasining asosiy qoidalariga bag'ishlangan muammolarni o'zbekistonlik olimlar A.Abduqodirov, M.Aripov, A.D.Asqarov, U.Begimqulov, D.Sayfurov, M.X.Lutfillayev, N.Muslimov, R.Isyanov, Sh.K.Mardonov, A.Y.Ibraymov, N.Taylaqov, J.Yo'ldoshev va S.A. Usmonov, MDH davlatlarda A.A.Andreyev, V.D.Vorinina, M.N. Krasnyanskiy, V.M.Kuznetsov, V.A.Kuklev, M.V.Moiseyeva, V.M.Monaxov, Y.S.Polat, M.Y.Buxarkina, M.I.Nejurina, N.V.Nikulicheva, B.L.Tokarskiy, V.P.Tixomirov, A.N.Tixonov, D.F.Romanenkova, I.V.Sergiyenko, S.A.Inkijinova, N.V.Chicherina, A.A.Zaysevskaya ning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

A.N.Leontiyev mustaqil ishni tashkil etish vositalarga bog'liq, deb hisoblagan [1, 140]. V.A.Slastenin fikricha, mustaqil ish talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish vositasi bo'lib, mustaqil ish eng muhim shaxsiy sifat – talabani to'laqonli mustaqil izlanish faoliyatini tarbiyalash uchun xizmat qiladi [5, 264].

Sigarkina Larisa Nikolayevna ta'kidlashicha, talabalarning masofaviy ta'lim jarayonini rivojlantirishning asosiy tendensiyalariga quyidagilar kiradi:

- masofaviy ta'limni tashkil etish, mazmuni va usullarining telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari rivojlanishiga bog'liqligi;

- talabalar uchun masofaviy ta'limning individual usullaridan foydalanishdan didaktik o'qitish va monitoring dasturlarini yaratishga o'tish;

- masofaviy ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalashning pedagogik asoslarini mustahkamlash;

- oliy kasbiy ta'limning istiqbolli turi sifatida masofaviy ta'limni qonun hujjatlarida mustahkamlash masofaviy ta'limni sifatli tashkil etishga asos bo'ladi [6; 26-b.].

Guryeva Irina Ivanovna "Masofaviy ta'limni modernizatsiya qilish universitetda talabalarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirish sharti sifatida" degan nom ostida ilmiy izlanish olib borgan [7, 26].

Guryeva Irina Ivanovna quyidagicha maqsadli izlangan:

1. Oliy ta'limni modernizatsiyalash sharoitida masofaviy ta'lim tizimini takomillashtirishning nazariy shart-sharoitlarini tadqiq qilish.

2. Masofaviy ta'limning jahon va mahalliy nazariya va amaliyotini o'rganish asosida sirtqi kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish sharti sifatida undan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlash.

3. Universitetda sirtqi ta'limning tashkiliy-boshqaruv modelini ishlab chiqish.


4. Sirtqi bo'lim talabalari uchun masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shartlarini aniqlash, mustaqil faoliyatni oshirish yo'llari va ularni tajriba-sinov ishlarida sinab ko'rish.

Olimaning fikricha, masofaviy ta'limni modernizatsiya qilish sharti – universitetda masofaviy ta'limni boshqarishning barcha darajadagi boshqaruv, tarkibiy bo'linmalari harakatlarini ta'lim sifatini oshirishda integratsiyalashuviga imkon beruvchi moslashtiruvchi tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini yaratish hisoblanadi. Qolaversa, o'quv jarayonini qurishning subyektiv yo'naltirilgan tizimini yaratish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minlash, eng yangi kompyuter va audio, videotexnika vositalaridan foydalangan holda bilimlarni faol o'zlashtirish rolini kengaytirish, bilimlarni sintez qilish asosida sirtqi va masofaviy ta'lim integratsiyasi, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlari universitetdagi masofaviy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Masofaviy ta'limni modernizatsiya qilish an'anaviy o'qituvchi, murabbiy, trener, boshqaruv maslahatchisi, fasilitator rollarini o'zida mujassamlashtirgan va talabalarning bilimdan tushunish orqali ijodiy faoliyatga, so'ngra shaxsiy rivojlanishga o'tishiga ko'maklashuvchi o'qituvchi-repetitorlar institutini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Muhokamalar va natijalar. Masofaviy ta'limni tizimli tashkil etish ta'lim sifat va samaradorlikni rivojlantirishi va mustaqil ishlash ko'nikmasining oshishi mumkinligini olimlarning fikrlaridan yana bir marotaba bilish mumkin.

Zero, masofaviy ta'limni tashkil etish ham o'z o'rnida talabada mustaqil ishlash faoliyatini tizimli yo'lga qo'yishdan iboratdir. Aynan masofaviy ta'lim vositasida mustaqil ishlashni odat qilgan va ko'nikmaga aylantira olgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy, ilmiy, nazariy va amaliy bog'liqlik o'rtasida aloqa o'rnata oladi va yangi g'oyalar yaratish, solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Masofaviy ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish mezonlari

Masofaviy ta'limdan foydalanishning asosiy shakli bu **mustaqil holatda** bilim olishdir.

Mustaqil ishlar mustaqil faoliyat yuritish malakasiga ega mutaxassisni tayyorlashda ko'maklashadi. Mustaqil faoliyat yuritish sifatiga ega mutaxassis faqatgina ko'rsatmalarga binoan faoliyat ko'rsatuvchi oddiy ijrochi emas, balki, masalalar yechimiga ijodiy yondashib, yangiliklar yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo'ladi.


Mustaqil bilim olishda avtonomlik – o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarini aniqlash hamda tanlash, ularni qiynalmasdan, tashqi ta'sir yordamisiz amalga oshirish qobiliyatidir.

Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotlarda (L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, B.P.Yesipov, V.A.Kozakov, I.Y.Lerner, M.I.Maxmutov, N.A.Polovnikova, P.I.Pidkasisty va boshqalar) umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy faoliyati, bu faoliyatning uslubiy, mantiqiy va boshqa jihatlari ko'rib chiqiladi, o'rganilayotgan muammoning ko'p jihatlari, ayniqsa, an'anaviy didaktik rejada ochib beriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil sinf va sinfdan tashqari bilish faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi - o'quvchilarning individual qiziqishlari,

qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim.

Masofaviy ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlari mazmuni tashkil etish bevosita ta'lim

saytlaridan foydalanish, o'rganish, sinab ko'rish, g'oyaga ega bo'lish, amalda tatbiq etish, yaratish va ommalashtirish kabi izchil ketma-ketlikdan iborat (2-rasm).



2-rasm. Masofaviy ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlarining didaktik mazmuni

Muhokamalar va natijalar. Shunday qilib, masofaviy o'qitish ta'lim jarayonining asosini ta'lim oluvchining maqsadga yo'naltirilgan va nazorat qilinadigan intensiv mustaqil ishi tashkil etadi. U belgilangan jadval bo'yicha o'zi uchun qulay joyda mustaqil o'qishi, tyutorlar bilan telefon, faks, elektron pochta orqali aloqa o'rnatishi mumkin.

Masofadan o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'lim oluvchining pedagogsiz kompyuter bilan foal mustaqil ishlashi, bu o'z navbatida, ta'lim oluvchi zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishi kerakligidir. Olimlarning fikricha, yangi termin "masofaviy o'qitish" telekommunikatsiya va zamonaviy axborot texnologiyalaridan pedagogik jarayonlarda maqsadga muvofiq samarali foydalanish bilan bog'liq, bu esa o'quv jarayonini samaraliroq boshqarish imkoniyatini beradi.

Afzalliklari haqida fikr yuritilganida, albatta, masofaviy o'qitishning an'anaviy o'qitishga nisbatan tashkiliy-pedagogik, mazmun, texnologik, moliyaviy hamda ta'limni individuallashtirish va differensiyallashtirish tomonlaridan bir qator afzalliklari, ustunliklari mavjud hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'kidlangan barcha fikrlardan kelib chiqsak, masofaviy o'qitishda mustaqil ishlashning ta'lim tizimida ustunliklari quyidagilardan iborat:

- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash ochiq hisoblanadi, hamma xohlovchilarga ta'lim olish imkoniyatlarini beradi;
- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash turli xil darajadagi o'quv dasturlaridan foydalanish imkonini beradi;
- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash ta'lim oluvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi;
- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash individuallashtirish va differensiyallashtirish o'qitishning vazifalarini yechishga imkoniyat yaratadi;
- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash ta'lim oluvchiga yashash joyini o'zgartirmasdan, ishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatini yaratadi;
- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash kadrlarni tayyorlashdagi ustunligi, tyutorning kasbiy mahorati darajasini oshirishga imkoniyat

86 yaratadi, xodimlarning yetishmasligini kompensatsiya qilish va o'quv kursining davrli takrorlanishini qisqartirish imkonini beradi;

- masofaviy ta'limda mustaqil ishlash mahalliy va xorijiy elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi;

- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari va hayot muammolarini hal qilishga yordam beradigan bilimlarni uzluksiz egallash imkoniyatini beradi;

- qondirish imkoniyatlari kengayadi;

- aholining ijtimoiy va kasbiy moslashuvchanligi, uning tadbirkorlik va ijtimoiy faolligi bo'yicha ongini va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Xulosa. Umuman olganda, masofaviy ta'limda mustaqil ishlashdan uzluksiz ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha jahonda yetarlicha tajriba to'plangan va ularning tahlilining ko'rsatishicha masofaviy o'qitish, an'anaviy ta'lim muassasalaridagi o'qitishga qaraganda arzonroq tushadi [2, 206].

Kelajagi haqida fikr yuritilganda, o'qitishning masofaviy shakli jahonda kundan-kunga kengayib bormoqda, XXI asr oxiriga borib, masofaviy ta'limda mustaqil ishlash butun dunyoni qamrab olishi kutilmoqda. Shuningdek, ko'pchilik olimlar tomonidan masofaviy o'qitish uchinchi ming yillikda istiqbolli ta'lim tizimi bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. Saidova M.J. Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish. 2022. 295-b
3. Tayloqov N.I., Axmedov A.B., Pardayeva M.D., Abdug'aniyev A.A. Informatika va axborot texnologiyalari// Darslik. 2018. 65-b.
4. Калмыкова В.В. Организационно-методическое обеспечение развития педагогических коммуникаций в условиях функционирования информационной среды дистанционного обучения. Дисс. ... канд. пед. наук. - М., 2006. -140 с.
5. Слостенин В.А. Культура умственного труда студентов. – М.: "МПГУ", 1994. -264 с
6. Сигаркина Л.Н. Педагогические пути совершенствования дистанционного обучения студентов в современных вузах. Дисс авт. ... канд. пед. наук. -М., 2007. -26с.
7. Гурьева И.В. Модернизация заочного обучения как условие повышения качества профессиональной подготовки студентов в вузе: на примере университета. Дисс авт. ... канд. пед. наук. -М., 2007. -26с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA OILADA TADBIRKORLIK, TEJAMKORLIK VA IQTISODIY TARBIYA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga oilada iqtisodiy tarbiya berishning mazmuni, ahamiyatli jihatlari bayon etilgan. Yosh avlodga tejamkorlik tarbiyasini singdirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ehtiyoj, mukammallik, aniqlik, izchillik, samadorlik, zamonaviy pedagogika, uslubiyot, vosita, tadqiqot, nazariya, amaliyot, ongliklik, faollik, hamkorlik shakli, jamoaviy, axborot-xabar, tushuntirish, yo'l-yo'riqlar berish.

В данной статье рассмотрены содержание и важные аспекты экономического воспитания младших школьников в семье. Освещены научно-педагогические основы аскетизма воспитания подрастающего поколения.

Ключевые слова: потребность, совершенство, точность, последовательность, эффективность, современная педагогика, методология, инструмент, исследование, теория, практика, осознание, деятельность, форма сотрудничества, команда, информация, объяснение, руководство, дать

This article describes the content and important aspects of economic education of primary school students in the family. The scientific and pedagogical bases of austerity education of the younger generation are covered.

Key words: need, perfection, accuracy, consistency, efficiency, modern pedagogy, methodology, tool, research, theory, practice, awareness, activity, form of cooperation, team, information, explanation, guidance give.

Kirish. Oila jamiyatning negizi, barkamol avlod ana shu oilada kamol topadi va tarbiyalanadi. Oilalarda ota-onalar, oilaning kekxa avlod vakillari, yoshi kattalar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berish bolalar uchun o'ziga xos saboq bo'ladi.

Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasihat yo'li bilan o'rgatadi. Oilada tejamkorlik va ehtiyotkorlikda to'g'ri yo'l tutish uchun esa ota-onalarning o'zlari o'quvchilariga o'rnak bo'lishlari zarur. Binobarin, oilaning tejamkorlik va ehtiyotkorlik faoliyati tarbiya ishida muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan iqtisodiy tarbiya ko'nikmalari shakllanib, ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Bozor iqtisodiyoti - bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bunda iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi, iqtisodiy monopoliizmni inkor etadi.

O'qituvchi va ota-onalar o'quvchilarga oilaning sarf-xarajatlari strukturasi quyidagicha ochib berish ko'rsatilgan:

- kundalik xarajatlar tarkibini: ovqatlanish, kiyim-bosh va poyabzal, transport, kvartira haqi, kommunal, maishiy va boshqa pullik xizmatlar;

- bir yo'la qilinadigan xarajatlar tarkibini: uzoq vaqt foydalaniladigan buyumlar (uy, dala hovli, kvartira, transport vositasi, murakkab uy-ro'z g'or texnikasi, mebel, sanitariya texnikasi, gaz plitasi va hokazo), uy anjomlari sotib olish, soliqlarni to'lash.

Oilada o'quvchilar ehtiyotkorlik va tejamkorlikka qanchalik yaxshi o'rgatilsa, butun jamiyatga ham, o'ziga ham shuncha ko'p foyda keltiriladi.

Har bir bola oila a'zosi shu ma'noda u ma'lum darajada oila xo'jaligining ham ishtirokchisidir. Binobarin, biz o'quvchilarimizni faqat oila xo'jaligining emas, balki jamiyat xo'jaligini tejab-tergab yuritadigan sadoqatli inson qilib tarbiya qilmog'imiz lozim. Barcha ota-onalar bunday tarbiya maqsadlari to'g'risida o'zlarida

88 ravshan tushuncha hosil qilib, shu asosida ish tutishlari zarur. Oila tarbiya sohasida to'g'ri rahbarlik qilish yordami bilan o'quvchilarda sofdillik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, ziyraklik, uddaburonlik kabi xislatlar tarbiyalanadi.

Ibn Sino o'quvchilarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish kerak deb ko'rsatadi: "Inson hunarni puxta o'rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro'zg'or tebratishi uchun asqotadi. Oilada iqtisodiy tarbiya o'rgatish zamirida bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilishi kerakki, bola o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Shundagina bola o'z imkoniyatidan to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanayotganini anglaydi.

Hunar egallash orqali iqtisodiy tarbiyani tushunchalarini shakllantirish orqali yoshlarni mustaqillikka o'rgatamiz. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'ladi. Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish va kiyim-kechakni yamash, ro'zg'or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash sohasida o'quvchilar mehnatini tashkil etadilar. Bunda ota-ona yumushlarni o'quvchilarga ularning jismoniy, aqliy, ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshirishlari kerak. Ota-ona ishni topshirish bilan cheklanmay, bola uni qanday bajarayotganini nazorat qilishi, lozim bo'lsa, maslahat, ko'mak berishi, bolani ruhlantirib turishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy tarbiyaning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan oila, maktab, jamoatchilik va mehnat jamoalarining hamjihat kuch-g'ayrat sarflashlariga va o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablari bir xil bo'lishiga bog'liq. Bugun maktab partalarida o'tirgan yoshlar o'z oldiga qo'yilgan ulug'vor vazifalarni hal qilishida yuqori samara berishi nazarda tutilmoqda. Bas, shunday ekan, yoshlarda shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, Vatan mudofaasi, xalqaro munosabatlar va tabiat injiqliklari bilan bog'liq ravishda tug'iladigan muammolarni to'g'ri hal etishga yaroqli bo'lgan qobiliyati, jumladan, tejash va tejamli bo'lish qobiliyatini boshlang'ich sinfdan boshlab astoydil shakllantirish va o'stirish g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadbirkorlik, tejamkorlik tushunchalarini shakllantirish va tarbiyalashda oila bilan hamkorlik texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va bozor qonunlarining belgilari mavjud. Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;

- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;

- raqobat kurashining mavjudligi;

- davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;

- korxonalar va firmalarning ichki hamda tashki shart-sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligi. Ana shu belgilar mavjud bo'lgandagina bozor mexanizmi yaxshi ishlay boshlaydi.

Buni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tushunchalarini shakllantirish va tarbiyalashda oila bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgandagina, ularda iqtisodiy tarbiya mexanizmini tarkib toptirishimiz zarur hisoblanadi. Xo'sh, endi iqtisodiy tarbiya haqida nimalar deyish mumkin va u qanday amalga oshiriladi? Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tushunchalarini shakllantirish orqali biz maktab o'quvchilariga iqtisodiy tarbiyani qanday qilib singdirish lozimligi borasida o'z fikrimizni berib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Muhokamalar va natijalar. Bizga ma'lumki, boshlang'ich ta'limning 4-sinfida quyidagi iqtisodiy tarbiya tushunchalar o'quvchilarga singdirilishi uchun: biznes, biznesmen, menejer, raqobat, unumdorlik, inqiroz, ko'chmas mulk, talab, taklif, yarmarka, birja, aksiya, auksion, eksport, chakana savdo, ulgurji savdo va oldingi sinflarda o'tilgan bilimlar takomillashtiriladi. Unda misol uchun 1-sinflarda o'tilgan iqtisod, ehtiyoj, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, mahsulot, bozor, sotuvchi, xaridor, do'kon, pul, narx, davlat mulki, mulkdor kabi bir qator tushunchalar o'quvchilarga o'rgatilgan. Shuning uchun ham ular bu tushunchalarning mazmun-mohiyatini to'la anglab yetadilar.

Chunki 1-sinfdan to 4-sinfgacha bu so'zlar bilan ishlar uzluksiz davom etib kelmoqda. Boshlang'ich ta'limning 2-sinflarda o'qiydigan o'quvchilarga quyidagi iqtisodga oid bilimlar va tushunchalar singdirilgan. Bular:

- moddiy ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj, tovar, natural mahsulot, ishlab chiqarish, korxonalar, tadbirkor, reklama, daromad, ish haqi, mukofot, meros, merosxo'r, bank, bankir kabilar. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, har bir o'quvchining ongiga iqtisodga oid bilimlarni singdirish va shu orqali ularda iqtisodiy tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Misol uchun moddiy va ma'naviy ehtiyojni tushunganda, iqtisodiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishda, undan qanday foydalanish mumkin?

Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirishining konkret shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va bu sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir.

Ehtiyoj - insonning, uning hayoti va rivojlanishini ta'minlaydigan ma'lum sharoitlarga bo'lgan zarurati. Ehtiyoj – insonning voqelikka va o'z vazifalariga bo'lgan munosabatini belgilovchi shaxs xususiyati, oxir-oqibat bu munosabat, uning yashash, hayot tarzi va faoliyati.

Markaziy Osiyo xalqining eng qadimgi "Avesto" diniy kitobining vujudga kelishi bilan, ya'ni miloddan 3000 yillar muqaddam shakllanib kelgan G'arb va jahondagi boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar ma'naviyatiga zid o'laroq uyat, andisha, sharm-hayo, ibo, or-nomus, iffat, g'urur, izzat-nafs, qadr, insonparvarlik, muruvvat kabi axloq me'yorlariga asoslangan insonning ruhiy, axloqiy qiyofasi bo'lib, shular asosida tashkil topgan urf-odatlar, milliy an'analar va turmush kechirish tarzi hisoblandi. Ana shu tushunchalar mohiyatidan kelib chiqqan holda ma'naviy va moddiy ehtiyojga to'xtalib o'tamiz.

Moddiy ehtiyoj – kishilik jamiyati, insonlar o'zlarining tabiiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida unga muhtojlik sezadi. Misol uchun, suvga, kiyimga, uyga, mashinaga ish qurilmalari va hokozalar. Bular to'g'risida o'quvchilarga qanday ma'lumot bersa bo'ladi va u orqali ularda qanday qilib iqtisodiy tarbiya shakllantiriladi degan savolga albatta o'z javobiga ega bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida o'quvchilarda avaylab-asrash, saqlash, yaxshilab tutish, ko'paytirish, jilo berish, savg'a qilish kabi istaklarni ro'yobga chiqaradi. O'zida ehtiyoj orqali erishgan narsalarni asrashga va tejashga o'rganib boradi. Anashu tariqa

boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiya asta-sekinlik bilan yo'lga qo'yilib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirishning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda iqtisodiy bilimdonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishda esa boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilim va mahorati juda ko'p narsani hal qilib, ularning iqtisodiy savodxonlik darajasi hamda o'z faoliyatini pedagogik muloqat asosida, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlariga tayangan holda qurishi ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy talablardan biri ularni boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodga oid bilim va tushunchalarni taqdim etish bo'yicha bilim, mahorat va metodika bilan qurollantirish, iqtisodiy fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Xulosa o'rnida tejamkorlik tarbiyasini oilada shakllantirishning ahamiyati shundaki, oilada bolalarni yoshligidanoq oilaning iqtisodiy masalalarni hal qilishga jalb yetish birinchidan bolaning ota-ona oldidagi qadrini oshiradi, bolaning o'ziga ishonchini kuchaytiradi, ikkinchidan pul sarflash madaniyatiga, hisob-kitobga, tejamkorlikka o'rgatadi. Oila xo'jaligining iqtisodiy masalalari demokratik asosda, hamma oila a'zolari ishtirokida o'tadigan oilalarda pul-mablag' sababli janjallar ro'y bermaydi, balki oila a'zolarini oila jamoasiga yanada ko'proq jiplashtiradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi". - T.: "O'zbekiston", 2017-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha besh tashabbus. - T.: "Siyosat", 3-aprel 2019-yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008-yil.
4. Turdimov Shomirza. Tog'day tayanch, suyanchiq.... "Ma'rifat" gazetasi, 2013-yil 22-iyun, № 50.
5. Umarova X.A. Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy bilimlarni o'rganishga yo'naltirilgan modulli texnologiyalarning didaktik asoslari. Avtoref. ped.fan.nomz – T., 2006. - 26 b.
6. Xudoyqulov X.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.– T.: "Fan", 2004. - 150 b.
7. Xo'jayev N., Xasanboyev J. Iqtisodiy pedagogika. – T.: "Turkiston", 2002. - 125 b.
8. Xudoyqulov X.J. Tejamkorlik xislatlarini tarbiyalash. // Kasb-hunar ta'limi. – T. 2004. - №5, - 20-21 b.
9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
10. www.uza.uz – O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH

Safo MATCHONOV

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
institutini professori, pedagogika fanlari doktori
e-mail: safomatchon213@gmail.com

BADIIY MATN. TAHLIL VA TALQIN UYG'UNLIGI

Maqolada o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish orqali ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Matn ustida ishlashga o'rgatish muallifning o'sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo'lni qayta bosib o'tish, fikr-mulohazalari, hissiyot va xulosalariga sherik bo'lishga tayyorlash asosida ma'naviy yetuklikka erishishga qaratilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: matn, tahlil, tarjimai hol, syujet, kompozitsiya, tezis, jahon adabiyoti.

В статье речь идет о формировании навыков литературоведческого и эстетического анализа путем обучения студентов работе над художественным текстом. Говорится, что обучение автора работе над текстом направлено на достижение духовной зрелости на основе повторного прохождения творческого пути автора в процессе создания произведения, подготовки поделиться своими мыслями, чувствами и умозаключениями.

Ключевые слова: текст, анализ, биография, сюжет, композиция, диссертация, мировая литература.

The article deals with the formation of literary and aesthetic analysis skills by teaching students to work on a literary text. It is said that teaching the author to work on the text is aimed at achieving spiritual maturity on the basis of re-traversing the creative path of the author in the process of creating the work, preparing to share his thoughts, feelings and conclusions.

Key words: text, analysis, biography, plot, composition, thesis, world literature.

Kirish. Adabiy ta'lim tizimida o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishi va bilimni to'g'ri yo'naltirish, darslikdan o'quv materiallarining asosiy va muhim jihatlari ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. "Zero, badiiy matnni to'g'ri tahlil va talqin qila olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy balog'ati, dunyoni anglash salohiyati, hissiy-estetik idrokining taraqqiyoti uchun muhim" [5, 6]dir. Shunday ekan, avvalo, matn tushunchasining o'zini izohlash zarur.

Asosiy qism. "Matn" atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "nutqning yozuvdagi ifodasi; matn; yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi" tarzida ta'rif beriladi [3, 557]. Shunga ko'ra, matnlarni mazmunan badiiy, rasmiy, ilmiy, publisistik kabi turlarga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'z tuzilish va mazmuniga qarab yondashishni taqozo etadi.

Matn ustida ishlash asarni o'rganishning o'ziga xos ko'rinishi, asosiy shakllaridan biri sifatida ijodiy xarakteriga ega bo'lishi bilan ajralib

turadi. Matn ustida ishlash metodikasi adabiy ta'limning o'zak masalalaridan hisoblanishi bejiz emas. U o'quvchilarning asar mazmun-mohiyatini o'zlashtirishlariga erishish hamda matn tahlili vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash maqsadini nazarda tutadi. Badiiy matnga, bir tomondan adabiyotshunoslik ilmi va pedagogika nuqtayi nazaridan yondashilishi zarurati uni shaklan va mazmunan quyidagi bosqichlarda o'rganishni taqozo etadi:

1. Badiiy matn ustida ishlashda kirish mashg'ulotlari.
2. Badiiy asarni o'qish.
3. Badiiy asarni tahlil qilish.
4. Badiiy matn ustida ishlashga doir yakuniy mashg'ulotlar.

Matn ustida ishlash mohiyat e'tibori bilan asar mazmunini o'zlashtirish, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va shu asosda o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi. O'qituvchi-o'quvchi hamkorligidagi bu faoliyat matnni ravon, to'g'ri, me'yorida, tushunib, ifodali, ijodiy o'qish, qayta hikoya qilish, asar mazmuniga doir rasmlar chizish, ayrim lavha (parcha)larga sarlavhalar

topish, epigraflar tanlash, reja tuzish, berilgan mavzu bo'yicha badiiy asar, darslik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish (tezis tuzish, ko'chirmalar olish, konspektlashtirish), yozuvchining o'ziga xos ijodiy uslubi – individualligini aniqlash, bayon, insho, taqriz, ma'ruza matni, referat yozish, ikki yoki undan ortiq asarlarni mavzusiga ko'ra va g'oyaviy-badiiy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon etish, sahnalashtirilgan yoki ekranlashtirilgan asarlarning ijrochilari mahoratini baholash kabi g'oyat muhim masalalar doirasida ish ko'radi.

Badiiy matn boshqa turdagi, masalan, ilmiy matndan obrazlilik bilan farqlanadi. Ilmiy matn tushunish uchun ma'lum darajada bilim, ko'nikma, malaka talab qilingani kabi badiiy matnning mag'zini chaqish ham jiddiy mehnattalab ishdur. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari, tarixiy-badiiy matnlarni o'quvchilarning maxsus izohsiz tushuntirish mushkul. Chunki o'qituvchi matndagi so'z va iboralarni o'z tushunchasidagi mavjud so'z va ibaralar orqali qabul qiladi. O'qimishli kishilarning lug'at boyligi o'rtacha o'n-o'n ikki ming so'zdan iborat bo'lishi nazarda tutilsa, o'quvchilar nutqining chegaralanganini sezish qiyin emas. Demak, ularning badiiy asar nafasini his etishlari, idrok qilishlari, matn tagzaminidagi ma'noni anglashlari o'qituvchi yordamisiz qiyin kechadi. Bu esa o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatishda yozuvchilarning o'ziga xos hayot va ijod yo'li, asarlarining yaratilish tarixi, adabiyot taraqqiyotidagi o'rni, tarixiy qahramonlar taqdiri, joy nomlari haqidagi ma'lumotlardan o'rinli va unumli foydalanishni taqozo etadi.

Bunday ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa", Boburning "Boburnoma" singari mumtoz adabiyot namunalari ustida ishlashda ham, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Fitratning "Abulfayzxon", Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" kabi XX asr o'zbek adabiyoti asarlari bilan tanishishda ham, Sofoklning "Shoh Edip", Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" singari jahon adabiyoti durdonalarini o'rganish chog'ida ham yaxshi samara berishi tabiiydir.

O'qituvchi bu xildagi ma'lumotlarni yozuvchilarning asarlaridan, tarjimayi hollaridan, ular to'g'risidagi badialardan, tarixiy, ilmiy-ommabop asarlardan, maxsus albomlardan, zamondoshlari xotiralaridan olishi mumkin. Boburning "Boburnoma", Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Nasimxon Rahmonning "Turk hoqonligi", Hayridin Sultonovning "Boburning

tushlari", Habibullo Qodiriyning "Otam haqida", "Abdulla Qodiriyning so'nggi kunlari", shuningdek, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda va boshqa yozuvchilar zamondoshlari xotiralar ana shunday mo'tabar manbalar sirasiga kiradi.

Muhokamalar va natijalar. Matn ustida ishlash mashg'ulotlarida, zarurat sezilganda, yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga doir ma'lumotlar berish nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham samarali usullaridan hisoblanadi. Binobarin, yozuvchi tarjimayi holi uning ijodining tub mohiyatini anglash, badiiy mahoratiga xos yutuq va kamchiliklar yuzasidan tegishli xulosa chiqarishda, ijodiy yo'nalishini belgilashda muhim manba vazifasini o'tashi mumkin. Yozuvchi tarjimayi holini o'rganishda o'quvchilarni uning o'zi yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy hayot va tarixiy muhitga munosabati bilan tanishtirish ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saltanatida, A.S.Pushkin va L.N.Tolstoyning Rossiya kibarlar jamiyatida, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va Hamzalarning asrimiz boshlaridagi milliy uyg'onish harakatiga tutgan mavqelari sharhlangandagina ularning ijodini chuqur o'zlashtirishga yo'l ochiladi. Bunday sharhlar, ayniqsa, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad va Shukrullo kabi qatag'onga uchragan yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganishda katta naf keltiradi.

"Yozuvchini, - deb yozgan edi A.Qodiriy, - garchi shaxsan tanilmasa ham, asalarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi [1, 140]".

Yozuvchi shaxsiyati, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati esa uning ijodiy o'ziga xosligida aks etadi. Negaki, bir qalamkashga mansub asarlar o'zaro shakl va mazmun jihatdan farqlansa-da, ularni muallifning ijodiy uslubi, o'zi tasvirlayotgan hayot materialiga munosabati birlashtirib turadi. Ijodiy o'ziga xoslikni bir yozuvchining turli asarlarini o'zaro taqqoslash orqali ham, boshqa yozuvchilarning shu mavzuga oid asarlariga qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, Usmon Nosirning ijodiy yo'li tahlil markaziga qo'yilganda, uning o'ziga xosligini "Yur, tog'larga chiqaylik!", "Yo'lchi", "Yurak" she'rlarini o'zaro chog'ishtirish yoki Hamzaning "Yig'la, Turkiston!", H.Olimjonning "Holbuki tun", G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'rlariga taqqoslash yordamida tushuntirsa bo'ladi. Ko'rinadiki, o'quvchilarni badiiy matn

92 ustida ishlashga tayyorlashda yozuvchilarning hayoti va ijodiy yo'liga oid shu xildagi ma'lumotlar muhim yo'llanma vazifasini o'taydi.

Adabiyot o'quv dasturlarida Boburning "Boburnoma" kabi memuar xarakterdagi asarlar ham borki, ularning janr xususiyatlarini tushuntirmasdan turib, matn ustida ishlash ko'zlangan natijani bermaydi. Memuar janrida qalam tebratuvchi ijodkorlar, xususan, aktyorlar, davlat va jamoat arboblari, olimlar, tarixchilar, adabiyotchilar, harbiylar ko'proq kundaliklar, har xil yozishmalar, gazeta-jurnal materailari va boshqa hujjatlarga suvansalar, adiblar xotirasida qolgan voqea-hodisalarga badiiy tus beradilar. Sadridin Aynining "Esdaliklar", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" kabi asarlari badiiy o'qimishli memuarlardan hisoblanadi.

Boburning "Boburnoma" asari o'zbek adabiyotidagi memuarlarning mumtoz namunasi. Unda Bobur siymosi o'quvchi ko'z o'ngida tarixchi olim, geografiya bilimdoni, zukko adabiyotchi, mohir sarkarda, realist yozuvchi, hassos lirik shoir sifatida gavdalandi. Memuarlar xarakter xususiyatlarga ko'ra tarixning bugungi kunimizga daxldor bo'lgan, qayta jonlangan ibratli sahifalaridir. U tarix guvohnomasi, hujjatligi, ayni choqda badiiyligi bilan boshqa janrdagi asarlardan ajralib turadi. Lekin tarixiy haqiqat bilan memuar hamisha bir xil emas. Buni biz Ibn Arabshohning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Ayrim memuarlarda yozuvchining badiiy to'qimasi alohida o'rin tutadi. Bunday hollarda badiiy to'qimaga keng o'rin berilgani o'sha asarlarning kamchiligi bo'lmay, balki o'ziga xos xususiyatidir. Chunki memuarlarda qahramonlarning shunchaki ko'rgan-kechirganlari emas, balki taniqli so'z san'atkorlarining o'z o'tmishlari vositasida hayotga, mavjud jamiyatga munosabatlari ifodasi bo'lgani uchun ham turli yoshdagi kitobxonlarda qiziqish uyg'otadi.

Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni o'rganish va idrok qilishda ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash muhim o'rin tutgani kabi ba'zi asarlar matnini o'rganishga oid kirish mashg'ulotlarida ularning yaratilish tarixiga doir ma'lumotlarni keltirish ham yaxshi saara beradi. Umumjahon adabiyotiga katta hissa qo'shgan Alisher Navoiy, Uilyam Shekspir, Jonatan Svift, Viktor Gyugo, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Ernest Xemenguey, Chingiz Aytmatov va boshqa so'z san'atkorlari ijodidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, I.S.Turgenev "Asya" qissasining yaratilish tarixi to'g'risida bunday hikoya qiladi:

"Reyn daryosi bo'yidagi chog'roqqina shaharchada to'xtadim. Qiladigan ishimning tayini bo'lmagani sababli kechqurun qayiqda tomoshaga chiqdim. Oqshom fayzli edi. Qayiqda hech narsa haqida o'ylamasdan, yoqimli havodan to'yib-to'yib nafas olganча chor atrofni kuzata boshladim. Tashlandiq jar yoqasidan o'tayotib, uning yonginasidagi ikki qavatli mo'jaz uyga ko'zim tushdi. Uning pastki qavat derazasidan bir kampir tashqarini kuzatar, yuqoridagi derazadan xushro'ygina qizning boshi ko'rinar edi. Menda to'satdan alohida bir kayfiyat tug'ildi. Qizning kimligi, qanaqaligi, nima uchun bu uy chada turishi, kampirga nima aloqasi borligi haqida xayolga cho'mdim. Natijada shu yerda, qayiqning o'zidayoq qissaning fabulasi tayyor bo'ldi".

Bunday ma'lumotlar o'zbek adabiyoti namoyandalari tarjimayi hollarida ham ko'p uchraydi. Masalan, 10-sinfda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani tarixiga doir quyidagi hikoya keltirilsa, o'quvchilarning asar sujeti va kompozitsiyasini tushunishlari osonlashadi:

"Qariyb yarim umrini xon zamonlarida yashagan, talay o'tmish voqealarining shohidi bo'lgan otam yoshligimda qiziq-qiziq xotiralarni so'zlab berardi. Bu xotiralar menda tarixga qiziqish uyg'otdi. So'ngra o'sha davrimiz tarixiga oid ancha kitoblar bilan ham tanishib chiqdim. Qo'lim qalamga xiyla kelib qolgach, menda ana shu o'tmishimizdan G'arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasi tug'ildi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko'p ediki, go'yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog'ozga tushirishni tasavvur qila olmasdim. Uzoq vaqt o'ylab, izlab yurdim.

Kunlarning birida bog'imizga, otamni ko'rgani eshak minib shahardan bir chol mehmon bo'lib chiqdi. Mehmonni men tanimasdim. U otamning eski qadr doni ekan. Mehmon qildik. Otam shu choqlarda yuz yoshlarda bo'lib, mehmon esa undan besh-o'n yosh kichik ko'rinar edi. Ular suhbat qilarkan, quloqlari og'irlashib qolgani uchun bir-birining so'zlarini yaxshi eshitolmas edi. Shu sababli menga ular o'rtasida tilmoch bo'lib choy quyib o'tirishga to'g'ri keldi. Otam mehmondan so'radi: "Andijondagi xotiningizdan nechta bolangiz bor?". Ularning suhbatidan men angladimki, bu mehmon toshkentlik bo'lib, uyli-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik chog'larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u yerda uylanib, ko'p yillar istiqomat qilgan, Andijondan ham uylanib, bola-chaqali bo'lgan va keksaygach, o'z shahriga qaytib kelgan ekan.

Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday bo'ldi. Shu asosda boshimda voqeani asta-sekin

kengaytira, rivojlantira boshladim. Besh-olti oylab xayol surishim natijasida romanim hozirgi shaklga keldi va qo'limga qalam oldim" [1, 146].

Xulosa qilganda, matn ustida ishlashga oid kirish mashg'ulotlari dars jarayonidagi mustaqil ishlarning ilk bosqichi hisoblanadi. U o'z ichiga yozuvchilarning hayoti va ijodi, o'z davriga munosabati, ijtimoiy, axloqiy-estetik qarashlari, adabiy-tarixiy muhit, o'rganilayotgan asarning yaratilish davri, tarixi, adabiy qahramonlar taqdiri haqidagi ma'lumotlar bilan birga tushunilishi qiyin bo'lgan so'z va ibaralar, hikmatlar, tarixiy shaxslar, joy nomlari shahri kabi masalalarni qamrab oladi. Bunday mashg'ulotlarda beriladigan bilimlar badiiy asar matnidagi obrazlilikni his etish, anglash va chuqur tushunishga, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yuzasidan fikrlashga undaydi. Bu borada metodist olim A.Zunnunov ta'kidlaganidek,

“mahorat bilan tashkil etilgan har bir kirish mashg'uloti navbatdagi mashg'ulotni muvaffaqiyatli o'tkazishga zamin yaratadi, o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga tayyorlash, ularni o'rganilayotgan masalaga nisbatan qiziqish tuyg'usini qo'zg'atish uchun ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi” [2, 134]. Zero, adabiy ta'lim samaradorligiga erishish ko'p jihatdan o'quvchilarni badiiy asarlarning yaratilish tarixi, yozuvchining o'zi qalamga olgan voqelikka munosabati, individual uslubi, badiiy mahoratiga xos mushtarak xususiyatlar bilan yaqindan tanishtirishga bog'liq. Chunki asar sujeti, kompozitsion tuzilishi chuqur tushunilgan, yetakchi qahramonlarning o'zlari tushgan vaziyatdagi ruhiyatida kechgan tebranishlar teran anglangan asargina kishini befarq qoldirmaydi.

Adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. -172 b.
2. Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1992. – 329 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 672 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Boqiy N. Qatlnoma. 2020.
5. Yo'ldoshev M., Z.Isaqov, Sh.Haydarov. Badiiy matnning insoniy tahlili. –T.: “Alisher Navoiy” nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. – 6-bet.

Mehriniso ABUZALOVA
Buxoro davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasini
professori, filologiya fanlari
doktori
professori.@Abuzalova

Shahnoza ISLOMOVA
Buxoro davlat universiteti
lingvistika (o'zbek tili)
mutaxassiligi 2-bosqich magistri
shahnozaislomova97@gmail.com

Nosir MIRJONOV
Buxoro davlat universiteti
lingvistika (o'zbek tili)
mutaxassiligi 2-bosqich
magistri
magistranti.@Mirjonov

TIBBIYOT TILI VA TIBBIY MATNLARNING XUSUSIYATLARI

Maqolada tilshunoslikning tibbiyot bilan faol integratsiyalashuvini ta'minlash, tibbiy birliklarning lingvistik xususiyatlarini ochib berish, tibbiy lingvistik birliklarni badiiy matnlardan aniqlash hamda matniy lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tibbiy matn, tibbiy birliklar, shifokor nutqi, tibbiyot tili, tibbiyot terminologiyasi, tibbiy paremlar.

В статье речь идет об обеспечении активной интеграции языкознания с медициной, раскрытии лингвистических особенностей медицинских единиц, определении медицинских лингвистических единиц из художественных текстов и исследовании лингвистических особенностей текста.

Ключевые слова: лингвистика, медицинский текст, медицинские единицы, речь врача, медицинский язык, медицинская терминология, медицинские паремы.

The article discusses the active integration of linguistics with medicine, the disclosure of the linguistic features of medical units, the identification of medical linguistic units from literary texts, and the study of textual linguistic features.

Key words: linguistics, medical text, medical units, doctor's speech, medical language, medical terminology, medical paremas.

Kirish. Muayyan xalqning o'zligi, dunyoqarashi, tafakkuri, turmush tarzi, o'tmishi va kelajagini aks ettirishda ona tilining o'rni beqiyos. Tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish, tilshunoslikning qator fanlar bilan aloqasini o'rganish natijasida nutqning serqirraligi yaqqol namoyon bo'ldi. Tilning bunyodkorlik vazifasi, amaliy ahamiyati tilshunoslikning qator fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida ochib berildi. Natijada, qator soha lingvistikalari shakllandi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, tibbiy lingvistika va boshqalar.

"Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi... Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq" [1, 3] ekan, tibbiy birliklarning ma'noviy, vazifaviy, uslubiy xususiyatlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Bugungi kunda tibbiyot tilshunosligi, tibbiy lingvistika deb ataladigan yangi fan tarmog'i rivojlanib bormoqda. Tibbiyot tili tibbiyot tarixchilari uchun ham, tilshunoslar uchun

ham dolzarb masalalarni hal etmoqda. Klassik olimlar eng qadimgi tibbiy yozuvlarning mazmuni va tilini batafsil tahlil qildilar, bugungi kunda esa tibbiy lingvistikaning, tibbiy terminologiyaning keyingi rivojlanishi tilshunosligimizning yutug'idir.

Ma'lumki, **tibbiyot** (meditsina, tabobat) - insonlar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmuyi hisoblanadi. Tibbiyot tabiiy fanlar (biologiya, fizika, kimyo) va ijtimoiy fanlar hamda texnika bilan chambarchas bog'langan.

Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichi qadim tarixning turli davrlaridagi dunyoqarashlarni qamrab oladi. Ayonki, turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olish haqidagi bilimlar asosi qadimdan kishilarning tajriba va kuzatishlariga bog'liq bo'lgan. Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Galenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi

hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga doir asarlari to XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo'lib xizmat qildi.

O'rta asrda Abu Ali ibn Sino tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning "Al-Qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari ko'p asrlardan beri dunyo tibbiyotida asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslik muammolari odatda inson omili orqali ko'rib chiqiladi. Deyarli barcha kasblar ixtisoslashgan jargonlarga ega. Tibbiyot o'z noyob tili bilan bundan istisno emas. Tibbiyot tarixidan ma'lumki, bundan 2400 yil muqaddam Suqrotning shogirdi Aflotun shunday degan: "Juda katta xatolik sodir bo'lyapti: vujud va ruhiyat kasalliklarini alohida-alohida hakimlar davolayapti. Axir, vujud va ruh bir-biridan ajralgan holda emas-ku?!"

Haqiqatdan ham, hakimlar yaqin kunlarga qadar bemorni "taqsimlab" davoladilar. Natijada, kasallar katta kuch va vaqt sarf etgan holda davo topdi. Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishi hisoblangan tibbiy lingvistika tibbiyot va psixologiya, tibbiyot va falsafa, tibbiyot va mantiq, tibbiyot va lingvistika uyg'unligida juda ko'plab muammolarga yakun yasamoqda.

Tibbiyotda mavjud bo'lgan va bemorlar uchun ishlatiladigan dori-darmonlar xususiyatlari, ta'siri, kasalliklar nomlari, shifokorlar nutqida uchraydigan ko'plab so'zlar bemorlar va ularning yaqinlari uchun tushunarsizdir. Chunki, tibbiy atamalarning deyarli ko'pchiligi lotin yoki ingliz tilidadir. Bugungi kunda **tilshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardan biri milliy tibbiyot tilini yaratish masalasidir**. Tibbiyot terminologiyasi dunyoda eng qadimgi maxsus atamalardan biri hisoblanadi. Bu leksikaning ixtisoslashgan sohasi tilshunoslik fanidir, u o'rganadi, tahlil qiladi va tavsiflaydi.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot tili shakllanib bo'lgan, ularning maxsus terminologiyasi, tibbiy birliklar korpusi yaratilgan. Tibbiyot terminologiyasining asosini yunon-lotin tili tashkil etadi, tibbiyot tili ham yunon-lotin yadrosining natijasidir [2, 348].

Tilimizdagi ayrim iboralarning etimologiyasi tibbiyotga borib taqaladi. Masalan, "sherdek yuragi bor" iborasi - eng qo'rqqoq jonivor hisoblangan quyonning buyrakosti bezlari asosan, adrenalin ishlab chiqaradi, vahshiy hayvonlarniki esa noradrenalin ishlab chiqaradi. Bunaqa alomatlar odamlarda ham uchraydi. Masalan, yili sher bo'lgan odamda hissiyotli, asabiy taranglik vaqtida ko'p miqdorda noradrenalin ishlab chiqariladi. Bunaqa odamlar asabiy taranglik vaqtida o'zlarini bardam tutadilar. Ularda ichki imkoniyat zaxirasi

kuchli bo'ladi. Bunaqa odamlarni "Sherdek yuragi bor" deyishadi [3, 41].

Darhaqiqat, tilimizdagi ayrim iboralarning etimologiyasi tibbiyot bilan bog'liq. Buni yuqoridagi misol asosida ko'rdik. Shu o'rinda ham tilshunoslik va tibbiyot mushtarakligini ko'rishimiz mumkin.

Tibbiyot va tilshunoslik integratsiyaga kirishuvi ko'plab kasalliklarga oson davu usullarini topishga imkon yaratdi. Har qanday shifokor, tabib, muolajakor faqat bemor uchun ishlamasligi kerak va buni bemorga to'g'ri yetkazib bilishi lozim. Ibn Sino aytganidek: Biz uchtamiz: men, sen va kasallik. Agarda men bilan sen birlashsak, albatta, kasallikni yengamiz, agarda sen kasallik yoniga tushadigan bo'lsang, unda men ojizman! [4, 13].

Bu axborotli yondashuvdir. Axborotni to'g'ri yetkazib berish va uni qabul qilish juda muhimdir. Ibn Sino tabib, muolajakor, nafaqat, davokor bo'lmog'i balki, mohir notiq, kuchli pedagog bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunda tibbiy birliklar leksikasining asosini yunon-lotin birliklari tashkil etadi. Ammo, yunon-lotin tilidagi tibbiy birliklarning milliy (o'zbekcha) varianti bor.

Tibbiyotda ishlatiladigan terminlarning ko'pchiligi bemorlar va ularning yaqinlari uchun tushunarsizdir. Bugungi kunda tilshunoslar oldidagi vazifalardan biri yo'qolib borayotgan noyob tibbiy birliklarni to'plash, Ibn Sino qalamiga mansub "Tib qonunlari" asaridagi ayrim tibbiy birliklarni leksik o'rganib shifokorlar va xalqqa lug'atlar, qo'llanmalar shaklida taqdim etishdir. Masalan, hozirgi kun tibbiyot termini hisoblangan "diabet", "qand" kasalligini olaylik. Bu kasallik "Tib qonunlari"da "shakar" kasalligi deb berilgan va izohi quyidagicha keltirilgan:

...tez-tez va ko'p siyish, doimiy chanqash, tutoqish, bemorning darmonsizligi va ba'zan bemorning gangrena kasalligiga muhtalo bo'lishi; bu kasallikda siydik tiniq, og'ir va mo'l bo'ladi. Bug'ga aylangandan keyin qolgan quyqasi asaldan shirin ta'mga ega bo'ladi, tanada shakar miqdori oshib ketadi [4, 198].

Diabet - [yun.diabino-o'taman, o'tib ketaman] tibbiyotda kasalliklarning ko'p siydiradigan turlarining umumiy nomi [4, 9].

Zamoviy tilshunoslik jadal rivojlanib borar ekan, soha lingvistikalarida ham qator ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, tibbiy lingvistik birliklar platformasi tashkil etilib, tibbiy birliklarning terminologik tizimi yanada boyitiladi. Bu orqali shifokor va bemorlarga lingvistik yordam beriladi.

"Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-

96 uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilar maqtanadi. **Uning oyog'i kasal.** Salqin tushishi bilan shishib ketadi, **og'riydi.** Qo'ni-qo'shnilar ahvol so'rsa, ularniyam, o'ziniyam yupatadi. – Ha, endi **keksalik-da**, o'rgilay. Lekin onamning **oyoq og'rig'i** faqat **keksalik**dan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman. Bolaligimda ko'p **kasal** bo'lardim: **qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak...** Shuning uchun **oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi...** Ayniqsa, **tomoq og'rig'i** yomon qiynaydi. **Oyog'im xaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi.** Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman. O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. **Terlab** turib muz yedim. Kechqurun **isitma** ko'tarildi. **Quv-quv yo'talaman.** Oyim **tomog'imni achchiqtosh bilan chayib** ko'rdi, bo'lmadi, **turshak qaynatib suvini ichirdi**, bo'lmadi... Oxiri **tomog'im xippa bo'g'ilib** qoldi. Og'riqni sezmayman-u **nafas olishga qiynalaman.** **Hushimdan keta boshlaganimni** es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

- Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor yog'ayotganini his etib turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning **issiq nafasi** urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, **og'ir hansirar** edi. Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. **Ko'z o'ngim yana qorong'ilashib** ketdi. Oyim hamon chirqillaydi.

- **O'lib qoladi! Bolagim o'lib qoladi!**

- Vahima qilmang, poshsha, **dardni bergan Xudo, davosiniyam beradi.**

Kalit so'zlar: talaffuz mashqi, ilk o'rganuvchi o'quvchilar, ta'lim mazmuni, predmetli (real narsalar), til ko'nikmalari.

Радикальные реформы во всех сферах, начавшиеся благодаря обретению независимости, положили начало периоду обновления и развития в сфере образования. Огромные реформы были осуществлены и осуществляются в сфере образования. Основной задачей Закона Республики Узбекистан "Об образовании" является подготовка в нашей стране высококвалифицированных, качественных кадров с отличным знанием иностранных языков. Одной из основных задач на сегодняшний день является поэтапная организация процессов обучения иностранному языку с начальной школы, чтобы обеспечить выполнение поставленных в решениях задач. Язык является средством обеспечения развития, процветания и прогресса общества. Обеспечение учащихся глубокими и прочными знаниями иностранного языка в начальной школе, формирование навыков и умений применять эти знания на практике возлагает большую ответственность на профессиональных педагогов.

Ключевые слова: произносительные упражнения, первокурсники, содержание обучения, предмет (реальные вещи), языковые навыки.

In this article is about the pupils gathering careful during the german lessons. It will help to learn foreign languages to the pupils. The teacher must interesting the pupils for the lesson. Today in Uzbekistan special attention is paid to the study of foreign languages. The decrees issued by our government and the conditions created create the task of shaping the German language of young people, from preschools to universities. The development of students' language skills in German has also become a topical issue. Listening comprehension is one of the most important language skills in learning a foreign language. This dissertation collects information on various methods, techniques and exercises that help to develop listening and comprehension skills, and analyzes their practical effectiveness.

Key words: german lessons, language skills, listening comprehension, grammar, learn foreign languages.

Kirish. Ilk maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ilk maktab yoshidagi bolalarda og'zaki nutq yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ular mukammal qobiliyat egasi bo'lib atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni, berilgan ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladi. Bolalarga chet tilini o'rgatishda ularning psixologik xususiyatlarini va dars jarayonida berilgan vazifalarni mustaqil bajara ololmasliklarini inobatga olish kerak. Og'izaki nutqni o'rgatish jarayonida turli o'yinlardan foydalanish chet tilini tez va oson egallashlariga

sabab bo'ladi. O'yinlar orqali tushuntirilgan dars materiallarini o'quvchilar yaxshiroq tushunadilar, qabul qiladilar va eslab qoladilar. Bolalar ayni shu yoshlarida taqlidga moyil bo'ladilar. O'qituvchi qanday harakatni bajarsa, chet tilidagi so'zlardan ko'proq foydalansa, o'quvchilar darhol ilg'ab takrorlashga tushadilar. Kichik yoshdagi bolalar, ayniqsa, qoliplashgan, zerikarli darslardan tez charchaydilar va bu tarzda o'tilgan darslar bolaning til o'rganish jarayoniga hech qanday ijobiy natija bermaydi. Dars jarayonida bolalarning diqqati va e'tiborini ko'proq o'ziga jalb etuvchi predmetlar

ya'ni ko'rgazmali qurollardan foydalanib, turli xil o'yinlarni tashkil etish tilni mukammal egallashning muhim omili sanaladi. Chunki ilk maktab yoshidagi bolalar o'yinqaroq bo'lib, o'yin tarzida o'tilgan mavzu bola ongiga chuqurroq singadi.

Asosiy qism. O'qituvchi dars jarayonida topshiriqlar beradi, tushunish jarayonini yengillashtirish maqsadida turli o'yinlar, harakatlar va ko'rgazmali qurollar bilan izohlaydi. So'zlarni takrorlash, takroriy ravishda so'zlash orqali o'quvchilar o'tilgan mavzuni qay darajada egallaganliklarini namoyon qiladilar. Darsdagi yana bir muhim jarayonlardan biri shuki, bolani rag'batlantirish yoki "jazolash" jarayoni: bunda rag'bat sifatida o'quvchiga biror kichik sovg'a berish (masalan koptokcha) "jazo" tariqasida esa o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchiga chet tilida eng kamida beshta so'zni qayta-qayta takrorlash orqali yoddan aytish buyuriladi.

Bolaga eng avvalo o'z ona tili va o'rgatilayotgan til o'rtasidagi farqni o'rgatish kerak. Chet tilidagi so'zni o'rgatish jarayonida to'g'ri talaffuz va intonatsiyaga alohida e'tibor qaratish kerak. Talaffuzni mashq qilish jarayonida tinglab tushunish bilan birga, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Talaffuz mashqi chet tili o'qitishning tarkibiy qismi bo'lishi shart. Ilk o'rganuvchi o'quvchilarga ta'lim mazmuniga mos o'yinlarni tanlash maqsadga muvofiq. Predmetli (real narsalar) o'yinlar darsni mazmunli tashkil etishga yordam beradi. Masalan, dars mavzusidan kelib chiqib, koptokni bir-biriga uzatish orqali mavzuga oid so'zlarni ketma-ketlikda aytish, ranglarni bir-biridan ajratish va o'zlari aytgan so'zlar ishtirokida ega va kesimdan iborat sodda gaplar tuzish va boshqalar.

Bolalarga chet tilini o'rgatish ularning ongini oshirishga, xotirasini esa charxlashga yordam beradi. Chet tili o'qitishga mo'ljallangan darsliklarda tili o'rganilayotgan mamlakatning bayramlari, urf-odatlar va millatning o'ziga xos xususiyatlari aks etgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari o'quvchilarga o'z ona tili va o'rgatilayotgan tilning o'xshash va no'xshash tomonlarini qiyoslab o'rgatish lozim. Qiyoslab o'rgatish tilni tezroq o'rganish imkonini beradi. O'qituvchi boladagi o'ziga xos bo'lgan qobiliyatni anglashi va shuni e'tiborga olgan holda ta'lim berishi kerak. Ba'zi bir o'quvchi tinglab tezroq tushuna olsa, boshqa bir o'quvchi esa ko'rgan narsasini tez ilg'ash qobiliyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi tajribali, sezgir bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z kasbining fidoyisi bo'lishi, o'quvchilariga o'z mehrini bera olishi, shu bilan birga ijodkor bo'lishi kerak. Yevropa adabiyotining

buyuk vakili, o'zining asarlari bilan dovruq taratgan va ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan modernizm adabiy yo'nalishi asoschilaridan biri Frans Kafka shunday degan edi: "Ijodkor uchun ijod – azoblanishdir. U o'zini azobga solish bilan yangi uqubatlardan xalos bo'ladi. U pahlavon emas, faqat o'z mavjudoti qafasiga qamalgan yaltiroq qushdir." Zamonaviy fikrlashga, yangicha dunyoqarashga va ilg'or tajribaga ega bo'lgan pedagoglar bugun yosh avlodga har qachongidanda ko'proq kerak.

Chet tilini o'rganishda takrorlash talaffuzni yaxshilashga va chet tilida ravon gapirishga katta yordam beradi. Dastlab til o'rganayotgan o'quvchi notanish so'zlar talaffuzida bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadi. S.I.Berishteyn aytganidek, "O'zimiz talaffuz qilishni biladigan tovushlarnigina biz mutlaqo to'g'ri eshitamiz." So'zlarni qayta-qayta takrorlash orqali o'quvchilar xatolardan holi bo'ladilar. Og'zaki nutqning rivojlanishi bola uchun muvaffaqiyatli ta'limning yaqqol namunasi. O'quvchi tilni nazariy jihatdan qancha ko'p o'rganmasin, og'zaki nutqda undan foydalanishda no'noqlansa bu yetarli natijani bermaydi. Ilk maktab yoshidagi bolalarga chet tillarni o'qitishda turli metodlarni integrallashtirilgan holda qo'llash samaralidir. Turli metodlarni integrallashtirilgan holda qo'llash jarayonida bolalarning xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Har bir bolaning tashqi va ichki xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri tanlangan har bir metod bolalarning til bilish ko'nikmalarini oshirishda asosiy onil bo'lib xizmat qiladi. Amerikalik psixolog Djeym Asher tomonidan "To'liq jismoniy faollikka yo'naltirilgan metod" yaratilgan. Unga ko'ra o'quvchilarga berilayotgan og'zaki ko'rsatmalar, dars jarayonida berilayotgan turli topshiriqlar turli jismoniy harakatlar orqali amalga oshiriladi. Ilk maktab yoshidagi bolalar o'yinqaroq, tabiatan harakatchan, taqlid qilishga o'ch bo'lganliklari bois ushbu "To'liq jismoniy faollikka yo'naltirilgan metod" ular uchun juda qulay va samarali hisoblanadi. Chunki ilk maktab yoshidagi bolalarga darslar o'yin va harakatlar orqali o'rgatiladi. Jismoniy harakatlar til o'rganish jarayonini tezlashtiradi. Jismoniy harakatlar orqali tushuntirgan so'zlar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi. Ushbu metoddan foydalanishda o'qituvchi ko'rsatma beradi va har bir ko'rsatmani beradi, tushunarli bo'lishi uchun har bir gapni xatti-harakatlar orqali yoki rasmlar orqali ko'rsatib beradi.

Muhokamalar va natijalar. Til o'rganish murakkab jarayon hisoblanadi. Akademik Aleksey Nikolayevich Leontyevning nutq faoliyati nazariyasiga ko'ra faoliyat mazmunini harakatlar tashkil etadi. Bizga ma'lumki, hozirda chet tili

110 boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatilmoqda. Birinchi sinfdan o'quvchilarimizga chet tilini o'yinlar asosida alifbosiz, ikkinchi sinfdan boshlab esa alifbo asosida o'rgatilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tilida ilk o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. Qisqa vaqt ichida chet tili alifbosi asosida ilk o'rganuvchiga o'qish va yozish o'rgatiladi, o'qish va yozishga ko'nikma hosil qilinib, uni takomillashtira boriladi. Takomillashgan ko'nikma malakaga aylantiriladi, malaka mustahkamlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tilini mukammal o'zlashtirilishi, chet tili o'qitishning muvafaqqiyati ilk saboq o'rgatishga, ya'ni ilk o'rgatishni qanday tashkil etilganligiga bog'liq. Savod o'rgatish jarayonini to'g'ri tashkil etish chet tili o'qituvchisining zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida ilk chet tilini o'rganayotgan o'quvchi ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham harflarni mukammal egallash maqsadga muvofiq. Harflar mukammal egallansa, darslikdagi o'quvchilarning yoshiga mos kichik matnlar ustida ishlash oson bo'ladi. O'quvchilar kichik matnlarni o'qiydilar, yozadilar. Yangi so'zlarni turli o'yinlar orqali o'rganadilar va takrorlaydilar. Takrorlash o'quvchini faollashtiradi, malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatini o'stiradi. O'qish va yozish jarayonida harfni tovushga va aksincha, tovushni harfga aylantirish bosqichi bo'lgani uchun bu ikki ko'nikma birgalikda, parallel ravishda hosil qilinadi. Chet tilida savod o'rgatish jarayonida chet tili tovush va harflar sistemasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Chet tilini ilk o'rganayotgan o'quvchi o'qish jarayonida bir harfnigina ko'radi, uni "bilish" o'zbek tilidagi mos kelgan harf bilan qiyoslaydi. Harfni ko'rishi bilan uni ovoz chigarib o'qiydi. O'qituvchi bilan hamkorlikda bo'g'inni, keyin oldingi bo'g'inni yodda tutib, yana kamida bir bo'g'inni o'qishi kerak. O'qituvchi o'quvchining o'rganishiga yaqin ko'makdosh. O'quvchilarimiz o'qishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar. So'zni o'qish uchun undagi tovushlarni aytishning o'zi kifoya emas, har bir harfni idrok qilish, tovushlardan bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilishi va har bir o'rgangan so'zning tarjimasini bilib olmog'i lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ongli o'qishga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchining tushuntirishi, turli ko'rgazmali qurollar, rang-barang mavzuga oid rasmlar, savollar ongli o'qishni ta'minlaydi. Ovoz chiqarib o'qish ham o'qishning ongli bo'lishiga yordam beradi. Chet tilini ilk o'qishga o'rgatishda tovushlarni qo'shish qiyin harakat hisoblanadi. Ko'pincha,

o'quvchilar tovushlarni alohida talaffuz qiladilar, ammo bo'g'in hosil qila olmaydilar. Buning sababi fiziologik asosga ega. Bizga ma'lumki, har bir tovushni alohida talaffuz qilganimizda nutq organlari bo'lmish til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, o'pka, ovoz paychalari harakatda, to'xtagan holatda, har xil holatda bo'ladi.

Ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchi maktab hayotiga ko'nikishi, o'z ona tilini o'rganish bilan bir qatorda yana boshqa bir chet tilini ham o'rganishi lozim. Bunda, albatta, aziz ustozlar, hurmatli ota-onalarning ko'magi bolajonlarga as qotadi. Ilk boshidanoq bolajon o'zlashtirib olishga harakat qilishi lozim. Chet tili o'qituvchisi bola xarakteridagi o'zgarishlarni sezgirlik bilan anglashi, tilni o'rgatishda ta'lim metodlaridan foydalanib ijodiy yondashishi kerak. Boshlang'ich sinflarda chet tilidan dars berayotgan o'qituvchilar yetuk psixolog, mohir pedagog, ijodkor, darsni mazmunli uyushtira oladigan tashkilotchi bo'lishi zarur. Bolalik olamidanda maktab atalmish ilm koshonasining ostonasiga birinchi bor qadam qo'ygan bolajonni maktab ta'limiga tayyorlash masalasida o'qituvchi, ota-onalarning hamkorligi muhim sanaladi. Ota-onalar yig'ilishlarida maktab ta'limining vazifalari, bolalarning aqliy va jismoniy o'sishlariga qo'yiladigan talablar tushuntirilishi kerak. Tushuntirishlar o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. O'yinlar orqali tashkil etilgan darslarning ham o'ziga xos usuli bor. Ilk maktabga qadam qo'ygan o'quvchini atrofdagi turli narsalar, voqea-hodisalar qiziqtiradi. O'qituvchi o'quvchilarni chet tilining birinchi darsidayoq fanga qiziqtirishi kerakki, ikkinchi darsda o'quvchilarning diqqat-e'tibori markazlashib, o'rganishga nisbatan intilishlari ortib, o'zlashtirish qobiliyatlari o'sadi. Chet tili o'qituvchilariga cheksiz mas'uliyat yuklanadiki, ular maktab hayotiga birinchi bor qadam qo'ygan murg'ak bolajonlarning zamonaviy bilimlarni egallashlariga yo'l ochib beradilar. Bolajonlarga o'zga bir chet tilini o'rgatadilar va ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantiradilar. Boshlang'ich sinflarda chet tilidan dars berayotgan o'qituvchilar chet tilini o'rgatish jarayonida bola xarakteridagi o'zgarishlarni sezgirlik bilan payqashi va ta'lim metodlaridan ijodiy foydalanishi lozim. O'quvchilarning o'qishga munosabatlari, aql-idroklari kichik maktab yoshidan shakllanadi.

Xulosa. Demak, boshlang'ich sinflarda chet tilidan ta'lim berayotgan o'qituvchilar yetuk pedagog, ijodkor uslubchi va boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini mazmunli uyushtira oladigan tashkilotchi bo'lishlari zarur. Yoshlarning har tomonlama yetuk, barkamol kishilar bo'lib voyaga yetishlari uchun xizmat qilayotgan

pedagogning o'zi ko'p tarmoqli bilim sohibi bo'lishi, yoqimli nutq va muomala madaniyati bilan puxta qurollanishri, xalq, Vatan va jamiyat oldidagi burchlarini to'g'ri tushunib, sabot va matonat bilan ishlashi kerak. O'quvchilarning har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishlari uchun o'zining xizmatlarini ayamayotgan pedagoglarimizning o'zida ajoyib fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi lozim. Darsda takrorlash

ko'proq bo'lishi kerak. Nemis tilida "Übung macht den Meister" degan maqol bor. O'zbek tilida bu maqolning muqobil varianti "Takrorlash bilimning onasi" deb beriladi. Darhaqiqat takrorlash ayniqsa chet tili darslarida asosiy o'rinni egallaydi. Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, til o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'ziga xos xususiyatni inobatga olib darslar o'tilsa o'zining ijobiy samarasini beradi.

Adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
2. Kiyamova M.S. Chet tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: "Musiq", 2019.
3. Zaripova R.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. -Toshkent: "O'qituvchi", 1986.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
5. Hojiyev A.P. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent: "O'qituvchi" 2002.
6. G'ulomov Y. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. -Toshkent: "O'qituvchi" 1992.

Saule ISHANOVA
Qarshi davlat universiteti
fakultetlararo nemis tili
kafedrası o'qituvchisi

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekistonda bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan farmonlar va yaratilayotgan sharoitlar maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab to oliy o'quv yurtlarigacha yoshlarning nemis tilini shakllantirib borish vazifasi qo'yilmoqda. Nemis tilida talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish ham dolzarb masalaga aylandi. Tinglab tushunish chet tili o'rganishning eng muhim til ko'nikmalaridan biridir. Mazkur maqolada aynan tinglab tushunish, til ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli metodlar, texnikalar hamda mashqlar haqida ma'lumot to'plangan, ularning amaliy samarasi tahlil qiligan. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, milliy metodologiyada hali hanuz tinglab tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar hamda ularning samarasi to'liq ishlab chiqilmagan, mazkur ishda mazkur metod, texnika hamda mashqlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *til ko'nikmalari, Tinglab tushunish materiallari, grammatik birlik, monologlar va diologlar.*

Сегодня в Узбекистане особое внимание уделяется изучению иностранных языков. Постановления нашего правительства и созданные условия ставят задачу формирования немецкого языка у молодежи, от дошкольных учреждений до университетов. Актуальным вопросом стало также развитие языковых навыков учащихся по немецкому языку. Понимание на слух является одним из наиболее важных языковых навыков при изучении иностранного языка. В данной статье содержится информация о различных методах, приемах и упражнениях, служащих для развития аудирования и языковых навыков, и анализируется их практическая эффективность. Актуальность темы заключается в том, что в отечественной методике еще не полностью разработаны методы, служащие для развития аудирования и их эффективность, в данной работе анализируются данный метод, техника и упражнение.

Ключевые слова: *языковые навыки, аудирование материалов, грамматические единицы, монологи и диалоги.*

Today in Uzbekistan special attention is paid to the study of foreign languages. The decrees issued by our government and the conditions created create the task of shaping the German language of young people, from preschools to universities. The development of students' language skills in German has also become a topical issue. Listening comprehension is one of the most important language skills in learning a foreign language. This article contains information on various methods, techniques and exercises that serve to develop listening comprehension and language skills, and analyzes their practical effectiveness. The relevance of the topic is that the national methodology has not yet fully developed the methods that serve to develop listening comprehension and their effectiveness, in this work, this method, technique and exercise are analyzed.

Key words: *language skills, listening comprehension materials, grammatical units, monologues and dialogues.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 1875-sonli qarorining qabul qilinishi yurtimizda chet tillarini o'rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijasida chet tillarini o'rganib, o'z bilimlarini chet ellarda mustahkamlab qaytmoqdalar.

I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu haqda shunday fikr bildirganlar: "Milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini

tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya sohalarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodlarimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat" [2, 22].

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining jadal rivojlanishi mamlakatimizda va

jahon hamjamiyatida ta'lim sohasida davlatlararo integratsiyasi butun ta'lim tizimi va o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni o'zgartirishni talab etdi.

"Zamonaviy shart-sharoitlar xalq ta'limi tizimini uning barcha pog'onalarini bir kompleks sifatida ko'rishni talab etib umumiy va maxsus ta'lim, professional tayyorgarlik, yoshlarni shaxs sifatida ruhan va axloqan yetilishini ta'minlash kerak.

Buning uchun umumta'lim maktabi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini muhim tarzda mustahkamlash, o'quv dasturlarini yangilash, ularni jahon madaniyati xazinalari bilan boyitish kerak".

Zamonaviy nemis tilida eski metodlardan voz kechgan holda til ko'nikmalarini integrallashtirib darslarni tashkil etish asosiy masalaga aylanib ulgurdi. Hozirda tinglab tushunish, soz'lash, o'qish va yozish ko'nikmalari birgalikda, bir umumiy ko'nikma sifatida o'rgatilyapti. Aynan mana shunday zamonaviy til o'rgatishga bo'lgan munosbat yordamida talabalar barcha til ko'nikmalari bo'yicha ma'lum bir amaliyotga ega bo'lishmoqda.

Tinglab tushunish til o'rganuvchilar uchun har doim muammoli bir malaka bo'lib kelgan, lekin o'qituvchilar tomonidan tanlanadigan maxsus metod, texnika, mashqlar yordamida ushbu muammo ijobiy hal etilishi mumkin. Eng muhim masala shundan iboratki, tinglab tushunish ko'nikmasi faqat va faqat amaliy mashqlar yordamida rivojlantirilishi mumkin.

Tinglab tushunish bu xorijiy til ko'nikmalarining eng muhimlaridan biri hisoblanadi, agar eng muhimi bo'lmasa, sababi yosh chaqaloq ham aynan eshitish orqali tildagi ko'nikmalarni shakllantirib boradi, ya'ni tilni o'rganadi. Aynan shu nuqtayi nazardan olib qaralganda tinglab tushunishni doimiy tarzda darslarimizda qo'llashimiz shart. Tinglab tushunish ko'nikmasining rivojlanishi sozlash, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishga zamin yaratishi mumkin hamdir.

Zamonaviy nemis tilida tinglab tushunishni shakllantirish va uni rivojlantirish bo'yicha bir qancha metodlarni amalda qo'llash mumkin, bularning aksariyati boshqa ko'nikmalar bilan integrallashgan holda amalga oshiriladi. U yoki bu video yoki audio materialni tinglashdan oldin undagi lug'at birliklarini taqdim etish orqali talabalarni eshitishga tayyorlash, tinglab tushunish materiali o'z yakuniga yetkandan so'ng eshitganlari bo'yicha dialog tuzish, rol o'ynab berish, simulatsiyalar ishlatish va hokozalar yordamida esa eshitgan ma'lumotni yanada mustahkamlash mumkin bo'ladi. Tinglab tushunish jarayonini

tashkil qilishda uchta muhim bosqich mavjuddir, bularni har birini to'g'ri tashkil qilish umumiy samaradorlikni ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Tinglab tushunish jarayonida nuqtalar o'rnini to'ldirish, asosiy ma'lumotlarni yozib olish, berilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash kabi usullardan keng foydalanish mumkin, shuningdek, tinglab tushunish materialini eshitish davomida undan maqsad nimaligini aniqlashtirib olish malakasini talabalarda yaratish ham muhim hisoblanadi. Aynan biror bir maxsus ma'lumot olish uchun eshitish yoki umumiy ma'noni ilg'ash, anglash uchun eshitish, shunchaki ingliz tilidagi umumiy bilim-ko'nikmalarini shakllantirish uchun eshitish va hokozalar mavjud.

Nemis tilini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, bunda nutq faoliyatining turlari: tinglab, tushunish, gapirish, o'qish, yozuv va til materiallarini o'rgatish, fonetika - grammatikani o'rganish natijasida nemis tilida o'zaro axborot almashish ko'nikmasi vujudga keladi. Faqat lug'at birligini, grammatik birlikning talaffuz birligini, imlo birligini, didaktik o'yinlar, interfaol usullardan "Tur usuli", "Aqliy hujum", "Tayanch signallari", "Xayolimdagi shahar", "Xotirangni charxla", "Internet", "Rolli o'yinlar", "Masofali ta'lim", "Karusel", "Klasster", "Men rassom", "Intervyu" va hokozalar orqali o'rganish samarali natija beradi. Tinglab tushunish uchun tanlangan material real hayotdan olingan bo'lishi, ya'ni uning autentik material bo'lishi juda ham muhim masaladir, faqat shundagina talabalar haqiqiy nemis tili muhitidagi vaziyatlarga moslasha borishadi.

Chet tillarini o'rganish, avvalo, o'rganilayotgan tilni tinglash va tushunishga harakat qilishdan boshlanadi. Kommunikatsiya jarayonida, odatda, kommunikantlardan biri gapiradi, ikkinchisi esa tinglaydi. Demak, gapirish va tinglab tushunish jarayonlari bir-birini taqazo qiladi, to'ldiradi, mustahkamlaydi va hatto bir-birini nazorat qilib turish vazifasini ham bajaradi. Nutq faoliyatining turlaridan biri bo'lgan tinglab tushunish ikki jarayon matnni tinglash va uning mazmunini anglashdan iboratdir. Chet tilini o'qitishda tinglab tushunishni rivojlantirish yaxshi natija bermoqda. Hozirgi kunda radio-televizorda, vokzalda, aeroportda chet tilida biron bir xabar, ko'rsatuv va e'lonni tinglashimiz yoki ko'rishimiz mumkin. Ularni eshitib talabalar chet tilidagi so'zni tushunmagan taqdirda ham suhbat orasidagi shovqindan, suhbat ohangidan, suhbatdagi bir baynalminal so'zlardan mavzu nima haqida ekanligini tushunib yetishadi. Demak tinglab tushunish uchun nafaqat soz bilish, tilni bilishgina emas balki, talabalarning chet tili darslarida o'rgangan ko'nikma, malakamiz shu kungacha

114 o'rganan dunyoviy bilimlar, situatsiyaga bog'liq shovqin, musiqa, gap ohanglari ham muhimdir.

Chet tilini (nemis tili) o'rganuvchi uchun tinglab tushunishni o'rganish muhimdir. Chunki, hozirgi kunda mamlakatimizda har bir sohada katta o'zgarishlar yuz bermoqda [4]. Chet davlatlar bilan hamkorlik shartnomalari imzolanmoqda. Mamlakatimizga dunyoning har tomonlaridan turistlar, biznesmenlar, til o'rganuvchilar tashrif buyurishmoqda. Ular bilan mustaqil muloqat qilish uchun til o'rganuvchi tinglab tushunish ko'nikmasini hosil qilish kerak.

Tinglab tushunishni darsda qo'llash sohasida biz mashqlar orqali talabalarga yetkazishimiz kerak. Tinglab tushunish uchun bajariladigan ishlardan biri sistemalashdir. Sistemalashtirish mashq formalarini tanlash imkonini beradi.

Bu mashqlar tinglab tushunadigan matnlar, ya'ni monologlar va dialoglardir. Bunday monologlarni va diologlar ishlov berilgan va ishlov berilmagan bo'lishi mumkin. Ishlov berilgan matnlarning notanish so'z va iboralari, matnga oid savollar, mashqlari bo'ladi. Ishlov berilmagan matn birinchi marta eshitiladi va matnga oid vazifalarni o'qituvchining o'zi tayyorlaydi.

Barcha nemis tili o'qituvchilari va talabalari o'zlari o'rganayotgan tilni muloqot qilishga qodir emasliklarini va butun o'rganish vaqti behuda ketishini tushunishadi. Agarda o'rganuvchilar yaxshi tinglash qobiliyatlariga ega bo'lmasa, ular hech qachon og'zaki ravishda muloqot qilishni o'rganishmaydi. Shunday ekan, samarali tinglash eng tilni o'rganish qobiliyatlaridan eng muhim sohalaridan biridir va shuning uchun muloqotda tinglash qobiliyatining rolini oshirib yuborish anchagina qiyindir.

Agar talabalarimiz faol ravishda muvaffaqiyatli tinglovchilar bo'lishlari kerak bo'lsa, eshitgan so'zlari uchun muayyan kontekstni yaratishlari kerak. Buning uchun o'qituvchi tinglashni rivojlantirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak. O'quvchilarning yoshi, ularning qiziqishlari va til qobiliyatini hisobga olgan holda tegishli til o'quv materiallari va tadbirlarini tanlash va loyihalash o'qituvchining vazifalaridan biridir. Biz tinglovchilarning o'z o'rganayotgan til yoki o'quv materiallari ustida ishlashlari kerakligini unutgan holda tinglash materiallarini ko'pincha faqatgina ularning tinglash qobiliyatlarini tekshirish uchun ishlatayotganimizni unutib qo'yayapmiz. Tinglash faqat eshitish magnitafonni yoqish va o'chirish, matnni ovoz chiqarib o'qish va talabalarga to'g'ri, noto'g'ri yoki ko'p tanlovli savollari berishdan iborat emas. Bunday yondashuv o'quvchilarning test sinovidagi ovozlari, so'zlar yoki iboralar ularga tanish bo'lgan taqdirda ham ularni tushkunlikka tushishga olib kelishi mumkin.

Talabalar mavzu haqida aniq bilimga ega emasligi sababli ma'nolarni tushunish imkoniga ega bo'lmaydi. Talabalar bilish darajasidan qat'iy nazar, ularga nimalarni tinglashga tayyorlanayotganliklarini oldindan aytish maqsadga muvofiq. Mavzuni ochib berish, ba'zi kalit so'zlarni yoki iboralarni oldindan tayyorlash va ularga qanday suhbat, monolog yoki muhokamalarni eshitishlari haqida gapirishidir.

Muhokamalar va natijalar. *Tinglash faoliyatning ta'rifi, mazmuni va turlari.*

Tinglash faoliyati odatda yaxshi tuzilgan, oldindan puxta tayyorlangan, vaqt tuzilishi va tinglashdan keyingi bosqichlardan iborat bo'lishi kerak. Dastlab tinglash bosqichi: kontekstni tinglovchiga ochiq-oshkor qilish, maqsadlarni aniqlashtirish va tinglash davomidagi mashqlarning rollari, tartib-qoidalari va maqsadlarni belgilash kerak. Yuqorida aytib o'tilgan bosqichlar asosiy tayyorgarlik ishlaridandir. Haqiqiy hayot sharoitida tinglovchilar aytilayotgan so'z yoki gaplarni yoki muloqot qanday mavzuda bo'lishini doimo oldindan sezadi va biladi. Dastlabki tinglash bosqichlari o'quvchilarni mashqlarning maqsadini bilib olishga yordam beradi va kerakli ma'lumotni beradi. Talabalar o'zlari kutgan narsalar haqida suhbatlashishlari va nimalarni eshitishi haqida bashorat qilishlari mumkin bo'lgan ba'zi bir oldingi muhokamalar bilan tanishishlari mumkin bo'ladi. Boshqalarning nima haqida gaplashishi va o'z bilimlarini tushuntirish qobiliyatlari ham alohida ta'kidlanadi, ulardan biri shunday deb atalgan: qobiliyatlarni ishga solish. Doffning so'zlari ko'ra, bu ko'nikmalar barcha mashqlar uchun o'zaro baholashga yordam beradi [9]. Sinfda mashq qilganda, u, shuningdek, o'quvchilarni keyingi eshitishlari kerak bo'lgan mashqning mazmunini bashorat qilishlari kerakligini so'rashni maslahat beradi, bu o'z navbatida ularning qobiliyatlarini yaxshilaydi va sinfda o'quvchilarni o'zlarini faol ishtirok etayotganliklarini his qilishlariga olib kelishi mumkin.

Oldindan tinglash bir qator tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin, jumladan, o'qituvchi beradigan ma'lumot; talabalar o'zlariga tegishli ma'lumotni o'qishlari; suratga qarayotgan talabalar; munozara va javoblar sessiyasi; yozma mashq; sinf vaqti davomida tinglash bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish; tinglash faoliyati qanday amalga oshirilishini ko'rib chiqish. Ushbu mashq turlari mashg'ulotchilarning fikrlarini mavzuga qaratishga, o'quvchilarning tinglayotgan mashqlaridan kutadigan asosiy narsalarni belgilashga va tanlashga hamda oldindan tanishgan bilim va til tuzilmalarini faollashtirishga yordam beradi. Agar o'quvchi muayyan turdagi javobni olishni oldindan bilgan bo'lsa, darhol tinglashni

rivojlantirishga mo'ljallangan qadamga erishishadi va ular qanday axborot kutishlarini va unga qanday munosabatda bo'lishlarini bilishadi. Bunday faoliyatlar, hatto cheklangan bo'lsa ham, tinglash matniga rioya etishga yordam beradigan bilimlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu bilim nafaqat o'quvchiga dalda beradi, balki tinglovchilarning tinglash muammolaridan xalos bo'lish qobiliyatiga bo'lgan ishonchini oshiradi. U oldindan tinglash bosqichida turli vazifalarni (oldindan tayyorgarlik ko'rish harakati) taklif qiladi, masalan: mavzuni muhokama qilishni boshlash (vizual va titullar asosida); unda talabalar suhbat mavzusi qanday bo'lishi mumkinligi va o'qituvchi ularni mavzu bilan bog'liq fikr va fikr almashish uchun ularni rag'batlantirishi mumkin bo'lgan holatlar haqida fikr olib boradi. Miya bo'roni; o'qituvchi tinglovchilarning o'zlari eshitadigan so'zlar va ifodalarni tinglash mashqlarida namoyon bo'layotgan so'zlarini oldindan aytishlarini talab qiladigan holatlar, o'yinlar, so'zlar yoki iboralarni takrorlash, o'qituvchi tomonidan so'raladigan savollarga javob berish. Haqiqiy tinglash testidan oldin sinfda o'tkazilishi mumkin bo'lgan ko'plab tadbirlar ko'pincha eng ommalashgan va tez-tez ishlatiladigan mashqlardan iborat bo'ladi. Rasmlarning to'plamiga qarash va tinglash matnida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarni nomlashdir. Bu savol-javob sessiyasi yoki umumiy

guruh muhokamasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Underwood, o'quvchilarga noma'lum so'zlar yoki uzoq tushuntirishlar ro'yxatini berishni maslahat bermaydi, chunki bu tabiiy ravishda tinglash uchun yordam bera olmaydi va bunday tinglashdan oldin "tinglash va suhbatlashish" - bu so'zlashuvni talabalarga eslatishning samarali usuli unutilishiga olib keladi. Underwood yangi o'rganilgan so'zlarni amaliyotda qo'llash uchun talabalarga narsalar va fikrlar ro'yxatini taqdim etishni taklif qiladi, biroq ro'yxat faqat qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olmasligi kerak. Umumiy (tinglash) faoliyati bir nechta maqsadga ega bo'lishi kerak. Masalan, ba'zi so'zlar yoki iboralar vaqt davomida tinglash bosqichida belgilanishi, aylantirilishi yoki chizilgan bo'lishi mumkin bo'lgan ro'yxatda bo'lishi mumkin. Bunday faoliyat birdaniga unutilgan narsani tinglash va shu bilan tinglash matnining keyingi qismidan chalg'ituvchi stress va qo'rquvni yo'q qiladi. Ro'yxatni so'zlar, iboralar va so'zlar matnda uchraydigan tartibda taqdim etish shu bilan birga tinglash mashqlarini osonlashtiradi, agar talabalar vazifani juda oson topsa, o'qituvchi ro'yxatni tasodifiy tartibda qo'yish yo'li bilan qiyinchilik darajasini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari" to'g'risidagi 1875-sonli qarori.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: "O'zbekiston", 2008.
3. Mahmudov, Q. S. O. G. L., Shaxhislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).
4. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 2012.
5. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
6. Ahmadaliyev A. M. Qosimova A. X. Innavasiyon faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. - Tashkent, 2006.
7. Adamson D. Inter-language variation in theoretical and pedagogical perspective. London, 2008.
8. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).
9. Richard, J.C. & Rogers, T.S., Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press. Retrieved August 20th, 2009.
10. www.languageteaching.com
11. www.wikipedia.com

MUTAXASSISLIGI CHET TILI BO'LMAGAN OTM TALABALARIGA CHET TILINI O'RGATISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

O'zbekistonda hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir. Til o'rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o'qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o'z faniga nisbatan muhabbatini uyg'ota olishi, talaba bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi. Qaror chet tillarini o'rgatishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlariga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillarini yuqori darajada egallagan malakali o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida qabul qilindi. Shu bilan birga aytish joizki, har bir o'rganilayotgan tilning o'ziga xos qonun-qoidalari, sir-sinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo'lish uchun o'rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, sun'iy aql, ochiq ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlardan foydalanish axloqi.*

Обеспечение качества обучения иностранным языкам подрастающего поколения в Узбекистане, кардинальное совершенствование системы подготовки специалистов, владеющих иностранными языками, подготовка квалифицированных кадров, отвечающих международным образовательным стандартам, путем овладения иностранными языками является одной из целей непрерывного образования. реформ в нашей стране. Для того чтобы выявить и выявить возможности обучения языку, к знаниям, творчеству учителя, способности вызвать у учащихся любовь к своему предмету, установлению отношений сотрудничества с учеником необходимы современные требования. Решение направлено на дальнейшее развитие преподавания иностранных языков, реализацию мер по повышению уровня и качества подготовки высококвалифицированных преподавателей иностранных языков для общеобразовательных школ, профессиональных колледжей и академических лицеев, высших учебных заведений в соответствии с международными стандартами. , принятые в целях обеспечения. При этом следует отметить, что каждый изучаемый язык имеет свои правила и секреты. Чтобы стать квалифицированным специалистом, отвечающим международным стандартам, от обучающегося требуется не игнорировать самые тонкие пласты языка.

Ключевые слова: *педагогическая технология, искусственный интеллект, открытая база данных, этика использования данных.*

Today in Uzbekistan, the quality of education of the younger generation to foreign languages, radical improvement of the system of training specialists in foreign languages, training of qualified specialists meeting international educational standards through mastering foreign languages is carried out in our country. The resolution provides for further development of foreign language teaching, implementation of measures to improve the level and quality of training of highly qualified foreign language teachers for secondary schools, professional colleges and academic lyceums and higher educational institutions in accordance with international standards should be adopted to provide. At the same time, each language studied has its own rules, principles and principles. In order to become a highly qualified person who meets international standards, the learner needs to be aware of the most delicate layers of the language.

Keywords: *pedagogical technology, artificial intelligence, open databases, the ethics of using data.*

Kirish. Bugungi kundagi sur'at bilan rivojlanayotgan dunyo aholisining ko'pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabkisi o'zining ona tilisi bo'lib, ko'pchilik tilshunoslar nafaqat o'rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o'zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisolaydilar. Ta'kidlab o'tish joizki, xorijiy tillarni o'rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida o'sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib oliy ta'lim muassasasigacha

ona tili va chet tilini bir paytning o'zida taqqoslab o'rganadilar. Tilshunoslikda mavjud ilmiy-tadqiqot metodlari orqali o'zaro genetik bog'liq va o'zaro genetik bog'lanmagan til oilalariga tegishli bo'lgan, xalqaro va millatlararo aloqada yuksak darajaga va tajribaga ega bo'lgan tillarni qiyoslash orqali o'rganish bir muncha oson bo'lishi ilmiy isbotlangan haqiqatdir. Hozirgi kunda yurtimizdagi ta'lim sohasini tubdan chet tillariga tatbiq qilish maqsadida yaratilayotgan darsliklar, o'quv dasturlari va qo'llanmalar ham ayni shu

maqsadlarning amaldagi isbotidir. Binobarin, o'z tili va madaniyatini puxta bilgan o'quvchigina boshqa tillarga mehr qo'yib o'rganadi.

Chet tillarini o'zlashtirish shu kabi maxsus tayyorgarliklarni talab qiladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: ikkinchi tilga bo'lgan zaruriyat nima? Mamlakatimizning kelgusidagi istiqboli uchun mustahkam poydevor yaratishni maqsad qilgan Birinchi Prezidentimiz O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga shiddat bilan kirib borishini ta'minlash uchun eng dolzarb hisoblangan chet tillarini o'rganishga qaratilgan bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqdi. Jumladan, [1] 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi №1875 – qaroriga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning tub mohiyati butun O'zbekiston hududida yoshlar ta'limiga chet tillarini uzviy bog'lash, yosh avlodning o'z fikrini boshqa bir tilda benuqson ifodalay olishini ta'minlashdan iborat. Xususan, ushbu qarordan quyidagi islohotlar o'rin egallagan.

Asosiy qism. Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi; -oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib boriladi; -umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilarini chet tillar bo'yicha darsliklar va o'quv-uslubiy komplekslar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining aylanma mablag'lari hisobidan bepul amalga oshiriladi".

Ushbu qaror O'zbekiston ta'lim tizimida tub burilish yasadi. Yosh avlod uchun yangi darsliklar yaratildi, ingliz tili maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab o'rgatila boshlandi. Oliy ta'lim muassasalarida ham ayrim fanlar chet tilida olib borilyapti. Chet tillarini o'rganish orqali dunyo yoshlarining intellektual salohiyatidan boxabar bo'lish, ular bilan fikr almashish, jarayonni chuqur tahlil qilib o'z yutuq va kamchiliklarimizni ularniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Chet tillarni bilishga intilish, "Til bilgan el biladi" maqoliga ko'ra ish tutish bizning ko'p tilni bilgan Forobiy, bir nechta tillarni qiyosiy o'rganish darajasida keng mushohadali bo'lgan Qoshg'ariy kabi yetuk ajdodlarimizdan merosdir. Bundan tashqari Abdulla Avloniyning 1913-yil "Oyna" jurnalida chop etilgan "Ikki emas to'rt til lozim" maqolasida ham dunyo bilan hamnafas bo'lish uchun til o'rganish kerakligi atroflicha izohlangan. Buyuk bobokalonlarimiz o'zlarining ilm-fan

sohasidagi yangiliklari, beqiyos asarlarini boshqa xalqlarga ham o'z tilida yetkazib bera olganliklari uchun ularni butun dunyo taniydi, e'tirof etadi.

Markaziy Osiyo ilm-fani, madaniyat va ma'rifati e'zozlanadi. Bularning barchasi zamirida, qayta va qayta ta'kidlaganimizdek, til bilish yotadi. Bugungi kun yoshlariga qo'yilayotgan talab ham aynan chet tillarini o'rganish ekanligini quyidagicha izohlash mumkin: Butun dunyo mamlakatlari bilan bevosita muloqot qilish, o'z mustaqil fikrini omma oldida ravon va tushunarli holda bayon qilib berish, dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning alohida o'rnini ta'minlash va uni mustahkamlashga xizmat qilish uchun ham xalqaro tillarni o'rganish dolzarb masaladir. O'zbekistonning davlatlararo alohida o'rnini ta'minlash va mustahkamlash deganda shu narsa nazarda tutiladiki, global dunyoning madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi, shuningdek, tibbiyot va sport sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish va tahlil qilish, mamlakatimizning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, qolaversa, zamonaviy yoshlarning ulkan muvaffaqiyatlarini dunyo xalqlariga namoyish qilish kerak. Bunda esa, albatta, til ko'priki vazifasini bajaradi. Lekin til o'rganishning faqat yaxshilikka xizmat qiladigan afzalliklarini sanab o'tish bilan bir qatorda, shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, davlat tili, milliy til, ona tili kabi tushunchalar har doim hammamiz uchun birinchi o'rinda bo'lmog'i darkor. Har bir mustaqil mamlakatning o'z davlat tili mavjud bo'lganidek, o'zbek tili O'zbekiston davlatining istiqbolidan nishonadir.

Boshqa tilni o'zlashtirish o'z tilidan foydalanishni cheklash degan xulosani keltirib chiqarmasligi lozim. Til davlat ramzi, millat ko'zgidir. O'z tilini yanada boyitish, sayqal berish, qo'llanilish doirasini kengaytirish, bir so'z bilan aytganda, uni kelgusi avlodga takomillashgan holda yetkazib berish har bir millatning insoniy burchidir. Chet tillarini mukammal o'rganish va milliy til taraqqiyotig xizmat qilish uchun har birini o'z o'rnida qo'llash bugungi jamiyatda tillar muvozanatini saqlashga asos bo'ladi. Talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda qo'shimcha manbalardan foydalanish, yordamchi o'quv vositalar orqali talabalarning xorijiy tilga qiziqish va munosabatini yanada yuksaltirish, har bir darsni interaktiv, ya'ni faol talaba usullarida olib borish, darslardan so'ng ularga qo'shimcha darslar berish va bu jarayondan an'anaviy usulardan keng foydalanishni taqozo qiladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilgan darslar jarayonida talabalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning mustaqil ijodiy ishlash malaka va ko'nikmalarini takomillashtirib boradi. "Innovatsion texnologiya" atamasining etimologiyasi ilmiy adabiyotlarida keltirilishicha

118 “innovatsiya” (inglizcha innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro, fan-texnikada joriy etilgan “yangilik”) ma’nosini ifodalaydi, “texnologiya” esa lingvodidaktik tushuncha sifatida “kam vaqt, kuch va mablag‘ sarflab, ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlovchi sa’y-harakatni ilmiy tashkil qilishning oqilona usullari majmui”ni ifodalaydi [3].

An’anaviy pedagogikada innovatsion texnologiyaning muayyan usullari sifatida Cinquain, Brainstorming, Case, Zigzag, Cluster, Project, Method, Mind Mapping kabi turlarini qo‘llash kata natijalar olib keldi. Quyida rivojlanayotgan yangi pedagogikalar haqida so‘z yuritimiz.

1. Ta’limda sun’iy aql. “Sun’iy aql” atamasi (SA) kompyuter tizimlarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Sun’iy aql ta’lim tizimlari maktab, kollej va universitetlarga shiddat bilan kirib bormoqda. Ko‘pchilik odamlar sun’iy aqlni robot o‘qituvchilar deb tasavvur qilsalar-da, uning ham foydali tomonlari bor. Talabalar uchun yaratilgan ilovalar aqlli o‘qitish tizimi, dialogga asoslangan o‘qitish tizimi, tadqiqotga asoslangan o‘quv muhiti, avtomatik yozishni baholash va suhbat agentlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan dasturlar kam rivojlangan bo‘lsa ham, o‘qituvchilarni o‘z bilimlarini oshirishlarida yordamchi dastur hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, talabalar va o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi qobiliyatlarini inobatga olish kerak. O‘qituvchilar, o‘rganuvchi olimlar va boshqa manfaatdorar ikkala tomonni ya’ni sun’iy aql ilovalarni ham, o‘qitish va o‘rganish usullari ham rivojlantirishga shug‘ullanishsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

2. Ochiq ma’lumotlar orqali o‘rganish. 250 dan ko‘proq milliy, mahalliy va shahar hokimiyatlari va global miqyosidagi tashkilotlar ma’lumotlarni bir-birlari bilan almashishyapti, yaratishyapti va o‘z ishlarida foydalanishyapti. Ushbu tashkilotlar xalq tomonidan ishlatiladigan ma’lumotlarni ko‘rishga intilishadi, ko‘pgina yetuk xizmatlar ochiq ma’lumotlarni o‘rganish uchun manbalarni taqdim etishadi. Keyinchalik tashabbuslar ularni innovatsion ta’limga olib keldi. Xo‘sh, savol tug‘iladi – ochiq ma’lumotlar material sifatida nimani taklif qiladi? Uning o‘rganish va

o‘qitishdagi ahamiyati qanday? Asosiy omil bu - haqiqiylik. Birgalikda ishlatiladigan ma’lumotlar yirik tashkilotlar ichida sodir bo‘layotgan real jarayonlar natijasida paydo bo‘ladi. Ko‘pincha kasbiy ishda foydalaniladigan ma’lumotlar bizning hayotimizga va atrofimizdagi dunyoga real ta’sir qiladi. Ikkinchi omil - bu ma’lumotlar talabalarning salohiyatini oshirishdagi ahamiyatidir. Bu juda kuchli ruhiy ta’sir bo‘la oladi. Talabalar o‘z shaharlarida, qishloqlarida balki o‘z sinflarida bo‘layotgan voqea-hodisalarni yaqin va uzoqda sodir bo‘layotgan voqea-hodisa bilan taqqoslay oladilar. Bitta misolda, o‘rta maktab o‘quvchilari Italiyada davlat tomonidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida qurilish loyihalari uchun mukofotlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ochiq ma’lumotlar o‘quvchilarni bir-biri bilan bog‘lagan, ma’lumotlar savodxonligi, oshkorlik va dalillarga asoslangan harakatlar natijasida kattaroq rag‘bat uchun ijtimoiy harakatlar vujudga kelgan.

3. Ma’lumotdan foydalanish axloqi bilan shug‘ullanish. O‘zib borayotgan ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish axloqiy savollarning doimiy ravishda ko‘payishi bilan birga keladi. Bu yerda axloqiy muammolar ko‘p ma’lumotlarga, masalan, kim egalik qiladi, ma’lumotlarni qanday izohlash kerak, talabalar va professor o‘qituvchilarning shaxsiy hayoti qanday himoya qilinishi kerak? O‘zlari xabardor bo‘lmagan odamlarni tanqid qilish holatlari ham kuzatilgan. Ehtimol, bu faqat vaqt masalasidir. Bunday muammolarning oldini olish uchun ta’lim muassasalarida ma’lumotlar axloqiga tegishli siyosatni ishlab chiqish, ma’lumotlardan foydalanish uchun talabalardan rozilik olish, ularning o‘zaro aloqalaridagi har qanday ma’lumotlarni tahlil qilish, ularning ta’limni boshqarish tizimi haqidagi fikrlari bilan tanishib, samarali o‘qitish tizimini yaratish, shuningdek, talabalar va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari ham inobatga olinishi kerak. Buning uchun o‘qituvchilar talabalarga imkoniyat yaratib berishi lozim. Hozirgi raqamli dunyoda institut va universitetlarning o‘zaro ma’lumot almashishi ularning samaradorligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

1. 2012-yil 10-dekabrda „Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining №1875 – qarori.
2. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2012. 99-100 b.
3. “Innovating Pedagogy 2020” jurnali.
4. Zaripova R.A. Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. -T.: “O‘qituvchi”, 1986.
5. Miroyubov A.A., Raxmanov I.V., Setlin V. tahriri ostida. O‘rta maktabda chet tillar o‘qitishning umumiy metodikasi. -T.: “O‘qituvchi”, 1974.

FRAZEOLOGIK BIRLIKNI QISQARTIRISH

Hayotimiz davomida atrofimizda ko'plab voqea-hodisalarga duch kelamiz. Shunday holatlarda har safar biz o'zimiz uchun yangiliklar olishni xohlaymiz va ularning tarixi haqida qiziqamiz. Aslida biz o'ziga xos milliy xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy, intellektual va hissiy ma'lumotlarni to'playmiz. Hozirgi kunda bizning muloqotimizga o'zgacha ko'rk beruvchi frazeologiya bo'limi ko'plab olimlar diqqat e'tiboriga tushib ulgurgan desam adashmayman. Aslida frazeologiya - turli xil filologik tekshiruvlarning mashhur sohasi hisoblanadi. Olimlarning fikrlariga ko'ra frazeologik birliklar madaniyat hodisalari sifatida tushunish bilan bog'liq bo'lib, ularning madaniy xususiyatlari ular ishtirok etgan gaplarda o'rganiladi. Shunday qilib, "frazeologizm" so'zi sotsiologiya fani doirasiga kiritildi. Frazeologik birliklarning eng yaxshi ta'riflaridan biri quyidagicha: bu qisman yoki to'liq majoziy ma'noga ega so'zlarning barqaror, izchil birikmasidir.

Kalit so'zlar: hodisalar, frazeologik birliklar, nutq, umumlashtirilgan ma'no, leksik-semantik birlik, metafora, paradigma.

В течение жизни мы сталкиваемся с множеством событий вокруг нас. В таких случаях мы каждый раз хотим получить новости для себя и интересуемся их историей. По сути, мы собираем социально-историческую, интеллектуальную и эмоциональную информацию уникального национального характера. Не ошибусь, если скажу, что фразеология, придающая особый вид нашему общению, привлекала внимание многих ученых. На самом деле фразеология является популярной областью различных филологических исследований. По мнению ученых, фразеологизмы относятся к пониманию как явления культуры, а их культурологические особенности изучаются в предложениях, в которых они фигурируют. Таким образом, слово "фразеологизм" вошло в сферу социолингвистики. Одно из лучших определений фразеологизмов звучит так: это устойчивое, связанное сочетание слов с частично или полностью переносным значением.

Ключевые слова: события, фразеологизмы, речь, обобщенное значение, лексико-семантическая единица, метафора, парадигма.

During our life, we encounter many events around us. In such cases, every time we want to get news for ourselves and are interested in their history. In fact, we collect socio-historical, intellectual and emotional information of a unique national character. I would not be wrong to say that phraseology, which gives a special look to our communication, has attracted the attention of many scientists. In fact, phraseology is a popular field of various philological investigations. According to scientists, phraseological units are related to understanding as cultural phenomena, and their cultural characteristics are studied in the sentences in which they are involved. Thus, the word "phraseologism" was included in the scope of sociolinguistics. One of the best definitions of phraseological units is as follows: it is a stable, coherent combination of words with a partially or completely figurative meaning.

Key words: events, phraseological units, speech, generalized meaning, lexical-semantic unit, metaphor, paradigm.

Kirish. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Frazeologik birliklar tilning o'ziga xos birliklari sifatida XX asr boshlarida tilshunoslarning diqqat-markaziga tushdi va ushbu so'z birikmasi ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. Ko'plab ko'zga ko'ringan olimlarning turli tizimdagi tillarda tegishli okkazonalizmlarning qo'llanilish usullari borasidagi fikrlarida aynan o'xshashlik borligi yaqqol seziladi.

Asosiy qism. Frazeologik birikmalarning ma'lum bir okkazonal o'zgarishlari tayyor qoliplar asosida yuz berib, ularning har biri o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Muayyan usul orqali qayta yaratish frazeologik birliklarning semantikasiga, ularning frazeologik birliklarining tarkibiy tuzilishiga nisbatan muayyan umumiy qoidalarni takrorlashni anglatadi. Biroq

o'zgarishlar miqyosi ham cheksiz bo'lmay, balki tilning ichki tizimi me'yorlari darajasida amalga oshiriladi. O'zgartirilgan frazeologik birlikni uning frazeologik prototipining belgisi bilan taqqoslash, birlik ichida ham, matn elementlari bilan ham sintaktik munosabatlarning o'zgarishi bilan bog'lanadi va frazeologik birlikning asosini tashkil etuvchi so'zlar leksik jihatlarining aktualashtirishga olib keladi. Frazeologik birikmalarning okkazonal o'zgarishlari matn semantikasini yangi qo'shimcha axborotlar va konseptual ma'lumotlar bilan boyitishi mumkin. Qolaversa, ular odatiy foydalanishdan chetlashish darajasiga ko'ra frazeologik birikmaning o'zini yoki uning axborot kengaytira olishlari mumkin. Frazeologik okkazonallik darajasi tildagi so'zlarni shakllantirish standart qoidalarining rasmiy va semantik buzilishlari soniga to'g'ridan-to'g'ri mutanosibdir. O'zgartirilgan birlik mazmunidagi okkazonal obraz asos birikmaning barcha

120 komponentlari ma'nolarini qayta jonlantirish natijasidir. Frazeologik birliklarning o'zgarishi uzusga bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda yangi belgi funksiyasini yaratishga olib kelmaydi, balki obyekt tegishli muhim ma'lumotlarni og'zaki uzatishdan iborat bo'lgan kognitiv vazifani bajaradi. Frazeologik birliklarning okkazional o'zgarishga bag'ishlangan bir qator asarlarning tahlili frazeologik birliklarning tasodifiy o'zgartirilishining u yoki bu shakli frazeologik birliklarning odatiy ma'nolarini uning semantik tarkibiga kirishi bilan bog'liq degan xulosaga keladi. Natijada asl birlik qiymatini qayta izohlash yangilangan frazeologik birlikning ekspressivligi va matnni qisqartirish imkoniyatini oshiradi. O'z navbatida frazeologik birliklarning bu xususiyatlari tilshunoslar tomonidan keng o'rganilgan bo'lsada, klassifikasiyalanishiga ko'ra bir birlaridan keskin farq qiladilar [1].

Frazeologik birlikni qisqartirish /ellipsis/ frazeologizmga okkazional qisqartirilgan birlikni uning to'liq komplektli analogi bilan o'zaro bog'lanishini aniqlashga imkon beruvchi leksik-semantik o'zakning mavjudligi sharofati bilan mumkindir. Nutqning hissiy bo'yodqorligini aks ettirish uchun so'zlovchi qo'pincha nutqning mantiqiy zarur elementlarini ataylab tushirib qoldirishadi. Iboralar mazmunidagi u yoki bu komponentning tushib qolishi axborot berishda foydalaniladigan eng samarali sintaktik vositalardan biridir. Frazeologik birikmalarning o'zgartirilishi bilan bog'liq ellipsis, tarkibiy qismlarning qisqartishi, murakkab deformatsiya kabi atamalar mavjud.

Tilshunoslikda "ellipsis" va "elliptik gaplar" nomlari bilan ikki bir-birlaridan farqlanuvchi atamalar mavjud bo'lib, ularning definitivlari, ish ko'ruvchi birliklari va lisoniy tamoyillari muammosi ko'plab tadqiqotchilarning diqqat-markazidagi mavzulardan biridir. Hozirgi vaqtda "ellipsis" atamasi uning etimologiyasiga muvofiq (yunoncha: "elleipsis" –tushirib qoldirish, buzish, nuqson) tilning turli sathlariga: fonologik (Jacobson 1963), leksik (Vinokur 1965) – frazeologik (Kunin 1978), grammatikaga (Yusupov 1983) tegishli hodisa sifatida talqin qilinadi. Ellipsisni o'rganish stilistika sohasidagi tadqiqotchilar uchun ham katta ahamiyatga egadir (Galperin 1974). Bizning fikrimizcha, ellipsisning eng aniq ta'rif V.Mokienko tomonidan berilgan. Mokienko ta'rificha: "Ellipsis deb, odatda, kontekstda yoki nutqiy vaziyatda osongina tiklanadigan nutq komponentini tushirib qoldirish tushuniladi" (Mokienko; 1989: 102). Saqlab qolingani elementning ma'lum bir sohaga yo'naltirilganligi so'zlovchiga birikma komponentini tushirib qoldirish imkonini beradi,

o'z navbatida yo'naltirish obyekti bo'lgan element qabul qiluvchi (resipient) tomonidan osongina qayta tiklanadi.

Ellipsisning eng muhim jihatlaridan biri uning muloqot ishtirokchilari tomonidan birdek asl holiga keltirila olishi hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, ushbu turdagi kontekstual o'zgarishlardan foydalanish frazeologik birlikning yadro yoki yadro tarkibiy qismlarini frazeologizmning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarini kesish ikkinchisini shakllantiradi. Birikma tarkibidagi bir yoki bir qancha komponentlarni tushirib qoldirilishi resipient e'tiborini qolgan elementlarga qaratishni talab qilgani holda ellipsisga uchragan qismni anglay olishga imkon beradi. Vaholanki tushirib qoldirilgan komponent ma'nosi qoldirilganlari yordamida to'ldiriladi" (Mokienko; 1989: 133).

Muhokamalar va natijalar. Odatda, ellipsisga uchragan frazeologizm sintaktik ma'noda yanada ixcham, ifodali va harakatchan birliklarga aylanadilar. (Kirsanova 1970: 26). Ushbu usulining nutqiy faoliyatda qo'llanilishini quyidagi misollar asosida ko'rib chiqamiz: "*to grin from ear to ear* - og'zi qulog'ida bo'lmoq; "*He saw me and started grinning so that I thought if his mouth spread any further it'd cut the top of his head off*" (E.Yerby "Gillian") Frazeologizmning ikkinchi qismi "*flow ear to ear*" tushirib qoldirilgan. Amaldagi frazeologizm ma'nosini aniq yetkazish uchun tushirib qoldirilgan qismning ma'nosini aks ettirish kengaytirilgan metafora fenomeni yordamida amalga oshiriladi. Boshqa birikmalar "*out of the frying pan into the fire*" - "olovda qovurilgan idish, tovadan chiqib o'tga" ham shu holatni kuzatamiz. *Oswald did "get out of it", but only by exchanging the frying pan of his Aunts for the fiers of matrimony* (R.Aldington. Soft Answers. "Yes, Aunt") "*out of the frying pan into the fire*" frazeologik birligi ushbu kontekstda kesilgan shaklda qo'llaniladi. Elliptik frazeologik birlikning semantik ma'nosi o'zgarib turadigan frazeologik birlikning normal shaklining ma'nosi bilan bir xildir. O'zgarmagan sintaktik birlikning aynan anglashilishi "*did "get out of it"*" birikmasi orqali faqatgina leksik sathda anglashilishi mumkin. "*Ko'zlaridan o't chiqib ketmoq*" frazeologik birikmasi ushbu nuqtayi nazardan uning tuzilishi asosiy tarkibiy qismlarini saqlab qoladi, ularning bo'linishi muqarrar ravishda butun frazeologizmni yo'q qilinishiga olib keladi. Ushbu frazeologizmga nisbatan ellipsisni ishlatish ushbu iborani yanada qisqarishi va ravshanlashuviga olib keladi. Shu bilan birga frazeologik birliklarning semantik informativligini to'liq shaklda saqlab turadi. Bu kabi birikmalarda ellipsis kabi okkazional o'zgarishlar olib keluvchi usullarni qo'llash jarayonida ajratib olingan

komponentlar birikma ma'nosini aks ettira olmay qolishini yodda tutish kerak. Buning uchun birikma tarkibidagi asosiy axborotni ifodalovchi ekspressiv vazifani bajaruvchi muhim elementni qo'llash talab qilinadi.

Frazeologik birikmaning biron bir komponentini tushirib qoldirish faqatgina birikma tarkibida zaruriy-distributiv munosabatlar mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Frazeologizmlarning kontekstual qo'llanilishidagi ellipsis hodisa o'zbek tilida o'zaga xos shaklda yuz berib, ko'p hollarda qisqargan frazeologizmlar alohida birlik sifatida keng qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, mablag'alashgan frazeologik birliklardan yaqqol seziladi. Jumladan, o'zbek tilidagi "onasini uchqurg'ondan ko'rsatib qo'ymoq" birikmasidan "onasini ko'rsatib qo'ymoq", "jonidan o'tib ketmoq"dan "o'tib ketmoq", "izzat nafsiga tegib ketmoq"dan "tegib ketmoq", "yo'liga ko'z tutmoq"dan "ko'z tutmoq", "kalavasini uchini yo'qotmoq"dan "kalavasini yo'qotmoq", "yuragini qinidan chiqarib yubormoq"dan "yuragini chiqarib yubormoq", "el/hammaning og'ziga tushmoq"dan "og'izga tushmoq" kabi mubolag'alashgan frazeologik birliklar alohida frazeologik birlik sifatida ham qo'llanilishlari kuzatilib, ular o'zlari ajralib chiqqan o'zag birlik bilan tamoman aloqasini uzgan bo'lishlari mumkin. Qisqartirilgan frazeologik birlikning ma'nosi tushunarli bo'lib qolishining sababi assotsiativ aloqalarning muntazamligidir. Frazeologik komponentlarga ma'lum kontekstual ko'chma ma'nolarning yuklanganligi tor kontekstdan /FBdan/ ayrim komponentlarni ajratib olish va ularni yangi kontekstga joylash imkonini beradi, unda, FB bilan assotsiatsiya sababli, ularning tegishli ko'chma mazmunlari saqlanib qoladi.

Ko'pincha bunday qisqartirishlar til vositalarini tejash maqsadida, aytilmagan shama bo'yicha tushunilishi mumkin degan umidda qo'llaniladi. Quyida keltirilgan misolda the butcher, **the baker, the candlestick maker – hazil. – turli kasb egalari, turli-tuman kishilar, qurama xaloyiq frazeologik birligining qisqartirilishi kuzatiladi.**

Unfortunately one cannot entirely dispense with modern men. One is forced to have some kind of truck with butchers and bakers and milkmen and greengrocers.

Frazeologik birlik ma'nosining konnotativ jihati [2] *the fiddle – stick maker* komponentlarini qisqartirish va boshqa kasblarni kiritish orqali kengayadi. Frazeologizmning qisman asliga muvofiqlashuvi kuzatiladi: turli kasb egalari ma'nosi saqlanib qoladi va odamlar ularsiz kifoyalanmaydigan bu turli kasblar /qassob, nonvoy, sut sotuvchi kishi, ko'kat sotuvchi kishi/

aniqlashtiriladi, chunki turmush sharoiti uni bu kishilar bilan ma'lum munosabatga kirishishga majbur qiladi. Frazeologizm turmush vaziyatiga mos ravishda o'zgartirilgan – hozirgi sharoitlarga yaqinlashtirilgan, modernizatsiya qilingan. Ko'plik sonining qo'llanilishi oborotning mazmunini yanada umumlashtiradi.

Ayniqsa, maqollarning, keng tarqalgan mulohazalarning qisqartirilishi ko'p kuzatiladi. Shu bilan birga yoki uning birinchi /ancha yengillashtirilgan varianti/ yoki ikkinchi qismi ishlatilishi mumkin.

Poirot looked at him thoughtfully. "I am very anxious, Messieurs that lie should not be arrested." Japp was regarding Poirot with comical perplexity.

"Can't you go a little further, Mr. Poirot? A wink's as good as a nod – from you. You've been on the spot – and the Yard doesn't want to make any mistakes, you know."

Keltirilgan misolda maqolning ikkinchi qismi *a wink's as good as a nod to a blind horse* ishlatilgan, shama tushunarli, uni uzoq tushuntirish kerak emas. Lug'atlarda u hazil deb qayd qilingan. Ko'rilayotgan kontekstda maqolning qismi yangi konnotatsiyalar bilan quyidagi ma'noga ega bo'ladi: *Puaro bezovtalanish namoyish qiladi va shubhalanayotgan shaxsni politsiya tomonidan hibsga olish kerak emas, deb hisoblaydi, bu bilan komissar Djappda taajjublanish uyg'otadi. U Puarodan arzimagan bo'lsa ham tushuntirish berishni iltimos qiladi, chunki Puaro tomonidan beriladigan bu tushuntirish Puaroning qobiliyatlarini yuqori baholaydigan Skotlend Yard uchun foydali bo'ladi.* Eksplisit ifodalangan Puaroning qobiliyatlarini ijobiy baholash bilan bir qatorda, iboraning qisqartirilgan *to a blind horse* qismi Skotlend Yardning xodimlarini salbiy tavsiflaydi, Skotlend Yardning o'zi, baho ochig'i uning mavqei sababli Djapp tomonidan aytib bo'lmaydi: u yuqori unvoni bo'lmagan Skotlend Yardning xodimi, u tomonidan bunday mulohazalar uni haqoratlagan Skotlend Yardning obro'sini pasaytiruvchilar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Puaroning qobiliyatlariga hurmat va o'zining qobiliyatlariga hamda Skotlend Yardning qobiliyatlariga kamsitish munosabati implisitsiya qilingan *to a blind horse* bilan ta'kidlanadi. Bunday qisqartirishni biz keyingi misolda ham uchratamiz:

"Then, for the second time, I'm not to be taken into custody?"

"We always like to give a man plenty of rope," said Superintendent Battle.

"Very delicately put," said Anthony.

"Without unduly stressing the end of the proverb."

122

Ushbu misolda *give smb. enough rope and he'll hang himself* –“axmoqqa arqon ber, u qanday osilish kerakligini o‘zi topib oladi”, degan maqol qisqartirilgan. Yoki “*Careful man. What’s your motto? Plenty of rope, eh? I’ve taken a leaf out of your book. I’ve? given M .Lemonier plenty of rope. I’ve not denied his accusations. But, all the same, I’m afraid he’s going to be disappointed. You see I always believe in having something up one’s sleeve. Anticipating that some*

little unpleasantness might arise here, I took the precaution to bring a trump card along with me. It – or rather he –is upstairs.”

Xulosa. Qisqartirishni okkazonal qayta hosil qilishlarning eng muakkab usullaridan deb hisoblash mumkin, chunki idrokning, mulohazaning barcha ma’nosini tushunish asosida frazeologizmni ancha chuqur tushunish, ancha murakkab psixo-semantik jarayonlar yotadi.

Adabiyotlar

1. Байрамова Л.К. Фразеология и перевод / Л.К. Байрамова // Фразеология и синтаксис / Под ред. Андромоновой Н.А. - Казань: Изд-во КГУ, 1982. - С.3-42.
2. Кунин А.В. Двойная актуализация как понятие фразеологической стилистики / А.В. Кунин // Иностранные языки в школе. - 1974. - №6. - С.13-17.
3. Кунин А.В. Замена компонентов фразеологизмов как стилистический прием / А.В. Кунин // Иностранные языки в школе. - 1977. - №2. - С.3-11
4. Начисчионе А.С. Окказиональное стилистическое использование ФЕ (на материале произведений Дж. Чосера): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - М., 1976.-21 с.
5. Сафаров Ш. Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц. -Ташкент: “Ташкентский пос. пед. ин-т”, 1983.

INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH - IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarining nofilologik yo'nalishlarida ingliz tili fanini o'qitish jarayonida ta'limni individuallashtirish ijtimoiy muammo sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, ta'limga individual yondashishning imkoniyatlari va afzalliklari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, islohotlar, ta'lim-tarbiya, o'qitish jarayoni, ta'lim jarayoniga yondashuvlar, individual ta'lim, ta'limni individuallashtirish, xorijiy tillar.

В данной статье индивидуализация обучения в процессе обучения английскому языку в нефилологических направлениях высшего образования анализируется как социальная проблема. Также научно анализируются возможности и преимущества индивидуального подхода к обучению.

Ключевые слова: высшее образование, реформы, образование, учебный процесс, подходы к образовательному процессу, индивидуальное обучение, индивидуализация обучения, иностранные языки.

In this article, the individualization of education in the process of teaching English in the non-philological areas of higher education is analyzed as a social problem. The possibilities and advantages of an individual approach to education have also been scientifically analyzed.

Key words: higher education, reforms, education, teaching process, approaches to the educational process, individual education, individualization of education, foreign languages.

Kirish. Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro malaka talablari asosidagi ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan milliy tizimi yaratildi. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilib, "Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish" [1] muhim vazifa sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur vazifalarni amalga oshirishda ingliz tili fanini o'qitishda ta'limni individuallashtirish, ushbu sohada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Ta'lim sifati o'quv jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlar majmui bo'lib, inson, jamiyat va davlatning istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash asosida uning samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasini tubdan modernizasiya qilish asnosida uning yuqori darajasiga erishish va yanada takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar tadqiq qilinmoqda.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g'oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko'rsatmalari bo'yicha bir qator o'zbek olimlar, jumladan, U.Sh.Begimqulov, O.Musurmonova, M.S.Mustafayeva, B.R.Adizov, R.Sh.Axliddinov, Y.N.Abdullayev, M.X.Mahmudov,

R.Ishmuhammedov, L.V.Golish kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, uning sifatini takomillashtirishdagi muammolar, usul va vositalarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, ta'limni ijodiy va individual tarzda tashkil etish va boshqa xususiyatlar bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Ta'lim sifatini oshirishga zamonaviy yondashuvlarning tatbiq etilishi, uni sub'ektivlik, tarkib, tuzilish, rivojlanish, shaxs extiyojlarini muvofiqlashtirish kabi xususiyatlar orqali davlat va jamiyatni o'zaro bog'liqlikda insonparvarlik, uzluksizlik, taraqqiyot va demokratlashtirish g'oyalari asoslangan zamonaviy ta'limning yangilanishi va rivojlanishini belgilab beradi.

Ta'lim sifati, bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, u ta'lim muassasalari faoliyatidagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitning o'zgarishi bilan izohlanadi.

Chet tilini o'qitish jarayonida pedagogika sohasi albatta muhim rol o'ynaydi. O'qitish qonuniyatlarining didaktik tamoyillarda chuqur va aniq aks etishi pedagogika va u bilan bog'liq fanlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Chet tilini o'qitishning pedagogik asosini tashkil qiluvchi asosiy didaktik tamoyillar quyidagilar hisoblanadi: ta'limning ilmiylik tamoyili, uning tarbiyaviy xarakterga ega ekanligi, ta'limdagi ongllilik, faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va bilimni puxta o'zlashtirish, ta'lim va tarbiyaning birligi, o'qitishda talabalarning yosh va individual

124 xususiyatlarini hisobga olishlik tamoyillari va hokazolar.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Ayniqsa, chet tilini o'zlashtirish jarayonida ularni qo'llashga bo'lgan e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha (an'anaviy) ta'limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsalar, zamonaviy texnologiyalar ular egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib tahlil qilishlari, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi [5, 137].

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik o'qitish texnologiyalarni va faol metodlarni qo'llash orqali ingliz tili o'qituvchilarini ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoyitida faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi va jamiyatda o'z mavqeyiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat esa ta'lim muassasalarida shakllantiriladi.

Ta'limda innavasion tadqiqot metodologiyasi sohasida uondashish bugungi kunda R.Mavlonova, N.Muslimov, J.Yo'ldoshev tadqiqotlari, ta'limda pedagogik texnologiya asosida innovatsion uondashish N.N.Azixodjayeva, O.Tolipov, U.Nishaniliyev, B.Ziyamuxamedov ta'limda intenfikasiya yondashish muammolar F.U.Zlikayev. M.Ochilov, B.Raximov tadqiqotlari mazumida innovatsion masalalari aks ettirilgan.

N.Muslimovning tadqiqotlarida kasbiy-pedagogik faoliyat tuzilishi va uning muhim tarkibiy qismlari, ya'ni konstruktiv, kommunikativ, gnostik, tashkiliy faoliyat batafsil ko'rib chiqilgan.

Mustaqillik yillarida innovatsiyaga mohiyatan juda yaqin nuqtayi nazar S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Ochilov, U.Mahkamov kabi olimlarimiz ishlarida uchraydi.

Pedagogik faoliyatga bevosita taalluqli bo'lgan asarlar bilan birga, ijodni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan ishlar innovatika nuqtayi nazaridan ancha muhim o'rin tutdi. M.I.Mahmutov, V.A.Slastenin va boshqalarning asarlarida ijod muammolariga katta qiziqish kuzatiladi, ekstensiv yo'l bilan bilimlar to'plash tanqid ostiga olinadi va o'qish bo'yicha talaba va o'qituvchining mehnatini ijodiy deb hisoblash qat'iy isbot qilinadi. Ta'lim tizimidagi diversifikatsion "portlash" innovatsion muammolarning ta'limni standartlashtirish va uning sifatini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan yana bir blokining dolzarbligiga olib keldi .

Ingliz tilini o'qitishda individual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida talabalarning o'yin faoliyati orqali o'quv materialini o'zlashtirish masalasi G.V.Rogova, I.N.Vereshagina, Y.I.Passov, D.B.Elkonin, Y.I.Negnevisaya kabi ko'plab uslubchi va psixolog olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan va har tomonlama yoritilgan. Bugungi kunda xorijiy tilda muloqotni o'rgatishda o'yinlarning kommunikativ-funksional, emotsional-kognitiv funksiyalarini hisobga olish va ularni o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llash chet tili o'qitish samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida tan olinmoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta'limda boshqaruv rolini o'qituvchi bajaradi.

Interfaol ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: individual, juftlik, guruh va jamoa bilan ishlash [2, 125].

Individual ta'lim – ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, komp'yuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarining inobatga olinishini ta'minlabgina qolmay, barcha talabalarning rivojlanishi uchunгина emas, shu bilan birga jamoa negizida har bir talabaning rivojlanishi, shaxs va mutaxassis sifatida kamol topishi uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Mohiyatiga ko'ra individual ta'lim har bir talabaning individual xususiyatlarining to'la inobatga olinishi uchun o'qitish shakllari, metodlari va vositalarini samarali tanlagan holda o'qitish jarayonini tashkil etilishini, har bir talabaga individual yondashishni ta'minlovchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik hamda tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlarini belgilashga qaratilgan faoliyat mazmunini yoritishni anglatadi. Anglanganidek, o'quv jarayonini individual tashkil etishga bo'lgan yondashuv hamda o'qitishning individual shakli so'z yuritilayotgan ta'limning ustuvor jihatlari sanaladi.

Individual ta'lim maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalardan iborat dinamik tizimga ega. Ayni vaqtda ushbu ta'limning quyidagi turlari mavjud:

- repetitorlik ta'limi (lot. "repetitor" – "orqaga qaytishni talab qiluvchi", "takrorlovchi") -

individual ta'limning eng ommalashgan zamonaviy turi;

- maxsus dasturga asoslangan ta'lim;
- o'rgatuvchi ta'lim;
- insonparvarlik ta'limi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim;
- ijodiy xarakterga ega ta'lim.

O'zining konseptiv asoslariga ko'ra individual ta'lim quyidagi tamoyillarga tayanadi.

Individual ta'limning ustuvor tamoyillari:

- talabning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish;

- o'quv fanlari asoslarini o'zlashtira olmaslikning oldini olish uchun har bir talaba tomonidan o'quv dasturlarini bajarishda individuallashtirish vositalaridan foydalanish;

- har bir talabada uning yaqin kelajakda rivojlantirishi uchun tayanch bo'ladigan umumiy ta'limiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- talabalarining o'quv motivatsiyasini oshirish va ularda bilishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish;

- talabalarda mustaqillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, fikrlash va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish.

Ustuvor tamoyillari.

Ta'lim mazmunini asoslashga dasturiy yondoshuv tamoyili.

Ilmiylik va g'oyaviy asoslanganlik tamoyili.

Izchillik va uzluksizlik tamoyili.

Tizimlilik va maqsadga muvofiqlik tamoyili.

Talabning individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.

Ta'lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashish tamoyili.

Talabalarining individual ishlarini o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan o'zaro integratsiyasi tamoyili.

Ta'lim jarayonida har bir talabning individual ishlash sur'ati va uslubini inobatga olish tamoyili.

Atoqli rus metodist olimi, chet tillarni o'rgatishning kommunikativ texnologiya asoschisi Y.I.Passov fikricha, o'yin bu faoliyatdir, bunday faoliyatning mazmuni bilishga, nutqiy harakatlarga o'rgatishdir. Y.I.Passov o'yin faoliyatini o'rgatuvchi vosita sifatida ta'riflab, uning quyidagi ijobiy jihatlarni ko'rsatadi [3,67]:

- faoliyatning motivlashtirilganligi;
- o'rganish jarayonida tashqi tazyiqning mavjud emasligi;
- o'rganishning ixtiyoriy individual xarakterda ekanligi;
- talabning o'rganuvchi va rivojlanadigan qobiliyati guruh ichida va guruh orqali amalga oshirilishi;

- emosional ta'sir orqali qobiliyatlar shakllanishining tezlashuvi;

- o'yin orqali bilishga qiziqishning ortishi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida individual ta'limni tashkil etish yordamida talabalarining qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqq olish kabi sifatlarni shakllantirishga erishish mumkin.

Eng muhimi, ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi aniq maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etadi. Shuningdek, talabalarni muayyan bilimlar sohasini egallashga yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini polis baholash imkonini beradi.

Shu bois ta'lim texnologiyalaridan o'qitish jarayonida foydalanish natijasida:

- talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;

- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;

- har bir talabning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;

- talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;

- talabalarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;

- talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;

- talabalarining xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

Pedagogik innovatsiyalar va pedagogik islohotlar bir-biri bilan mustahkam bog'langan. Bizning fikrimizcha, innovatsion pedagogik faoliyat faqat islohot o'tkazishning muhim sharti bo'libgina qolmay, islohotga tayyorgarlikning vositasi hamdir. Chunki bu faoliyat pedagoglarning innovatikaga yo'nalgan ongi va faolligini shakllantirishga ko'maklashadi. Biz o'quv faoliyatida innovatsion jarayonlarni tahlil etayotganimiz bois, bizning tadqiqotimiz uchun o'qitishga faoliyat yondashuvi (Y.K.Babanskiy, O.A.Gulimova, R.Mavlonova, Y.B.Raximov) muhim o'rin tutadi. B.Adizov bilish (o'quv-biluv) faoliyati tuzilishda talabalar tomonidan hamma fanlarni o'rganishda bajariladigan umumiy harakatlarni ajratib ko'rsatadi. Bunda talaba bilishga qiziqish va bilimga chanqoqligi asosida

126 fanlar bo'yicha olgan bilimlari bilan o'ziga xos aloqaga kirishgan joyda konstruktiv faoliyat boshlanishi to'g'risidagi qoida innovatika nuqtayi nazaridan biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

N. Saydahmedov o'z tadqiqotida o'qituvchining ijodini tahlil qiladi va tarbiyachi hamda o'qituvchining ijodiy faoliyatini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, ijodiy faoliyat novatorlik va mahorat bilan tavsiflanadi. U metodik mahoratni aniqlashni taklif qiladi. Bu mahoratni u ijod bilan bog'laydi.

Faoliyat bo'yicha yondashuv prinsipi bizga turli o'qitish metodlarini sinovdan o'tkazgan ta'lim metodlari hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu metodlar N.Muslimov, B.Adizov, B.Raximovlarning ba'zi ishlari talabalarning ko'nikma va mahoratlarini shakllantirishda o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan. Muammoli bayon etish va axborot texnologiyalari metodi esa ijodiy fikrlashni, xotirani, tasavvurni, talabalarning mustqil izlash ishini rag'batlantirishga mo'ljallangan innovatikani ta'limni rag'batlantirishlar sirasiga kiritadi va bu rag'batlantirishlarni quyidagicha tasniflaydi:

1) manba faoliyatning mazmuni bo'lgan rag'batlar (materialning yangiligi, mazmunning oson yoki qiyinligi, o'quv materialining amaliy ahamiyati);

2) manba faoliyat jarayoni bo'lgan rag'batlar (muammolilik, mustaqil ishning turli shakllari);

3) manba o'qituvchi va ta'lim oluvchilar orasidagi munosabatlar bo'lgan rag'batlar.

Oliy ta'limda ingliz tili mashg'ulotlarida zamonaviy texnologiyalar va metodlar asosida mashg'ulotlarni o'tkazish o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni, shuningdek, quyidagilarga e'tibor berish kerakligini talab qiladi [4,76]:

1. Qaysi mavzular bo'yicha zamonaviy texnologiyachlar asosida darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Zamonaviy dars mashg'ulotining samarali bo'lishi uchun talabalar yangi mashg'ulotdan oldin

uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Dars jarayonida talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Zamonaviy a'lim texnologiyasi har bir o'qituvchi tomonidan barcha talabalar o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir talaba o'z motivlari, individual xususiyatlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi, talabalarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Muhokamalar va natijalar. Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitishda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar talabaning ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha talabalarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim.

Chet tillarni o'rgatishda o'yinlardan qo'yidagi maqsadlarda foydalanish mumkin: mavzu bo'yicha muayyan kommunikativ ko'nikma va malakalarni shakllantirish, muloqotga kirishuvdagi nutqiy harakatlarga o'rgatish, zaruriy qobiliyat va psixik funksiyalarni rivojlantirish, o'yin zamiridagi kommunikativ topshiriq mazmunini ongli o'zlashtirish.

Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metod va yondashuvlarning afzalliklari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metod va yondashuvlarning afzalliklari

№	Zamonaviy metod va yondashuvlar asosida ingliz tilini o'qitish	Mualliflar	Afzalliklari
	Kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini	E.I.Passov	Kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish
	Kompetensiya yo'naltirilgan til o'qitish	E.A.Shnek	Ushbu metod talabalarda kommunikativ kompetensiyani va uning komponentlari bo'lgan lingvistik, pragmatik, sosiolingvistik, diskussiv,

			ijtimoiy, madaniy kompetensiyalarni egallashga yordam beradi
	Tabiiy yondashuv	T.Terral	Ushbu yondashuv tilni tabiiy o'rganishga qaratilgan bo'lib, turli xil kommunikativ mashq, o'yin va dialoglar tuzish, ijro etish orqali kommunikativ kompetensiyani egallashga erishiladi
	Jamoa bo'lib tilni o'rganish	J.Devey	Jamoa bo'lib tilni o'rganish metoditalabalarida jamoada erkin muloqot yuritish, o'z fikrini tushuntira olish, uni isbotlash, bir-birini tinglash va o'zaro hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi
	Og'zaki vaziyatlar asosida tilni o'qitish	H.Palmer	Mazkur yondashuv talabalarni turli vaziyatlarda fikrlarini qiyinchiliklarsiz bayon etishlari va duch kelgan muammolarga yechim topa olish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi
	Matnga yo'naltirilgan instruksiya	K.J.Bruton	Matn yoki mavzu asosida tilni o'rganish talabalarda motivasiyani uyg'otadi va kommunikasiyaga kirishlarini osonlashtiradi
	Matn va topshiriqlarga yo'naltirilgan tarzda tilni o'qitish	J.Villos	Mazkur metodni mashq va topshiriqlar yordamida o'rgatishni taqozo etadi. Unda talabalar tanqidiy mushohada yuritishlari, mustaqil ishlashlari, og'zaki va yozma nutqni puxta egallash imkonini yaratadi

Xulosa. Hozirgi talabalarni aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, yangiliklarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashini, malakasini oshirib borishini va ongini yanada rivojlantirishini, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishini talab qiladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib yuborgan.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsadda

kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, talabalar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zlari hulosa qila olsa, o'zlariga, guruhiga baho bera olsagina samarali hisoblanadi. Har bir dars, o'quv fani mavzuning o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni bu ikki yoqlama jarayon bo'lib u o'qituvchi, talabaning bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik tizimdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF- 60 – son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. -М.: "Педагогика", 1995 г.
3. Golish Z.L. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish// Ekspres qo'llanma, 2001-yil.
8. Ziyomuxammedov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot// uslubiy qo'llanma. -T.: "Abu Ali ibn Sino", 2001-yil.
9. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o'quv – tarbiya jarayoniga qo'llash. -T.: "Fan va texnologiya", 2014. - 184 bet.

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Rasqul IBRAGIMOV

Chimkentdagi Janubiy
Qozog'iston davlat pedagogika
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Fayzullo KASIMOV

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası dotsenti, pedagogika
fanlari nomzodi

Mavlyuda QOSIMOVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası dotsenti

MATEMATIK TUSHUNCHALAR HAQIDA TASAVVUR HOSIL QILISHDA NAZARIY MA'LUMOTLARNING O'RNI

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan ayrim matematik tushunchalarning nazariy asoslari to'g'risida fikr bildirilgan. "To'plamlar va ular ustida amallar"ga oid nazariy ma'lumotlarning boshlang'ich sinf matematika ta'limidagi amaliy tadbiri yoritilgan.

Kalit so'zlar: tushuncha, matematik tushuncha, to'plam, to'plam elementlari, to'plam osti, to'plamlar ustida amallar kesishma, birlashma, to'ldiruvchi to'plam osti, to'plamlar dekart ko'paytmasi, to'plamlarni o'zaro kesishmaydigan sinflarga ajratish.

В этой статье представлен обзор теоретических основ некоторых математических понятий, изучаемых на уроках математики в начальной школе. Описано практическое применение теоретических знаний по теме "Наборы и операции над ними" в обучении математике в начальной школе.

Ключевые слова: понятие, математическое понятие, множество, элементы множества, подмножество, операции над пересечением множеств, слияние, дополнительное множество, декартово произведение множеств, к Разбиению плоскостей на непересекающиеся классы.

This article provides an overview of the theoretical foundations of some of the mathematical concepts taught in elementary school math classes. The practical application of theoretical knowledge on "Collections and operations on them" in the teaching of mathematics in primary school is described.

Key words: concept, mathematical concept, set, set elements, sub-set, operations on sets intersection, merger, complement set, Cartesian product of sets, to Separation of planes into non-intersecting classes.

Kirish. Boshlang'ich sinf matematika kursidagi matematik tushunchalar haqida o'quvchilarda tasavvur hosil qilinishi yuzasidan nazariy ma'lumotlar o'rni to'g'risida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida boshlang'ich matematika kursi asoslari fani kiritilgan. Bu fan asosan 1-2-bosqichlarda o'qitiladi. Bu fan o'zlashtirilishi bilan birga 2-bosqich 3-jarayonidan shu ta'lim yo'nalishi talabalari matematika o'qitish metodikasi fanini o'rganishadi. Albatta, bu bejiz emas. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich matematika kursi asoslaridan yetarlicha nazariy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgach, matematika o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirishga kirishadi.

Asosiy qism. Tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu ikki fan bir-biriga uzviy bog'langan fanlardir. Ba'zan talabalardan shunday murojaat va savollar bo'lib qoladi: "To'plamlar va ular ustida amallar to'g'risidagi nazariy ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda o'rganilmaydiku.", "Mosliklar, munosabatlar boshlang'ich sinf matematika kursida tatbiq etiladimi?", "Mulohazalar, predikatlar, ular ustida amallar

boshlang'ich sinf uchun kerakmi?" kabilar talabalarning boshlang'ich matematika kursi mazmuni bilan tanish bo'lmagani, matematika o'qitish metodikasi fani to'g'risida tasavvurga ega bo'lmaganidan dalolatdir.

Boshlang'ich matematika kursida o'rganiladigan har bir nazariy material boshlang'ich matematika kursida o'z tatbiqiga ega.

"To'plamlar va ular ustida amallar" deb nomlangan bobda to'plam tushunchasi, uning berilish usullari, to'plam osti va uning xossalari, to'plamlar ustida amallar (birlashma, kesishma, ayirma, to'ldiruvchi to'plam osti), to'plamlar Dekart ko'paytmasi, to'plamlarni sinflarga ajratish kabi mavzular o'rganilishi nazarda tutilgan. Bu nazariy materiallarning boshlang'ich sinf matematika kursida tatbiqini tahlil qilaylik. Yangi nashr etilgan maktab matematika darsligi (1-sinf)da to'plam tushunchasi o'z ifodasini topganini ko'rish mumkin. Birinchi sinf matematika darsligining 1-bob 1-darsidayoq o'quvchilar "Narsalarning to'plamlari" degan mavzu bilan tanishadilar. To'plam tushunchasi matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, unga ta'rif berilmaydi. Uni misollar vositasida tushunish mumkin. 1-sinf o'quvchilari ularni o'rab turgan

predmet(narsalar)ni ko'rib, fikr yuritadilar. Masalan, maktab hovlisida o'ynab turgan o'quvchilar, gulzordagi gullar, jovondagi kitoblar, stol ustidagi daftarlar, maktab hovlisidagi daraxtlar va shunga o'xshash narsalar to'g'risida mulohaza yuritishadi. Bular, albatta, to'plam tushunchasini ifodalaydi. Bu tushuncha deyarli boshlang'ich sinflarning har bir darsida o'z tatbiqiga ega.

To'plam osti tushunchasining nazariy ta'rifi boshlang'ich sinf matematika kursida berilmasada, uning amaliy tatbiqini boshlang'ich sinf matematika darslarida uchratish mumkin.

Agar B to'plamning har bir elementi A to'plamning elementi bo'lsa, B to'plam A to'plamning to'plam osti (qism to'plami) deb aytiladi va $B \subset A$ yoki $A \supset B$ deb belgilanadi. Bu to'plam osti tushunchasi ta'rifi. Bu tushuncha amaliy tatbiqiga juda ko'p misollar keltirish mumkin.

Masalan 1. Sinfda 28 ta o'quvchi o'qiydi. Shulardan 12 nafari qizlar, qolgan o'g'illar. Sinfda nechta o'g'il bola o'qiydi?

O'quvchilar ushbu masalani yechishga kirishar ekan, o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham shu sinfdagi o'quvchilarning bir qismi (ya'ni to'plam osti) to'g'risida fikr yuritishadi.

2. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 sonlar qatoridan dastlab toq sonlarni, keyin juft sonlarni ketma-ket o'sib borish tartibida yozing. Ushbu topshiriq bevosita berilgan sonlar to'plamidan uning to'plam ostilari - toq sonlar, hamda juft sonlar to'plamlarini ajratib yozishni talab qilyapti.

3. Tekis geometrik shakllar ichidan, to'rtburchaklarni uchburchaklarni ajratish topshirig'ida berilgan to'plam elementlaridan uning qism to'plamini ajratishni talab qiladi va hokazo.

Boshlang'ich sinflarda matematika kursi mazmuni konsentrik hamda chiziqli tarzda joylashgan. O'nlik, yuzlik, minglik va ko'p xonali sonlar konsentrlarida o'rganiladigan tushunchalar bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda o'zlashtirilishi nazarda tutiladi. O'n ichidagi sonlar yuz ichidagi sonlarning bir qismi, ming ichidagi sonlar ko'p xonali sonlarning bir qismi. Bu yerda to'plam osti munosabatining refleksivlik, assimetriklik, tranzitivlik xossalari bajarilishini ham ko'rish mumkin.

Arifmetik amallar, ularning xossalari asoslangan holda talqini boshlang'ich sinf matematika kursida mujassam bo'lganini ko'rish mumkin.

Ikki son yig'indisi, masalan, $3+2$ ni quyidagicha sharhlash imkoni bor.

3 - bu biror to'plamdagi elementlar soni. Masalan, katakli daftarlar soni, 2 - bu boshqa bir to'plam, masalan chiziqli daftarlar sonini ifoda etsin.

$3+2=5$ - bu katakli va chiziqli daftarlarning birgalikdagi sonini ifodalaydi. Ya'ni katakli daftar to'plami bilan chiziqli daftarlar to'plamlar birlashmasidagi daftarlar sonini ifodalaydi.

A - katakli daftarlar, B - chiziqli daftarlar to'plamlari bo'lsa, $n(A)=3$ - katakli daftarlar soni, $n(B)=2$ - chiziqli daftarlar sonini belgilasak, $5=3+2=n(A)+n(B)=n(A \cup B)$ - to'plamlar birlashmasidagi elementlar soni bo'ladi.

Demak, yig'indini topishga doir har bir masala - o'zaro kesishmaydigan to'plamlar birlashmasidagi elementlar sonini topishga asoslangan bo'ladi. Qo'shish amali mazmunini ochib beruvchi masalalar - bu yig'indini topishga doir sodda masalalardir.

Boshlang'ich sinflarda ayirish amali qoldiqni topishga doir sodda masalalarni yechishga o'rgatish orqali o'quvchilarga o'rgatiladi. Quyidagi masalani qaraylik: Bochkada 8 chelak suv bor. Gullarni sug'orish uchun 2 chelak suv olindi. Bochkada necha chelak suv qoldi?

Ushbu masalani o'quvchi yechar ekan, 8 dan 2 ni ayiradi, ya'ni $8-2=6$ chelak suv bochkada qolishini aniqlaydi. Buni nazariy jihatdan quyidagi sharhlash mumkin:

8 - bu biror to'plamdagi elementlar soni. Yuqoridagi masalada bochkada bo'lgan suv - chelaklar soni.

2 - bu shu to'plam qismi bo'lgan to'plam ostidagi elementlar soni. Misolimizda gullarni sug'orish uchun ishlatilgan suv - chelaklar sonini ifodalaydi.

Natija 6 - bu berilgan to'plamdagi shunday elementlar sonini, u bochkada gullarni sug'orish uchun olingandan keyin qolgan chelaklarda hisoblanadigan suv miqdoridir. Ya'ni ikki son ayirmasini xarakterlovchi ayirish amali to'ldiruvchi to'plam osti amali bilan sharhlanarkan.

Biror A to'plam berilgan bo'lsin, undagi elementlar soni $n(A)=a$ bo'lsin. B to'plam A to'plamning to'plam osti bo'lsin, $B \subset A$. Undagi elementlar soni $n(B)=b$ ga teng bo'lsin.

$a-b=c$ - ayirma B'_a-B to'plamini A to'plamiga to'ldiruvchi to'plam ostidagi elementlar sonini ifoda etadi: $n(B'_a)=n(A)-n(B)=a-b$

Ko'paytirish amali ta'rif oshkor holda boshlang'ich 2-sinf matematika darsligida keltirilgan: Ko'paytirish deb, bir xil qo'shiluvchilarni qo'shishga aytiladi. Darhaqiqat, masalan, $5+5+5+5=5 \cdot 4$

Endi ko'paytirish amalining nazariy ma'nosini keltiraylik.

Ta'rif. Butun nomanfiy a va b sonlarning ko'paytmasi deb, quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi butun nomanfiy $a \cdot b$ songa aytiladi:

$b > 1$ bo'lganda, $a \cdot b = a + a + a + \dots + a$

130

$b=1$ bo'lganda, $a \cdot 1 = a$

$b=0$ bo'lganda $a \cdot 0 = 0$

Nazariy - to'plam jihatdan ma'nosi quyidagicha: Agar A_1, A_2, A_3, \dots A to'plamlarning har biri a tadan elementga ega bo'lsa va ulardan hech ikkitasi kesishmasa, u holda ularning birlashmasi $a \cdot b$ ta elementga ega bo'ladi. Demak, $a \cdot b$ ko'paytma - bu har biri a tadan elementga ega bo'lgan, juft-jufti bilan kesishmaydigan b ta to'plamning birlashmasidagi elementlar sonidir.

$a \cdot 1 = a$ va $a \cdot 0 = 0$ tengliklar sharti qabul qilingan.

Boshlang'ich sinflarda ko'paytirish amali mazmuni shu nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda kiritilgan. Ammo shuni aytish joizki, ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'paytirish amali mazmunini o'quvchilarga boshqacha talqin qilishadi. 2021-yil nashr qilingan 2-sinf matematika darsligida ham ko'paytirish amali mazmuni yoritilishida kamchilikka yo'l qo'yilgan:

" $5+5+5+5=20$ ni qisqa ko'rinishida quyidagicha yozamiz: $4 \cdot 5 = 20$ " (71-bet) deb yozuv keltirilgan. Aslida "5 talab 4 ta son yig'indisi", $5 \cdot 4 = 20$ ko'rinishda bo'lishi kerak.

Garchand, ko'paytuvchilar o'rmini almashtirganda ko'paytma o'zgarmasa ham, ammo ko'paytirish amali mazmuni noto'g'ri talqin etilgan bo'ladi.

$5 \cdot 4$ - bu har birida 5 tadan elementi bo'lgan 4 ta teng quvvatli to'plamlar birlashmasidagi elementlar soni, $4 \cdot 5$ esa har birida 4 tadan elementi bo'lgan 5 ta teng quvvatli to'plamlar birlashmasidagi elementlar sonini ifodalaydi.

Ikki sonning ko'paytmasini 2 to'plam Dekart ko'paytmasidagi elementlar soni sifatida ham talqin qilinadi. A va B - chekli to'plamlar bo'lganda, $a=n(A)$ va $b=n(B)$ -sonlar mos ravishda A va B to'plamlardan elementlar soni bo'lsa, $a \cdot b = n(A \cdot B)$ - ko'paytma A va B to'plamlar dekart ko'paytmasidagi elementlar sonini ifodalaydi. Masalan, $A = \{a, b, c, d\}$ $n(A) = 4$

$B = \{1, 2, 3\}$ $n(B) = 3$

$A \times B = \{(a, 1); (a, 2); (a, 3); (b, 1); (b, 2); (b, 3); (c, 1); (c, 2); (c, 3); (d, 1); (d, 2); (d, 3)\}$

$n(A \times B) = n(A) \cdot n(B) = 4 \cdot 3 = 12$

Ko'paytirish amalining bunday talqini boshlang'ich sinflarda ayrim kombinatorli masalalarni yechishda qo'llaniladi.

Masala. Karim va Rahim 3 ta o'yinchoq mashinalari Damas, Kobalt, Nexiya avtomobillaridan birini tanlamoqchi. Bu necha usulda tanlashlari mumkin?

(Karim, Damas), (Karim, Kobalt), (Karim, Nexiya), (Rahim, Damas), (Rahim, Kobalt), (Rahim, Nexiya) - 6 usulda.

Bolalar soni 2 ta, o'yinchoqlar 3 ta. Demak, juftliklar soni $2 \cdot 3 = 6$ ta.

Bo'lish amali mazmuni boshlang'ich sinflarda 2 xil talqin qilinadi: ma'noga qarab bo'lish va teng bo'laklarga bo'lish. Albatta, bo'lishning bu 2 turi nazariy-to'plam nuqatasi nazarda asoslanadi:

1) a elementli A to'plamli har birida b elementli teng quvvatli to'plam ostilar soni-a va b sonlarning bo'linmasidir (Ma'nosiga qarab bo'lish).

2) a elementli A to'plamni b ta teng quvvatli to'plam ostilarga ajratilganda har bir qism to'plamdagi elementlar soni - a va b sonlarning bo'linmasidir (Teng qismlarga (bo'laklarga) bo'lish).

Boshlang'ich sinf matematika kusida dastavval o'quvchilarni "Ma'noga qarab bo'lish" ga doir masalalar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Quyidagi masalani qaraymiz:

Masala. 18 ta olma 3 tadan qilib likopchalarga qo'yildi. Necha likopchaga olmalar qo'yildi?

Ushbu masalaga mos chizma orqali masala mohiyatini oydinlashtirish mumkin.

18 ta doirachalarni 3 tadan qilib guruhlariga ajratamiz.

Masala yechimi quyidagicha yoziladi, $18:3=6$ (ta)

Javob: 6 ta likopchalarga olmalar qo'yildi.

Endi teng bo'laklarga ajratishga masala bilan tanishtirishni ko'ramiz.

Masala: 18 ta olma 6 ta likopcha teng qilib taqsimlandi. Bitta likopchada nechtdan olma qo'yiladi?

Bu masala uchun ham yuqoridan chizmalardan foydalanib tushuntirish beriladi va yechimi aniqlanadi.

$18:6=3$ (ta olma)

Javob: Bitta likopchada 3 tadan olma qo'yildi.

Muhokamalar va natijalar. "Teng bo'laklarga bo'lish"ga doir masala matndagi "Teng" iborasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yuqoridagi masalada "18 ta olma 6 ta likopchaga taqsimlandi" deb aytilganda likopchalarga taqsimlangan olmalar soni teng bo'lmasligi mumkin. Bu holda masala ko'p yechimli bo'ladi, ammo "Teng bo'laklarga bo'lish" ga doir masala bo'lmay qoladi, ko'plab masalalarni yechish orqali o'quvchilarga bo'lish amali mazmunini o'zlashtirishga doir ko'nikmalar shakllanadi. Shunday qilib, 4 arifmetik amal mazmunini ochib berishga qaratilga 5 xil sodda masalalar bilan o'quvchilar boshlang'ich ta'limning dastlabki 1-2-sinflarda tanishadi.

Boshlang'ich matematika kursi asoslari fani o'quv dasturida to'plamlariga xos "To'plamlarni o'zaro kesishmaydigan sinflarga ajratish" degan mavzu o'rganilishi rejalashtirilgan.

To'plamlarni o'zaro kesishmaydigan to'plam ostilarga ajratish ta'rifi quyidagicha izohlanadi.

M qandaydir to'plam bo'lsin. M to'plam o'zaro kesishmaydigan to'plam ostilar (M_1, M_2, \dots, M_b)ga ajratilgan deb aytiladi, agar quyidagi shartlar bajarilsa:

- 1) hech bir to'plam osti bo'sh bo'lmasa;
- 2) istalgan ikki to'plam ostilar umumiy elementga ega bo'lmasa;
- 3) barcha to'plam ostilar birlashmasi berilgan to'plamni bersa.

Ushbu tushunchani boshlang'ich ta'limning 1-sinf matematika dastur va darsliklarda o'z ifodasini topganini ko'rish mumkin. "Narsalarni (predmetlarni) sinflarga ajratish" degan ibora zamirida to'plamlarni o'zaro kesishmaydigan to'plam ostilariga ajratishni ko'rish mumkin. Masalan, 10 ichidagi sonlarni toq va juft sonlariga ajratish, berilgan ifoda qiymatiga ko'ra ifodalarni sinflarga ajratish, hayvonlarni uy va yovvoyi hayvonlar guruhiga ajratish, geometrik shakllarni

burchaklari, tomonlari soniga qarab sinflariga ajratish kabi ko'plab o'quv topshiriqlari bajarilishida to'plamlarni bitta, ikkita xossalariga ko'ra sinflarga ajratishga oid bilim va ko'nikmalar talab qilinadi. Albatta, har bir ajratiladigan to'plam ostilar yuqoridagi 3 ta shartni qanoatlantiradi.

Xulosa. Biz ushbu maqolada "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi "Boshlang'ich matematika kursi asoslari" fanining "To'plamlar ular ustida amallar" deb nomlangan o'quv modellining boshlang'ich sinflar matematika ta'limida tatbiqiga doir ayrim mulohazalarni bayon qilishga harakat qildik xolos. Predikatlar va mulohazalar ular ustida amallar, moslik, munosabat, akslantirishlar, kombinatorika elementlari, nomanfiy butun sonlar, son tushunchasini kengaytish, asossiy miqdorlar va shunga o'xshash o'quv dasturidagi nazariy materiallarning amaliy tadbirlari boshlang'ich sinf matematika ta'limida o'z ifodasini topgan.

Adabiyotlar

1. Hamidova N., Ibragimova Z., Tasetov T. Matematika. -T.: "Turon-Iqbol", 2007.
2. Qosimova M. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. –Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2020.
3. Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. –Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2021.
4. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2016.
5. O'rinbayeva L. va boshqalar. Matematika 1-sinf uchun darslik. -T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021.
6. Qosimov M. F. et al. To develop students' skills of nature conservation and respect for human labor by teaching them to solve environmental problems //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 1. – C. 175-181.
7. Qosimov F. M., Qosimova M. M. IKKI (YOKI BIR NECHA) SONNI ULARNING YIGINDISI VA AYIRMASIGA KORA TOPISHGA DOIR MASALALAR //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1138-1145.
8. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
9. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFDAN ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 358-362.
10. Qosimov F. M., Qosimova M. M. МАТЕМАТИКАДАН ИЖДИЙ О 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
11. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.

Abulqosim PARMANOV

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: parmanovabulqosim@gmail.com

O'QUVCHILAR MATEMATIK FIKRLASHINI PISA TOPSHIRIQLARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH VA OLINGAN NATIJANI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH HAQIDA

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida matematik fikrlashini PISA topshiriqlari yordamida rivojlantirish orqali vaziyatlarni baholash, strategiyalarni tanlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, yechimlarni ishlab chiqish va tavsiflash hamda bu yechimlarni qanday qo'llash mumkinligini, olingan natijalarni izohlash va baholashga o'rgatish haqida bayon qilingan. Vaziyatlarni matematik tarzda shakllantirish, matematik tushunchalar, faktlar, amallar va mulohazalarni qo'llash, matematik natijalarni izohlash, qo'llash va baholash jarayonlari yoritilgan hamda PISA topshiriqlaridan yechish na'munalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: PISA topshiriqlari, matematik savodxonlik, matematik fikrlash, xulosa chiqarish, olingan natijalarni izohlash va baholash.

Данная статья дает возможность оценивать ситуации, выбирать стратегии, делать логические выводы, разрабатывать и описывать решения, а также интерпретировать и оценивать результаты, полученные при развитии математического мышления у старшеклассников с помощью заданий PISA, описанных в обучении. Описаны процессы математического формулирования ситуаций, применения математических понятий, фактов, действий и соображений, интерпретации, применения и оценки математических результатов, приведены примеры решения из задач PISA.

Ключевые слова: задачи PISA, математическая грамотность, математическое мышление, выводы, интерпретация и оценка результатов.

This article provides an opportunity to evaluate situations, select strategies, draw logical conclusions, develop and describe solutions, and interpret and evaluate the results obtained by developing mathematical thinking in high school students using PISA tasks described in the teaching. The processes of mathematical formulation of situations, application of mathematical concepts, facts, actions and considerations, interpretation, application and evaluation of mathematical results are described, and examples of solving from PISA tasks are given.

Key words: PISA tasks, mathematical literacy, mathematical thinking, drawing conclusions, interpretation and evaluation of results.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarorida Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida PIRLS, TIMMS, PISA, TALIS xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish va kelgusi yillarda bosqichma-bosqich qatnashish vazifasi belgilangan [1]. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish vazifalari belgilangan. PISA xalqaro tadqiqotlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholaydi. PISA tadqiqotlari 1000 ballik tizimda baholanib, asosiy ball matematik savodxonlikka beriladi.

Turli ta'lim bosqichlarida matematik ta'limning yuqori darajasining asosini kengroq ma'noda yosh avlodning matematik savodxonligi tashkil etadi. Shu bois maktab o'quvchilarini matematika savodxonligi bilan ta'minlash maktabdagi matematika ta'limining sifat omilini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. PISA tadqiqotlarida Respublikamiz o'quvchilari yuqori natijaga erishishlari uchun ularda matematik savodxonlikni yaxshi rivojlantirish kerak. Matematik savodxonlikni rivojlantirish uchun sifatida o'quvchilarda matematik fikrlash rivojlantirish va olingan natijalarni tahlil qilishga o'rgatish zarur bo'lgan vazifadir.

Asosiy qism. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari matematik savodli bo'lishlari uchun avvalo matematika fanidan o'rgangan bilimlaridan foydalanib berilgan vaziyat (muammo)ning matematik mohiyatini tushunishi, ayniqsa, kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarni anglay olishi va keyin uni o'rgangan matematik bilimlari asosida vaziyat (muammo)ni hal qilishi kerak. Ushbu jarayonda o'quvchilardan haqiqiy vaziyatdan aniq belgilangan matematik muammoni hal qilishi

uchun chuqur matematik fikrlashni talab qiladi. Bu jarayonda to'g'ri yo'lni tanlash va o'rganilgan bilimlarni qo'llash bo'yicha aniq qarorlar qabul qilishni talab qiladi, bu ham matematik fikrlashning namoyonidir.

Matematik fikrlash quyidagilarni o'z ichiga oladi [2]:

- matematikaga xos savollar berish ("... bormi?", "Agar shunday bo'lsa, qancha...?", "Qanday topish mumkin...?");

- bunday savollarga taqdim etayotgan javoblar mohiyatini bilish;

- ta'riflar, teoremlar, farazlar, misollar, shartli bayonotlarni farqlash;

- matematik tushunchalarning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish hamda ulardan foydalanish;

- matematik dalillar nima ekanligini va ularning boshqa matematik fikrlash turlaridan qanday farq qilishini bilish;

- har xil turdagi matematik dalillar zanjirini kuzatish va baholash;

- evristik ma'noga ega bo'lish (nima bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin va nima uchun).

Matematikadan PISA topshiriqlari o'quvchiga natijalarni asl real vaziyatda izohlash orqali

matematik yechimni baholashni o'rgatadi. Matematik savodxonlik bir-biriga bog'liq bo'lgan ikkita jihatni, ya'ni matematik fikrlash va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Matematik savodxonlik - bu odamning matematik fikrlash, matematikani shakllantirish, qo'llash va turli amaliy kontekstlarda muammolarni hal qilish uchun izohlash qobiliyatidir [3]. Matematik savodxonlik matematik fikrlash va muammoni hal qilish siklining uchta jarayoni (shakllantirish, qo'llash, izohlash va baholash) o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydi.

Matematik savodxonlik real muammolarni hal qilishda matematikadan foydalana olishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, matematik fikrlash (ham deduktiv, ham induktiv) haqiqiy muammolarni hal qilishdan tashqari, matematik tarzda hal qilinishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarning muhim sinfi haqida asosli xulosalar chiqarishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, quyidagi PISA topshirig'ini qaraymiz:

DEMOGRAFIK HOLAT

Demografik holat. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2021 yil 1 aprel viloyatdagi doimiy aholi holati berilgan.



Savol. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

2021-yil 1-yanvardan 2021-yil 1-aprelgacha demografik o'sish

2021-yil 1-aprel holatiga aholi soni	
Aholi soni qanchaga ortgan?	
Aholi soni necha foizga ortgan?	
2021-yil 1-aprel holatiga nisbatan tug'ilganlar necha foizni tashkil qiladi?	
2021-yil 1-aprel holatiga nisbatan vafot etganlar necha foizni tashkil qiladi?	
2021-yil 1-aprel holatiga nisbatan ko'chib kelganlar necha foizni tashkil qiladi?	
2021-yil 1-aprel holatiga nisbatan ko'chib ketganlar necha foizni tashkil qiladi?	

Ushbu masalani yechish orqali o'quvchilarda aholining demografik holati, uning o'sish dinamikasi, aholining xorijdan ko'chib kelish va xorijga ko'chib ketish dinamikasini tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Matematik fikrlash vaziyatlarni baholash, strategiyalarni tanlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, yechimlarni ishlab chiqish va tavsiflash hamda bu yechimlarni qanday qo'llash mumkinligini anglashini o'z ichiga oladi. Mantiqiy

134 mulohaza yuritish va dalillarni to'g'ri va ishonarli tarzda taqdim etish qobiliyatini o'quvchilarda shakllantirish muhimdir.

Matematik fikrlashning ikki jihati PISA tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega. Ulardan biri deduktiv fikrlash, bu matematik jarayonga xos xususiyatdir. Ikkinchi muhim jihati induktiv fikrlashdir. Mantiqiy darajada, hozirgi axborotlashgan jamiyatda odamlarning turmush tarzida mumkin bo'lgan va ehtimol (kutilishi mumkin bo'lgan) voqealar o'rtasidagi chalkashliklar tez-tez bo'lib turadi, bu ko'pchilikni soxta yangiliklar qurboni bo'lishiga olib keladi. Texnik nuqtayi nazardan, axborotlarning ko'pligidan bugungi dunyo tobora murakkablashib bormoqda va uning ko'p o'lchamlari teraboyt ma'lumotlar bilan ifodalanadi. O'quvchilarni ushbu ma'lumotlarning ma'nosini tushunish, to'g'ri baholashi, bunday ma'lumotlarning tabiati bilan tanishishlari hamda o'zgaruvchanlik va noaniqlik kontekstida ongli qarorlar qabul qilishga o'rgatish lozim. Bundan tashqari, o'quvchilarni matematik fikrlashga o'rgatish orqali matematik muammolarni hal qilish jarayonlarini bajarishda rag'batlantirish ularni bashorat qilish, realikka aks ettirish va tuzatish ko'nikmalarini mashq qilishga undaydi.

Vaziyatlarni matematik tarzda shakllantirish jarayonida o'quvchilar uni tahlil qilish va hal qilish uchun matematik bilimlaridan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanmog'i kerak. Ular muammoni real hayot muhitidan matematik tilga o'giradilar, muammodagi cheklovlar va taxminlar haqida mulohaza yuritadilar va ularni tushunadilar. Xususan, vaziyatlarni matematik tarzda shakllantirish jarayoni quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- real dunyodagi muammoning matematik jihatlarni aniqlash va muhim o'zgaruvchilarni aniqlash;
- muammo yoki vaziyatlarda matematik qonuniyatlar qo'llay olishi;
- vaziyat yoki muammoni soddalashtirish orqali matematik tahlil qilish;
- kontekstdan olingan har qanday matematik modellashtirish va soddalashtirishlar ortidagi cheklovlar va taxminlarni aniqlash;
- tegishli o'zgaruvchilar, belgilar, diagrammalar va standart modellardan foydalangan holda vaziyatni matematik tarzda ifodalash;
- masalani boshqa ko'rinishda ifodalash ya'ni berilgan rasm, grafik, jadval, diagrammalardan kerakli ma'lumotlarni olish va uni tahlil qilish;
- muammoning ma'lum matematik tushunchalar, faktlar bilan mos keladigan tomonlarini anglash;
- muammoga xos bo'lgan matematik munosabatni tasvirlash uchun massivlar orasidan

tanlash va eng samarali hisoblash vositalaridan foydalanish;

- muammolarni hal qilish uchun (bosqichma-bosqich) ko'rsatmalarning tartiblangan bosqichlarini amalga oshirish.

O'quvchilar muammoning yechimini topish uchun zarur bo'lgan matematik amallarni bajaradilar (masalan, arifmetik hisoblashlarni bajarish, tenglamalarni yechish, matematik taxminlardan mantiqiy xulosalar chiqarish, jadvallar va grafiklardan matematik ma'lumotlarni olish, fazoviy shakllarni ifodalash va ma'lumotlarni tahlil qilish)[4]. Ular muammoli vaziyat modeli ustida ishlaydi, qonuniyatlarni o'rnanadi, matematik tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlaydi va matematik dalillar yaratadi. Xususan, matematik tushunchalar, faktlar, amallar va mulohazalarni qo'llash jarayoni quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- oddiy hisoblashni bajarish;
- xulosa chiqarish;
- matematik yechimlarni topish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- aniq yoki taxminiy yechimlarni topishga yordam berish uchun matematik vositalardan, masalan, dasturiy vositalardan foydalanish;
- yechim topishda matematik qonuniyatlar, qoidalar, algoritmlarni qo'llash;
- matematik diagrammalar, grafiklar, chizmalardan matematik ma'lumotlarni ajratib olish;
- yechimlarni izlash jarayonida turli ko'rinishlardan foydalanish va o'zaro almashish;
- yechimlarni topishda matematik amallarni qo'llash, natijalariga ko'ra umumlashtirish;
- matematik dalillarni to'g'ri aks ettirish va matematik natijalarni tahlil qilish.

Matematik savodxonlikda qo'llaniladigan izohlash va baholash asosiy e'tiborini o'quvchilarning matematik yechimlar, natijalar yoki xulosalar ustida mulohaza yuritish va ularni real hayot muammosini izohlash qobiliyatiga qaratadi[5].

Matematik natijalarni izohlash, qo'llash va baholash jarayoni quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi:

- grafik, diagramma, jadval va chizmalarda keltirilgan ma'lumotlarni izohlash;
- muammo yuzasidan olingan matematik natijani baholash;
- matematik natijani real hayot kontekstiga o'girish;
- real hayotdagi muammoning matematik yechimining asosligini baholash;
- olingan natijalarni qanday tuzatish yoki qo'llash kerakligi to'g'risida xulosalar chiqarish

uchun matematik amal yoki modelning natijalari va hisob-kitoblariga real hayotdagi rolini tushunish;

• muammoni hal qilishda foydalaniladigan modelini tahlil qilish va chegaralarini aniqlash;

• olingan yechimlarni sinab ko'rish va solishtirish uchun matematik fikrlash va hisoblash tafakkuridan foydalanish.

Masalan, quyidagi PISA masalasini qaraylik:

OLMA SAVDOSI



OLMA SAVDOSI. Ali va Vali bozorda olma sotish uchun bog'bondan har bir kilosini 4000 so'mdan olma sotib oldi. Quyidagi jadvalda ularning sotib olgan olma miqdori va harajatlari berilgan.

No	Ismi	Bog'dan sotib olgan olma miqdori	Yo'lkira harajat	Bozor rastasi pattasiga to'lov	Bir martalik tushlik narxi
1	Ali	500 kg	200000 so'm	5000 so'm	24000 so'm
2	Vali	700 kg	240000 so'm	6000 so'm	24000 so'm

1-savol. Agar ular barcha olmani bozor rastasiga kiritmasdan, ulgurji (barchasi birdan) savdo orqali 5000 so'mdan sotishsa, Ali va Valining qilgan daromadini aniqlang.

Javob: Alining daromadi _____ so'm.

Valining daromadi _____ so'm.

2-savol. Agar ular barcha olmani bozor rastasiga kiritib, Ali 1 kunda va Vali 2 kunda 5500 so'mdan sotishsa, Ali va Valining olma savdosidan qilgan daromadini aniqlang.

Javob: Alining daromadi _____ so'm.

Valining daromadi _____ so'm.

3-savol. Agar ular barcha olmani bozor rastasiga kiritib, har ikkalasi ham bir kunda sotib bo'lishadi. Ali barcha olmalarni 5400 so'mdan sotadi. Vali esa olmalarni katta va kichik olmalarni alohida qilib ajratib chiqdi, katta olmalar jami olmalarning $\frac{3}{5}$ qismini tashkil qiladi hamda katta olmalarni 6000 so'mdan, maydalarini 4300 so'mdan sotdi. Shunga ko'ra Ali va Valining olma savdosidan qilgan daromadini aniqlang. (Javobingizni asoslang)

Javob: Alining daromadi _____ so'm.

Valining daromadi _____ so'm.

Bu masalada qiyinlik darajasi ortib borgan. Masalada berilgan jadvaldan foydalanib har bir masala uchun kerakli ma'lumotlarni olish lozim. 1-savoldagi masalani yechishda Ali va Valining harajatlari olmani sotib olish narxi va yo'lkira narxi hisoblanadi. 2-savoldagi masalada Alining harajati

olmani sotib olish narxi, yo'lkira haqi, bir kunlik rasta pattasi, bir kunlik tushlik narxi, Valining xarajatlari olmani sotib olish narxi, yo'lkira haqi, ikki kunlik rasta pattasi, ikki kunlik tushlik narxi hisoblanadi. 3-savoldagi masalada Valining olmaning ikki qismga ajratib har birining miqdori va har biridan belgilangan masalaga mos daromadi hisoblanadi hamda yuqoridagi kabi olmani sotib olish narxi va yo'lkira narxi, bir kunlik bozor rastasi pattasi hamda tushlik narxi ayrilib, ularning olma savdosidan olgan daromadi hisoblanadi. Bunday masalalar o'quvchilarda matematik fikrlash, natijalarni izohlash va olingan natijalarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokamalar va natijalar. PISA standartlari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot Respublika ta'limining kuchli va zaif tomonlari to'g'risida xulosa chiqarishga, Respublikamiz ta'limining raqobatbardoshligini oshirish uchun qaysi yo'nalishda rivojlanishi kerakligini ko'rishga imkon beradi. PISA tadqiqotlarida yuqori natijalarga o'quvchilar matematik savodxonligini oshirish orqali erishish mumkin deb hisoblayman. Boshqa tomondan, biz o'zbek ta'limi an'alarida mavjud bo'lgan eng yaxshisini saqlab qolishimiz, rivojlantirishimiz, xalqaro tadqiqot me'zonlarini davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari mazmuniga singdirish lozim.

Xulosa. Ushbu o'qitish metodikasi bo'yicha natijalarga erishishning samarali vositalaridan biri PISA xalqaro tadqiqotida o'quvchilar matematik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning matematik savodxonlik qobiliyati ularning matematikani tushunishi, uni kundalik

136 hayotda qoʻllay olishi, real hayotda matematikaning roli haqida asosli xulosalar chiqarishi, oila va jamiyatdagi hozirgi va kelajakdagi shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayoti, shuningdek, ijodkor, qiziquvchan va ravon fikrlovchi shaxs sifatida rivojlanishi uchun zarurdir.

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 997-sonli qarori.
2. Кагазбаева А.К. Методика конструирования тестовых заданий по математике в контексте с международными исследованиями PISA. Методическое пособие. -Актобе: ред.-изд.отдел филиала АО НЦПК “Өрлеу”, 2015. -120 с.
3. Ковалева Г.С., Красновский Э. А., Краснокупитская Л. П., Краснянская К. А. Международная программа PISA. Примеры заданий по чтению, математике и естествознанию. Центр оценки качества образования ИОСО РАО.Москва, 2000 г. -99 ст.
4. Parmanov A.A. Matematika fanidan PISA xalqaro tadqiqotlari natijadorligini oshirishda malaka oshirish kurslarining oʻrni. Innovative approach to the system of teacher training: international experience and future strategies. –Guliston, 2022-yil.
5. Ronfeldt, M., S. Owens Farmer, K. McQueen and J. A. Grissom (2015), “Teacher Collaboration in Instructional Teams and Student Achievement”, American Educational Research Journal, Vol. 52 (3), pp. 475-514.

INTERAKTIV INTELLEKTUAL ELEKTRON TA'LIM RESURSINI YARATISH JARAYONINI MODELLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Ushbu tadqiqotning maqsadi oliy o'quv yurtlarida kadrlarni tayyorlashda interaktiv intellektual elektron ta'lim resursi yaratish, veb va axborot texnologiyalari asosida ta'limning axborotlashuvi jarayonlariga sun'iy intellektni keng tatbiq etish orqali ta'lim sifatini oshirish. Elektron ta'lim resursi interaktiv bo'lishi va talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilishi kerak. Tadqiqot metodlari amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlarni qiyinchilik darajasiga nisbatan masalani quyi pag'onadagi bo'laklarga ajratish orqali talabaning qo'yilgan masala mohiyatini anglatishdan iborat. Tadqiqot natijalari elektron ta'lim jarayoniga sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yutug'i shundaki, talabaning bo'sh vaqtida mustaqil o'rganish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: elektron pedagogika, e-learning, interaktiv, intellektual, AI, sun'iy intellekt, topshiriqlarni differentsiallashtirish, topshiriqlarni integrallashtirish.

Целью данного исследования является создание интерактивного интеллектуального электронного учебного ресурса при подготовке кадров в высшей школе, повышение качества образования за счет широкого использования искусственного интеллекта в информатизации образования на основе сети и информационных технологий. Электронный образовательный ресурс должен быть интерактивным и активно вовлекать учащихся в учебный процесс. Методы исследования заключаются в выражении сути проблемы, поставленной студентом, путем разделения проблемы на части более низкого уровня по отношению к уровню сложности практических занятий и самостоятельных учебных задач. Результаты исследования показывают, что главным достижением применения искусственного интеллекта в процессе электронного обучения является то, что он позволяет обучающемуся заниматься самостоятельно в свободное время.

Ключевые слова: электронная педагогика, электронное обучение, интерактивное, интеллектуальное, AI, искусственный интеллект, дифференциация задач, интеграция задач.

The purpose of this study is to create an interactive intellectual e-learning resource in the training of personnel in higher education, to improve the quality of education through the widespread use of artificial intelligence in the informatization of education based on the web and information technology. An e-learning resource should be interactive and actively engage students in the learning process. Research methods consist of expressing the essence of the problem posed by the student by dividing the problem into lower-level sections in relation to the level of difficulty of practical training and independent learning tasks. The results of the research show that the main achievement of the application of artificial intelligence in the e-learning process is that it allows the student to study independently in his spare time.

Key words: electronic pedagogy, e-learning, interactive, intellectual, AI, artificial intelligence, task differentiation, task integration.

Kirish. Jahonning rivojlangan davlatlarida axborot texnologiyalari asosida ta'limning axborotlashuvi jarayonlariga sun'iy intellektni tatbiq etish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. AI (sun'iy intellekt) - bu bizning ijtimoiy munosabatlarimizning barcha jihatlarini o'zgartirishga qodir bo'lgan jadal rivojlanayotgan texnologik sohadir. Ta'lim sohasida sun'iy intellekt asosida o'qitish va o'rganish yechimlarini ishlab chiqarishni boshladi, ular hozir turli kontekstlarda sinovdan o'tkazilmoqda. Sun'iy intellekt ilg'or infratuzilmalar va rivojlanayotgan innovatorlarni talab qiladi. Raqamli va ijtimoiy tafovutni kamaytirish uchun imkon qadar tezroq hal qilish uchun sun'iy intellekt ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Ta'lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida doimiy takomillashtirish bo'yicha yirik loyihalarni

amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayoniga interaktiv intellektual dasturiy vositalar, masofaviy ta'lim shakllarini keng tatbiq etish, ochiq ta'lim resurslari, aralash ta'lim (online, offline) texnologiyalarini rivojlantirishda intellektual elektron ta'lim resurslaridan foydalanish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Elektron ta'lim jarayoniga sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yutug'i shundaki, talabalarining texnikaga savol berib undan javob olishidir. Talabalar ba'zan auditoriyada savol bermaslikka harakat qilishadi, chunki tengdoshlari gaplarini rad etishdan qo'rqishadi. Shu sababli ta'limda interaktiv intellektual dasturiy vositalar joriy etgan holda elektron ta'limdan foydalanishga asoslangan

138 talabalarning ta'lim faoliyatini individuallashtirishga bo'lgan yondashuvlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bo'lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida texnika fanlarni o'qitish uchun ta'lim xizmatlarni vizuallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutug'larini tadbiq etish orqali ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, tahliliy natijalarni umumlashtirish hamda xulosalash mexanizmlarining amaliyoti alohida o'rin tutadi.

Mashina o'qituvchi bo'lishi uchun sun'iy intellekt boshqa aqlli vazifalarga qaraganda ancha rivojlangan bo'lishi kerak. Ilg'or texnologiyalar bizga elektron o'quv materiallarini sifatli tayyorlash uchun imkon beradi. Sifatli elektron o'quv materiallarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar hajmi shunchalik kattaki, bizda hali ham yuqori sifatli elektron o'quv materialari yetishmayapti. Keyinchalik takomillashtirilgan bu ta'lim dasturiy ta'minoti masalasi va mavjud elektron o'quv materiallarini ko'rib chiqish va tahlil qilishdan kelib chiqqan holda, ularning aksariyati dasturlashtirilgan o'quv resurslari hisoblanadi.

1950-yillarda olimlar ta'limda sun'iy intellekt yechimlarini o'rganishni boshladilar. Tizim qachon "aqlli" deb hisoblanadigan muammoning birinchi yechimi Turing tomonidan taklif qilingan (Russell & Norvig, 2010). U simulyatsiya qilingan o'yinni inson tinglovchisining mashina va boshqa odam bilan suhbatni farqlash qobiliyatini sinab ko'rishni taklif qildi; agar tizim bu farqni aniqlay olmasa, biz ta'limda sun'iy intellekt (AI) borligini tan olamiz.

1956 yilgi Dartmut konferensiyasida sun'iy intellekt (AI) sohasi haqidagi fikrlar yuritilgan. Yaqin tarixdagi bir nechta texnologik ishlanmalar AIning rivojlanishiga olib keldi. AI qariyb 60 yildan beri mavjud bo'lsa-da, so'nggi yillardagi keskin o'zgarishlar ("katta sakrash" deb ataladi) tufayli ma'lumotlarning ko'pligi (katta ma'lumotlar), iqtisodiy foydalanish imkoniyatini ta'minlaganligi sababli u yaqin vaqtgacha ishlatilmayotgan texnologiya bo'lib qoldi.

Keyinchalik 1956-yilda Jon Makkarti ta'limda sun'iy intellektning eng keng qamrovli ta'riflarini taklif qildi: "AI - o'rganishning har bir jihati yoki aqlning boshqa har qanday xususiyati aniq mashina yoki dasturning xususiyatini tasvirlash mumkin degan taxminning asosidir; tizim ko'rsatadigan aql" (Kerr, 2017).

Ta'limda sun'iy intellektning asosiy ta'rifi mavjud adabiyotlarda o'tgan tadqiqotlarni qayta ko'rib chiqishga asoslangan (Dacre Pool & Qualter, 2012). Ta'limda sun'iy intellekt (AI) o'rganish, moslashtirish, sintez qilish, o'z-o'zini tuzatish va murakkab ishlov berish vazifalari uchun ma'lumotlardan foydalanish kabi insonga o'xshash

jarayonlarni amalga oshiradigan hisoblash tizimlari sifatida ta'riflanadi.

Ta'limda sun'iy intellekt hozirda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu allaqachon oliy ta'limdagi xizmatlarning chuqur tabiatiga ta'sir qilmoqda. Ta'limda sun'iy intellektning ba'zi yechimlari dasturlashga juda bog'liq, ammo bu yechimlarning ba'zilari ajralmas xususiyatga ega.

Muhokamalar va natijalar. Ushbu ilmiy metodni, bizning tadqiqotimiz uchun qo'llashning dolzarbligi shundan iboratki, model nazariya va voqeylik o'rtasidagi bo'g'in rovida ishtirok etish mumkin. Bundan tashqari modelni oldindan yaratish konseptual g'oyalarni ko'rgazmali shaklda taqdim etish va resursni yaratish jarayoni barcha ishtirokchilarining (o'qituvchilar, mutaxassislar, dasturiy taminot ishlab chiquvchilar) o'zaro bir-birini tushunishlariga yordam beradi.

Modellashtirish esa pedagogik loyihalashning eng muhim bosqichi bo'lib, unda nima bo'lishi kerak bo'lsa, shu haqida eng qisqa tafsilotni anglash faoliyati tushuniladi.

Interaktiv elektron ta'lim resurs modelini ishlab chiqishda o'qitish maqsadi va ta'lim tamoyillari, ta'limga yondashuv kabi tayanch tushunchalarga tayanildi.

Algoritmik tillar va dasturlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bo'yicha faoliyat metodikada belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ta'lim vositalari (ularning qatoriga bizning tadqiqotimizda ko'rib chiqilayotgan elektron ta'lim resurs ham kiradi) ta'lim oluvchi (talaba) bajaradigan barcha harakatlar "Algoritmik tillar va dasturlash" o'quv kursini o'qitishda ko'zda tutilgan maqsadga erishishga yordam beradigan tarzda konstruksiyalanishi kerak [1].

Dasturlash tili buyruqlarini o'rganish jarayonida elektron ta'lim resursning tarbiyaviy ta'siri quydagilar yordamida amalga oshiriladi: o'quv materiallarning mazmuni: ta'lim oluvchilar mustaqilligini rag'batlantirishi. Buning uchun esa, elektron ta'lim resurs tarkibiga kiritiladigan materiallar shunday tarzda tanlab olinadiki, ta'lim oluvchining topshiriqlar bilan ishlashning nafaqat eng optimal ish strategiyalari va taktiklariga o'rgatish, balki har bir buyruqning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlarni taqdim etadi.

Elektron ta'lim resurs ta'lim oluvchilarning mustaqil ishini rag'batlantirishning samarali vositasi hisoblanadi, chunki ularga zarur bo'lgan materiallarni nafaqat taqdim etadi, balki ular bilan interaktiv rejimda zarur ish usullarini egallashga yordam beradi. Elektron ta'lim resurs har bir ta'lim oluvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni aniqlash va ushbu xatolar yo'l qo'yilgan topshiriq tiplarini bajarishning eng optimal va samarali

usullarini egallashga yordam beradigan tarzda ishlab chiqilgan [3].



1-rasm. Topshiriqni bo'laklarga ajratish jarayoni

Yuqoridagi 1-rasmda talabaga topshiriqlarni qadamma-qadam bo'laklab berish jarayonining modeli tasvirlangan. Bunda berilgan topshiriqni ta'lim oluvchining bajara olishiga qarab, n ta bo'laklarga ajratiladi O'qitish tamoyillari – bu


boshlang'ich qoidalar bo'lib, ular birgalikda o'quv jarayoni va uning tarkibiy qismlariga bo'lgan talablarni ya'ni, maqsadlar, vazifalar, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar, o'qitish jarayoni belgilaydi.




2-rasm. Topshiriqni bo'laklarga ajratadi va nihoyat yechimini taqdim etadi

Yangi avlod ta'lim vositalari sifatida elektron ta'lim resurs modelini ishlab chiqish asosiy didaktik, psixologik va o'qitishning shaxsiy metodologik tamoyillariga, shuningdek elektron

pedagogika tamoyillariga asoslanadi [1]. Yechim ham talabaga keyingi topshiriqlarni bajarish yoki yuqori qadamdagi bo'lakni mazmun mohiyatini anglashga ko'mak beradi.



3-rasm. Topshiriqni bo'laklarga ajratadi va natijalar birlashtiriladi



4-rasm. Topshiriqlarni bo'laklarga ajratib, natijani jamlash algoritmi

Bundan tashqari, elektron ta'lim resurs tarkibiga kiritilgan qiziqarli va dolzarb axborotni o'z ichiga olgan fan bo'yicha o'quv materiallari ta'lim oluvchining motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Resursning o'quv materiallarini tez va katta moddiy xarajatsiz yangilash va tuzatish imkoniyati, ta'lim oluvchiga taklif etiladigan topshiriq materiallari doim dolzarb bo'lishini kafolatlaydi. Resursning elektron shakli, uning rasmiylashtirilishi, multimediali ma'lumot mavjudligi, zamonaviy shaxsning taraqqiyot fan va texnika yutuqlari haqidagi tasavvurlariga mosligi, istalgan qulay vaqtda va qulay joyda foydalanish, shuningdek bosma shakldagi o'quv materiallarini xarid qilib olishni tejash imkonini beradi.

Ta'lim oluvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish tamoyili elektron ta'lim resursda quyidagi tarzda amalga oshiriladi: dastur chiziqli bo'lmagan ko'rinishda tashkil etilgan, topshiriqlar to'plami va tarkibi, ma'lumotnomali axborot, mashq qilish davomida ta'lim oluvchiga beriladigan maslaxatlarning muvaffaqiyatlilik va bajarish tezligiga bog'liq ravishda farqlanadi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda olingan natijalar samaradorligini aniqlash maqsadida talabalarga kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholashda oliy ta'lim muassasalarida nazorat guruhlarida erishilgan natijalar bir-biri bilan taqqoslandi. Nazorat guruhlarida o'qitish jarayoni amaldagi an'anaviy o'qitish asosida amalga oshirilgan bo'lsa, tajriba-sinov guruhlarida biz taklif etgan elektron ta'lim resursdan foydalangan holda masofaviy o'qitish asosida o'tkazildi.

Biz taklif etgan "Algoritmik tillar va dasturlash" majburiy fani bo'yicha o'qitish jarayonini elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etish natijasida o'qitishda ta'lim samaradorligining oshishini kuzatdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ilmiy tadqiqotimizda ilgari surilgan farazimizning nechog'lik to'g'ri ekanligini isbotlashdan iborat edi.

Tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo'lgan hollarda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etilib borildi.

№	Talaba soni	Birinchi qadamda bajargan talabalar	Topshiriqni bo'laklash natijasida	Ko'rsatma yordamida bajarganlar	Topshiriqni umuman bajara olmaganlar
1	28	5	18	4	1
2	27	7	15	3	2
3	29	6	19	4	0
4	28	9	12	6	1

5	26	6	17	3	0
6	27	3	20	3	1
7	17	8	6	1	2
8	16	2	8	5	1
	198	46	115	29	8
	100%	23,2 %	58 %	14,6	4,2 %

1-jadval. Talabalarni topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari

Talabalarni topshiriqlarni birinchi qadamda tushunishlari bir muncha qiyin hisoblanadi. Tajribada jami 198 nafar 1-kurs talabalar ishtirok etdi. Jadvalimizda ko'rsatilganidek birinchi qadamda bajargan talabalar jami 46 tani yani 23,2 % ni tashkil etadi. Bu degani talabalar an'anaviy darsda ko'pi bilan 30 % talaba o'zlashtirishi mumkin. Mustaqil o'rganish orqali bu ko'rsatkichni oshirishimiz mumkin bo'ladi. Har bir talaba bilan aloxida shug'ullanishning imkoni bo'lmaydi. Bu masalaning echimi elektron ta'lim resurslari orqali qamrovni oshirishimiz mumkin bo'ladi. Topshiriqni bo'laklash natijasida 115 nafar talaba topshiriqni bajara oldi. Shunda topshiriq bajargan talabalar 161 nafarga yetdi. Bu 81,2 % ni tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu interaktiv intellektual elektron ta'lim resursi sun'iy intellektga asoslangan bo'lib, talaba toki o'rganmaguncha keyingi topshiriqqa o'tmaydi. Topshiriq darajasini pasaytirib bo'laklarga ajratib bo'laklarni taqdim etaveradi. Har bir bo'lak ishlanganda uning natijasini saqlab, parallel bo'lakni ishlashga imkon beradi. Parallel bo'laklar natijalari olingandan so'ng yaxlit topshiriq qayta

taqdim etiladi va natija olinadi. Bunday jarayon ko'p vaqt talab etishi mumkin, lekin avtomatik tarzda n ta talaba parallel ishlashi mumkin. Shu bois vaqt va samaradorlik yuqori bo'ladi. Dars jarayonida talaba auditoriyada savol berishiga imkon bo'lmashligi mumkin, lekin elektron ta'lim resursidan qayta qayta so'rashi va o'rganishi mumkin. Muammoga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, insonda ijodkorlikni shakllantirish tarbiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois oliy ta'limi muassasalari talabalarini mustaqil ta'lim olishida mutahassislik ijodiyotini rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Interaktiv intellektual elektron ta'lim resursidan foydalanganda talabaning mustaqil fikrlash doirasi keskin o'zgaradi. Sun'iy intellekt ta'limga qo'llanganda talabalarining eng yaxshi natijaga erishish uchun birgalikda ishlaydigan virtual o'qituvchisi hisoblanadi. Ta'limni individual talabaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish o'qituvchilar uchun yillar davomida ustuvor vazifa bo'lib kelgan, ammo AI har bir guruhda 20-30 nafar talabalarni boshqarish imkonini va differensiallik darajasini beradi.

Adabiyotlar

1. Туракулов О.Х., Савурбаев А, Эшанкулов Б. С. Территориально распределённая информационно-образовательная среда и методы оценки её электронно-образовательной ресурсной базы. Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума. Москва 2019. 124-131 с.
2. Kayumov O.A., Interaktiv intellektual elektron ta'lim resursini sun'iy intellekt yordamida yaratish. O'zMU XABARLARI, 1/4 2022, 96-100 betlar.
3. Achilovich, Q. O. (2021). Efficiency of Using Smart Technologies in Teaching Technical Sciences in Higher Educational Institutions. Middle European Scientific Bulletin, 17, 133-137.
4. Pozilova Sh., Mirsaliyeva M., Kayumov O. International Conference on Education and Training Technologies. Development of professional creativity of professional teachers in professional courses on the basis of e-pedagogy principle. 2022 Macau, China.
5. Kayumov, O. (2021). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF DEVELOPMENT AND INTRODUCTION OF INNOVATIVE METHODS IN INCLUSIVE EDUCATION. Scienceweb academic papers collection.

Olim JO'RAYEV

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
 axborot-kommunikatsiya
 texnologiyalari kafedrasida assistenti
 E-mail: olimjuraev234@gmail.com

TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIALI O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Maqolada multimedial o'qitish tushunchasi va uning vositalaridan foydalanish tamoyillari tahlil qilingan. Multimedial elektron ta'lim resursi tarkibida interaktiv elementlarni qo'llashning ba'zi jihatlari ko'rib chiqilgan. "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha yaratilgan elektron ta'lim resursidan foydalanish yo'llari yoritilgan. Oliy ta'lim talabalari uchun elektron o'quv kursi va uning tarkibida interaktiv elementlar yaratilgan.

Kalit so'zlar: multimedial o'qitish, elektron ta'lim, media format, interaktiv, vizual, masofaviy o'qitish.

В статье анализируется понятие мультимедийного обучения и принципы использования его инструментов. Обсуждаются некоторые аспекты использования интерактивных элементов в мультимедийном электронном учебном ресурсе. Описаны способы использования электронного учебного ресурса, созданного по предмету «Информационные технологии в технических системах». Создан курс электронного обучения для студентов высших учебных заведений и интерактивные элементы.

Ключевые слова: мультимедийное обучение, электронное обучение, медиаформат, интерактивное, визуальное, дистанционное обучение.

The article analyzes the concept of multimedia learning and the principles of using its tools. Some aspects of the use of interactive elements in a multimedia electronic educational resource are discussed. The ways of using the electronic educational resource created on the subject "Information technologies in technical systems" are described. Created an e-learning course for university students and interactive elements.

Key words: multimedia learning, e-learning, media format, interactive, visual, distance learning.

Kirish. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dasturiy-metodik ta'minoti, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, shuningdek, professor-o'qituvchilarning malakasini majburiy oshirish zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish istiqbolini ko'rmoqda.

Asosiy qism. Multimedia - zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Vizual va eshitish orqali kirish Multimedia odatda bir vaqtning o'zida bir nechta media formatlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, ammo ma'lumotni seriyaliroq taqdim etish orqali yanada samaraliroq ta'limga erishish mumkinligi bahsli. An'anaga ko'ra, multimedia dizaynining asosiy yo'nalishi "ko'p"ga qaratilgan bo'lib, natijada ma'lumotlar turli formatlarda taqdim etiladi. Integratsiyalashgan modeldan ko'rinib turibdiki, vizual va eshitish kiritish o'rtasida bevosita axborot oqimlari mavjud.

Ijodiy sanoat ijodkorlik, analitik yondashuv va texnologik ko'nikmalarni talab qiladigan har qanday faoliyat turiga teng ravishda jalb qilinishi mumkin. Multimedia texnologiyalarini bilgan

mutaxassis butun faoliyati davomida ijodning istalgan sohasida o'zini sinab ko'rishi mumkin.

Reklama biznesi ham an'anaviy multimedia texnologiyalari (televidenie), ham yangilarini - Internetni o'z ichiga oladi. Iste'molchilar e'tiborini jalb qilish uchun tashqi reklamada aql bovar qilmaydigan kombinatsiyalar qo'llaniladi. Sanoat, biznes va ofis ichidagi aloqalar odatda zamonaviy multimedia taqdimotlarini ishlab chiqadigan ijodiy xizmatlar tomonidan ishlab chiqilgan.

O'yin-kulgi va tasviriy san'at filmlar va kompyuter o'yinlarini yaratish uchun maxsus effektlar va animatsiyadan foydalanadi. O'yin-kulgi va san'at shu qadar chambarchas bog'langanki, yangi janr - video o'yinlar paydo bo'ldi. Virtual haqiqat moddiy voqelik bilan birga mavjud bo'lib, hodisalar va ranglar bo'yicha ikkinchisidan ustun turadi [4].

Multimedia texnologiyalari turli maqsadlar uchun avtomobillar va mashinalarni loyihalashda faol ishtirok etmoqda. Zamonaviy muhandis SAPR (Kompyuter yordamidagi dizayn) yoki CAE (Computer Aided Engineering) bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu texnologiyalar mahsulotni bir vaqtning o'zida turli burchaklardan ko'rish imkonini beradi, bu esa tahlil va kamchiliklarni bartaraf etishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Multimedia eng murakkab texnologik operatsiyalarni taqlid qilishda ajoyib ishni bajaradi. Virtual treningdan o'tgan

haydovchilar va uchuvchilar osongina haqiqiy transport boshqaruviga o'tishlari mumkin. Bu yerda multimediadan maktab kompyuter kurslari, elektron almanaxlar va ensiklopediyalar yaratish uchun foydalaniladi. Talabalar taqdimotlar va tasvirlangan amaliy tadqiqotlarni turli formatlarda ko'rishlari mumkin. O'quv o'yinlarining yangi usullari maktab o'quv dasturlari va o'quv markazlarini to'ldiradi. Sof amaliy bilimlar uchun o'quv o'yini har qanday nazariyadan yaxshiroqdir.

Multimedia materialini yaratish har xil tarkib formatlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Agar chiroyli tuzilgan matn asosiy ma'lumotlarni yetkazsa, unda fotosuratlar, audio, video, infografika va boshqa komponentlar maqolada tasvirlangan voqea muhitiga o'quvchini jalb qilish imkonini beradi. Odamlar obrazlarni tasavvur qilishadi va siz bu obrazlarni ko'rsatishingiz kerak.

Umuman olganda, materialga turli xil tarkibiy qismlarni joylashtirish uchun ko'plab imkoniyatlarning mavjudligi ularni barcha maqolalarda doimiy ravishda ishlatilishini anglatmaydi. Bunday vaziyatda, asosiy narsa haddan oshmaslikdir. Savolni amaliy tomondan ko'rib chiqing va hikoyangizning mazmunini yetkazishga va o'quvchini tasvirlangan voqealar muhitiga solishga imkon beradigan vaziyatdagina infografiyalardan foydalaning. Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi o'quvchiga kerakli his-tuyg'ularni uyg'otishi va uni sizning hikoyangiz qahramonlari bilan hamdard bo'lishga undashi va materialni o'qishiga to'stinlik qilmasligi kerak. Multimedia materiallarini yaratish uchun turli xil vositalar soni va imkoniyatlarining o'sishi bilan ulardan foydalanishning dolzarbligi va keraklik darajasi masalasi ochiq qolmoqda.

Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari aniq afzalliklar bilan tavsiflanadi:

- bilimlarni o'zgaruvchan egallash usullarini nozik sozlash;
- individual shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish;
- o'quv jarayonlarida faol ishtirok etish.

Texnologiyalari hamma joyda faol joriy etilayotgan multimediali o'qitish usullari o'qitish modelini ham o'zgartirdi.

Talabani standart ma'ruzadagi kabi materialdan chalg'itish imkoniyati yo'q. Endi u muammolarni hal qiladi, texnika bilan bevosita hamkorlik qiladi va o'qituvchi uni faqat kerak bo'lganda qo'llab-quvvatlaydi. Shunga ko'ra, baholash samaradorligi oshadi: kompyuterni

"aldash" qiyinroq va buning usullari mavzuni ancha chuqurroq bilishni talab qiladi, bu allaqachon o'z-o'zidan natijadir.

Multimedia texnologiyalarini qo'llash quyidagilarga bo'linadi:

- umumiy yoki individual foydalanish;
- professionallar yoki oddiy iste'molchi uchun;
- interaktiv va interaktiv bo'lmagan foydalanish uchun;
- ma'lumotdan mahalliy yoki masofadan foydalanish.


Multimediali o'qitish texnologiyalari o'quv jarayonini boyitadi, o'quv ma'lumotlarini idrok etish jarayonida o'quvchining aksariyat hissiy komponentlarini jalb qilgan holda o'rganishni yanada samarali qiladi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi dasturiy va metodik ta'minotni takomillashtirish, moddiy baza, shuningdek, o'qituvchi mutaxassislar malakasini oshirishni talab etadi. Multimedia vositalari pedagog-kadrlarining malakasini va mahoratini yanada oshirishlarida ham muhim ahamiyatga molikdir [2].

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki:

- o'quvchilarning mehnatga qiziqishi va faolligi keskin oshadi;
- fikrlashning algoritmik uslubi rivojlanadi, optimal qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan harakat qilish qobiliyati shakllanadi;
- o'qituvchi muntazam ishlarning massasidan ozod qilinadi, olingan natijalar asosida ijodiy faoliyat uchun imkoniyat ta'minlanadi.

Multimedia orqali o'rganishda miya bir vaqtning o'zida ikki xil ma'lumotni kodlashi kerak: vizual va eshitish. Taxmin qilish mumkinki, bu raqobatdosh ma'lumot manbalari talabani to'ldirishga yoki "yuklashga" moyil bo'ladi. Biroq, psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, og'zaki ma'lumotlar vizual rasm bilan birga bo'lsa, aslida yaxshiroq eslab qoladi. 1974 yilda Baddeley va Hitch ikki katta, mustaqil komponentlar, odatda parallel ishlaydigan xotirani ish nazariyasini taklif - biri vizual va boshqa og'zaki (yoki akustik) hisoblanadi, qaysi bizga beradi bir vaqtning o'zida ko'zlarimiz va quloqlarimizdan ma'lumotlarni qayta ishlash [3]. Bu aralastirilgan ta'lim o'quvchini haddan tashqari oshirib yuborishi yoki haddan tashqari ko'tarishi shart emas, lekin haqiqatan ham foydali bo'lishi mumkin.



Og'zaki va vizual tarzda taqdim etilgan narsalar yaxshiroq esda qolishi haqiqati, birinchi marta Allan Paivio tomonidan taklif qilingan va keyinchalik Richard Meier va uning sheriklari tomonidan multimediada qo'llanilgan ikki tomonlama kodlash nazariyasida o'z aksini topgan. Bir qator tadqiqotlar orqali Meyer va uning hamkasblari multimediada ikkilamchi kodlash nazariyasini sinab ko'rdilar. Ular ketma-ket hikoya qilish bilan animatsiyani o'z ichiga olgan [1].

Multimediani o'rganayotgan talabalar animatsiya elementlari va matnni alohida o'rganadigan multimediani o'rganayotganlarga qaraganda mavzularni yaxshiroq yetkazishlarini bir necha bor ko'rsatdi. Ya'ni, monomedik emas (faqat vizual o'rganish) emas, balki multimedia kursida o'rgananlarini qo'llash vaqti kelganida ular sezilarli darajada yaxshiroq edi. Keyinchalik bu

natijalar boshqa tadqiqot guruhlarini tomonidan tasdiqlandi. Dastlab, ushbu multimedia ta'lim tadqiqotlarining ta'lim mazmuni avtomobil tormozlari, velosiped nasosining printsipi yoki bulut hosil bo'lish jarayoni kabi sabablarga asoslangan tizimlarga asoslangan mantiqiy ilmiy jarayonlar bilan chegaralangan. Ammo vaqt o'tishi bilan modallikning ta'siri boshqa sohalariga ham tarqalishi mumkinligi aniqlandi va bular sababiy tizimlar bo'lishi shart emas [3].

Ma'lumot vizual va og'zaki (hikoya) bo'lishi mumkin va kodlanishi kerak. Agar ma'lumot og'zaki kodlangan bo'lsa, bu o'quvchiga kognitiv yukni kamaytiradi va u unga keladigan ma'lumotni yaxshiroq engishi mumkin. O'shandan beri Meyer buni "Modaliy effect" yoki Modallik printsipi (multimediali o'rganishning kognitiv nazariyasining tamoyillaridan biri) deb ataydi.

Muhokamalar va natijalar. Oliy ta'lim talabalari o'quv jarayonida elektron ta'lim va an'anaviy ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki talabalar juda katta vaqti mosofadan turib ta'lim olishga qaratilgan bo'lib, jarayonni samarali

tashkil etishda sifatli elektron ta'lim resursi katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun Buxoro muhandislik-texnologiya institutining NGI ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yaratilgan "Axborot texnologiyalari fanidan multimediali electron ta'lim resursini"ni keltirishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha elektron ta'lim resursining ekran ko'rinishi-bosh sahifa

Multimediali o'qitish o'quv kursi asosiy tarkibiy qismida interaktiv elementlardan foydalanilganligi talabalar va o'qituvchilar orasidagi muloqotni yanada faollashtiradi va


intensivlikni oshiradi. Multimediali elektron ta'lim resursi tarkibida interaktiv elementlarni qo'llashning ba'zi jihatlarini ko'rib chiqamiz (2,3-rasm).



2-rasm. "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha elektron ta'lim resursining laboratoriya ishlarini ekran ko'rinishi

O'quv multimedia vositalarini yaratish texnologiyasi deganda algoritmik retseptlar ketma-ketligi, ularning natijasi turli darajadagi interaktivlikka ega bo'lgan va o'quv quroli vazifasini bajaradigan obyektlarni ishlab chiqish tushuniladi. O'quv multimedia vositalarini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar

bilan ko'plab olimlar shug'ullangan bo'lsada, ularni yaratish bosqichlarining soni va mazmuni: loyihalash, ishlab chiqish, amalga oshirish to'g'risida umumiy fikr bildirishgan. Lekin bu bosqichlar mazmunini ochishda mualliflar multimediali o'quv vositalarining interaktivlik xususiyatlarini to'liq hisobga olinmagan.



3-rasm. "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha elektron ta'lim resursining amaliy mashg'ulotlari ekran ko'rinishi

- 146 **Xulosa** qilib aytganda, bugungi kunda multimediali o'qitish texnologiyalari ta'lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish talabalar va tinglovchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shuning uchun ham bugungi kun o'qituvchisi tinimsiz o'z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg'or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan shaxs sifatida o'z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo'lishi davr talabidir.

Adabiyotlar

1. Mayer R. E., R. Moreno. A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principles (1998).
2. Asrayev Z.R. (2020). LMS Moodle dan foydalanib "Amaliy mexanika" kursini o'qitishda talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtirish [Activation of students self-development in teaching the course "Applied mechanics" using LMS Moodle]. Academic Research in Educational Sciences, 1 (4), pp. 114-123.
3. Zhuraev O.I., Ismoilov A.O. Movement of particles in multiphase flows //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – T. 3. – №. 04. – pp. 98-101.
4. Sariyev R.B. Ta'limni boshqarish tizimlarida interaktiv kurslarni yaratish asoslari [Basics of creating interactive courses in education management systems] / Monografiya. –B.: BuxMTI, 2021.
5. Jo'rayev O.I. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari [Information technology in technical systems]. /elektron o'quv qo'llanma. –BuxMTI, 2021.
6. Axmetjanov M.M., O'rinov U.A., va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi [Methods of vocational education]. Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat talabalari uchun darslik. -T.: "Fan va texnologiya", 2020.
7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti [Theory and practice of organization and management of informatization of pedagogical educational processes].: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. -T., 2007.

TA'LIM TIZIMIDAGI ELEKTRON DARSLIKLARINING XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'lim turlari to'g'risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy-me'yoriy asosi yaratildi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslarini yaratish va ular bilan o'quv jarayonini ta'minlashga oid bir qator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari e'lon qilindi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyruqlari chiqarildi.

Kalit so'zlar: blok, tushuncha, elementlar, modulli o'qitish, modul.

При совершенствовании системы образования в нашей стране большое внимание уделяется подготовке зрелых, всесторонне развитых, самостоятельно мыслящих, волевых, целеустремленных и предприимчивых кадров. В связи с этим введены совершенно новые правила о видах образования. Создана нормативно-правовая база подготовки кадров и реформирования системы непрерывного образования.

Изданы ряд указов Президента Республики Узбекистан о создании современных учебников и электронных средств обучения для системы непрерывного образования и обеспечения учебного процесса, постановления Кабинета Министров, приказы Министерства высшего и среднего специального образования.

Ключевые слова: блок, концепция, элементы, модульное обучение, модуль.

By improving the education system in our country, great attention is paid to the training of mature, well-rounded, independent-minded, strong-willed, dedicated and enterprising personnel. In this regard, completely new rules on the types of education have been introduced. The legal and regulatory framework for training and reforming the system of continuing education has been created.

A number of decrees of the President of the Republic of Uzbekistan on the creation of modern textbooks and e-learning resources for the system of continuing education and ensuring the educational process were issued, decisions of the Cabinet of Ministers, orders of the Ministry of Higher and Secondary Special Education were issued.

Key words: block, concept, elements, modular training, module.

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlangani sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirilib o'qitiladigan umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha asosan kam adadli elektron o'quv adabiyotlarini tayyorlash o'qitish jarayonida yaxshi samara beradi.

Asosiy qism. Elektron o'quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba hisoblanadi

Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Elektron o'quv adabiyotlari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina tushunchalarning keng ma'nodagi izohli talqini kompyuter va axborot texnologiyalari rivojlanib borishi bilan yanada kengayib borayotgan bilimlar bilan to'ldirilib borilmoqda.

Elektron darslik (ED) - kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid

o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;

- multimedia (multimedia - ko'p axborotli muhit) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishida, ovoqli, video, animasiya va qisman verbal (matn) shaklda;

- taktil (his qilinuvchi, seziluvchan) xususiyatga ega, talabani kompyuter ekranida olamida o'zining stereo nusxalari tasvirlangan real olamga kirib borishi va undagi ob'ektlarga nisbatan tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi

O'qitish jarayonini qo'llab-quvvatlashning elektron vositalari sohasidagi tizimli izlanishlari 30 yildan ko'proq tarixga ega. Bu davr mobaynida AQSh, Kanada, Angliya, Fransiya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda axborot va telekommunikatsion texnikaning turli tiplariga mo'ljallangan o'quv kompyuter tizimlari ishlab chiqilgan. Dastlab elektron vositalar mutaxassislari tayyorlash va qayta tayyorlashni mustaqil olib

148 boruvchi yirik sanoat korxonalarida, harbiy va fuqarolik tashkilotlarida qo'llanilgan. Xorijiy davlatlarda uslubiy va axborot-dasturli vositalarni ishlab chiqish uchun yuqori malakali psixologlar, pedagoglar, kompyuter dizaynerlari va boshqa mutaxassislar jalb etilgan. Yetakchi korxonalar va firmalar o'quv yurtlarida kompyuterli o'quv tizimlarini yaratish loyihalarini moliyalashtirishgan va bu sohada izlanishlar olib borishgan. Ilk o'quv elektron dasturli vositalarni yaratish uchun bevosita dasturlashtirish texnologiyasidan foydalanilgan. Dasturchi sifatida ko'pincha oliy o'quv yurtlarining yuqori bosqich talabalari va aspirantlari ishtirok etishgan. Keyinroq o'zida universal muhitni tasvirlaydigan, uni o'quv-uslubiy materiallar bilan to'ldirish imkoniyatini beradigan qatlamlar yuzaga kelgan. Qatlamlar bevosita dasturlashtirishni talab qilmasa ham yoki har bir o'qituvchi elektron o'quv dasturli vositasini tayyorlay olsa ham bunday muhitlar keng tarqalmadi.

Elektron o'quv vositalarini ishlab chiqish va foydalanish dastlab ikkita asosiy yo'nalish bo'yicha rivojlangan. Birinchi yo'nalish doirasida turli o'quv fanlari bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim berish tizimlari ishlab chiqilib o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. Bunday tizimlar avtomatlashtirilgan ta'lim berish tizimlarining yadrosi bo'lib, ishlab chiquvchi pedagoglarga o'z o'quv-uslubiy materialini o'rganishni maxsuslashtirilgan tillar yoki boshqa asboblari vositalar yordamida dasturlashtirish imkonini beruvchi mualliflik tizimlari hisoblanadi. Kompyuter texnologiyasini ta'lim berishga joriy qilishning ikkinchi yo'nalishi turli sohalarni axborotlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Ushbu yo'nalish doirasiga alohida o'quv kompyuterli dasturlar, dasturlar paketlari, avtomatlashtirilgan tizim elementlari, obyektlar va jarayonlar tarkibini matematik modellashtirish kiradi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'qitishni axborotlashtirishning san'at intellekti ishlanmalariga asoslangan intellektual o'qitish tizimlarini yaratish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan yangi yo'nalish jadal rivojlangan. XX asrning 80-yillarida kompyuterlarning keng tarqalishi ta'lim sohasida nafaqat yangi texnikaviy, balki didaktik imkoniyatlarni ham yaratdi. Kompyuterlarning asosiy afzalliklari ular yaqinlashuvchanligi, muloqotning oddiyligi va, albatta, grafik imkoniyatlaridir.

O'quv kompyuter tizimlarida grafik illyustratsiyalarni qo'llash faqat ta'lim oluvchiga axborotni uzatish tezligini oshirish va uni tushunish intensivligini oshirish imkoniyatini berib qolmasdan, balki ularda intuisiya, kasbiy sezgirlik, obrazli fikrlash kabi sifatlarni ham rivojlantirishda qobiliyatli hisoblanadi. Xotira hajmi katta bo'lgan eslab qoluvchi qurilmalar va global

telekommunikatsion muhitlarning paydo bo'lishi o'z ishida gipermatnli, multi va gipermedia texnologiyalarni, virtual tizimlarni qo'llaydigan o'quv dasturli vositalarni yaratishga olib keldi. Bunday tizimlardan foydalanish lazerli kompakt disklarda elektron dasturlar, ma'lumotnomalar, kitoblar va boshqalarni ko'plab adadlashtirish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda elektron o'quv vositalari sohasida uslubiy ishlanmalar texnologik ishlanmalardan keyinga qolmoqda. Bunday ortda qolish tabiiydir, chunki uslubiy rejada o'qitishni qo'llab-quvvatlashning elektron vositalari psixologiya, pedagogika, matematika, informatika va boshqa ko'plab fanlar bilimlarini integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Aynan uslubiyot muammolarini yechishdagi orqada qolish ta'limda yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashning potensial va real imkoniyatlari orasidagi uzilish asosiy sabablardan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish zamonaviy bosqichining tendensiyalaridan biri bo'lib, elektron ma'lumotlarni, ensiklopediyalar, ta'lim beruvchi dasturlar, ta'lim oluvchilar bilimni avtomatik nazorat qilish vositalari, elektron o'quv nashri sifatida ko'rib chiqiladigan yagona dasturli uslubiy majmualardagi elektron darsliklar, trenajorlar va virtual stendlar kabi elektron vositalarini yaratishga intilish hisoblanadi. Tahliliy ishlarimiz natijalariga ko'ra mamlakatimiz o'quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida o'quv yurtlarini axborotlashtirishga intilish jarayoni ta'limda elektron darsliklar uchun yo'l ochib bermoqda.

Ta'limni isloh qilish shunday elektron darsliklar yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo'lishi talabalar va o'qituvchilar uchun, auditoriya va uy sharoitida bir xil bo'lgan kompyuterli muhitni ta'minlashni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash joizki, yangi yaratiladigan darsliklarda Vatanimiz shuhratini olamga yoygan fan va madaniyatning gullab yashnashi uchun xizmat qilgan vatandoshlarimiz va boshqa allomalarning fizika, texnika, matematika va tibbiyot sohasidagi ibratli ishlari yoritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, darsliklarda millat fikrining, millat tafakkurining va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi zarur.

Elektron darsliklar to'g'risida fikr yuritishdan oldin, ularning bosma darsliklardan farqli xususiyatlari to'g'risida to'xtaldik.

Klassik tushunchada darslik bu talabalar uchun kitob bo'lib, unda bilimlarning ma'lum sohasidagi o'quv materiali fan, texnika va texnologiya, hamda madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida tizimli bayon qilinadi. Demak, elektron darslik

ham, bosma darslik ham umumiy belgilarga ega [97] va aynan:

1) o'quv materiali bilimlarning ma'lum sohasi bo'yicha bayon qilinadi;

2) o'quv materiali fan, texnika, texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritiladi;

3) o'quv materiali darsliklarda tizimli bayon qilinadi, ya'ni darslikning butunligini ta'minlaydigan, ma'noli munosabat va aloqali, ko'plab elementlardan tashkil topgan butun tugallangan asarni o'zida tasvirlaydi.

Bosma darsliklar mavjudligi tufayli ba'zi o'qituvchilar elektron darslik atamasini ishlatishni xush ko'rmaydilar degan fikrlar ham ba'zi ilmiy izlanuvchilar va mualliflar tomonidan bildirilgan. Bu mualliflar "Elektron nashr" atamasini tavsiya qiladilar. Lekin "nashriyot" so'zi bosma mahsulotni ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Ma'lum tushunchalarni o'z ichiga oladigan yangi atamalarni ishlatish davr taqozosidir. Hayot o'zgarishi bilan birga texnologiyalar ham o'zgaradi. Barcha o'zgarishlarga tushunish bilan yondashish kerak.

O'tkazilgan izlanishimiz adabiyotlar va ilmiy ishlar tahlilining natijalarini, elektron darslikning bosma darslikdan farqli belgilarini, hamda komponentlarini aniqlash imkonini berdi. Bizning nazarimizda ushbu hol quyidagilardan iborat deb bildik:

1) har bir bosma darslik talabalarga bilim berishning ma'lum boshlang'ich darajasiga mo'ljallangan va o'qitishning yakuniy darajasini tavsiflaydi. Ta'lim tizimida ko'plab umumta'lim fanlari bo'yicha (tayanch), murakkabligi yuqori, maxsus va boshqa fanlar darsliklari mavjud. Aniq bir o'quv fani bo'yicha elektron darslik murakkablikning bir necha darajasidagi materialni o'z tarkibida saqlashi mumkin. Bunda ular har bir daraja uchun interfaol tartibotda bilimlarni tekshirish uchun ko'p variantli topshiriqlarni o'z tarkibida saqlaydi.

2) elektron darslikda ko'rgazmalilik bosma darslikdagidan ko'ra yuqoriroqdir. Elektron darsliklarda ko'rgazmalilikni, yaratish animatsiyalar, tovushni kuzatishlar, giperjo'natishlar, videolavhalar va boshqalar kabi multimediali texnologiyalardan foydalanish bilan ham ta'minlanadi.

3) elektron darslik sinov topshiriqlari va testlarning ko'p variantlilik, ko'pdarajaliligi va xilma-xilligini ta'minlaydi. Elektron darslik barcha topshiriq va testlarni interfaol va tartibli berilishiga imkoniyat yaratadi. Noaniq javob paytida tushuntirishlar va izohlar orqali aniq javob berishga erishish mumkin.

4) elektron darslikni yaratish va tarqatishda bosmaxona ishlari bajarilmaydi. Elektron darsliklar

o'zining tuzilishi bo'yicha ochiq tizim bo'lib hisoblanadi. Ularni ishlatish jarayonida to'ldirish va takomillashtirish mumkin.

5) elektron darslikning ta'lim oluvchilar bilan yaqinlashuvi bosma ko'rinishdagi darsliklardan ko'ra yuqoriroq. Elektron darslikka talab oshganda uning adadini osongina oshirish mumkin yoki tarmoq bo'yicha jo'natish mumkin.

6) foydalanishda va ishlab chiqish maqsadlariga bog'liq ravishda ko'p funksiyaliligini ta'minlash uchun elektron darsliklar turli xildagi tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, darslarda foydalanish uchun aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga mos keladigan elektron darslikni yaratish va o'quv materiali mavjud mavzuiy rejalashtirish asosida berilishi mumkin. Elektron darsliklarni mavzuiy rejalashtirishga bog'lamasdan, balki shunchaki aniq ta'lim bosqichi bo'yicha o'quv dasturiga rioya qilib ishlab chiqish mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Har qanday darslik (bosma yoki elektron) ikkita asosiy qismdan iboratdir: mazmuniy va jarayonli. Elektron darslikda bularga yana ikkita ya'ni boshqaruvli va tashxislash qismlari qo'shiladi. Mazmuniy qism bilim uzatish, ko'rgazmalilik kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Bilim berish komponenti ta'lim oluvchiga bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan bo'lib, unga matnli axborot kiradi. Namoyishli komponent - mazmunni qo'llab-quvvatlaydi va ochib beradi. Jarayonli qism modellashtiruvchi, nazorat qiluvchi va mustahkamlovchi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Modellashtiruvchi komponent- bilimlarni amaliy topshiriqlarni yechishga qo'llash, o'rganiladigan jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi.

Mustahkamlovchi-nazorat komponenti talabalar tomonidan o'rganiladigan materialni o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Elektron darsliklarda mazmuniy va jarayonli qismlar birgalikda taqdim etiladi. Boshqaruvchi qism elektron darslik qismlari va komponentlari orasidagi o'zaro aloqani ta'minlashga qobiliyatli bo'lgan dasturli qatlamni o'zida tasvirlaydi. Tashxisli qism aniq dasturlar bilan ishlash haqidagi statistik axborotlarni saqlaydi.

Bizning fikrimizcha elektron darslik quyidagi xossalarga ega bo'lishi kerak:

- o'quv mashg'ulotlarining yuqori sifatli darajada o'tkazilishini ta'minlash;

- bilimlarni uzatish va baholash imkoniyatlarini yaratish;

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zaro yaqinlashtirish;

- axborotli-ta'lim resurslari rivojlanishining garmonik tasnifiga ega bo'lish;

- matnli va boshqa axborotli materiallar yangilangan va tasviriy materiallar bilan ta'minlangan (mul'timedia vositalari, rasmlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) bo'lishi;
- elektron darslik matn yoki ma'lumotnoma ko'rinishida bo'lib qolmasligi kerak.

Elektron darsliklarning quyidagi turlari mavjud:

1. Foydalanish bo'yicha ikki turga jamoaviy va individual foydalanishga ajratish mumkin. Jamoaviy foydalanish elektron darsliklari kompyuterning katta tizimli resurslarini talab qilmasligi kerak, chunki ular ko'pincha serverlarda o'rnatiladi va ularga komp'yuter tarmog'i orqali yaqinlashish imkoni beriladi. Individual foydalanishdagi elektron darsliklar o'quv materialini talaba ishtirokida yoki ishtirokisiz o'rganish uchun mo'ljallangan. Elektron darsliklarning ikkala turidan ham o'quv mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

2. O'quv materiallarini yetkazib beruvchi elektron darsliklar bir bo'lim (modul) o'quv materialini o'zlashtirmay turib, navbatdagi bo'limga (modulga) o'tishga yo'l qo'ymaydi.

3. O'quv axborotlari va materiallarining yangilanishi bo'yicha: uzluksiz va davriy yangilanish turlariga ajratiladi. Uzluksiz yangilanishli elektron darsliklar asosan elektron o'quv bazalarida (portallar, veb-saytlar va boshqalar) yoki elektron kutubxonalarda joylashtiriladi. Davriy yangilanishdagi elektron darsliklar asosan turli xildagi axborotli elektron tashuvchilarda saqlanadi.

Elektron darsliklarning kategoriyalari bo'yicha asosiy tavsifnomalarini keltiramiz.

I kategoriya - o'quv materiallari asosan mos ravishdagi giperjo'natishlar bilan, shuningdek, ikki o'lchamli grafiklar, diagrammalar, rasmlar, chizmalar va boshqalar bilan kuzatiladigan verballashtirilgan matn ko'rinishida namoyish etiladi, vaholanki o'quv mavzulari 25%gacha 2D ikki o'lchamli grafik ilovalari bilan qamrab olingan bo'lishi mumkin.

II kategoriya - o'quv materiallari qisman mos ravishdagi giperjo'natishlar, ikki o'lchamli grafiklar, diagrammalar, rasmlar, chizmalar va boshqalar bilan kuzatiladigan verballashtirilgan matn ko'rinishida namoyish etiladi, vaholanki o'quv mavzusining butun hajmi 2D ikki o'lchamli grafik ilovalari va 25% gacha 3D ilovalari bilan qamrab olinadi.

III kategoriya - o'quv materiallari faqat qisman giperjo'natish va glossoriyalar, ikki o'lchamli grafiklar, video va audio animasiyalar va 3D samaradorliklari (50 %gacha) bilan kuzatiladigan verballashtirilgan matn ko'rinishida namoyish etilishi mumkin.

IV kategoriya - mashg'ulotlarini masofali, sifati yuqori darajada, virtual muhitda, zamonaviy tarmoqli texnologiyalardan foydalanib, shuningdek, o'qituvchi bilan teskari aloqani saqlagan holda o'tkazishni ta'minlaydigan elektron darsliklar kiradi.

Maxsus fanlarni o'qitishda elektron darsliklar qo'llanilganda ta'lim jarayoni sezilarli ravishda individuallashtiriladi, talabalarning mustaqil ishlashlari, eksperimental izlanishlarining chegaralari kengayadi. Talaba uchun qulay bo'lgan individual ravishda fanning nazariy qismini o'rganish, tajriba va eksperimental izlanishlarni o'tkazish, mashq qilish yo'li bilan amaliy ko'nikmaga ega bo'lish, o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Bitta elektron darslikning o'zidan ma'ruza, tajriba-amaliy mashg'ulotlarda, mustaqil ta'lim olish, joriy va yakuniy nazoratni o'tkazish paytida foydalanishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning bilim darajasi nazoratini amalga oshirish va testlashtirishga mo'ljallangan o'quv dasturli vositalarning qo'llanilishi o'qituvchilarning ko'p variantli amaliy topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni bajarilishini nazorat qilish bo'yicha sarf bo'ladigan vaqtini sezilarli ravishda kamaytiradi. Bilimlarni tez-tez nazorat qilish imkoniyati talabalarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Elektron darsliklarning farqli xususiyatlari, afzalliklari va o'quv jarayonidagi ahamiyatidan kelib chiqib, unga shunday xulosa berish mumkin.

Elektron darslik – ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lib, ta'lim oluvchi-darslik - pedagog tartibotidagi aloqani amalga oshiradi.

Maxsus fanlardan elektron darsliklarni faolroq joriy qilinishi tajriba va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish doirasida ko'zga tashlanadi. Bu butun bir qator faktorlar bilan izohlanishi mumkin:

- individual tajriba va amaliy mashg'ulotlarni shakllantirish va tekshirish bo'yicha o'qituvchilar qo'l mehnati hajmini yengillashtiradi;

- jamoaviy foydalanish markazlarining uzoqlashtirilgan eksperimental stendlarga yaqinlashuvi orqali amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish imkoniyati sezilarli ravishda kengayadi.

Adabiyotlar

1. K. Sh Muxammadovna. International Journal of innavative research. The Role of Education and Pedagogy in Today's world. 2021/7/7.

2. Курбонов Ш.Э. Социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовки кадров. Автореф. дис.... докт. пед. наук. – Т., 2000. – 51 с.
3. Гиппенрейтер. Ю. Ученик и учебники: не сошлись характерами. // Ж. Семья и школа. – М., –1999. –№9.
4. KS Muhammadovna [Innovation Of It Communications](#) - Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022
5. Olimov Q.T., Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Ped. fan. dokt.... diss. –Т., 2005. –286 b.
6. Olimov Q.T., G'afforov A.X., Nazimova F.R. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishning ayrim muammolari va ularni hal qilish yo'llari // J. Pedagogik ta'lim. –Т., 2006. –№6. –В.80-84.
7. Mirzaxmedov B.M. Zamonaviy darslikka qo'yiladigan didaktik talablar // "O'rta maxsus, oliy ta'lim ta'lim tizimda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari" Resp. il.-amaliy anjum. materiallari. –Buxoro, 2006. – В. 148.
8. Олимов К.Т. Проблемы создания учебников специальных дисциплин нового поколения в сфере среднего специального и профессионального образования. Монография. –Т.: Фан, 2004. – 143 с.
9. Убайдуллаева Д.Р., Ханкелдиева З. О разработке электронного пособия по предмету "Основы теории управления" для учащихся профессиональных колледжей // Респ. ил. - амалий конф. материаллари. – Т., 2005. –Б.122-123.
10. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е.; Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб. пособие для студ. Пед. Вузов и системы повыш. Квалиф. пед. кадров // Под ред. Е.С. Полат. – М.: Изд. Центр "Академия", 2001. –217 с.

Murod XUSENOV
Buxoro davlat universiteti
o'qituvchisi

Otabek UMUROV
Buxoro davlat universiteti
o'qituvchisi

Sherzod BOLTAYEV
Buxoro muhandislik-
texnologiya instituti magistri

OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Ta'limda ma'lumotlarini yig'ish, ishlatish va almashish uchun ko'plab qonuniy sabablar mavjud. Ushbu ma'lumot ishonchli tarzda himoyalangan bo'lishi kerak, chunki bugungi kunda ma'lumotlar strategik mahsulot hisoblanadi va undan foydalanish qonuniy bo'lishi lozim. Maqolada ta'lim muassasalari uchun tahdidlarning turlari va ushbu tahdidlarning oldinini olish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, kiberhujum, tarmoqlararo ekran, SSL, axborotlashtirish.

Существует множество законных причин для сбора, использования и обмена информацией в сфере образования. Эта информация должна быть надежно защищена, ведь сегодня данные являются стратегическим продуктом и их использование должно быть законным. В статье рассматриваются виды угроз образовательным учреждениям и способы их предотвращения.

Ключевые слова: информационная безопасность, кибератака, межсетевой экран, SSL, информатизация.

There are many legitimate reasons to collect, use, and share information in education. This information must be reliably protected, because today data is a strategic product and its use must be legal. The article discusses the types of threats to educational institutions and how to prevent them.

Key words: information security, cyber attack, firewall, SSL, informatization.

Kirish. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda, hayotimizning har bir jabhasida ilm-fan, texnika va texnologiyalar, g'oyalar va innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan yangi yangi o'zgarishlar kuzatib kelinmoqda, Shuningdek yaxshi jihatlari va ijobiy holatlar bilan bir qatorda ayrim salbiy oqibatlar ham kuzatilayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak, internet olamining biz bilgan ijobiy ma'noda foydalanidan jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlari ko'z ilg'amas xavfsiz ko'ringan ammo juda xatarli bo'lgan tamonlari mavjudligini bugun ko'pchiligimiz bilmaymiz. Bilsakda unga qarshi biron chora qo'llashda ojizmiz, ya'ni kiberhujumlar.

Asosiy qism. Kiberhujum - Internet orqali sodir bo'ladigan har qanday turdagi tazyiqlardir. Kiberhujum - bu kompyuter tarmoqlarini ommaviy ravishda buzish yoki kompyuterlarni viruslar bilan ommaviy ravishda yuqtirish hisoblanadi. Bu holda "kiber" so'zi "kompyuter" yoki "internetga ulangan" degan ma'noni anglatadi. Kiberhujumga misol sifatida 2017-yil 12-mayda kompyuterlarga keng tarqalgan "Ransomware-virus" virusini keltirish mumkin. Ushbu hujumdan Rossiya, Buyuk Britaniya, Ukraina va boshqa ko'plab mamlakatlarning kompyuterlari zarar ko'rdi. Bugungi kunda kiberhujumlarga qarshi kurash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash mumkin. Zotan zamonaviy dunyodagi insonlarga nisbatdan axborot qurilmalarning soni ham ahamiyati ham ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra kiberhujumlar natijasida dunyo iqtisodiyotiga 26 milliard dollar zarar yetkazilmoqda.

Davrimizning fan va texnika sohasidagi yutuqlari kundalik ijtimoiy hayotimizga qulay imkoniyatlarni ochib beryapti. Bugungi kunda dunyo aholisi axborotni, asosan, internetdan oladi. Bu orqali tadbirkorlik qilish, aloqaga chiqish, reklamalar yaratish mumkin. Virtual olamdan afsuski, parallel ravishda buzg'unchi g'oyalarni tarqatish, terroristik da'vatlar ham kuchaymokda. Mutaxassislarning fikricha, kompyuterlarga filtrlarni qo'llash va internetdan foydalanishni cheklash doimo ko'zlangan maqsadga olib kelmaydi. Zero, mamlakatning rivojlanishi kompyuter texnologiyalari xavfsizligiga bog'liq. Bu borada bir necha qonun, qaror va farmoyishlar ishlab chiqilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi 1993-yil 7-may 848-XII-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi 1994-yil 6-may 1060-XII-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 2003-yil 11-dekabr 560-II-son qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganligi uchun javobgarlik kuchaytirilgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2007-yil 25-dekabr O'RQ-137-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi 2002-yil 30-may PF-3080-son

Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2007-yil 3-aprel PQ-614-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-oktyabrdagi 295-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi axborotlashtirish obyektlarida konfidensial axborotlarni xavfsizligini ta‘minlash va tashkil etish tartibini to‘g‘risidagi nizom”i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 8-iyuldagi “Milliy axborot resurslari himoya qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1572-sonli Qarori hamda 2022-yil 15-mart kuni “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun prezident tomonidan imzolandi.

Hozirgi kecha kunduzda kiberhujumlar ta‘lim muassasalarini ham chetlamasdan o‘tmayapti. Ta‘lim muassasalarida axborotni muhofaza qilish – axborot xavfsizligining muhim jihatlari ta‘minlashga yo‘naltirilgan tadbirlar majmui hisoblanadi. Axborotni muhofaza qilish axborotga bo‘lgan salbiy ta‘sir manbalarini hamda sabab va sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish ma‘nosini anglatadi. Bu manbalar axborot xavfsizligiga tahdidlarni tashkil etadi.

Oliy ta‘lim muassasasida axborotni muhofaza qilish quyidagilarga yo‘naltirilgan:

- oliy ta‘lim muassasasida axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tahdidlarning oldini olish;

- oliy ta‘lim muassasasida tizimli tahlil va nazorat orqali real va ehtimoli katta bo‘lgan

tahdidlarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida oldini olish choralari ko‘rish;

- oliy ta‘lim muassasasida aniq tahdidlar va jinoiy harakatlarni aniqlash maqsadida tahdidlarni topish;

- oliy ta‘lim muassasasida jinoiy harakatlarni bartaraf etish, shuningdek, aniq jinoiy harakatlarni hamda tahdidlarni yo‘q qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

- oliy ta‘lim muassasasida tahdid va jinoiy harakatlarning oqibatlarini yo‘q qilish va mavqeyini saqlash.

Ushbu barcha usullarning maqsadi axborot resurslarini noqo nuniy tahdidlardan himoya qilish va quyidagilarni ta‘minlashdan iborat:

- oliy ta‘lim muassasasidagi konfidensial axborotlarning tarqab ketishini oldini olish;


- konfidensial axborot manbalariga noqonuniy kirishni taqiqlash;

- axborotning butunligi, to‘liqligi va undan foydalana olishni saqlash;

- axborot konfidensialligiga rioya qilish;

- mualliflik huquqlarini ta‘minlash.

Muhokamalar va natijalar. Axborotlarni muhofaza qilishning dasturiy vositalari axborotlar xavfsizligini ta‘minlashga mo‘ljallangan va kompyuter vositalarining dasturiy ta‘minoti tarkibiga kiritilgan maxsus dasturlardir. Universitetda foydalanayotgan tarmoqdan kelib chiqayotgan tahdidlarni blokirovkalash uchun “tarmoqlararo ekran” (Firewall) Kerio Control 9.3.5 build 4367 deb nomlanuvchi dasturiy vositalardan foydalaniladi.



1-rasm. Kerio Control 9.3.5 build 4367 dasturiy vositasining ko‘rinishi

Foydalanib kelinayotgan tarmoqlararo ekran dasturiy vositasi orqali universitetning 1500 ga yaqin kompter texnikalari ro‘yxatdan o‘tkazilib, nazoratlar o‘rnatilgan. Tarmoqlararo ekran dasturi orqali turli xil ta‘lim sohasiga tegishli bo‘lmagan saytlarga kirishni ta‘qiqqlab qo‘yilgan. Oliy ta‘lim muassasasida ishlab chiqilgan hamda foydalanib kelinayotgan axborot tizimlariga SSL sertifikatlari o‘rnatilib, https protokoliga yo‘naltirilgan.

Axborot xavfsizligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirishga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, mamlakatni iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko‘maklashish, axborotni muhofaza qilishning usul va vositalarini yaratish dolzarb masalalardan biridir.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, axborotni muhofaza qilishda yetarli darajadagi yutuqlarga erishish uchun huquqiy, tashkiliy va texnik

- 154 choralarni birgalikda amalga oshirish zarur. Bu himoyalangan axborotning konfidentsialligi, tahdidning tasnifi va himoya vositalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Umumiy holda xavfsizlikni ta'minlashning kompleks choralarga:
- ruxsatsiz foydalanishdan kompleks himoya qilish vositalari;
 - apparat-dasturiy vositalar;
 - kriptografik muhofaza qilishning kompleks vositalari;
- injener-texnik tadbirlar;
 - texnik kanallarni blokirovkalash kompleks vositalari;
 - obyektlarni jismoniy qo'riqlashni kiritish mumkin.
- Bu choralarning har biri boshqasini to'ldiradi, bironta usulning yo'qligi yoki yetishmasligi yetarli darajadagi himoyaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Karimov I.M. va boshqalar. Axborot texnologiyalari// Darslik. -T., 2011.
2. Karimov I.M. va boshqalar. Informatika// Darslik. -T., 2012.
3. Эргашев А.А., Умуров О.Ф., Хусенов М.З, “Выбор паттерна проектирования автоматизированной информационной системы” научно-методический журнал “Проблемы науки” № 6 (65), 2021, с 17-19.
4. Murod Khusenov, Otabek Umurov, Qo'ldosh Juraev, (2021). Development of an electronic system for online assessment of the work of the teaching staff on a 110-point system. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(05), 65-71.
5. Хусенов М., К. Жураев “Разработка электронная системы для онлайн-оценки работы профессорско-преподавательского состава по 110-балльной системе”, Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning tafakkur va talqin mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami, 2021-yil, 27-may, б 226-230.
6. Хусенов М.З, Q.IJo'rayev Buxoro davlat universitetida masofaviy o'qitish tizimlarini joriy qilish va qo'lash samaradorligini oshirish Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yiliga bag'ishlangan Magistrantlar va iqtidorli talabalarning Tafakkur va talqin ilmiy maqolalar to'plami. 2020. B. 37-40.
7. Хусенов М.З, Хазратов Ф. Х. Экспертная система: понятие, определение и классификация экспертных систем. Вухоро davlat universiteti “Ilmiy axboroti” jurnali. 2020 йил 1-сон 25.03.2020. B. 88-92.

G.A. IXTIYAROVA
Toshkent davlat texnika
universiteti umumiy kimyo
kafedrası mudiri, professor.

Ch.Q.XAYDAROVA
Toshkent davlat texnika
universiteti umumiy kimyo
kafedrası 2-bosqich tayanch
doktoranti

M. Sh.AHADOV
Navoiy davlat pedagogika
institute kimyo o'qitish
metodikasi kafedrası 1-bosqich
doktoranti, PhD.

BIOPOLIMERLAR MAVZUSINI O'QITISHDA 3D TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALIKLARI

**Toshkent davlat texnika universitetining biotibbiyot yo'nalishi talabalari uchun)
(Axborot texnologiyalarining eng so'ngi yutuqlari misolida)**

Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda texnik, ya'ni biotibbiyot yo'nalishi talabalari uchun kimyo fanidan biopolimerlar mavzusini o'qitishda qo'llaniladigan virtual va 3D ta'lim texnologiyalari, simulyatorlar va panoramik tasvirlarni ta'lim jarayoniga qo'llash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, ta'lim muassasalari kimyo ta'limida o'quv jarayonining sifat-samaradorligini oshirishda 3D-modellash, 3D-skanerlash, 3D-bosma chizmalarining ahamiyati to'g'risida g'oyalar, simulyatorlarning imkoniyatlari, Nazzar.uz texnologiyasi uning kimyo ta'limida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: 3D informatsion texnologiyalar, 3D-modellash, 3D- skanirlash, biopolimerlar, oqsillar, nuklein kislotalar, virtuallik, Nazzar.uz., 3D-bosma chizmalar.

В статье приведены сведения по применению виртуальных и 3D образовательных технологий, тренажеров(симуляторов) и панорамных изображений, используемых в учебном процессе при модернизации системы образования при изучении в химии темы биополимеры для студентов технического, в частности биомедицинского направления образования.

Ключевые слова: 3D информационный технологии, 3D модели, 3D сканирование, биополимеры, белки, нуклеиновые кислоты, виртуальность, Nazzar.uz., 3D принтеры

The article provides information on the use of virtual and 3D educational technologies, simulators (simulators) and panoramic images used in the educational process in the modernization of the education system when studying the topic of biopolymers in chemistry for students of technical, in particular biomedical education.

Key words: 3D information technology, 3D models, 3D scanning, biopolymers, proteins, nucleic acids, virtuality, Nazzar.uz., 3D printer.

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim, fan-texnikaning rivojlanishi va axborot texnologiyalari sohasidagi erishilgan yutuqlar insoniyat oldida turgan turli-tuman yangidan-yangi muammolarni yechishga imkon beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri axborot texnologiyalarining eng so'ngi yutuqlari ya'ni 3D texnologiyalarni qo'llab kimyo fanining o'quv jarayonini tizimli modernizatsiyalash hisoblanadi. Kimyo ta'limida kunduzgi va sirtqi ta'limni tashkillashtirishda kimyoviy jarayonlarni, ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini olib borishda interaktiv ta'lim texnologiyalari, virtual ta'lim, 3D texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining sifat samaradorligini oshirishda xizmat qiladi, hamda fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish bilan xarakterlanadi.

Asosiy qism. Kompyuterning tasavvur qilinadigan xotirasi - virtual xotira sifatida qabul qilinib, u fizik jihatdan hech bir alohida olingan xotira tashuvchisiga muvofiq kelmaydi, ya'ni, virtual xotira kompyuter elementlarining o'zaro funksional ta'sirlashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi. Virtual xotirani yuzaga keltiruvchi dasturiy

vositalar yordamida inson juda ulkan hajmdagi axborotlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaldagi zamonaviy kompyuterlarning barchasi maxsus Java virtual mashinasi bilan jihozlangan.

Asosiy qism. XXI asr yuqori texnologiyalar asri bo'lib, kompyuter grafikasi tushunchasi bizning hayotimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lmoqda.

Jamiyatimizda har xil yoshdagi insonlar qalbidan 3D virtual, 3D hayot uch o'lchamli modellashtirish Maya, ZBrush, Blender, 3D Max, Nazzar.uz kabi ko'pgina programma mahsulotlari o'rin egallamoqda.

"D" atamasi inglizcha "dimensions" so'zidan olingan bo'lib, "o'lchamlar" ma'nosini beradi. 3D texnologiyasi tasvirni vizual va tovushli uzatib berishning dunyodagi eng ilg'or usuli hisoblanadi.

Barcha aqlli insonlar 3 o'lchamli tasvir, uch o'lchamli grafika, uch o'lchamli modellashtirish kabi to'liq tushunchalarga egadirlar. Zamonaviy kinoindustriya, arxitektura dizayn, hatto ta'lim sohasini olib qaraydigan bo'lsak, turli xil 3D maxsus effektlar orqali real jarayonlarni kuzatish mumkin.

156

Virtual texnologiyalarni kimyo ta'limida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llanilsa fanni o'qitishda yuqori samaradorlikka erishiladi. Bunda virtual kimyo laboratoriya xonalari veb-muhitda yaratiladi va tajribalar



xohlagancha bajarib ko'rish mumkinligi talabalarga tushuntiriladi. Portlash xavfi bor tajribalar, zaharli xususiyatga ega bo'lgan tajribalar ham virtual kimyo laboratoriyasida bajarib ko'rish mumkin (1-rasm).




1-rasm. Virtual borliqni aks etuvchi kimyo xonasi va kimyo laboratoriyasi

Probirkaga 5 % li mis sulfat eritmasidan 1 ml va 1 m o'yuvchi natriy eritmasidan 1 ml solib aralashiring, bunda mis(II)-gidroksid cho'kmasi hosil bo'ladi. Aralashma ustiga 1 ml glitserin qo'shib chayqating.

Cho'kma erib, to'q ko'k rangdagi mis glitserat hosil bo'ladi.



Ammo misning kompleks birikmasiga xos bo'lgan ko'k rang, shuningdek reaksiyaning o'zi, mo'l ishqor bo'lgandagina sodir bo'ladi (ishqor mo'l bo'lmasa mis gidroksid glitserinda erimaydi) Kompleksni quyidagi strukturada ham tasvirlaydilar:




Glitserinning kislotalik xususiyati bir atomli spirtlarnikiga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Buning sababi nimada? Bir atomli spirtlar ham metall gidroksidlari bilan reaksiyaga kirishadimi?

Fizik xossalari. Etanolning qaynash temperaturasi $+78^{\circ}\text{C}$. Spirtlarning to'rt vakili harakatchan suyuqlik bo'lib o'ziga xos hidga ega. Spirtlarning molekular massaasi ortishi bilan qaynash temperaturasi ham ortib boradi. Glikollar rangsiz, hidsiz, shirinroq ta'mga ega bo'lgan quyuuq suyuqliklardir. Quyi glikollar moysimon suyuqlik, suvda yaxshi eriydi. Glikollar yuqori temperaturada qaynashi, juda past temperaturada muzlashi va zichligining yuqori bo'lishi bilan tegishli bir atomli spirtlardan farq qiladi. Gliserin quyuuq, moysimon, shirin mazali suyuqlik, 290°C da qaynaydi. Gigroskopik modda, suv bilan istalgan nisbatda aralashadi, zichligi $1,26\text{ g/sm}^3$, spirtida eriydi, lekin efir va xloroformda erimaydi [8].

Ishlatilishi. Metil spirt, asosan erituvchi sifatida bo'yoq moddalar tayyorlashda, formaldegid olishda va har xil moddalar sintez qilishda xomashyo sifatida ishlatiladi. Etil spirti xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida ishlatiladi. Kimyo sanoatda sintetik kauchuk va bo'yoq moddalar olishda, farmatsevtika sanoatida, dietil efir (narkoz uchun) ishlatiladi. Etilenglikol antifizlar tayyorlashda ishlatiladi Etilenglikoldan sintetik tola-lavsan olinadi. Trinitroglitserinning portlovchi moddalar tayyorlanadi, shuningdek, uning suyultirilgan 1% li spirti eritmasi qon tomirlarini kengaytiruvchi dori vositasi sifatida, tibbiyotda stenokardiyani davolashda ishlatiladi. Farmatsevtikada undan har xil surkov malhamlari, moylar va dori-darmonlar tayyorlanadi. Glitserindan olingan smolalar lok-bo'yoq sanoatida ishlatiladi.

Klasterlarga bo'lish, Stilning ta'bricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda ham qo'llash mumkin. Bu esa talabalarni har bir amalda bo'lgan bog'lanishlarga, aloqalarga yaqinlashtiradi.



Klaster usulini sxemasi

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki talabalarga spirtlarni klaster usulda olib borish ularni erkin fikrlashga va mustaqil bilim olishga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin. Bu klasterlarga bo'lish talabalarning tasavurlarini yangi bog'lanishlari yoki ularning grafik ifodalari ko'rinishlarini ta'minlovchi sifatida ham o'tganliklarini yakunlash vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu o'z bilimlariga, muayyan mavzu to'g'risida tasvuriga va uni tushunishga yo'l ochadigan nazardagi strategiyadir. Bundan tashari talabalar orasida bilimlarini yanada mustahkamlashga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin [9]. Bu pedagogik strategiya bo'lib, u yoki bu mavzu bo'yicha talabalarga erkin va qulay fikr yuritishga yordam beradi. Bu faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarni o'ylashga undaydigan tuzilmani aniqlashni talab qiladi. Bu fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan bog'liq. Klasterlash haqidagi ma'lumotlar fikrlash bosqichida ham, amaliy bosqichida ham qo'llaniladi. Undan ma'lum bir mavzu batafsil o'rganilgunga qadar fikrlash faoliyatini ta'minlash uchun foydalanish mumkin. Klasterlarga bo'linish talabalarning idrokklarini yangi bog'lanishlar yoki grafik ifodalar sifatida uzatilganligi to'g'risida xulosa chiqarish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Bu o'zlarining bilimlari, tasavurlari va ma'lum bir mavzuni tushunishlariga yo'l ochadigan istiqbolli strategiya.

Adabiyotlar

1. Azizxodjaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T: TDPU, 2003. b-120.
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -Toshkent, 2001. b-123
3. Turaqulov E. Pedagogik texnologiya va mahorat. –Toshkent, 2006. b-134.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. -М.: ”Педагогика”, 1989.
5. Husanboeva Q. O'qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta'lim. Til va adabiyot ta'limi. 2003. 2-son. – 19-23 b
6. Abdulhayeva M.M., Mardonov O' M. Kimyo. 2002. b.515
7. Shoymardanov R., Abdusamotov A. Organik kimyodan praktikum. -Toshkent, 1982. b-108.
8. Abdusamotov A., Ziyayev R., Akbarov B. Organik kimyodan mashq, masala va testlar. –Toshkent, 2003. b-
9. Mamatqulova R. Interfaol usul: bahs-munozara. Xalq ta'limi. 2004. 1-son. - 26-39.

TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

Avazjon SHUKUROV

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
san'atshunoslik kafedrası dotsenti

CHIZMACHILIK DARSLARIDA MODELLASHTIRISH TUSHUNCHASI

Maqolada modellashtirish tushunchasi, chizmachilik darslarida modellashtirishning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: modellashtirish, chizmachilik, texnologiya, loyiha, obyekt, tashqi modellashtirish, model, axborot modeli.

В статье объясняется понятие лепки, значение лепки на занятиях по рисованию.

Ключевые слова: моделирование, рисунок, технология, проект, объект, внешнее моделирование, модель, информационная модель.

The article explains the concept of modeling, the importance of modeling in drawing classes.

Key words: modeling, drawing, technology, project, object, external modeling, model, information model.

Kirish. Chizma - bu o'quvchilar turli xil texnik tushunchalar bilan tanishadigan mavzu. Chizmachilikni bilish boshqa ko'plab umumiy texnik obyektlarni o'rganishga yordam beradi.

Texnik bilimlarni muvaffaqiyatli egallash shartlari chizmalarni o'qish va chizmalarni bajarish hamda loyihalash qoidalarini bilish qobiliyatidir. Chizma - texnik ma'lumotlarning asosiy tashuvchilaridan biri bo'lib, unda hech qanday ishlab chiqarish amalga oshirilmaydi.

Asosiy qism. Obyektlarni tasvirlash zarurati uzoq vaqt davomida odamlarda paydo bo'lgan. Qadim zamonlarda odamlar yovvoyi hayvonlarning tishlarida, ovda va boshqalarda tasvirlaganlar. Shunday qilib, inson hayotida kuzatilgan narsalar va hodisalarning birinchi tasvirlari paydo bo'lgan.

Inson faoliyati jarayonida mavjud bo'lmagan obyektlar va tuzilmalarni tasvirlash kerak edi. Bu vazifa, masalan, maqbaralar, teatrlar va saroylarni qurishda me'morlar oldida edi.

Binolarning rejalari va jabhalarining rasmlari qadimgi Misrda ma'lum bo'lgan, bu bizga papirusdagi binolarning tasvirlari bilan tasdiqlangan. Shu bilan birga, obyektning rejasi va jabhasining alohida tasvirlari ikki turdagi tizimga, ya'ni ushbu so'zning zamonaviy tushunchasida obyektning chizishdan oldin uzoq vaqt talab qilindi.

Toki samolyotga o'xshash sivilizatsion texnikalarni tasvirlash usullari va shartli eskizlardan, zamonaviy proyeksiya chizmalarga yaqinlashib kelayotgan mukammallikka qadar o'z yo'llari bilan rivojlangan.

Mamlakatimiz sanoatsozlik, mahalliy mashinasozlik va boshqa ishlab chiqarishlarni tashkil etish, yangi zavodlar, fabrikalar va shaharlar qurilishi chizmalardan yanada kengroq foydalanishga, dizayn ishlab chiqarishga olib keldi.

Ushbu ehtiyojlarni maqsadi-chizmachilikni o'rganish uchun peri modellaridan foydalanish imkoniyatlarini tasvirlashdir.

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar shakllantirilgan:

- modellashtirishning asosiy masalalarini o'rganish va modellar haqida asosiy ma'lumotlarni tavsiflash;

- o'quv jarayonida modellardan foydalanishning didaktik salohiyatini tahlil qilish;

- chizmachilik darslarida modellashtirishni qo'llash imkoniyatlari va usullarini ko'rib chiqish.

Umumiy ma'noda model (umumlashtirilgan model) axborotni olish va (yoki) saqlash uchun yaratilgan o'ziga xos obyekt (aqliy tasvir shaklida, ikonkali vositalar yoki moddiy tizimning tavsifi), obyektning xususiyatlarini va aloqalarini aks ettiruvchi-obyekt tomonidan hal qilinadigan vazifa uchun zarur bo'lgan o'zboshimchalik tabiatining asl nusxasi. Qaror qabul qilish nazariyasi uchun so'zlar yoki formulalar, algoritmlar va boshqa matematik vositalar bilan ifodalangan eng foydali modellar.

Modellashtirish zarurati quyidagi sohalarda paydo bo'ladi:

- 1) bilish;
- 2) aloqa (so'zning keng ma'nosida);
- 3) amaliy faoliyat.

Modellashtirish aspektlari simulyatsiya obyektining ko'rinishi, tuzilishi, xatti-harakati va ularning barcha mumkin bo'lgan birikmalari bo'lishi mumkin.

Obyektning tuzilishi uning elementlari to'plami, shuningdek, ular orasidagi mavjud aloqalar deb ataladi.

Obyektning xatti-harakati boshqa obyektlar bilan o'zaro ta'sir natijasida vaqt o'tishi bilan uning

174 tashqi ko'rinishi va tuzilishidagi o'zgarish deb ataladi.

Tashqi modellashtirish uchun ishlatiladi:

- 1) obyektни aniqlash (tanib olish);
- 2) tasvirni uzoq muddatli saqlash.

Obyekt tuzilishi modellashtirish uchun ishlatiladi:

- 1) obyektning xususiyatlarini o'rganish;
- 2) muhim aloqalarni aniqlash;
- 3) obyektning barqarorligini o'rganish.

Xulq-atvorni modellashtirish quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- 1) rejalashtirish, prognozlash;
- 2) boshqa obyektlar bilan aloqalarni o'rnatish;
- 3) sabab-ta'sir munosabatlarini aniqlash;
- 4) boshqarish;
- 5) texnik qurilmalarni loyihalash va boshqalar.

Modellashtirish jarayonida modellashtirishning har bir jihati bir qator xususiyatlar orqali aniqlanadi.

Modellar barcha xususiyatlarni aks ettirmaydi, faqat modellashtirish maqsadlari nuqtayi nazaridan muhimdir.

Simulyatsiya har bir jihati xususiyatlari, uning majmui bilan xarakterlanadi:

- 1) tashqi ko'rinish - xususiyatlar to'plami;
- 2) tarkibi-elementlar ro'yxati va ular o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatish;
- 3) xatti-harakatlar - vaqt o'tishi bilan tashqi ko'rinish va tuzilishni o'zgartirish.

Modellashtirish obyektining ayrim xususiyatlari raqamli qiymatlarni qabul qiluvchi qiymatlar bilan ifodalanishi mumkin. Bunday qiymatlar model parametrlari deb ataladi.

Axborot modeli ba'zi yangi axborot obyektini sifatida qaralishi mumkin, bu esa o'z navbatida simulyatsiya obyektini bo'lishi mumkin.

"Model" tushunchasini aniqlash.

Ushbu model:

1) haqiqiy obyektning soddalashtirilgan ko'rinishi;

2) obyektни qisqartirilgan yoki kengaytirilgan shaklda ijro etish (tartib);

3) tabiat va jamiyatdagi har qanday hodisa yoki jarayonning diagrammasi, tasviri yoki tavsifi;

4) obyektning jismoniy yoki axborot analoglari, ularning ishlashi muayyan parametrlar bo'yicha haqiqiy obyektning ishlashiga o'xshaydi;

5) muayyan sharoitlarda obyekt o'rnini bosuvchi obyekt - original, bizni qiziqtirgan xususiyatlarini va xususiyatlarini qayta ishlab chiqaradi va muhim afzalliklari va qulayliklariga ega (ravshanlik, ko'rish, testlarning mavjudligi, u bilan ishlash qulayligi va boshqalar);

6) modellashtirish maqsadlari nuqtai nazaridan o'rganilayotgan obyekt yoki hodisaning ayrim jihatlarni aks ettiruvchi yangi obyekt;

7) yangi obyekt (haqiqiy, axborot yoki xayoliy), modellashtirish xususiyatlariga ega bo'lgan va ushbu maqsadlar doirasida asl obyektни butunlay almashtiradigan originaldan farq qiladi.

Model-bu bilimlarning mavjudligi.

Muhokamalar va natijalar. Har qanday amaliy muammoni hal qilish har doim muayyan obyektни (moddiy yoki axborot) yoki uni boshqarishni o'rganish, o'zgartirish bilan bog'liq.

Modellashtirish maqsadlari:

Modellashtirishning maqsadi, modellashtirish mavzusi unga qo'yilgan muammoni hal qilganda va hal qilinadigan vazifaga va modellashtirish mavzusiga bog'liq bo'lganda paydo bo'ladi. Ya'ni, modellashtirishning maqsadi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, u obyektiv, chunki u tadqiqot vazifasidan kelib chiqadi, ikkinchisi esa sub'ektiv hisoblanadi, chunki tadqiqotchi har doim tajriba, qiziqish va faoliyatning motivlariga qarab uni tuzatadi.

Bir obyekt uchun bir mavzu turli xil modellashtirish maqsadlariga olib keladigan turli vazifalarni hal qilsa, bir nechta modelni yaratishi mumkin.

Bir obyekt uchun turli mavzular turli modellarni yaratishi mumkin, hatto modellashtirish vazifasi bitta bo'lsa ham. Model turini tanlash va uning qurilishi mavzuning bilimlari, tajribasi, afzalliklari, shaxsiy manfaatlariga bog'liq.

Turli obyektlar bir xil modellarga ega bo'lishi mumkin, hatto ular turli modellashtirish maqsadlariga asoslangan turli mavzularni qurishgan.

Modellarni qurishning asosiy bosqichlari.

Modellashtirish bosqichlari:

1. Modellashtirish maqsadini belgilash.

2. Obyektни modellashtirishni tahlil qilish va uning barcha ma'lum xususiyatlarini ta'kidlash.

3. Uning tanlangan xususiyatlarini modellashtirish maqsadlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish va ulardan qaysi biri muhim deb hisoblanishi kerakligini aniqlash.

4. Modelni taqdim etish shaklini tanlash.

5. Rasmiylashtirish.

6. Olingan modelni izchillik uchun tahlil qilish.

7. Olingan modeldagi obyektlarning yetarililigini va modellashtirish maqsadlarini tahlil qilish.

Obyektning ma'lum xususiyatlaridan qaysi biri muayyan ish uchun muhim ekanligini aniqlash uchun universal qoidalar yo'q.

Agar simulyatsiya shartlari ruxsat etilsa, unda turli xil "muhim" xususiyatlarga ega bo'lgan bir nechta modellarni yaratish va ularni obyektga yetariligi va modellashtirish maqsadlari uchun baholash tavsiiya etiladi.

Modellar uchun bir yoki bir nechta modellarga xos bo'lgan bir yoki bir nechta xususiyatlarga qarab turli xil tasniflarni yaratishingiz mumkin.

Modellarni tasniflashning eng keng tarqalgan turlari quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi:

1. Foydalanish maydoni.
2. Vaqt faktori (dinamika) modelida hisobga olish.
3. Bilim sohasi.
4. Modellarini taqdim etish usuli.

1. Foydalanish sohasi bo'yicha tasniflash.

Ta'lim modellari o'rganishda ishlatiladi. Ular ko'rgazmali qo'llanmalar, turli simulyatorlar, o'quv dasturlari bo'lishi mumkin.

Tajribali modellar obyektini o'rganish va uning kelajakdagi xususiyatlarini taxmin qilish uchun ishlatiladi. Na, samolyot qanotining modeli aerodinamik trubkada "shamollanadi", uning atrofini tekshirish uchun; binoning modeli uni ma'lum bir joyga bog'lash uchun ishlatiladi. Bunday modellar loyihalashtirilgan obyektning qisqartirilgan yoki kattalashtirilgan nusxalari.

Ilmiy-texnik modellar jarayonlar va hodisalarni o'rganish uchun yaratilgan. Bunday modellarga momaqaldiroq elektr tokini olish uchun qurilma, Quyosh sistemasidagi sayyoralarning harakat modeli, ichki yonish dvigatelining ishlash modeli kiradi.

O'yin modellari turli xil o'yinlar: biznes, iqtisodiy, harbiy. Bunday modellar yordamida siz ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishingiz, psixologik yordam berishingiz, turli vaziyatlarda obyektning xatti-harakatlarini yo'qotishingiz mumkin.

Simulyatsiya modellari haqiqatni bir yoki bir nechta aniqlik bilan aks ettirmaydi, balki uni taqlid qiladi. Model bilan tajriba yoki har qanday harakatlarning haqiqiy vaziyatga ta'sirini o'rganish va baholash uchun turli xil dastlabki ma'lumotlar bilan bir necha marta takrorlanadi yoki boshqa shunga o'xshash narsalar bilan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, ammo turli sharoitlarda o'rnatiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xulosalar chiqariladi.

Adabiyotlar

1.Методика обучения черчению: Учеб. пособие для студентов и уч-ся худож.-граф. спец. учеб. заведений / В.Н. Виноградов, Е.А. Василенко, А.А. Альхименок и др. / Под ред. Е.А. Василенко. -М.: "Просвещение", 1990.

2.Ботвинников А.Д., Виноградов В.Н., Вышнепольский И.С. Черчение: Учеб. для 7-8 кл. общеобразоват. учрежд. -М.: "Просвещение", 1999.

3.Карточки-задания по черчению для 7 класса / Е.А. Василенко, Е.Т. Жукова. -М.: "Просвещение", 1998.

IQTISODIYOT VA TURIZM

Murod XUSENOV

Buxoro davlat universiteti
o'qituvchisi

Otabek UMUROV

Buxoro davlat universiteti
o'qituvchisi

Sherzod BOLTAYEV

Buxoro muhandislik-
texnologiya instituti magistri

BIZNES JARAYONLARINI TAVSIFLASH USULLARI

Bugungi kunda biznes jarayonlarini tashkil etishda uni modellashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. Biznesingiz muvaffaqiyatga erishishi uchun uni to'g'ri rejalashtirish, har tomonlama puxta tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biznes jarayonlari, ularni modellashtirish va tavsiflash usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlari: *biznes-jarayon, biznesni modellashtirish, biznes modeli, matn usuli, jadval usuli, grafik yondashuv.*

На сегодняшний день ее моделирование является одним из важнейших вопросов в организации бизнес-процессов. Чтобы ваш бизнес был успешным, важно его правильно спланировать, тщательно организовать. В данной статье рассматриваются бизнес-процессы, методы их моделирования и описания.

Ключевые слова: *бизнес-процесс, бизнес-моделирование, бизнес-модель, текстовый метод, табличный метод, графический подход.*

Today, its modeling is one of the most important issues in the organization of business processes. For your business to be successful, it is important to plan it properly, to organize it thoroughly. This article discusses business processes, their modeling and description methods.

Key words: *business process, business modeling, business model, text method, table method, graphical approach.*

Kirish. Biznes-jarayon – bu nazorat harakati va resurslar yordamida jarayonning kirishlari iste'molchilar uchun qimmatli bo'lgan natijalarga aylantiriladigan izchil, maqsadli va tartibga solinadigan faoliyat tizimi.

Biznes jarayonining asosiy xususiyatlari shundan iboratki, bu umumiy manfaatlar uchun tizimga birlashtirilgan cheklangan subyektlar va obyektlar to'plamidagi munosabatlar, motivlar, cheklovlar va resurslar bilan belgilanadigan cheklangan va o'zaro bog'langan harakatlar to'plamidir.

Biznesni modellashtirish – bu mavjud biznes jarayonlarini aniqlash, tavsiflash, tahlil qilish, shuningdek, yangi biznes jarayonlarini loyihalash faoliyati.

Biznesni modellashtirish, shuningdek, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish jarayonida korxonalar faoliyatini tavsiflovchi va tizimga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan intizom va alohida kichik jarayon (ishlab chiqilgan axborot tizimida avtomatlashtirishga to'g'ri keladigan quyi jarayonlar va operatsiyalar) deb ham ataladi.

Biznes modeli ostida biz ma'lumotlar, hujjatlar, tashkiliy bo'linmalar va tashkilotning mavjud yoki taklif etilayotgan faoliyatini aks ettiruvchi boshqa obyektlar bilan bog'liq jarayonlar va (yoki funksiyalar) operatsiyalar tarmog'ining tuzilgan grafik tavsifini tushunamiz.

Korxonalar modeli, uning barcha biznes jarayonlari aniq maqsadga yo'naltirilganligi uni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Biznes jarayonlarini haqiqatga iloji boricha yaqinroq modellashtirish korxonalar bilan haqiqiy tajribalar o'tkazmasdan takomillashtirishni tanlash va sinab ko'rish va shu bilan xavfni kamaytirish imkonini beradi. Biznes modeli turli nuqtayi nazarlardan oldindan baholash imkonini beradi. Korxonalar uchun asosiy talablar uning ishlashi, boshqaruvi, samaradorligi, faoliyatining yakuniy natijasi va mijozlarni qondirish darajasidir.

Hozirki kunda biznes jarayonlarini tavsiflashing quyidagi usullari mavjud: matn usuli, jadval usuli va grafik yondashuv.

1. Matn usuli. Bu usul biznes jarayonining oddiy matnli ketma-ket tavsifidir, masalan, "Savdo bo'limi shartnoma tuzadi va uni yuridik bo'lim bilan muvofiqlashtiradi". Ko'pgina korxonalar o'z faoliyatida me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqdilar va qo'llashadi, ularning ba'zilar jarayon qoidalari bo'lib, biznes jarayonlarining matnli tavsifidan boshqa narsa emas.

Shubhasiz, kompaniya faoliyatini tahlil qilish va optimallashtirish uchun ushbu variant sezilarli kamchilikka ega va inson tafakkurining tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan matn shaklida biznes jarayonining tavsifini tizimli ravishda ko'rib chiqish va tahlil qilish deyarli mumkin emas (faoliyat turi sifatida o'qish qiyinligi, tasvirlarga

bo'lgan ehtiyoj, "majoziy fiksatorlar" va boshqalar). Shu sababli, biznes jarayonlarining matnli tavsifidan foydalanganda, faoliyatni optimallashtirish bo'yicha qarorlarning unumdorligi va sifati nisbatan past bo'ladi, bu qaror bir guruh odamlar tomonidan qabul qilinganda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

2. **Jadval usuli.** Biznes jarayonini tavsiflashning jadval usuli ko'proq rasmiylashtirilgan va biznes jarayonini har bir ustun va satr o'ziga xos qiymatga ega bo'lgan tuzilgan

jadvalning hujayralariga bo'linishni o'z ichiga oladi.

Biznes jarayonining jadvali tavsifiga misol

Jarayon – sotib olishdan iborat. Egasi – tijorat direktorining o'rinbosari hisoblanadi. *Jarayonning maqsadi* – ishlab chiqarish ehtiyojlarini materiallar va butlovchi qismlar bilan qondirishdir. *Jarayonning qisqacha tavsifi* – tovarlar va materiallar (tovar aktivlari) bilan ta'minlashni tashkil etish, ularni saqlash va ishlab chiqarishga o'tkazish, yetkazib beruvchilarni tanlash va baholash.

1.1-jadval. Biznes jarayonining jadvali tavsifiga misol

№	Quyi jarayon	Mazmuni	Egasi	Ishtirokchilar
1.	Xarid qilingan tovarlar va materiallar ro'yxatini umumlashtirish va takomillashtirish.	Sotib olingan tovarlar va materiallar ro'yxatini aniqlashtirish. O'zgartirish uchun ruxsatnoma kartalarini ro'yxatdan o'tkazish.	Logistika bo'limi tashqi jihozlar bo'limi boshlig'i.	Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni boshqarish bo'limi.
2.	Yetkazib beruvchilarni baholash va tanlash.	Muqobil yetkazib beruvchilarni tanlash. Yetkazib beruvchi haqida ma'lumot to'plash. Yetkazib beruvchini baholash. Yetkazib beruvchilarning qiyosiy tahlili. Yetkazib beruvchini tanlash.	Tijorat bo'yicha direktor o'rinbosari.	Tashqi jihozlar bo'limi, xaridlar bo'limi yetakchi muhandislari.
			

Ushbu jadvalni o'qish osonroq, undan kim nima uchun mas'ul ekanligini tushunish osonroq bo'ladi, ish jarayonida ish qanday ketma-ketlikda bajariladi va shunga mos ravishda biznes jarayonini tahlil qilish osonroq. Biznes jarayonlarini tavsiflashning jadval shakli matnliga qaraganda samaraliroqdir, shuning uchun u endi kengroq qo'llaniladi va ularning avtomatlashtirish vazifalariga ilovalarda biznes jarayonlarini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Shunday qilib, dastlabki bosqichda jadval usulini qo'llashda jarayonning kirish va chiqishi (yetkazib beruvchilar va iste'molchilar), nazorat harakatlari (ichki va tashqi) va resurslar turlarini (inson va moddiy) tavsiflash kerak. Buning uchun "Jarayonlarni aniqlash varaqasi" tuziladi. Pastki jarayonlarni, shuningdek, qo'llab-quvvatlovchi hujjatlar turlarini va jarayonni buzish xavfini tavsiflash kerak. Biznes-jarayon tavsifi sxema va jarayon mantig'ini o'z ichiga olishi kerak. Blok diagrammasi jarayon funksiyalarini bajarish ketma-ketligini belgilaydigan munosabatlar (strelkalar) bilan bog'langan obyektlar (ixtiyoriy shakldagi to'rtburchaklar) sifatida tasvirlangan jarayonni o'z ichiga oladi. Oqim diagrammasi quyidagi jarayon atributlarining tavsifini o'z ichiga oladi: jarayon egasi, jarayonni boshlash shartlari, jarayon mijozi va kutilgan natijalar. Mahsulot olingandan so'ng

jarayonni baholash va haqiqiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish amalga oshiriladi. Keyin jarayonning samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha resurslarga bo'lgan talablar shakllantiriladi va resurslar turlari aniqlanadi.

Jarayonning mantig'i ustunlarni o'z ichiga olgan jadval shaklida taqdim etilishi mumkin: harakat, tarkib, mas'ul ijrochi va ishtirokchilar. *Harakatlar* – jarayonning bosqichlari bo'lib, jadvaldagi har bir qator bosqichga mos keladi. Ushbu bosqichlarning kombinatsiyasi jarayonni bajarish algoritmini aniqlaydi, u sxema ko'rinishida tavsiflanadi, bu yerda harakatlar to'rtburchaklar shaklida va shartli o'tishlar romblar shaklida taqdim etiladi. *Tarkib* – jarayonning har bir bosqichidagi faoliyat haqida fikr beradi. Bular ushbu bosqich uchun har xil turdagi hujjatlar, shuningdek, o'tgan bosqichlarni tahlil qilish (o'tish holati), baholashlar, so'rovlar va tushuntirishlar bo'lishi mumkin. Har bir bosqich (harakat)ning mas'ul ijrochisi va ishtirokchilari bor.

Shu bilan birga, biznes jarayonlarining bunday tasviri aniq kamchiliklarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, bu jarayon foydalanuvchilariga ko'rinmaydi. Ikkinchidan, jarayonga har safar o'zgartirish kiritganingizda, tegishli matn hujjatlarini qo'lda tahrirlashingiz kerak. Uchinchidan, algoritmlar va jarayon modellarining

178 oqim sxemalari taqdimotini birlashtirish mavjud bo'lmaganda, biznes jarayonlarini loyihalash uchun umumiy qabul qilingan standartlarga javob beradigan tavsifni yaratish qiyin. Bundan xulosa qilishimiz mumkin, shu tarzda ishlab chiqilgan jarayonlarni ixtisoslashtirilgan modellashtirish vositalari muhitiga o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

3. Grafik yondashuv. Hozirgi vaqtda biznes jarayonlarini tavsiflashda eng katta rivojlanish va qo'llash grafik yondashuvlar va usullardir. Ular korxonada faoliyatini tavsiflash, tahlil qilish va ratsionalizatsiya qilish muammolarini hal qilishda eng katta samaradorlikka ega ekanligi e'tirof etiladi. Agar o'quvchiga grafik tasvirlar ko'rinishidagi ma'lumotlar taqdim etilsa, uning tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyati sezilarli darajada oshadi.

Hozirgi vaqtda biznes jarayonlarini tavsiflash uchun ko'plab metodologiyalar (IDEF0, IDEF3, DFD, WORKFLOW, UML, ARIS va boshqalar) va asboblari (BPWin, ERWin, PowerDesigner va boshqalar) mavjud.

Strukturaviy va obyektga yo'naltirilgan tahlillar ma'lum turdagi diagrammalar, biznes jarayonlari va tizimdagi ma'lumotlar o'rtasidagi

munosabatlarni modellashtiradigan vositalardan foydalanadi. Ushbu vositalar tizim modellarining ma'lum turlariga mos keladi, ular orasida eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

- *IDEF (Integrated Definition)* – konstruktiv modellar oilasi va ularga mos diagrammalar;
 - *DFD (Data Flow Diagrams)* – ma'lumotlar oqimi diagrammasi;
 - *ERD (Entity-Relationship Diagrams)* – obyektlar o'rtasidagi munosabatlar diagrammasi;
 - *Workflow* – ish oqimini boshqarish texnologiyasi;
 - *BPMN (Business Process Modeling Notation)* – biznes jarayonlarini modellashtirish yozuvi;
 - rangli Petri to'rlarining matematik apparatiga asoslangan simulyatsiya vositalari (*Color Petri Nets, CPN*);
 - *UML* yagona modellashtirish tiliga asoslangan obyektga yo'naltirilgan metodologiyalar;
- keng ko'lamli maqsadlar uchun integrallashgan vositalar va metodologiyalar, misol uchun *ARIS*.

Adabiyotlar

1. Цуканова О.А. Методология и инструментарий моделирования бизнес-процессов: учебное пособие – СПб.: Университет ИТМО, 2015. – 100 с.
2. Information Integration for Concurrent Engineering (IICE) IDEF4 Object-oriented Design Method Report [Elektron manba]. – Kirish rejimi: <http://www.idef.com/pdf/Idef4.pdf>, bepul.
3. Information Integration for Concurrent Engineering (IICE) IDEF4 Object-oriented Design Method Report [Elektron manba]. – Kirish rejimi: <http://www.idef.com/pdf/Idef4.pdf>, bepul.
4. Эргашев А.А., Умуров О.Ф., Хусенов М.З, “ВЫБОР ПАТТЕРНА ПРОЕКТИРОВАНИЯ АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ “Проблемы науки” № 6 (65), 2021, с 17-19.
5. Murod Khuseinov, Otabek Umurov, Qo'ldosh Juraev, (2021). Development Of An Electronic System For Online Assessment Of The Work Of The Teaching Staff On A 110-Point System. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(05), 65-71.
6. Хусенов М., К. Жураев “РАЗРАБОТА ЭЛЕКТРОННАЯ СИСТЕМА ДЛЯ ОНЛАЙНОЦЕНКИ РАБОТЫ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ПО 110-БАЛЛЬНОЙ СИСТЕМЕ”, IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING TAFAKKUR VA TALQIN mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami, 2021 yil, 27-may, b 226-230.

JISMONIY MADANIYAT VA HARBIY TA'LIM

Zulfizar YUSUPOVA

Buxiro davlat universiteti
jismoniy madaniyat nazariyasi
va uslubiyoti tayanch doktoranti

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARI BILAN JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH JARAYONIDA PSIXOLOGIK HOLATLARNING NAMOYON BO'LISHI (BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARI MISOLIDA)

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya darslariga qiziqishni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishini o'rganish bolalarning jismoniy tarbiya darslariga qiziqishini oshirishning asosiy motivlari va usullarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, qiziqish, motivatsiya, jismoniy tarbiya, sport.

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития интереса к занятиям физической культурой у учащихся начальных классов. Изучение интереса младших школьников к занятиям физической культурой позволяет выявить основные мотивы и пути повышения интереса детей к занятиям физической культурой.

Ключевые слова: начальная школа, ученик, интерес, мотивация, физическое воспитание, спорт.

The article examines the theoretical and practical aspects of developing interest in physical education classes in primary school students. Studying the interest of young school students in physical education reveals the main motives and ways to increase children's interest in physical education classes. This, in turn, will have a positive impact on increasing the interest of young schoolchildren in physical education and sports, their participation in physical education classes, and improving their physical fitness.

Key words: elementary school, student, interest, motivation, physical education, sports.

Kirish. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlar va bolaning yosh xususiyatlari va psixik jarayonlari, shaxs xususiyatlarining rivojlanishini farqlash, psixik jarayonlar (diqqat, nutq, sezgilar, idrok, xayol, xotira, tafakkur, hissiyot va boshqalar), psixik holatlar (emotsiyalar, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, e'tiqodlilik, apatiya, qiziquvchanlik, bardamlilik, tetiklik) va shaxs xususiyatlarini (temperament, qobiliyat, iqtidor, mas'uliyat xarakter) jismoniy tarbiya va sport bilan bog'lay olish lozim. Mashg'ulot jarayoni, uning ta'siri, musobaqa davrida, musobaqadan so'nggi, davr, jamoa orasidagi munosabat holatlarining shakllanishi ahamiyatini bilishi lozim. O'quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi - Mustaqil Vatanga barkamol rivojlangan va sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirishga yordam berish bo'lib, bu maqsadga o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonida erishiladi. Umumiy vazifalarda ochib beriladi va aniqlashtiriladi. Shuningdek, ta'limiy, tarbiyaviy, sog'omlashtirish vazifalari qo'yiladi. Bu vazifalarni hal etishda boshqalari hisobiga birini ustun qo'yishga yo'l qo'ymaslik kerak. Ba'zida sport yo'nalishiga ega bo'lgan o'qituvchilar tarbiyaviy va umumta'lim vazifalarini unutib,

asosiy e'tiborni o'quvchilar jismoniy rivojlanishiga beradilar. Boshqa holda ikki tarbiyaviy va sog'omlashtirish vazifalari aziyat chekadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining faoliyat turidan qat'iy nazar faoliyat tarkibiy qismi, odatda, bir xil his etish va idrok qilishlar bilan bog'liq bo'lgan perseptiv (masalan o'quvchilarni kuzatish), ma'lumotni eslab qolish va qayta tiklash bilan bog'liq. Faoliyat bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi, tayyorlanish bosqichi, rejani bajarish (asosiy bosqich) bosqich va erishilganlikni baholash bosqichi (yakunlovchi bosqich).

Birinchi bosqichda jismoniy tarbiya o'qituvchisi juda katta hajmda ish bajaradi. Reja bo'yicha konspekt tuzadi, ularga tayyorlanadi, joylarni (zalni, suv havzasini, sport maydonini, stadionni) tayyorlaydi. Darsga oid bo'lgan barcha sport anjomlarini, qurollarini tayyorlaydi. Bu bosqichga faoliyatni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilarga qulay bo'lgan sharoitlarni yaratish va jismoniy tarbiya o'qituvchisining psixologik tayyorlanganligi kiradi.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarni (shug'ullanuvchilarni) nazorat qilish, ularni tarbiyalash (axloqiy, aqliy, estetik, mehnat vazifalarini tarbiyalash jihatidan), tartib saqlash,

ularni jarohatlanishdan saqlash va hokazolar kiradi. Belgilangan ishlarni amaliy tatbiq qilish, o'quvchilar harakatlari, intizomini nazorat qilish, dars boshida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, vaziyat o'zgarishiga ko'ra dars rejasini to'g'rilash bilan bog'liq. Bu bosqichda chetda qolgan o'quvchilar o'rtasidagi e'tiborni doimo taqsimlash va olib o'tish jismoniy jarohatlanishga olib keladigan vaziyatlarning oldini olishga ko'ra o'qituvchining sergakligi bilan shartlanadigan o'qituvchi psixik kuchlanishi bilan tavsiflanadi, boshqacha qilib aytganda, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga nafaqat psixik jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham jismoniy yuklanish tushadi.

Uchinchi bosqich (yakunlovchi bosqich) unda o'tkazilgan darsdagi yutuq va kamchiliklarga baho beriladi. Erishilgan natijalar baholanadi, jismoniy tarbiya o'qituvchisini faoliyati funksiyasi jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarining kelib chiqishi lozim. Faoliyatni qayta bajarishda rejaga to'g'rilashlarni kiritish bilan bog'liq, o'tilgan darsning to'liq tahlili, ba'zi bir noto'g'ri dalillarni umumlashtirish, ilmiy uslubiy adabiyotda yuzaga kelgan savollarga javob qidirishni talab qiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy maqsadi ularning garmonik shakllanishiga va jamiyatga sadoqatli, vatanparvar bo'lib yetishishiga yordam berishdir. Shuningdek, tarbiyaviy, ilmiy, tashkiliy, rahbarlik, loyihalashtirish, ma'muriy-xo'jalik funksiyalarni ham bajarishga to'g'ri keladi.

Aytib o'tilgan uchta vazifalarni hal etish jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan bajariladigan ishlar turiligi bilan shartlanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining foaliyati shakllari turli-tumandir. Bu, avvalambor, sinf va sinfdan tashqari ishlardan kelib chiqadigan maktabdagi ishdan iborat. Sinfidagi ish bu jismoniy madaniyat bo'yicha darslarni o'tkazish: u o'qituvchining asosiy o'quv yuklamasini tashkil qiladi. Sinfdan tashqari ish sport to'garaklari va seksiyalari mashg'ulotlarni o'tkazish. Maktab ichidagi sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish, sport bayramlarini o'tkazish, turistik, safar, harbiy sport o'yinlarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Bunga jismoniy tarbiya o'qituvchisining kichik sinf o'qituvchilari, tarbiyachilari o'quvchilari, ota-onalari bilan olib boradigan ma'rifiy ishi ham kiradi.

Asosiy qism. Maktabdan tashqarida jismoniy tarbiya o'qituvchisining ishi dam olish lagerlari va mehnat oromgohlarida o'quvchilar jismoniy tarbiyasini ta'minlash bilan bog'liq. Shuningdek, turar joy bo'yicha o'quvchilar jismoniy tarbiyasi ishini ham o'z ichiga oladi. Hozirgi paytda o'sib kelayotgan avlod jismoniy tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Sport inshootlari va jismoniy madaniyat xodimlariga ega bo'lgan maktab o'quvchi-yoshlar ichida jismoniy madaniyatni

ommalashtirgan, o'quvchilar qiziqishlariga ko'ra imkon boricha ko'pgina o'quvchilarni jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ulanishiga jalb qilgan, jismoniy madaniyat qonunbuzarliklarining oldini olish va tarbiyasi og'ir bolalarni qayta tarbiyalash vositasi sifatida qo'llangan holda bu ishni amalga oshirishda o'ziga xos Nizom bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyati shakllari:

a) uruh ishi, darslarni o'tkazish;

b) darsdan tashqari ish, seksiyalarda mashg'ulotlarni o'tkazish, sport bayramlarini o'tkazish, o'quv muassasasida musobaqalar o'tkazish, o'quvchi va ota-onalar bilan ma'rifiy ishlarni olib borish, turistik sayrlar, harbiy vatanparvarlik ruhida o'yinlar o'tkazish;

d) o'quv muassasasidan tashqarida olib boriladigan ishlar;

e) oila va mahallalarda olib boriladigan ishlar;

f) dam olish lagerlaridagi ishlar;

g) tuman va shahar musobaqalarida qatnashish.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatining sharoitlari: jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyati boshqa o'qituvchilar faoliyatiga nisbatan o'ziga xos sharoitlarda kechadi. Bu sharoitlarning uch guruhini ajratish mumkin. Bular psixik kuchlanish, jismoniy yuklanish, ochiq havoda mashg'ulotlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tashqi muhit omillari.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyati sharoitlari xususiyati jismoniy mashqlarni ko'rsatish va jismoniy mashqlarni bajarishda o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash hamda ochiq havoda, safarlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar o'quvchilar bilan birgalikda harakatlanish zaruriyatidan iborat. Bu kunda bir qancha darslarning mavjudligi jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun katta jismoniy yuklamani yaratadi. O'qituvchi butun kun davomida oyoqda tik turishi, harakatda bo'lishi oyoq va qomatni rostlovchilarga yuklama yaratishini hisobga olish kerak. Yosh o'tgan sari jismoniy konditsiyalar yomonlashishini e'tiborga olgan holda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan sinaladigan jismoniy yuklama pedagogik faoliyatining amalga oshirilishini qiyinlashtiradigan omillaridan biri bo'lishi muqarrar. Ayniqsa, bu erkak o'qituvchilar jismoniy qobiliyatlari darajasiga qaraganda kam bo'lgan ayol o'qituvchilariga tegishli.

Jismoniy konditsiyalar o'sishiga ko'ra yo'qotishlar mashqlarni ko'rsatishda o'qituvchisini ortiqcha kuch ishlatishga majbur qiladi. Natijada ko'rsatilayotgan mashqlarning estetik tomoni, uni bajarish yangiligi va erkinligi yo'qoladi. Bu esa salbiy pedagogik oqibatlariga ega, chunki o'qituvchi bola uchun kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik namunasi hisoblanadi.

Bunga yoʻl qoʻymaslik uchun oʻqituvchi yana jismoniy yuklamaning oʻsishiga olib keladigan oʻz jismoniy tayyorgarligini muntazam ushlab turishi lozim.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi faoliyatini oʻziga xos tomonlaridan biri uning tez-tez havoda oʻquv mashgʻulotini (toʻgaraklarni) oʻtib turishidir. Bu omil ijobiy va salbiy jihatga ega. Hamma narsa ob-havo va iqlim sharoitlariga bogʻliq. Masalan, Markaziy Osiyo va Janubiy hududlarning qizib ketishi, qishda (yogʻingarchilikda) havoning sovib ketishi hollari uchrab turadi, bu oʻqituvchi uchun xavf tugʻdiradi. Bu sharoitlar oʻqituvchidan chiniqqanlik va mustahkam sogʻliqni talab qiladi.

Pedagogik faoliyat pedagogik vazifalarning uzluksiz hal qilinishini bildiradi. Ularni hal qilish - mazkur pedagogik vaziyatga, pedagogik maqsadga erishishini mos usulini topishdir. Sababi oʻqituvchi va oʻquvchi eʼtiborliligi, oʻquv materialiga boʻlgan munosabati, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi munosabat hamda oʻquvchilar oʻzi oʻrtasidagi munosabat bilan ish koʻradi. Shuning uchun bir marta va har doim tekshirilgan maqsadga erishishi usuli bilan ishlash koʻp holda qulaydir. Har doim muntazam ravishda maqsadga erishishi usullarini almashtirish, mazkur pedagogik vaziyat uchun eng yaxshi usul tanlash kerak.

Pedagogik vaziyatni hal qilish bir qancha bosqichlardan oʻtadi: pedagogik vaziyat tahlili; intilgan maqsadga erishilish usullari, shu usullarni oldindan baholash va eng yaxshisini tanlash; qabul qilingan qarorni tatbiq etish; erishilgan natijaning tahlili va uning rejalashtirilgani bilan qiyoslash.

Oʻqituvchi tomonidan pedagogik vaziyatni baholashning murakkabligi koʻp holda faoliyatning maʼlum bir vaqt bilan taqsimlanganidan iborat. Oʻquvchilar guruhi bilan ish koʻrishi va yuzaga kelgan guruh hamda individual taʼsirni baholashi kerakligi natijasida oʻqituvchi psixik kuchlanishga olib keladigan bir muncha ogʻir holatga tushib qoladi. Bu shunga olib kelishi mumkinki, uning tahlili, obyekt maqsadga erishish toʻgʻri tanlangan usulidan chetga olib ketadigan vaziyatning mohiyatsiz belgilari boʻlib qoladi. Pedagogik vaziyat mazkur sinf oʻquvchilarining tayyorlanganligi darajasi, umuman, ularning jismoniy tarbiya va xususan jismoniy tarbiya darslariga munosabati, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabat, oʻquvchilar oʻrtasidagi oʻzaro munosabat darsning moddiy taʼminoti, ob-havo sharoitlari (havodagi mashgʻulotlar) va boshqa hollarini oʻz ichiga oladi. Barcha shu natijalarni tahlil qilib chiqib, oʻqituvchi yuzaga kelgan vaziyat pedagogik vazifa hal qilinishining ehtimol usullari haqidagi fikrni oldinga qoʻyishni belgilaydi. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi pedagogika, psixologiya, fiziologiya,

gigiya, jismoniy tarbiya nazariyasi uslubiyati boʻyicha keng bilimlarga ega boʻlgan taqdiridagina bunga erishish mumkin. Keyinchalik kuchli va kuchsiz jihatlar aniqlangan holda maqsadga erishishi uchun qoʻllanilayotgan usullarning diagnostik baholanishi boshlanadi. Bu usullarning tartibli qiyoslanishi oʻqituvchining nuqtayi nazariga koʻra mazkur vaziyatda eng yaxshi usulni tanlashga olib keladi. Shunga muvotiq mazkur pedagogik vazifaning hal qilinishi uchun aniq reja ishlab chiqiladi (yoki ishlab chiqilgan rejaga oʻzgartirishlar kiritiladi). Oʻqituvchining kelgusi boshqaruv faoliyati u bilan yaratilgan rejani amaliy hayotga tatbiq etishga yoʻnaltiriladi. Dasturni amalga oshirgandan soʻng oʻqituvchi albatta erishilgan natijaning tahlilini qilishi, muvaffaqiyatsizlik boʻlgan boʻlsa, uning sabablarini aniqlash kerak. Buning natijasida kelgusida aynan shunday vaziyat yuzaga kelganida u yaxshiroq ish tuta oladi va uni hal qilishning optimal variantiga yaqinlashadi. Pedagogik vazifalarni hal qilib, oʻqituvchi uning pedagogik mahoratiga bogʻliq boʻlgan tajribani toʻplaydi. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi avvalo bolalarni oʻrab turgan ijtimoiy muhit tengdoshlari va kattalar oʻrtasida boʻladigan munosabatlarni birinchi kundan boshlab oʻrgatib boradi. Oʻqituvchi bir sinfning oʻzida turli xil va individual tafovutlarga duch keladi. Bular oʻqituvchi oʻquvchilarning temperament tiplari, xatti-harakatlari (koʻnikma malakalari), oʻquv materiallarini oʻquvchilar tomonidan qanday eslab qolishi, qanday oʻzlashtirayotganliklarini, sport musobaqalari, sport bayramlari hamda estafetalarda qanday faollik koʻrsatayotganliklarini (boshqa ish shakllarida) bilishidan iboratdir.

Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlangʻich (I-IV) sinflarning oʻquvchilari kiradi. Bola maktab taʼlimiga bogʻchada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda oʻquvchilarga qoʻyiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini oʻrganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor boʻladi. Maktab taʼlimiga psixologik tayyorlik deganda bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibli nazarda tutiladi. U maktab taʼlimiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanishi lozim, shu yoshdagi bola idrokining oʻtkirli, ravshanligi, aniqligi oʻzining qiziquvchanligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolli bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab taʼlimiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror boʻladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va sujetli oʻyinlardan,

182 (harakatli o'yinlardan: rol, jamoali, yakka tartibda), rasm chizish va qurish-yasash, jismoniy tarbiya (xatti-harakatlari) mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda o'zgaruvchi nutqini idrok qilish va tushinishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bolalar o'z diqqatini muayyan obyektiv yo'naltirish, to'plash, taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib, o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muhokamalar va natijalar. Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasi (I-IV sinf) har qachongidan ham juda muhim va dolzarb vazifalardan bo'lib turibdi, bolalarni tarbiyalash butunlay o'zgardi, chunki har tomonlama rivojlangan va mehnatga tayyor bo'lgan yosh insonni tarbiyalash vazifalarini "Jismoniy tarbiya va sport" qonuni, "Sog'lom avlod uchun", "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi farmonlari ifodalab beradi. Bu vazifalar, albatta, nazariy yo'l bilan yoki metodik tajribalar, ba'zi bir psixologik qarashlar asosida bolalarning yosh individual xususiyatlariga (temperament, harakat, qobiliyat, iqtidorli, aqliy salohiyati, xulq motivatsiyasi, mas'uliyat) mos holda psixologik nazariyalarini amaliy pedagogik ishida to'la muvaffaqiyatli tatbiq etishda qo'lga kiritiladi.

Bola maktabga kelishi bilan uning hayotida o'zgarish yuz beradi. Ular o'qiy boshlashi bilan uning vazifasi, hayotidagi asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi.

Bola maktabda tizimli ravishda yangiliklar oladi bu o'quvchining kundan kunga ortib borayotgan xilma-xil mazmundagi bilimlarining manbayidir. Shular orqali uning bilim doirasi ham kengayib boradi. Aqliy jarayonlari rivojlana boradi, shu bilan bir qatorda bolaning emotsional va irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojlana boshlaydi. Jismoniy tarbiya darsidagi (sport bayramlari, sport musobaqalari, estafetalar) ta'lim jarayonini o'zi bola psixik jarayonlariga (diqqati, nutqi, sezgilari, idroki, xotirasi, xayoli, tafakkuri, hissiyoti (irodasi), psixik holatlari (bardamligi, tetikligi, qiziquvchanligi, ishonchligi, e'tiqodi, emotsiyalari, ijodiy ruhlanishi), psixik xususiyatlariga (temperamenti, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, aqliy salohiyati, mas'uliyati) yangidan yangi talablar qo'yadi.

Maktabdagi o'qish tashkiliy, muayyan maqsadga qaratilgan ancha ixtiyoriy aqliy jarayonlarni talab etadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari maqsadi bola sog'lig'ini mustahkamlashga, chiniqtirishga, har

tomonlama garmonik va jismoniy rivojlanishiga, aqliy hamda jismoniy ish qobiliyatini oshirishga yordamlashishdan iborat. Binobarin, bolalar idrokini rivojlantirishda shunday mashqlar tanlanishi kerakki, ular bu mashqlarning bajarilish jarayonini o'zida to'g'ri kuzata olsin. Misol: to'pni otish, ilish, irg'itish mashqlari (tepaga pastga, uzoqqa, mo'ljalga, sherigiga). Bunda ko'z bilan chamalash, va harakatlar (elementlarni bir-biriga) moslashuvi, to'pni his qilish, yo'nalishni, to'g'ri baholay olish kabi idrok jarayonlari rivojlanadi. Bu bilan bog'liq holda idrokdagi so'zning roli ortib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda makon va zamoni idrok qilishi, o'ziga xos xususiyatga ega. Malumki, makon va zamoni idrok qilish bolaning hayot tajribasiga bog'liq. Kichik maktab yoshida diqqatni boshqarish imkoniyatlari ham cheklangan hisoblanadi. Albatta, bu yoshdagi o'quvchilarning diqqati boshqa yoshdagi o'quvchilar diqqatining kuchsizligi bilan farq qiladi. Ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash uchun jismoniy tarbiya darslari (sport bayramlari, sport musobaqalari, estafetalar) muhim rolni o'ynaydi. Shuning uchun jismoniy tarbiya darsi jarayonida (sport bayramlari, sport musobaqalari, estafetalar) qushlarning uchishi, hayvonlarning yurishi, maymunlarni yoki quyonlarni tutish, daraxtlarga o'xshab tebranish va hokazolar taqlid sifatida kiritilishi bola diqqatini tarbiyalab boradi. Yana shuni aytish kerakki, o'rgatish jarayonida mashqlarni qismlarga bo'lib o'rgatishdan ko'ra, soddalashtirilgan holda butunlay o'rgatish metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan: yugurib kelib uzunlikka sakrash (echki bolasiga (uloqchaga o'xshab) sakrash), yugurib kelib balandlikka sakrash (ariqdan sakrab o'tishga o'xshab). Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, to'planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish (u yoki bu mashqlarni, elementlarni bajarishi), mashqlarni takrorlashi, irodaviy zo'r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek, uning eng zarur xususiyatlari takomillashadi, bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi. Bolalarning o'zaro aloqaga kirishishlarida tildan foydalanish jarayoni nutq deb ataladi. Jismoniy tarbiya (sport bayramlari, sport musobaqalari, estafetalar) yoki sportda ham har bir bajargan mashqlarimiz jarayonlari qanday kechishi, tanamiz bilan qatnashishdagi qo'pol xatti-harakatlar nutq (til) orqali yetkaziladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan mashqlarni ifodali qilib so'zlash orqali bolalarning fikr va harakatlarigagina emas, balki ularning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'zlariga

mos turli harakat faoliyatining vazifa va shartlarini tushunib olishda yetarli tayyorgarlikka ega ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishda og'zaki ta'sir etish (rag'bartlantirish, tanbeh berish) usullaridan, keng foydalanish imkonini beradi. Ular faqat ko'nikmalarni egallash sur'atini emas, balki sifatini oshiradi. O'quvchi rivojlanishining keyingi bosqichlarida og'zaki (nutq) ta'sir etish tizimi yordamida avvalgi taassurotlar izlarining yangi birikma va kombinatsiyalarda jonlanishi yuz beradi. Bunda, asosan, birinchi bor sof og'zaki ko'rsatma va tushuntirishlar yordamida yangi munosabatda aloqa o'rnatish, yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni tug'iladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasining eng muhim xususiyatlaridan biri - So'z mantiq xotirasi va ma'nosini tushunib, eslab qolish salmog'ini orttiradi. O'quvchi o'z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlab qolish jarayonlarini faoliyatning maqsadiga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, birinchi signal tizimi ikkinchi signal tizimidan birmuncha ustunligi tufayli o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rsatmali harakatli xotira muhimroq rol o'ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Kichik maktab yoshda xotira ta'lim ta'siri ostida ikki tomonlama rivojlanadi:

1) so'z - logik esda olib qolishning roli o'sadi va bola o'z xotirasini boshqara olish malakasini egallaydi.

2) birinchi signal tizimining bu yosh davrida ustun bo'lishi natijasida aniq-obrazli xotira rivojlangan bo'ladi. Shuningdek bu yoshda harakatli o'yinlarga (syujetli va syujetsiz, yakka tartibda, jamoali harakatli o'yinlarga, (sport bayramlari, sport musobaqalari, estafetalar)) katta e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ularda shunga qaramay mexanik esda olib qolishga layoqati kuchli bo'ladi.

P.F.Lesgaft: "Agar bola biror bir harakatni yoki ayrim usullarni ma'nosini mutlaqo tushunmay o'zlashtirar ekan, bunda u mexanik tarzda harakat qiladi - u mazkur harakatni tatbiq eta olmaydi", - deb yozgan edi. Shuning uchun harakatlarni o'rganishda quruq taqlid qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Aynan shu yoshda o'quv faoliyati jarayonidagi talablar xayol asosida shakllanadi. Bu yoshda bolalar xayolining o'ziga xos xususiyati shundaki, biror voqeani so'zlab berayotganlarida uni beixtiyor ravishda o'zlaricha to'ldiradilar va xayol

suradilar. O'quvchilarning xayoli o'z o'quv faoliyatining ta'siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning xayoli tevarak atrof taassurotlari, Dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalilikni (harakatlarga o'rgatishda yaqqol ko'rish usullari, harakat yoki ayrim harakat elementlarining o'qituvchi tomonidan to'g'ri va aniq namoyish etilishidan; masofani bosib o'tishda mo'ljal olishdan foydalanish; ko'rgazmali qo'llanmalar - kinofilmlar, kinogrammalar, teleeshittiruvlar, fotosuratlar, slaydalar va boshqalardan) yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Shuningdek, harakat topshirig'ini berish paytida aytilgan so'z (nutq) harakat mazmuni va tuzilishini tasavvur qilishga yordam beradi. Shularni egallashda aloqalar hosil qilinadi, (ko'nikma va malakalar ijobiy ko'chadi) har qanday, mashqlarni xayolan takrorlaganda ham bu aloqalar sayqallashadi, natijada mashqlarni amaliy bajarish ham yaxshilanadi (A.S.Puni)

Xulosa qilib aytganda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirishning g'oyat muhim sharti sifatida bolalar ommaviy sporti rivojlantirilishini ta'minlash maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada mamlakatimizda ta'lim tizimini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun turli tadbirlarni o'tkazish ko'zda tutilishi lozim. O'quvchilarni jismoniy jihatdan nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularni bu boradagi jismoniy harakat ko'nikma va malakalar bilan oshno qilish, mazkur fanning asosiy vazifa etib belgilandi. O'quvchilar sog'lig'ini yaxshilash, ularni jismoniy rivojlantirish, bolalarga jismoniy chiniqish va sport bo'yicha bilim berish maktabdagi jismoniy tarbiya darslarida, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Bu vazifalarni bajarish, bolalar sog'lig'ini asrash, ularni har tomonlama garmonik rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalashni eng kichik yoshdan boshlab uzluksiz ta'lim tizimi asosida boshlang'ich sinflararo davom etilishi lozim.

Ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan doimiy haftada 2 soatlik jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning haftalik harakatga bo'lgan ehtiyojlariga hamda ularning jismoniy tayyorgarligini ta'minlashga javob bera olmaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlarini, sport to'garak mashg'ulotlarida mustaqil shug'ullanish malakalarini oshirish, uning zaruriyati va qiymatini to'g'ri tushuntirish ham zarur, kerakli mashqlarni tanlab majmua tuzish qobiliyatini shakllantirish kerak. Bolalarning harakat faolligini oshirishda kun tartibida

184 o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlari, ayniqsa, ommaviy sport bayramlari, musobaqalari yetakchi rol o'ynaydi. Zamon talabini hisobga olgan holda hamma fanlar bo'yicha maktab dasturlari o'zgardi, shu jumladan, jismoniy tarbiya bo'yicha ham o'quvchilar oldida yuqori darajali talablar qo'yilgan. Bu dastur talablarga javob berish maqsadidan o'quvchilar bilimga ega bo'lish uchun

maktabda va uyda o'quv ishlari bilan shug'ullanadilar. Albatta, bunday katta aqliy yuklama ishini bajarish uchun baquvvat va jismonan sog'lom bo'lish kerak. Sir emaski, sog'lom bola hamma vazifalarni yuqori darajada sifatli bajaradi, u iroda, intiluvchan qiziqishga ega bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Abdullayev A., Xankeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati: Jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun darslik. – T., 2005. 232 b.

2. Yusupova Z.Sh. Принципы и методы организации физкультурно-спортивных мероприятий в образовательных учреждениях //Academy. – 2019. – №. 5 (44).

3. Djumaturdiyevich A. S. Yusupova Zulfizar Sharipovna //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 271.

4. Yusupova Z.Sh. Methodology for teaching physical lessons using digital technologies in primary school. *Вестник науки и образования. Научно-методический журнал 20.10.2021.№15(118) часть 3.*

O'QUVCHILARNING HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDA IJTIMOY TASHKILOTLAR VA OILANING O'RNI

Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Maqolada o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida ijtimoiy tashkilotlar va oilaning o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, oila, vatanparvarlik, fazilatlar, tarbiya, ta'lim jarayoni.

В развитии национального самосознания большое значение имеет воспитание глубоко мыслящей молодежи, проникнутой идеями национального патриотизма. Поэтому каждый наш юноша, готовящийся к защите Родины, должен быть воспитан в духе высокого патриотизма. Патриотизм – высокое качество человека. В статье рассматривается роль общественных организаций и семьи в военно-патриотическом воспитании студентов.

Ключевые слова: национальное самосознание, семья, патриотизм, качества, воспитание, образовательный процесс

In the development of national self-consciousness, the education of deeply thinking youth, imbued with the ideas of national patriotism, is of great importance. Therefore, each of our youth, preparing to defend the Motherland, must be brought up in the spirit of high patriotism. Patriotism is a high quality of a person. The article discusses the role of public organizations and families in the military-patriotic education of students.

Key words: national identity, family, patriotism, qualities, upbringing, educational process.

Kirish. Oliy va o'rta maxsus ta'lim yurtlaridagi harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - davlatimiz faoliyatining muhim sohalaridan biridir.

“Xalq va jamiyat, oila va mahalla kabi barqorlik ishonchli an'anaviy tayanchi sohibidir” deb yozgan edi, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “O'zbekiston: milliy mustaqillik, iqtisod, siyosat, mafkura” kitobida. “Aynan ular mentalitetimiz” suyanchi, oila va mahalla aholiga hozirgi o'tish davridagi ko'pgina muammalarni hal etishga imkon beradi. Hech kim va hech narsa pok va haqiqatparvar shaxsni tarbiyalash, ona tilini tiklashida oila bilan teng kela olmaydi...”

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasida oilaning o'rni katta. O'quvchilarning qarindoshlari bo'lgan urush qatnashchilari, armiya va flot faxriylari tarjimayi hollari bilan tanishtirish, davlat mukofotlariga to'g'ri munosabatini shakllantirish kerak. O'quv muassasa pedagogik jamoasi o'quvchilarning o'yin tarzidagi harbiy faoliyatni tashkil qilishda hamda uzoq masofalarga bolalar bilan piyoda o'tishlar (masalan, qo'ziqorin terish uchun), o'rim paytida yoki baliq ovlashga borganda ota-onalarni jalb qilish kerak. Bunda bolalarni joyni aniqlash, to'siqlardan o'tish va boshqaga o'rgatish lozim. O'qituvchilar barcha yuzaga keladigan savollar bo'yicha ota-onalarga maslahat berishi mumkin.

Asosiy qism. Oilaviy tarbiya o'sib kelayotgan avlodda Vatanga muhabbat hissini rivojlantirish, uning himoya, harbiy jasorat, harbiy kasbga

muhabbat ahamiyati haqida to'g'ri tushuncha shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi Vatan uchun kurashlarda halok bo'lgan qarindoshlar xotirasiga bo'lgan an'analarga hurmat, ularning jangovar mukofotlari, surat va esdaliklarini avaylab asrashning ahamiyati katta.

Vatanimiz qahramonona tarixi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar jangovar yo'li, armiya va flotdagi xizmati, jangovar harakatlardagi shaxsiy qatnashuvi haqidagi ota-bobolar hikoyalari bolalarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, ota bobolari qaysi yillarda, frontda va qaysi mamlakat va shaharlarning ozodligi uchun kurashgan, baynalminal burchini bajarib, ota va katta akalarning Afg'onistonda qanday jang qilgani, qanday orden va medallar bilan taqdirlangani haqida bolalarning bilishi juda muhim.

Bolalarda vatanparvarlik adabiyoti va yodnomalar, Qurolli Kuchlarimiz jangovar yo'li, xalqimiz qahramonlik jasoratlari, qahramon himoyachilarning bugunchi jangovar va ijtimoiy siyosiy tayyorgarligi haqidagi kinofilm, ko'rsatuvlarga qiziqishni rivojlantiradigan oilalar to'g'ri yo'ldan boradi.

“Vatanparvar” MKJ qo'mitasi o'quv yurtida o'quvchilarni mudofaa ommaviy ishga faol jalb qilishni ta'minlaydi, harbiy va harbiy texnik bilimlarning keng targ'ibot ishini olib bordi, chaqiriqqacha tayyorgarlik, o'yinlarini o'tkazishda yordam ko'rsatadi, mudofaa ommaviy tadbirlarni

186 o'tkazish uchun o'quv moddiy bazani yaratish va mustahkamlash tashabbuskori hisoblanadi.

"Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkiloti raisi etib, odatda, o'quv yurti "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'qituvchisi saylanadi. U sinf rahbarlari, o'qituvchilarga harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishini tashkil qilishda metodik yordam ko'rsatadi, fan o'qituvchilari metodik birlashmalari ishtiroki orqali o'quv jarayonida jamiyat mudofaasi tajribasini tatbiq etadi.

Ta'lim maskanlari miqyosidagi "Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni tashkillashtirish mumkin:

"Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkilot raisi "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'qituvchisi bilan yilida ikki-uch marta quyidagi masalalar bo'yicha kengash yig'ilishlari o'tkazish: "Vatan himoyachisi" bayrami, "Yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ish holati", "Navro'z bayramiga tayyorgarlik haqida", "Xotira va qadrlash bayramiga tayyorgarlik haqida", "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni bayrami haqida", "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga, ya'ni harbiy xizmatga tayyorligi bo'yicha boshlang'ich tashkilot ishi haqida". Shu jumladan, baynalminal jangchilar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, Vatan himoyachisi kuniga bag'ishlangan pnevmatik miltiqdan o'q otish bo'yicha musobaqa o'tkazish mumkin.

Mudofaa ommaviy ish oyligining ibratli o'tishida badiiyfilmlarning mavzuga oid ko'rsatilishi, harbiy amaliy sport turlari bo'yicha musabaqalar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Sinflarda "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va Vatan himoyasi", "Qurolli Kuchlarda xizmat qilish - Respublika har bir fuqarosining burchi", "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" mavzusida suhbatlar o'tkazish, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va o'q otish bo'yicha 10-11 sinflarda orasida musobaqa o'tkazish, "14-yanvar – Vatan himoyachisi kuniga bag'ishlangan pnevmatik miltiqdan o'q otish musobaqasi o'tkazish, o'quvchilarning "Shunqorlar" harbiy sport o'yinida qatnashishlari katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv yurti direktori, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'qituvchisi va o'qituvchilarning o'quvchilar vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish va o'tkazishdagi o'rni va majburiyati.

Muhokama va natijalar. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi har qanday murakkab tizim kabi boshqaruvga muhtoj. Boshqarish funksiyalari ko'p ma'noli, lekin asosiysi, uning negizida harbiy vatanparvarlik ishlarini tashkil qilish va

o'quvchilarning bo'lajak harbiy xizmatga munosabati natijalari darajasi, ularning Vatan himoyasiga tayyorgarligini va uni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'rganish yotadi.

O'quv muassasa direktorining vazifalari:

1. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga umumiy rahbarlik qilish, kadrlarni tanlash, tarbiyalash va joy joyiga qo'yish.

2. Harbiy vatanparvarlik ishlari holatini tahlil qilish, uni rejalashtirish, rejalarni jamoat, o'quv muassasadan tashqari tashkilotlar, tayanch korxonalari bilan moslashtirib olish.

3. Harbiy vatanparvarlik faoliyati, o'qituvchilar, sinfdan va o'quv muassasadan tashqari ishlar tashkilotchilari, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning tashabbuskorona qarorlarini ilgari surish.

4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ishlarining borishi yuzasidan o'quv muassasa ichki hisobi va nazoratini olib borish.

5. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish uchun zaruriy, ijtimoiy va ma'naviy psixologik sharoitlarni yaratish.

Bundan tashqari direktor harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha jamoat kengashi raisi hamdir.

Sinf rahbari:

1. Sinf jamoasining maqsadga yo'naltirilgan harbiy vatanparvarlik faoliyatiga rahbarlik qiladi.

2. Ushbu sinf bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar va tarbiyachilar, maktabdan tashqari muassasalar va ota-onalarning o'quvchilarda Vatan himoyasiga tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha tegishli ishlarini rejalashtiradi va muvofiqlashtiradi.

3. O'quvchilarda harbiy vatanparvarlik ongining rivojlanishi, bo'lajak Vatan himoyachilariga zarur bo'lgan mahorat va ko'nikmaning shakllanishi ustidan muntazam psixologik pedagogik nazorat olib boradi.

4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini muvofiqlashtiradi, bu faoliyatga tarbiyachi va jamoatchilarni ham jalb qiladi.

O'qituvchilar:

1. O'quv tarbiya jarayonining harbiy vatanparvarlik yo'nalishini, bo'lajak jangchining shaxsiy buyum va anjomlari bilan shakllantirishni ta'minlaydilar.

2. Darsning tarbiya maqsadlariga muntazam ravishda harbiy vatanparvarlik tomonlarini kiritib boradi, tegishli materiallar, shuningdek, uni bayon qilish metodlarini belgilaydi.

3. O'quvchilarning ko'ngilli jamiyati boshlang'ich tashkilotlari (tabiatni muhofaza qilish, madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, Vatanparvar va boshqalar)ga pedagogik rahbarlik qiladi.

4. Harbiy vatanparvarlik tarbiya uchun turi uslubdagi darsliklar bilan qo'laydilar.

"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'qituvchisi:

1. Sinfdan va o'quv muassasadan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi bilan birgalikda o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlarini rejalashtirishda qatnashadi, sinf rahbarlari va jamoat tashkilotlariga yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashda metodik va amaliy yordam beradi.

2. O'quv jarayoni paytida o'smirlarni chaqiriqqacha tayyorgarligi bo'yicha dars beradi va darsdan tashqari vaqtda fakultativ dars olib boradi, o'quv yurti direktori yordami bilan buning uchun zaruriy o'quv jihozlar bazasini yaratadi.

3. Umumiy ta'lim fanlari bilan chaqiriqqacha tayyorgarlikning fanlararo aloqasini ta'minlaydi.

4. Harbiy vatanparvarlik bo'yicha yetakchilarini tayyorlashga rahbarlik qiladi.

5. Yosh arimiyachilar maktabi, harbiy texnika to'garaklari ishlarini tashkil qiladi.

6. Harbiy sport bayramlariga tayyorgarlik, safda yurish va qo'shiqlar ko'rigi, o'quvchilarning yosh armiya mutaxassisligi bo'yicha harbiy sport o'yinlari, musobaqalari o'tkazishga rahbarlik qiladi, bu ishni tashkil qilish uchun o'qituvchilarni, ota onalarni, tayanch korxonalar jamoa a'zolarini jalb qiladi. Shaxsan bir ikkita mudofaa to'garaklarida yuqori sinf (kurs)larni qatnashtirib dars o'tadi;

7. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan birgalikda o'quvchilarni "Salomatlik" me'yorlarini topshirishga tayyorlashni tashkil qiladi.

8. "Vatanparvar" boshlang'ich jamiyatiga yordam qiladi.

9. Tuman mudofaa ishlari bo'limi (MIB), "Vatanparvar" tuman qo'mitasi, harbiy qism va bo'linmalar bilan doimiy ish aloqasini ushlab turadilar.

10. Harbiy mutaxassisliklar bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini boshqaradi, harbiy xizmatga o'quvchilarning moyilligi rivojlanishini rag'batlantiradi, yoshlarga ularni harbiy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga tayyorlanishiga yordam beradi.

11. O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi sifatlarini bajarishda otaliq tashkilotlar, harbiy qismlari jamoat tashkilotlarining yordamlaridan foydalanadi.

Xulosa. Ishning jamoa shakllari shaxsiy shakllari bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Ular birinchi navbatda harbiy kasbga qiziqish bildirgan o'quvchilar bilan o'tkaziladi.

Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston", 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: "O'zbekiston", 2016.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", 2017.

5. Satib-Aldiev Q. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. -T., 2003. -67 bet.

6. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuv: Metodik qo'llanma/ M.Yu.Sa'dullaev. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2009. – 91 bet.

7. Mamurov U.I. Harbiy qismda tarbiyaviy ishlar metodikasi.-T.: "Fan" nashriyoti, 2008. -94 bet.

8. Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 231-235.

9. Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.

10. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 969-974.

11. Ergasheva G. B., Tohirova S. MUSTAQILLIK NE'MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTAHKAMLIGINI SHAQLASH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 1196-1200.

12. Ergasheva G. НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

13. Ergasheva G. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАСHTIRISH CHORA TADBIRLARI TO'G'RISIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
14. Ergasheva G. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
15. Эргашева Г. Б., Раджабова И. Х. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
16. Эргашева Г. Б., Хожиева М. У. Одаренность детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 31.
17. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
18. Эргашева Г. Б., Ахмедова Н. М. Беседа как метод формирования диалогической речи для детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 11-2 (98). – С. 76-77.
19. Эргашева Г. Б. Использование интегрированных технологий в высшем образовании //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3 (91). – С. 74-75.
20. Алимов А. Т., Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Особенности применения метода "изучение случаев" в обучении //Молодой ученый. – 2016. – №. 10. – С. 1163-1165.
21. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – С. 852-854.
22. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. – 2014. – С. 101-104.

TALABALARDA HARBIV VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKILASHTIRISHDA O'Z QOBILYATINI TARBIYALASH

Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo, ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o'zlarini hissalarini qo'shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo'yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi. Maqolada talabalarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkilashtirishda o'z qobiliyatini tarbiyalash usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, burch, sadoqat, tarbiya, ta'lim, sport, mashg'ulot, to'garak.

Молодежь – будущее нашей Родины, нашего народа. Поскольку мы вверяем им судьбу нашей страны, они, прежде всего, должны глубоко понимать возложенную на них сложную и ответственную задачу и способствовать ее решению. Ведь любовь к Родине, любовь к ней напрямую определяется созидательным трудом каждого в развитии этой страны. В статье рассматриваются пути подготовки курсантов к организации военно-патриотического воспитания.

Ключевые слова. патриотизм, долг, преданность, воспитание, образование, спорт, обучение, кружок.

Youth is the future of our Motherland, our people. Since we entrust them with the fate of our country, they, first of all, must deeply understand the complex and responsible task entrusted to them and contribute to its solution. After all, love for the Motherland, love for it is directly determined by the creative work of everyone in the development of this country. The article discusses the ways of preparing cadets for the organization of military-patriotic education.

Keywords. patriotism, duty, devotion, upbringing, education, sports, training, circle.

Kirish. Mudofaa-ommaviy ishlari yoshlarni vatanparvarlik, O'zbekiston Qurolli Kuchlariga muhabbat va hurmat, yuksak ogohlik va mustaqil O'zbekistonning Qurolli himoyachisi bo'lishga doimiy tayyorgarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Mudofaa-ommaviy ishlar vazifasi - ommada harbiy va harbiy-texnik bilimlarni, sportning harbiy-texnik turlarini keng targ'ib etish, yoshlarni harbiy xizmatga har tomonlama tayyorlash.

Asosiy qism. Mudofaa-ommaviy ishlarining shakl va uslublari turlicha bo'lishi mumkin. Ularni tanlashga ijodiy yondashish mumkin. Bu yerda tanqid, ma'muriyatchilik, bir xilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, bir xil, lekin turli yoshdagi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulot shakli, mazmuniga va o'tkazish uslubiga ko'ra jiddiy ravishda farq qilishi kerak.

Tajribalar ko'rsatadiki, mudofaa-ommaviy va harbiy vatanparvarlik ishlari muvaffaqiyati, eng avvalo, o'tkazilayotgan tadbirlarning yuksak ma'naviy-siyosiy, ijtimoiy foydali yunalishiga bog'liq. Mudofaa-ommaviy ishlarning samarador shaklini to'g'ri tanlash ham ahamiyatga ega. Mudofaa-ommaviy ishlar haftaligi va oyligi, Qurolli Kuchlar turli sanalarga bag'ishlab urush va armiya faxriylari bilan uchrashuvlar, harbiy vatanparvarlik mavzusidagi tematik kecha va kitobxonlik konferensiyalari, kinofestivallar, kintarixi kabi tadbirlar hayot sinovidan o'tgan va o'zini to'la oqlagan.

O'quvchilar jangovar va mehnat shon-shuhrati joylariga yoshlarning respublika safari dasturi bo'yicha tadbirlar, Xotira vaxtasi, "Ikkinchi Jahon urushi yilnomasi" qidiruv ekspeditsiyalarida faol ishtirok etadi. Ular "Vatanparvar" va "Shunqorlar" dasturi buyicha harbiy-sport o'yinlarini tayyorlash va o'tkazishga o'z hissasini qo'shadi.

Safarlar va harbiy-sport o'yinlari ta'lim muassasalari jamoasi ishtirokida nafaqat harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ommaviy amaliy shakli, balki harbiy va harbiy-texnik bilimlar, yoshlarni jismonan chiniqtirish, harbiy xizmatga o'smirlarni tayyorlash maktabiga aylandi.

O'qituvchilar, ta'lim muassasalari "Vatanparvar" MKT qo'mitalari yoshlarni otish tirlarni qurish va jihozlash, to'siqli yo'laklar va boshqa oddiy sport inshootlarini yaratishga jalb etmoqdalar, yoshlar tomonidan harbiy-texnik ixtisosliklarni egallanishi uchun sharoitlar yaratmoqdalar.

O'rta ta'lim muassasalaridagi mudofaa-ommaviy ishlar, qay shaklda olib borilmasin, eng avvalo, tarbiyaviy xarakter kasb etadi. Tarbiya jarayonining negizini o'smirlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safidagi xizmatga tayyorlik, kichik yoshdagi o'g'il bolalarda esa armiya, uning an'analari va shu kabilarga hurmat hissini tarbiyalashdan iborat.

Mudofaa ommaviy xarakteridagi har qanday tadbir o'zida ta'lim elementlarini mujassamlashtirmog'i kerak. Masalan, "Mohir mergan", "Yosh o'qchi", "Snayper", "Yosh texnik"

190 kabi to'garaklarni tashkil etish birdan-bir maqsad emas. O'smirni otishga o'rgatar ekan, tarbiyachi buning nima uchun kerakligini, ya'ni zarur bo'lganda Vatan manfaatlarini qo'lda qurol bilan himoya qilish, buning uchun esa jangchi aniq otishi, dushmani qiyratishi zarurligini tushuntirish lozim.

Tarbiya - uzoq va murakkab jarayon. Uni faqat to'garaklar ishi doirasida hal etib bo'lmaydi, albatta, tarbiya elementi barcha mashg'ulotlarga singdirilishi, biroq mudofaa-ommaviy xarakteridagi tadbirlarda unga birinchi darajali ahamiyat berilishi lozim, zero bu o'rinda tarbiyalanuvchiga ta'sir etish uchun keng faoliyat maydoni ochiladi.

Har qanday mudofaa-ommaviy tadbirga yakun yasar ekan, "tarbiya maqsadiga qanday erishildi?" va "mashg'ulot o'quvchi qalbida qanday iz qoldirdi" degan savollarga javob bo'lmog'i kerak. Albatta, birgina to'garakdagi mashg'uloti bilan bu masalalar kompleksini hal etib bo'lmaydi, o'z oldiga bunday maqsad qo'yish ham noto'g'ri, lekin barcha ijobiy holatlarni misqollab to'lash, tahlil qilish, umumlashtirish, tarbiya jarayoniga tatbiq, etish zarur.

Yaxshi yo'lga qo'yilgan ish nafaqat mashg'ulotlarda egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash va amalda qo'llash, balki o'smirlarda yuksak ma'naviy-axloqiy va jangovar sifatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Harbiy rahbar bu ishni ChXT bo'limlari bo'yicha olib borish va tashkil etish uchun bevosita javobgar. U haqiqiy tarbiyachi, yetakchi bo'lishi, bolalar va pedagogik jamoa orasida hurmatga ega bo'lishi zarur. Faqat shundagina u o'quvchilar bilan muloqot o'rnatadi.

Sinfdan tashqari barcha mudofaa-ommaviy ishlar o'quv yili boshlanishga qadar rejalashtiriladi. U butun pedagogik jamoa, "Vatanparvar" qo'mitasining faol ishtirokida amalga oshiriladi. Bu ish mazmuni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va mudofaa ommaviy ishlar kompleks rejasida aks etadi. U sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi tomonidan tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi, pedagogik kengashda muhokama qilinadi.

Muhokama va natijalar. *Harbiy ish asoslari bo'yicha to'garaklar tashkil etishda harbiy rahbarning majburiyatlari va roli, ish metodlari hamda shakllari.* Harbiy-texnik to'garak o'smirlarida texnikaga harbiy mavzuda tadqiqot ishlarini, loyihalashtirish, texnik vositalariga xizmat ko'rsatish va shu kabilar qiziqish uyg'otadi, ya'ni Qurolli Kuchlar safiga mutaxassislar tayyorlash uchun imkoniyat yaratadi. Ta'lim muassasalarida radio havaskorlikni loyihalashtirish, karting, yosh avtomodelchi, motosportning boshlang'ich shakllari, harbiy-

amaliy uchkurash va boshqa harbiy-texnik sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etishga alohida e'tibor berish lozim, zero ular o'quvchilardan ma'lum texnik bilim, malaka va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Bu to'garaklar uchun moddiy-texnik mablag'lar va imkoniyat yaratilishiga erishmoq zarur.

Harbiy rahbar, "Vatanparvar" MKT qo'mitasi u yoki bu to'garakni tashkil etishda tashbuskor bo'lishi lozim. To'garaklarga ishtirok etishni istagan o'quvchilar 10 tadan guruh bo'lib, to'garakni tashkil etiladi. Biroq yodda tutish lozimki "Vatanparvar" MKT qo'mitasi hatto imkoniyat mavjud bo'lganida ham ta'lim muassasasi qarori va ishtirokisiz hech bir to'garakni tashkil eta olmaydi, zero u ma'muriy funksiyalarga ega emas. "Vatanparvar" MKT qo'mitalari mustaqil emas, balki ma'muriyat yordamchisi sifatida faoliyat ko'rastadi. Shu bois to'garaklar "Vatanparvar" MKT emas, maktab to'garaklari deb yuritiladi. Bu bilan to'garaklarning ta'lim muassasasiga huquqiy qarashligi ta'kidlanganday bo'ladi.

Harbiy rahbar o'q otish va harbiy texnik to'garaklar ishini tashkil qiladi va yo'naltiradi, mashg'ulotlarni olib borish uchun fan (ko'proq texnologiya va fizika) o'qituvchilari, ota-onalar, muhandislar, texniklar, harbiy ofitser va serjantlari, to'garaklarda uzoq yillar muvaffaqiyatli ishtirok etib kelgan yuqori sinf o'quvchilarini jalb qiladi va o'zi, albatta, bir yoki bir necha to'garak mashg'ulotlarini olib boradi. Ta'lim muassasalarida, ayniqsa, o'q otish, texnik modellashtirish, avtomotosport, radio ishi kabi to'garaklar katta qiziqish uyg'otadi. Bu to'garaklar harbiy qismlar tomonidan moddiy yordam yaxshi tashkil etilgan, moddiy bazani yaratish va ta'minlashda nafaqat boshlang'ich, balki tuman va "Vatanparvar" MKT qo'mitasi faol qatnashgan ta'lim muassasalarida ko'proq faoliyat yuritadi. Ko'plab "Vatanparvar" MKT boshlang'ich tashkilotlarida o'quvchilarni tayyorlash dasturlari to'garaklar uchun tuzilgan. Ular asosida ta'lim va maktabdan tashqari muassasalar uchun mudofa-sport to'garaklari namunaviy dasturlari yotadi. Masalan: "Yosh o'qchi" to'garagiga 10-13 yoshdagi o'quvchilar qabul qilinib, dasturga muvofiq ular 10-12 kishilik o'quv guruhlarga birlashtiriladi.

Mashg'ulotlar olib borish uchun jamoatchi instruktor o'qotlar va murabbiylar, zaxiradagi ofitser va serjantlar, razryadli o'qchilar, harbiy rahbarlar va jismoniy tarbiya o'qituvchilari jalb etiladi. Buning uchun ular o'q otishga o'rgatish metodikasi va o'q otish texnikasi bo'yicha seminarlarda tayyorgarliklar o'tkaziladi. Barcha o'quv otishlari instruktor (murabbiy)lar rahbarligida dasturga qat'iy muvofiq tarzda va

xavfsizlik choralari amal qilinib o'tkaziladi. O'q otish pnevmatik miltiqdan olib boriladi. 14 yosh va undan katta o'quvchilar "Mohir mergan" to'garagida shug'ullanishlari mumkin. Asosan, kichik kalibrli miltiqdan otiladi. Ta'lim to'garak a'zosi musobaqalarda "Salomatlik" jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish kompleksi me'yorlarini bajarganida tugallangan hisoblanadi.

Musobaqa o'tkazish uchun kamida uch kishilik hakamlar hay'ati tuziladi, uning tarkibida tegishli toifaga ega bo'lgan hakam kiritilishi shart. Ta'lim muassasalarida, shuningdek, 4 yillik dastur bo'yicha shug'ullangan razryadchi-sportchilar tayyorlash to'garaklari tashkil qilinishi mumkin. Bu to'garaklarda shug'ullanishni istovchilar ota-onalari ta'lim muassasasi direktori va vrach ruxsatiga (yozma roziligiga) ega bo'lishi shart. To'garak a'zosi amaliy otishga faqat qurol bilan muomala qilishni o'rgangan, "Otishlar davrida tir va otish joylarida o'zini tutish yuriqnomasi"ni o'zlashtirgach va daftarga bu yo'riqnomasini bilishi to'g'risida shaxsan imzo chekkach qo'yiladi. O'z navbatida, o'qituvchi bu yo'riqnomani o'tkazganini imzosi bilan tasdiqlaydi.

Ta'limning birinchi yilida o'smirlar razryadlari bo'yicha sportchilar tayyorlanadi. Ikkinchi yili - III razryad; uchinchi yili - II razryad; to'rtinchi yili - I razryad sportchilari tayyorlash amalga oshiriladi. O'quv yili oxirida (birinchi yil mustasno) "tir va otish joylarida o'zini tutish yuriqnomasi"si bo'yicha yaxshi bilimni namoyish etgan va III sport razryadiga ega bo'lgan sportchilarga "Sport bo'yicha hakam" unvoni berilishi mumkin.

Bu unvonga da'vogar o'quvchilar butun nazariy ko'rikni: kichik kalibrli miltiqning tuzilishi; aniq o'q otish texnikasi asoslari; musobaqa qoidalarini bilishlari, shuningdek, murabbiy ko'rsatgan mavzulardan biri bo'yicha nazariy mashg'ulot o'tkaza olishi kerak. To'garaklarning namunaviy dasturlari o'quvchilarni har tomonlama tayyorlash maqsadini ko'zda tutadi, nazariy tayyorgarlikdan tashqari, texnik, jismoniy, psixologik va taktik tayyorgarlikni qamrab oladi. To'garaklarda ta'lim jarayonida tarbiyaviy vazifalar ham hal etiladi. To'garak rahbari qatnashchilarda mehnatga halol munosabatni tarbiyalaydi, ularda uyushqoqlik va intizom, kattalarga hurmatni shakllantiradi. To'garakda tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatining zaruriy sharti, mashg'ulotlarni aniq tashkil etish, rahbarning yuqori talabchanligi, mashg'ulotlar, ta'lim muassasasi va hayotda o'zini tutish me'yorlariga amal qilishdir.

To'garak rahbari o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha o'zlashtirishning muntazam kuzatib borishi, sinf rahbari va ota-onalari bilan

muloqotda bo'lishi zarur. Namunaviy dasturlar, shuningdek, radiosport, yosh o't uchiruvchilar, yosh kinologlar to'garaklari uchun ham tuzilgan. Mudofaa va harbiy-texnik to'garaklar ishini tegishli o'quv fanlari dasturini o'rganish bilan bog'lash, o'quvchilarga ular bilgan tayyorlanayotgan modellar tuzilishi va ishlashi, kichik o'lchamli mashinalar, radioasboblarning tuzilishi asosida yotgan qonunlarni eslatib borish zarur. To'garak a'zolari amaliy ishlarini harbiy ish bilan bog'lab, u yoki bu ilmiy qonun va qonuniyatlar harbiy texnikada qachon va qanday qo'llanishini ko'rsatib borish lozim. Har qanday to'garak bo'lg'usi jangchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun keng imkoniyatlarga ega. Mashhur kishilar hayoti Shiroq, Spitamen, Abruy, Mo'qanna kabi ozodlik uchun kurashgan kurashchilar, Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalar, II jahon urushining o'zbekistonlik qahramonlari jasratlari yoshlarda oldlaridagi maqsadga erishish yulida saboq va qat'iyat, fuqarolik burchi - Vatan himoyasiga intilishning yorqin misollar bo'la oladi.

To'garak ishlarini tashkil etayotib yodda tutish zarurki, uning muvaffaqiyati amaliy yo'nalganlik va natijalik, shug'ullanuvchilarga u yoki bu harbiy mutaxassislik bo'yicha turli bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashuvchi turli metodlar bilan shug'ullanadi. Har yili to'garak ishlariga yakun yasab, o'quvchilar texnik ijodkorligi ko'rgazmalari tashkil etiladi, ularning ayrim ishlari namoyish qilinadi.

Xulosa. Shunday qilib, to'garaklarning asosiy vazifalarini ta'riflash mumkin:

a) "Vatanparvar" MKT a'zolari to'garak qatnashchilarning mudofaa-ommaviy ishlarda faol ishtirokini ta'minlash, ularni vatanparvarlik, halqaro totuvlik, Vatan himoyasiga doimiy tayyorgarlik, O'R QKga muhabbat ruhida tarbiyalash; yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini olib borish;

b) xalq qahramonlik an'analari keng targ'ib qilish "Vatanparvar" MKT maqsadlari, vazifalari, faoliyatini tushuntirish, davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga zaruratini tushuntirish;

d) yoshlarni O'R QK bugungi holati, qo'shin turlari; avtomobil, motosikl, radiostansiya qurilishi va vazifasi, elektr-radiotexnika, modellashtirish va loyihalashtirish asoslari bilan tanishtirish.

To'garak mashg'ulotlari darsdan bo'sh paytlarda "Vatanparvar" MKT tasdiqlagan dasturlar bo'yicha xavfsizlik qoidalariga amal qilib olib boriladi. Xavfsizlik choralari o'q otish musobaqalari va turli otishlarni o'tkazishda katta e'tibor beriladi. Otish paytida xavfsizlik uni aniq tashkil qilish, yo'riqnomalarga qat'iy amal qilish hisobiga ta'minlanadi.

192

Qurolni o'qlashga faqat otish joyida "O't och" signalidan so'ng ruxsat etiladi. O'qlashdan avval stvolda begona narsalar yo'qligiga ishonch hosil qilish zarur.

O'q otish otuvchi tomonidan mustaqil yoki buyruq bo'yicha otish maydonida odamlar, hayvonlar, mashinalar; otish rayoni uzra pastlab uchayotgan samolyot va vertolyotlar paydo bo'lganida; otish oqibatida yong'in chiqqanida, otuvchi mo'ljalni yo'qotgan to'xtatilishi shart. Otishni to'xtatish uchun maxsus (otboy) sigali beriladi va qizil bayroq o'rniga oq bayroq qadaladi yoki "to'xta, otish tugatilsin" buyrug'i beriladi.

Qat'iy ta'qiqlanadi:

a) qurolni o't och signali va otish rahbari buyrug'isiz o'qlash;

b) qurolni odamlar, yon atrof va otish joyi ichiga, o'qlangan-o'qlanmaganidan qat'iy nazar qaratish;

d) nosoz quroldan, nosoz o'q-dori va pana joyda oq bayroq ko'tarilganda o't ochish va uni davom ettirish;

e) o'qlangan qurolni qayerda bo'lmasin qoldirish yoki boshqa shaxsga rahbar buyrug'isiz berish.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: "O'zbekiston", 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", 2017.
5. Satib-Aldiyev Q. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. -T., 2003. -67 bet.
6. Sa'dullayev M.Y. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuv// Metodik qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2009. -91 bet.
7. Mamurov U.I. Harbiy qismda tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: "Fan" nashriyoti, 2008. -94 bet.

Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
xalqaro ilmiy-metodik jurnali
barcha ta'lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar chop etiladi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti

Tahririyat rekviztlari:

«Sadriddin Salim Buxoriy» MCHJ
Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
P/c 20208000104858465002
Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
ИНН 301637939 ОКНХ 87100

<p>PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA</p> <p>Xalqaro ilmiy-metodik jurnal</p> <p>2022-yil 1-son (1)</p> <p>2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>Нашр индекси: 1397</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 22.09.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 27.09.2022 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 24,2 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 510 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p>
--	--	--